



# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2019-yil, 4-son (116) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR  
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor  
H.A. XUSHVAQTOV, f.-m.f.n., dotsent  
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O'zFA akademigi	A. A. ABULQOSIMOV	- geogr.f.d., professor
T. M. MO'MINOV	- O'zFA akademigi	J. D. ELTAZAROV	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O'zFA akademigi	D. I. SALOHIY	- fil.f.d., professor
S.N. LAKAYEV	- O'zFA akademigi	S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O'zFA akademigi	T. SH. SHIRINOV	- tar.f.d., professor
S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi	M.D.DJURAKULOV	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	I. M. SAIDOV	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEYEV	- f.-m.f.d., professor	B. O. TO'RAYEV	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	O.M. G'AYBULLAYEV	- fals.f.d., professor
B. X. XO'JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	J.YA.YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f. d., professor	M. Q. QURONOV	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	X. I. IBRAGIMOV	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	N. SH. SHODIYEV	- ped.f.d., professor
J. X. XO'JAYEV	- b.f.d., professor	E. G' G'OZIYEV	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	SH. R. BARATOV	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	B. Q. QODIROV	- psixol.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	B. X. TO'RAYEV	- i.f.d., professor

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - 5583,  
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

## MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
<b>I.I.Sulaymonov</b>	Zahiriddin Muhammad Boburning Naqshbandiya tariqatiga munosabati	4
<b>U.S.Sanaqulov, F.X. Nurmonov</b>	Qipchoq etnonimi va uning manbalardagi talqini	9
<b>B.N.Turniyazov</b>	Morfologik kauzatsiya haqida	13
<b>B.F.Xolmuxamedov</b>	Leksemalashuv hodisasi va uning lingvistik tadqiqi	20
<b>H.H.Очилова</b>	Особенности словообразовательной антонимии в русском языке	23
<b>M.Ubaydullayeva</b>	Metafora va uning tasviriy vositalarga munosabati	26
<b>B.M.Suvankulov</b>	Latifada metafora ( istiora)	29
<b>H.A.Мавлонова</b>	Смешанные группы межъязыковых фразеологических соответствий	31
<b>Ш.Г.Темирова, Н.Ш.Юсупова</b>	Творческие и педагогические аспекты подготовки студентов к самостоятельному обучению	34
<b>S.T.Xudoyorova</b>	Ingliz va o'zbek tillaridagi tarixiy voqealarni aks ettiruvchi frazeologik birliklarning semantik mohiyati	37
<b>И.Г.Ткебучава, Н.Юнусова</b>	Замечания о месте пословиц и поговорок в словарях русского языка XX века	40
<b>З.Ч.Раджабова</b>	О некоторых неологизмах в сфере музыки	43
<b>M. Jo'rayev</b>	O'zbek folklorida momaqaldiraq bilan bog'liq astromifologik syujetlar	47
<b>A.Q.Sobirov</b>	So'z tartibining kommunikativ, sintaktik va uslubiy vazifalari	53
<b>A.A.Axrorov</b>	Rost va yolg'on so'zlamog haqida xalq maqollari sharhi	57
<b>Sh.Nurova</b>	Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsligi haqida ayrim mulohazalar	60
<b>Z.M.Boynazarov</b>	Olamning kontseptual hamda lisoniy manzarasi tushunchalarining talqini haqida	64
<b>C.C.Хамдамова</b>	Поэзия и музыка в оценке Фурката	69
<b>T.Ismailov</b>	Angliya hayotini tavsiflovchi milliy fikrlar olamining lisoniy manzarasi	74
<b>E. Musurmanov</b>	Konfutsiy adabiy qarashlari va ilk Xitoy adabiyotning vujudga kelishi	77
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
<b>F.Sh.Axmedov, R.R.Badayev</b>	Dzyudochilar musobaqa faoliyatida hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar	80
<b>M.B.Рахимкулова</b>	О инновационных уроках в современной школе	83
<b>A.N. Abdullayev, B.I. Usmonov</b>	Ta'limning axborotlashuvi va AKTdan foydalanishga doir tendensiyalar	86
<b>R.A.Qosimova, Z.B.Boltayev</b>	Sportda yuqori mahoratga erishish uchun eng ma'qul yoshning ahamiyati	89
<b>P.Qahhorov</b>	Tarixiy bilimni o'rganishga doir pozitivistik va epistemologik yondashuvlar tahlili	92
<b>B.I.Muranov, E.R.Shavqiyev</b>	Yuksak malakali tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash zamon talabi	98
<b>Ш.Б.Ахмедова</b>	Инновационные подходы к организации учебного процесса в вузе	101
<b>И.Гаджиев</b>	Вопросы интеграции в процессе изобразительной деятельности	105
<b>S.B.Muranov</b>	Markaziy Osiyoda hunarmandchilik va amaliy san'atning rivojlanish tarixi	110
<b>M.X. Baybayeva</b>	Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishdagi samarali boshqaruv usullari	113
<b>U.M.Rasulov</b>	Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – demokratik taraqqiyot garovi	117
<b>T.J.Oqnazarov</b>	O'qituvchining virtual texnologiyalari sohasidagi kompetentligi tushunchasi mohiyati va mazmuni	121
<b>З.Каршиева</b>	Внедрение инновационных технологий в дошкольном образовании	124

<b>A.A.Raximov</b>	Talaba shaxsini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'rni va vazifalari	127
<b>U.S. Dusanov</b>	Talabalarning jismoniy tarbiyasida sport va sog'liqni saqlash turizmi	132
<b>PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY</b>		
<b>N.Nasimova, A.Raximov</b>	Shaxsning irodaviy sifatleri va klassifikatsiyasi	136
<b>F.X.Kuchkarova</b>	Jamoatchilik nazoratining sotsial-psixologik mexanizmlari	138
<b>M. I. Salaxutdinova</b>	Iste'molchini idrok etishda psixologik komponentlar	143
<b>UNIVERSITET HAYOTIDAN</b>		
<b>S. Sultonsaidova</b>	Ajdodlarimizning ta'lim olish usullari hamisha zamonaviy va ibratlidir	149
<b>Mualliflarga</b>		

UDK: 891.709

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING  
NAQSHBANDIYA TARIQATIGA MUNOSABATI****I.I.Sulaymonov***Samarqand davlat universiteti  
isroil-8103@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada naqshbandiya tariqati, mazkur tariqatning Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiy faoliyatida tutgan o'rnini, Boburning bu tariqatga bo'lgan munosabati kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** naqshbandiya tariqati, g'oyasi, maslagi, tariqat vakillari.

**Отношение Захириддина Мухаммада Бабура к накшбандия**

**Аннотация.** В статье рассматривается тарикат накшбандия (путь духовного совершенствования), роль этого тариката в жизнедеятельности Захириддина Мухаммада Бабура и его взгляды к этому учению.

**Ключевые слова:** тарикат накшбандия, идея и убеждения, представители тариката.

**Attitude of Zakhiriddin Muhammad Babur to the nakshbandia**

**Abstract.** The article is about nakshbandia tariqah (path of spiritual perfection), the position of this tariqah in Bobur's life's path, his attitude to this tariqah.

**Keywords:** Nakshbandia tariqah, idea, representatives.

XV asr oxiri XVI asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosonda juda ham jiddiy va tahlikali vaziyat yuzaga kelgan edi. Sababi temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun o'zaro kurash, amir-u beklarning ichki nizolari, Movarounnahrda Shayboniyxonning, Xurosonda safaviylarning mavqei oshib, kurashlari avj olgan bir holat edi. Bularning barchasi temuriylar saltanatiga tahdid solishi, siyosiy hayotda esa parokandalikni keltirib chiqarishi, tabiiy edi. Bu tartibsizliklar ichida nisbiy tartib o'rnatish uchun adolat va qonunlar ustuvorligini ta'minlovchi, parokandalikni tartibga soluvchi bir harakat lozim edi.

Xuddi shu davrda Movarounnahr va Xurosonda Bahouddin Naqshband asoslagan xojagon tariqatining naqshbandiya suluki jamiyatning ma'naviy hayotida juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib maydonga chiqadi. Bu tariqat xalq o'rtasida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, davlat va jamiyatni obod, farovon etish, adolat va qonunlar ustuvorligini ta'minlash kabi umuminsoniy masalalarni o'zining asosiy dastur etib belgilagan edi. Shuningdek, behuda qon to'kilishi, o'zaro nizolarni bartaraf etish, dehqonchilik, hunarmandchilikni rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirish va komil insonni tarbiyalash ushbu tariqatning asosiy tamoyillaridan sanalardi. Bu tariqat vakillarining mavqei ushbu hududlarda shu qadar kuchli ediki, hatto siyosiy jarayonlarda hukmdorlarga ta'sir ko'rsata olish darajasida edi. Ma'lum bir hukmdorning taxtni egallashi, biror bir kurashda g'oliblik yoki mag'lublikka erishishida ham naqshbandiya tariqati tarafdorlarining ta'sirini sezish mumkin edi. Bu jihatdan Xoja Ubaydulloh – Xoja Ahrori Vali faoliyati alohida mavqeiga ega edi. Buni «Boburnoma»da tasvir etilgan Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzoning hayotiy faoliyati misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Naqshbandiya tariqatining mohiyatini tashkil etuvchi «dil ba yor-u dast ba kor» (ko'ngilda yoru qo'l ishda) shiori inson o'zini o'zi anglab yetishi, iste'dodini namoyon eta olishi, yaratuvchanlik, bunyodkorlikka yo'naltirish asosiy maslagi edi. Shu omillar sabab bu davrda adabiyot, madaniyat, san'at, ilm-fan, hunarmandchilik ancha taraqqiy etdi, jamiyatda hurfikrlilik hukm surdi.

Jamiyat ma'naviy hayotida yuz bergan bu kabi ijobiy o'zgarishlarda aytib o'tilganidek, naqshbandiya tariqati vakillarining faol ishtiroki, din peshvolari va tasavvuf allomalarining ham samarali ta'siri mavjuddir. Zotan, «tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bordi; fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanganlar» [6;4].

Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatida ham naqshbandiya tariqat va uning vakillari ta'siri juda katta bo'ldi. Uning hokimiyat ishlarida, davlat qurilishida, raqiblari bilan bo'lgan kurashlarida, ma'naviy hayotida, hatto shaxsiy hayotida ham bu ta'sirni ko'rishimiz mumkin. Bobur «Boburnoma»ning juda ko'p o'rinlarida naqshbandiya tariqati vakillari, shayxlar va ulamolar haqida to'xtalib, ularning o'z hayotiy faoliyatida aloqadorlik jihatariga urg'u beradi. Jumladan, «Boburnoma»da tasvirlangan Xoja Ubaydulloh – Xoja Ahrori Vali, Xoja Yahyo, Xoja Ya'qub, Maxdumi A'zam Kosoniy Dahbediy, Mavlonoyi Qozi Abdulloh, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabilarni bevosita o'zining piri-ustozlari, tarbiyachilari sifatida e'tirof etsa, Imom Buxoriy, Shayx Moturidiy, Shayx Hoji Muhammad Xabushoniy, Shayx Burhoniddin Qilich kabilarni ma'naviy pirlari sifatida tilga oladi. Bobur davlat boshqaruvida ularning shar'iy yo'l-yo'riqlaridan oqilona foydalansa, jang va kurashlarda o'ziga g'oliblik muyassar bo'lishi uchun ularning ma'naviy madadidan, qo'llab-quvvatlashidan umid qiladi.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa umri davomida davlatdorlik, hukmdorlik faoliyatida, ijodiy faoliyatida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Boburning davlat ishlarini boshqarishida, hokimiyatni mustahkamlashida, harbiy sohada va boshqalarda unga ustozlik qilgan, to'g'ri maslahatlar, yo'l yo'riqlar ko'rsatib turgan sodiq, ishonchli kishilar ko'magi katta bo'lgan. Boburning ko'plab janglarda g'olib bo'lishiga, viloyat olmog'ida, mamlakat saqlamog'ida va buyuk imperiya tuzmog'ida bu siymolarning ham hissasi borligini o'zi ko'p bor ta'kidlaydi.

Boburning e'tiqodi shakllanishida, mustahkam iroda va qat'iyatli bo'lib yetishishida u kamolga yetgan oilaviy muhit, bolalikdagi tarbiyachilari, piru ustozlarining xizmati beqiyos bo'lgan. U ko'plab fozil ulamolardan ta'lim tarbiya olib, arab va fors tillarini mukammal o'rgandi. Shuning natijasida u e'tiqodli, sabr matonatli, rahm shafqatli shaxs bo'lib yetishdi. Uning ma'naviy g'olibligini ta'minlashda bu jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Albatta, shaxsning kamolga yetishida oilaviy muhitning ta'siri katta bo'ladi. Bobur tug'ilib o'sgan muhit temuriylar xonadoniga mansub, taqvodor va e'tiqodda sobit oila edi. Uning otasi Umarshayx Mirzo savodli kishi bo'lib, Qur'on tilovat qilgan. Bu haqda Bobur shunday yozadi: «Hanafiy mazhabliq, pokiza e'tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilar edi. Hazrati Xoja Ubaydullog'a irodati bor edi, suhbatlarig'a bisyor musharraf bo'lub edi, hazrat Xoja ham farzand deb edilar. Ravon savodi bor edi. «Xamsatayn» va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o'qub erdi. Aksar «Shohnoma» o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi» [3;37]. Demak, Umarshayx mirzo pokiza e'tiqodli, taqvodor kishi bo'lgan, Xoja Ahror Vali unga piri-ustozlik maqomida bo'lgan, uni farzand qatorida ko'rgan. Bobur tug'ilganida Xoja Ahror unga «Zahiriddin Muhammad» deb ism qo'yadi, uning iqbol yulduzi baland bo'lishini tilab duo qiladi.

Umarshayx mirzoning hayotda adolatli, halol va pokiza kishi bo'lganligi haqida ko'plab ma'lumotlar bor. Jumladan, bir safar ko'chmanchi o'zbeklar Samarqand atrofidagi qishloqlarga hujum qiladi va aholining mol-mulkini talab, odamlarni asir qilib Turkiston tomonga ketayotganida Umarshayx mirzo ularning ortida quvib, muz qoplagan Aris daryosidan o'tib bosqinchilarga zarba beradi, talangan mollarni egalariga qaytaradi, asirlarni ozod etadi. Bobur otasining bu xislatini juda yuqori baholaydi: «Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag'i saxovatcha bor edi, xushxulq va xarrof va fasih va shirin zabon kishi erdi, shujo' va mardona kishi edi» [3;37]. Umarshayx mirzo bu xizmati uchun ulardan hech narsa olmaydi, bu uning imoni kuchli, e'tiqodi mustahkam, mislsiz adolatligidan, olihimmatligidan bir misol. Bu xislatlar, albatta, ortig'i bilan Boburga ham ko'chgan, biz bunga «Boburnoma»da juda ko'p bor guvohi bo'lamiz.

Umarshayx mirzo bilan bog'liq bo'lgan yana bir voqeaga e'tibor bersak, bir yil qish faslida Xitoydan katta karvon Andijon tog'larida qor ko'chkisiga duch keladi. Karvonda bo'lgan mingga yaqin kishidan faqat ikkitasi omon qolib, qolganlar ko'chki ostida qolib ketadi. Bundan xabar topgan Umarshayx maxsus odamlarini yuborib karvondagi mollarni o'g'ri qaroqchilardan himoya qildirgan. Bu haqda Bobur shunday ma'lumot beradi: «Adolati bu martabada ediki, Xitoy korvoni keladurganda Andijonning sharqiy tarafidagi tog'larning tubida ming uyuk korvonni andog' qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muxassillar yiborib, korvonning jami' jihatini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo'q erdi, bovujudi ehtiyot saxlab, bir-ikki yildin so'ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarni solim topshurdi» [3;37]. Keyinroq karvon egalarini toptirish uchun Samarqand, Hirotga odamlarini yuboradi va ularni topib mollarni qaytarib beradi. Shunda ham bu karvon mollaridan o'ziga hech narsa ta'ma qilmaydi. Bobur mana shunday e'tiqodli kishining o'g'li

edi, uning yaratganga iymoni mustahkam, e'tiqodi sof, oqko'ngil bo'lib voyaga yetishida oilaviy muhitning, ayniqsa Umarshayx mirzoning ta'siri beqiyos bo'lgan.

Umarshayx mirzoning tasodifiy o'limidan so'ng, uning barcha vazifalari yosh Bobur boshiga tushadi. Bobur «Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning sharofati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldim» [3;34]. Shu tariqa o'ta murakkab va tahlilali bir sharoitda Bobur taxtga o'tiradi. Umarshayx mirzo vafot etgan o'sha seshanba kuniyoq nufuzi ancha yuqori bo'lgan ayol Esan Davlat begim boshliq amaldorlar vafqulodda mashvarat o'tkazishadi: «xotunlar orasida ra'y va tadbirda mening ulug' onam Esan Davlatbegimcha kam bo'lg'ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi» [3;47]. Bu majlisda, albatta taxt vorisi masalasi ko'rilgan bo'lishi kerak, chunki bu haqda ma'lumot bergan Gulbadanbegim shunday yozadi: «o'sha kuniyoq Farg'ona viloyatining poytaxti Andijon shahrida u kishi (ya'ni Bobur) nomiga xutba o'qilgan. Go'dak, ammo ziyrak Zahiriddin Muhammadning davlat faoliyati ana shunday o'ta murakkab va behalovat tarixiy sharoitda boshlandi» [2;3]. Shuni ta'kidlash kerakki, Boburning taxtga chiqishi osonlikcha yuz bermaydi, turli qarama-qarshiliklar, fitnalar ham sodir bo'ladi, ammo bularga qaramay Umarshayx mirzoning sodiq kishilari va Eson Davlat Begimning oqilona tadbiri bois barchasi xayrli bo'ladi. «Shu kutilmagan voqealar yosh Bobur hayotida darbadarlikka, sarson-sargardonlikka sabab bo'ldi. Bir tomondan u qonuniy podshoh, taxt vorisi, ikkinchi tomondan hozircha taxtga ega emas. Boburning ma'naviy chiniqishi, ruhiy barkamolligi, insonlar fe'li-atvoridagi zohiriy va botiniy ko'rinishlarga jiddiy e'tibori va ularni farqlay olishdek o'ta nozik qobiliyat ham mana shu sarson-sargardonlikning boshlanishidan nish berib yildan yilga mustahkamlanib bordi» [5;70].

Yosh Boburning ushbu tahlilali kunlarida har tomonlama qo'llab quvvatlagan, unga to'g'ri yo'l ko'rsatib maslahatlar berib turgan shaxs uning yoshlikdagi piri-ustozi Xoja Mavlonoyi Qozi Abdulloh bo'ladi. Bu shaxs «...islom tarixidagi dastlabki to'rt xalifa («chahoryor»lar) avlodlaridan Shayx Burhoniddin Qilich naslidan bo'lib, temuriylarning Farg'ona mulkida pir-ustozi sifatida shuhrat qozongan» [4;105]. Bobur bu zoti sharif haqida shunday ma'lumot beradi: «Xoja Mavlonoyi qozikim, Sulton Ahmad qozining o'g'li Shayx Burhoniddin Qilichning naslidur, ona tarafidin Sulton Ilik Moziyig'a etar, bularning xonvodalari ul viloyatta marji' va shayxulislom yo'sunluq bo'la kelgandur...» [3;42]. Xoja Mavlonoyi Qozining bobosi Shayx Burhoniddin Qilich mashhur shayx, XI asrlarda yashab o'tgan, sayyidlar avlodidan bo'lib, ona tomonidan Ilakxonlardan bo'lgan. Uning shuhrati O'rta Osiyoda ancha yuqori bo'lgan. Uning «Qilich» laqabini olishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud, ba'zilarida aytilishicha, u o'ziga yog'ochdan qilich yasab oladi va bu qilichi po'lat qilichday juda ham keskir bo'lgan.

Xoja Mavlonoyi Qozi Xoja Ahror Valining shogirdlaridan «Xoja Qozi hazrati Xoja Ubaydullohning muridi edi. Alardin tarbiyat topib edi» [3;64]. Mana shu ulug' mutasavvuf zot Boburning tarbiyachisi, piri-ustozi bo'lish bilan birga, uning davlat ishlaridagi dono maslahatchisi ham edi. Boburning ilk bor taxtga chiqishida ham bu shaxsning xizmatlari katta bo'ladi: «Xoja Mavlonoyi Qozi va beklar mening qoshimg'a kelib, so'z va kengashni bir yerga qo'yib, qo'rg'onning burj va borusini zabt va rabtig'a mashg'ul bo'ldilar» [3;42]. Bobur taxtga chiqqan dastlabki yillarida bir gal dushman qurshovida qolib ketadi va xalq ochlikdan ko'p aziyat chekadi. Shu paytda piri Xoja Mavlonoyi Qozi Boburga yordam bo'lishi uchun o'n sakkiz mingta qo'y so'yib qamaldagilarga tarqatadi. Boburning eng ishonchli kishilaridan biri o'laroq bir necha bor elchilik vazifalarini ham bajaradi. Samarqandni birinchi bor egallaganda u Boburning yonida birga bo'lib, yosh shahzodaning g'olibligida unga ham moddiy, ham ma'naviy madadkor bo'lib turadi. Afsuski, Boburning bu piri ustoz taqdiri fojiali yakun topadi. Ahmad Tanbal va Uzun Hasanlar Andijonni qo'lga kiritgach, Xoja Mavlonoyi Qozini Boburning eng yaqin kishilaridan biri sifatida ark darvozasiga osib o'ldirishadi: «Andijonni olg'ondin so'ng mening Xo'jand kelganimni eshitib, Xoja Mavlonoyi Qozini ark darvozasida osib shahid qildilar». Bobur o'zining zafarlarida bu zotning xizmatlari juda katta bo'lganini ta'kidlab o'tadi. Mavlonoyi Qozining barcha xislatlarini tasvirlar ekan, uni valiy sifatida e'tirof etadi: «Xoja Qozining valiligida mening hech shakkim yo'qtur. Qaysi ish valoyatqa mundin yaxshiroq, dalildurkim, alarg'a qasd qilg'onlardan oz fursatta osor va alomat qolmadi. Xoja Qozi ajab kishi edi. Qo'rqish anda aslo yo'q edi. Oncha daler kishi ko'rulgan emas» [3;64]. Bobur Xoja Qozining valiyiliga asos sifatida uning qatl etganlar ham qisqa muddatda yo'q qilinganini misol keltiradi.

Bobur ulg'ayib voyaga yetgach, o'ziga pir sifatida Said Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy – «Maxdumi A'zam» nomi bilan mashhur bo'lgan shaxsni tanlaydi. Maxdumi A'zam «Bahouddin Naqshband sulukining Farg'onadagi yirik vakili, ulug' mutasavvuf olim, asli hazrati Ali va Bibi Fotima avlodlaridan edi. U kishi o'z hayotida 30 ga yaqin asar yozgani ma'lum» [3;106]. Bobur mana shunday ulug' pirdan ma'naviy madad oladi, har bir ishida undan g'oyibona ko'mak o'tinadi, unga chin e'tiqod bilan topinadi. Ma'lumki, Bobur og'ir xastalik arafasida Xoja Ahror Valining «Volidiya» asarini tarjima qiladi. Mana shu asar tarjimasidan o'zining piri ustoz Maxdumi A'zam Kosoniy Dahbediyga ham sovg'a qilib yuboradi. O'z navbatida Maxdumi A'zam ham Boburga atab «Risolai Boburiya» asarini yozadi [9;15]. Demak, Boburning e'tiqodi kamol topishida, mustahkam iymonli bo'lib shakllanishida va hukmdor sifatida foh bo'lishida hazrati Maxdumi A'zam Dahbediyning ma'naviy ko'magi, ruhan madadi katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bobur o'zining hayotiy faoliyati davomida temuriylar saltanati an'alariga qat'iy amal qilgan holda o'z davlatini idora etadi. U e'tiqodi masalasida ham bu an'alarda sobit qoldi, otasi Umarshayx mirzo yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiga ixlos qo'ydi. Demak, Boburning ilk rasmiy piri Xoja Mavlono Qozi bo'lsa, ma'naviy murshidi Xoja Ubaydulloh Ahrori Vali sanaladi. Bobur ismining qo'yilishi ham ushbu shaxs nomi bilan bog'liq. Umarshayx mirzoning iltimosiga binoan ul zot Boburga «Zahiriddin Muhammad» deb ism qo'yadi. Bobur Umarshayx mirzo haqidagi tasvirlarida «Hazrati Xoja Ubaydullog'a irodati bor edi, suhbatlarig'a bisyor musharraf bo'lub edi, hazrat Xoja ham farzand deb edilar», deya otasining bu zot bilan yaqinligini alohida ta'kidlab o'tadi. Boburning e'tiqodiy qarashlari, naqshbandiya tariqatiga irodati xususida Hasanxoja Nisoriy «Muzakkiri ahbob» asarida shunday ma'lumot beradi:

On chi sa'y ast, man talabash binamudam,  
In qadar hast, ki tag'yiri qazo natavon kard.  
(*Mazmuni: Neki sa'y-harakat bo'lsa, barini qildim,  
Va bildim, taqdir bitigin o'zgarmasligini.*)

«Podshohning naqshbandiya oliy xonadoniga ordat nisbati bor edi. Yuqori shon-shavkatli bobosi va saltanat nishonli otasining hazrat Xoja Ahrorga irodati bo'lgan. Bobur podshoh ham bu ulug'lar xonadoniga nisbatan izzat-ikromni soatma-soat oshirar va biron daqiqa bu ishni kanda qilib, g'aflatda qolmas edi. Barcha darveshlarga lutf eshigini ochib, niyozmandlik yumushini bajo keltirardi» [10;52-53].

Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham Xoja Ahror Valini o'zlariga ma'naviy pir-ustoz deb bilishgan. Bu ulug' siymoning shuhrati Movarounnahr va Xurosonda juda yuqori edi. Bu haqda akademik B.Valixojayev shunday yozadi: «Xoja Ubaydulloh – Xoja Ahrori Vali XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya tariqatining muridi sifatida tanilib, shuhrat qozonib, o'zining rang-barang faoliyati bilan davrning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy hayotida katta iz qoldirib, XV asrdan keyingi davrda ham ko'rkamli siymo sifatida muxlislari qalbi to'ridan o'rin oldi» [1;25].

Bobur ham ana shu e'tiqod asosida tarbiya topdi, kamolga yetdi va hayotiy faoliyatida bu e'tiqodning ahamiyati juda yuksak bo'ldi. Boburning eng murakkab, qiyin vaziyatlarida ham, g'oliblikdan masrur, eng baxtli onlarida ham o'z e'tiqodida bardavom ekanini, mukammal iymon kishisi ekanini biz ko'p bora guhovi bo'lamiz. Demak, Bobur dunyoqarashining mukammal tarzda shakllanishida, e'tiqodining mustahkam bo'lishida bu ulug' shaxsning o'rni nihoyat darajada yuqori bo'lgan, uning eng murakkab damlarida, mag'lublikning og'ir onlarida, g'oliblikni qo'lga kiritishida unga ma'naviy madad berib turgan.

Bobur Xoja Ahror Valining avlodlariga nisbatan ham juda katta hurmat e'tiborda bo'lgan. Xususan, uning kichik o'g'li Xoja Yahyo bilan munosabati bunga dalil. Boburning Samarqandni egallashida u xayrixoh bo'lgan, garchi buni amaliy isbotini ko'rmasakda, uni qo'llab-quvvatlashga harakat qilgan. Xoja Yahyoning hayoti fojiali yakun topadi, Shayboniyxon «...ikki o'g'li Xoja Muhammad Zikriyo va Xoja Boqi bila Xuroson sari ruxsat berdi. Keyin bir necha o'zbek borib, hazrati Xojani ikki yigit o'g'li bila Xoja Kordzan navohisida shahid qildilar» [3;28-29]. Boburning Xoja Yahyoning o'g'li Xoja Ya'qub bilan bo'lgan Karnon voqeasi ham ma'lum.

Boburning hayotiy va ijodiy faoliyatida ma'naviy ustoz, hamtariqat sifatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning alohida o'rni bor. Bu ikki siymo bilan garchi Bobur uchrashmagan, suhbatlashmagan bo'lsa-da, ularning ma'naviy ko'magidan doimo umidvor bo'lib yashagan. Bobur «Boburnoma»ning juda ko'p o'rinlarida bu siymolar haqida iliq fikrlar yuritadi. Xususan,

Abdurahmon Jomiy to'g'risida «Bu jumladin bir Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdur. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay. G'oyatash xotirg'a kechtikim, bu muhaqqar ajzoda tayammun va tabarruk jihatidin alarning otlari mazkur va shammayi sifatlaridin mastur bo'lg'ay»

«Shu'arodin bu jam'ning ham saromadu sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi» [3;28]. Bobur Abdurahmon Jomiyi juda ko'p bor tilga oladi, uning ijodiga yuksak baho beradi. O'zi tarjima qilgan «Validiya» asarini Jomiyning «Subha» risolasi vaznida bitadi. Boburning bu zotga nisbatan alohida e'tiborda bo'lishining sababi uning ham naqshbandiya tariqatiga e'tiqodi natijasidandir.

Bobur Alisher Navoiyni o'zgacha bir g'urur va mehr bilan tilga oladi. «Boburnoma»da Alisher Navoiy haqida juda ko'p va xo'b ma'lumotlar beriladi. Bobur Navoiyning shaxsiy hayoti, ijodi, jamoat va siyosiy faoliyati, yaqinlari, atrofidagi kishilari, xullas u haqdagi barcha ma'lumotlarni berishga harakat qiladi: «Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur... Alisherbekning mijozi nozukluk bila mashhurur. El nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy (tug'ma) ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozik mijoz ekandur» [3;28]. Bobur Navoiyning ijodi haqida ham batafsil ma'lumotlar beradi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir «Mantiqu-tayr» vaznida «Lisonut-tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: «G'aroyibus-sig'ar», «Navodirush-shabob», «Badoyi'ul vasat», «Favoidul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor» [3;28]. Shu tariqa Bobur Navoiy haqida ancha mukammal ma'lumotlar beradi. Unga nisbatan hurmati va e'tirofi baland ekanini «Boburnoma»da keltirilgan fikrlardan ham anglash mumkin. Ushbu ma'lumotlardan Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida to'liq xabardor bo'lish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi Xuroson, Movarounnahr ijtimoiy, siyosiy hayotida eng murakkab, tahlakali bir davr edi. Shahzodalar o'rtasidagi taxt uchun kurash, o'zaro ichki nizolar mamlakatni parokandalikka, xalqni notinchlikka mahkum etish arafasida edi. Shu davr ma'naviy hayotida juda katta iz qoldirgan naqshbandiya tariqati bu jarayonda hal qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Uning bunyodkorlik, yaratuvchanlik, insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi, behuda qon to'kilishilari va parokandalikning oldini olish kabi g'oyalarga asoslangan konsepsiyasi mamlakat va xalq hayotida muhim o'rin tutdi.

Bu tariqat va uning vakillari ta'sirini Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida ham katta o'rin tutganini ko'ramiz. Boburning ijtimoiy, siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida va asosiysi, uning shaxsiy hayotida, iymon e'tiqodi shakllanishida bevosita shu oqimning ta'siri sezilarli bo'ldi. Bu holni Boburning jamiyatda adolat o'rnatishda, davlatni qat'iy qonun qoidalar asosida boshqarishda ko'ramiz. Shuningdek, uning xarakteriga xos bo'lgan mehr-shafqatlilik, kechirimlilik, saxovat-peshalik, mardlik sifatlarining shakllanishida, e'tiqodi mustahkam bo'lishida bu tariqatning o'rni beqiyosdir. Boburning janglardagi kurashlarda g'oliblikka erishishida, ba'zida g'ururi va nafsi ammora ustidan mutlaq ma'naviy g'oliblikka etishida ham o'zi e'tiqod qo'ygan bu ta'limot konsepsiyasi va uning ulug' peshvolari madadi benihoya katta bo'ldi. Bobur ham o'zining ustoz-pirlaridan olgan ham moddiy, ham ma'naviy ta'lim-tarbiyasi uning hayotida juda muhim ahamiyat kasb etdi.

#### Adabiyotlar

1. Valixo'jayev B. Xo'ja Ahror tarixi. –T.: O'qituvchi, 1994.
2. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent: Fan, 1959.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. – Toshkent: Sharq, 2002. – 335.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2014. – 744.
5. Jalilov S. Bobur va Yuliy Sezar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000.
6. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – 4 b.
7. Maxdumi A'zam Dahbediy. Risolai Boburiya.Tarjimon, so'zboshi va tadqiqot muallifi Komiljon Kattayev. – Samarqand, 2015.
8. Nizomiddin N.G'. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012 yil. – 516.



9. Salohiy D. Boburning buyuk a'tiqodi. Samarqand, 2019.  
10. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. (fors tilidan I. Bekjonov tarjimasini). T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 52-53-b.

UDK: 494.3

## QIPCHOQ ETNONIMI VA UNING MANBALARDAGI TALQINI

U.S.Sanaqulov, F.X.Nurmonov

*Samarqand davlat universiteti*

*furqatnx@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ma'lumki, respublikamizning toponimik xaritasida qipchoq nomi bilan juda ko'p joy nomlari o'rin olgan. Qipchoq nomi bilan atalgan joy nomlari o'ziga xos etnogenez va etnik tarix bilan aloqadorlikka ega. Bu haqda ko'plab taniqli olimlarning asarlarida muhim ma'lumotlar mavjud. Ushbu maqolada bu masalada tarixiy manbalardagi va zamondosh olimlarimizning asarlaridagi fikr-mulohazalarini talqin etish lozim topildi.

**Kalit so'zlar:** imak, tatar, qipchoq, xidxaz, islan, sak-iskit, "kuman", o'g'uz, saljuqiy, turk-mo'g'ul, qarluq.

### Этноним кипчак и его интерпретация в источниках

**Аннотация.** Как известно, в топонимической карте страны имеется много названий с компонентом «кипчак». Местные названия, с компонентом «кипчак», имеют связь с этногенезом и этнической историей народа. В исторических источниках и в трудах многих известных ученых содержатся важные информации об этом. В статье сделана попытка толкования исторических источников и мнения современников по этому вопросу.

**Ключевые слова:** имак, татар, кыпчак, хидхаз, ислан, сак-искат, "куман", огуз, селджукий, тюрк-монгол, арлот, карлук.

### Ethnonym of kipchak and its interpretation in the sources

**Abstract.** It is known that, in the toponymic map of the country there are many names with the component "Kipchak". Local names, with the Kipchak component, have a connection with ethnogenesis and ethnic history of the people. In historical sources and in the works of many famous scientists contain important information about this. This article attempts to interpret the historical sources and opinions of our contemporaries on this issue.

**Keywords:** imak, tartar, kipchak, khidhaz, islan, sak-iskit, "kuman", oguz, seljuk, turk-mongol, karluk.

Tarixiy, jumladan, tilshunoslik manbalarida "qipchoq etnonimi" etnogenezi qadimgi yirik turkiy qabilalardan biri sifatida qaraladi. Bu etnonim haqida o'tmish mabalaridan XI asr olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida muhim ma'lumot mavjud. Asarda qipchoqlar turkiy qavmlar orasida ancha katta va qadimiy qabila-urug'lardan deb izohlanadi. Hatto, ularning yashagan joylari va ba'zi shaharlari hamda tili haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan, Tavar shahri va Qashqar yaqinidagi bir shahar ularga tegishli bo'lgan. Tiroz yonidagi Kantuan shahri ularning chegarasi deyiladi. Qangli urug'lari qipchoq qabilasining kattalari sifatida ko'rsatiladi. Bundan qipchoqlar bilan qanglilarni til jihatdan yaqin va qadim davrlarda bir ittifoqda bo'lishgan, deb qarash mumkin. Til jihatdan ularning bir qismi o'g'uz, bir qismi chigil va yana bir qismi ko'chmanchilarga o'xshash bo'lganligi ham aytiladi. [7, 495-496]

O'z davrining iste'dodli tarixchisi Abulg'oziy Bahodirxon (1603-1664)ning "Shajarai turk" asarida "qipchoq" etnonimining etnik xususiyati va qipchoqlar tarixi hamda Dashtiqipchoq haqida quyidagicha fikrlar mavjud: "Ulug' podsholarning odatlari turur. Uzoq safarg'a borg'anda ko'chlarin olib bormoq... O'g'uzxonning bir begi ko'chin olib borib erdi. O'zi urushg'a o'ldi. Xotuni qurtulub ikki suvning orasida xon keyinidin ketdi. Yukli erdi. To'lg'ag'i tutdi. Ko'p sovuq erdi. Kirmaqqa ev yo'q, bir chirik yag'ochning ichinda o'g'lon tug'urdi. Muni xong'a ma'lum qildilar, ersa, xon aytdi: "Muning otasi bizning oldimizda o'ldi. G'amqo'ri yo'q", deb O'g'ul o'kundi (o'g'il qilib oldi-U.S.), otini Qipchoq qo'ydi. Qadimgi turk tilida ichi qo'sh (bo'sh, kovak-U.S.) yog'ochni qipchoq derlar

erkandur... Ul (Qipchoq atalgan) o'g'lonni xon o'z qo'linda saqladi (tarbiyaladi U.S.). Yigit bo'lgandin so'ng... Qipchoqg'a ko'p el va navkar berib... Atil (Itil) suvining yaqasina yubordi... Uch yuz yil Qipchoq ul yerlarda podshohlik qilib o'lturdi. Barcha qipchoq eli aning naslindin tururlar. O'g'uzxonning zamonidin to Chingizxon zamonigacha Tin, Atil va Yoyiq, bu uch suvning yoqosinda Qipchoqdin o'zga el yo'q erdi... Aning uchun ul yerlarni Dashtiqipchoq derlar" ("Shajarai turk", 21-22-bb.) [11, 21-22]. Demak, Abulg'oziy Bahodirxon qipchoq etnonimini yuzaga kelishini shaxs nomi bilan bog'lagan. Shunga qaramay, Abulg'oziy Bahodirxon qipchoqlarning yuzaga kelishi, yashash va tarqalish o'rni, hukmdorlik davrlari haqida bergan ma'lumotlar xarakterlidir. Aslida o'zbek etnonimidek, qipchoq ham qadimgi turkiy urug'-qabila nomini ifodalagan.

Ba'zi tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qipchoqlar Osiyoda juda eski turk qabilalardan biri (Abulg'oziy bo'yicha O'g'uzxon zamonida paydo bo'lgan) bo'lsalar-da, Yevropa va Ruslarga hijriy 447, milodiy 1055-yillardagina Dnepr daryosi bo'ylarida, Peryoslovul shahri atroflarida paydo bo'lganligi ma'lum bo'lgan. Ularning ko'prog'i ko'chmanchi va ba'zilari shaharlarda turg'un madaniy hayot kechirganlar. Tarixiy manbalarda ularining maxsus shaharlari ham bo'lganligi aytilgan. Turkiston sahrolari atrofida, Yoyiq, Volga, Don daryolari sohillarida, Bahri Hazar, Azoq, va Qora dengizi bo'ylarida, Qrim hududlari, Dnepr, balki, Dunayga qadar bo'lgan yerlar qipchoqlarga nisbat berib, Dashtiqipchoq (Qipchoq sahrosi) nomi bilan ataganlar. Ularga xos juda ko'p urug'lar bo'lganligi ham ta'kidlanadi [3, 156-157].

Qipchoqlarning qadimda turkiy qabilalar ittifoqidagi o'rni haqida taniqli olimlarimizdan Nasimxon Rahmonov ham muhim ma'lumotlarni beradi. Chunonchi, qipchoq urug'i aslida arshakiylarga borib taqaladi. Arshakiylar sak turklari birlashmalari tarkibida bo'lgan, ularning miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda mustaqil davlatlari yuzaga kelgan. Ular turkiy tilning qipchoq-o'g'uz lahjasida so'zlashganlar. Shu bois qipchoqlar bu davlatning tayanchlaridan bo'lgan urug'lardan sanalgan. Bu davlat o'sha davrlarda Eronning Sharqiy qismini, Turkmanistonni, Anatoliya (Turkiya)ni o'z ichiga olgan. "Arshak" aslida turkiycha bo'lib, "ar" va "shak", ya'ni "er" va "sak" so'zlaridan shakllangan. Yevropada ular "kimerlar" deb yuritilgan. Arshak davlatiga Kasbiy dengizining janubi-sharqidagi "day" qabilasining boshlig'i Arshak asos solgan. Bu davlat 7 ta turk urug'i-qabilasidan: imi, imak, tatar, boyandir, qipchoq, xidxaz va islanlardan tashkil topgan. Keyinchalik ular bilan yana (milodgacha 452-429-yillarda) "kichik arshakiylar" birlashib iqtisodiy va harbiy jihatdan mavqeyi mustahkamlangan sak-iskitlarning dunyodagi eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Shuningdek, miloddan avvalgi VII asrda shakllangan Kengaras (Kenagas) davlati tarkibida ham qipchoqlarning mavqeyi baland bo'lgan. Hatto, davlat boshida kenagaslar tursa-da, ularga qaraganda qipchoqlarning mavqeyi ustun turgan. Davlat boshqaruvida qipchoqlar bilan birga qorluq va o'g'uz guruhlarining mavqeyi ham sezilarli bo'lgan. Umuman, bu davlatda miloddan oldingi VII asrdan to turk hoqonligi tugaguncha qipchoqlar, qarluqlar, o'g'uzlar mavqeyi ustun bo'lgan. Kengaras davlati milodiy V asrgacha yashab, Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro va Xorazm hududlarida hukmronlik qilgan [4, 9-11].

Qipchoqlar va ularning qisqacha tarixi haqida akademik Karim Shoniyozovning, ma'lumotlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Olimning yozishicha, qipchoqlar qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lgan. Bular miloddan avvalgi III-II asrlarda va milodiy I-II asrlarda Oltoy tog'larining shimoli-g'arbiy mintaqalarida, Irtish daryosi bo'ylarida, Tarbag'atayning g'arbiy mintaqalarida yashaganlar. VI asrning ikkinchi yarimlarida qipchoqlarning talay qismi Turk hoqonliklari tarkibida bo'lgan. Shu davrlarda ular Oltoydan chiqib, Irtish daryosining sohillariga qo'chib o'tib, Ishim, Tobol daryosi havzalarida va Urol tog'oldi mintaqalariga joylashganlar, IX-X asrlarda Kimak davlati tarkibida bo'lganlar. XI asr boshlarida qipchoqlar kuchayib ketib, o'zlari mustaqil qabila ittifoqini tuzganlar. XI asrning birinchi choraklarida qipchoqlarning katta qismi Sirdaryo bo'ylariga, unga tutash cho'llarga kelib o'rnashgan edilar. XI asr o'rtalarida esa, ularning yana bir katta qismi Volga daryosi sohillariga – Janubiy rus cho'llariga borib o'rnashganlar va XIII asr boshlarigacha bu yerlarda hukmronlik qilganlar. Rus solnomalarida ular "polovsy", "kuman" nomlari bilan tilga olingan. XIII asrning birinchi yarimida qipchoqlar mo'g'ullar istilosidan qattiq talafotga uchrab, ularning bir qismi G'arbiy Yevropaga (Vengriya, Yunoniston), Misr, va Old Osiyo mintaqalariga borib o'rnashganlar, keyinchalik o'sha yerdagi mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar [5, 177].

Shuningdek, akademik G'.Abdurahmonov, o'zining "O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida" risolasida R.A.Guseynov fikrlariga qo'shilgan holda, X asrning birinchi yarimida Turkistonda o'g'uz va qipchoq turkiy qabilalarining uyushmasi (saljuqiylar) tuzilib, X-XII asrlardan oldingi Osiyoni

egallab, Turkistondan O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatlarini o'rnatganlar, degan xulosaga kelgan. Shu kabi K.Shoniyozovning ma'lumotlariga asoslanib, qipchoqlarning sharqiy guruhi hozirgi O'zbekiston hududida, Sirdaryo bo'ylarida XI asrlarda yashab, o'zbek xalqining tarkibiga kirganliklarini (g'arbiy qipchoqlar o'zbek xalqi tarixiga keyinroq, XIV-XVI asrlarda qo'shilganligini) aytgan va O'zbekistondagi qipchoq urug'lari nomi va ularning til xususiyatlari hozirgacha Respublikamizning deyarli hamma viloyatlarida saqlanganligini ta'kidlagan. Shuningdek, ko'chmanchi qipchoqlarning bir qismi Dashtiqipchoqda qolib, XV asr 80-yillarida turk-mo'g'ul qavmlari bilan qozoq xonligiga asos soldilar, deydi [6, 29, 43].

Dashtiqipchoq toponimining qipchoq etnonimiga aloqasi haqida O'zbekistonda etnologiya sohasining asoschilaridan hisoblangan B.Ahmedov, A. Asqarov va K.Shoniyozovlarning ma'lumotlari, ayniqsa, diqqatga molik. Dashtiqipchoq hududi va qipchoq aholisining qadimda yashash va tarqalish o'rni, nomlanishi haqida ularning ajoyib fikr-mulohazalari mavjud.

Akademik Ahmadali Asqarov ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshan tog' tizmalarining g'arbiy yon bag'rlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar XI-XV asrlarga oid arab-fors manbalarida Dashtiqipchoq deb tilga olingan. Dashtiqipchoq aholisi sharq manbalarida- qipchoqlar, ruslarda-poloveslar, vizantiyaliklarda-kumanlar, vengarlarda-kunlar (gunlar) deb atalganligi ham ta'kidlanadi. Dashtiqipchoq ikki, ya'ni sharqiy va g'arbiy qismlardan iborat bo'lgan. G'arbiy qismiga Yoyiq (O'rol) va Itil (Volga) daryolaridan to Dneprgacha bo'lgan hududlar kirgan. Undan Sharqqa tomon cho'zilgan dashtlar sharqiy Dashtiqipchoq hududlarini tashkil qilgan. Yoyiq daryosi ularning chegarasi hisoblangan.

XIII asr boshlarida Dashtiqipchoqqa mo'g'ul istilochilari kirib keldi. Qipchoqlar XIV-XV asrlarda guruh-guruh bo'lib, Shimoliy Kavkazda, Qirimda, Volga Bo'ylarida, O'rol tog'oldi mintaqalarda, Dashtiqipchoqning sharqiy qismida, Yettisuvda yashar edilar. Amir Temur Sirdaryoning quyi qismida yashovchi qipchoqlarni Movarounnahrda ko'chirgan. Ular tarkibi jihatdan: arlot, baxrin, burqut, do'rman, iyjon, qtoy, qarluq, mo'yor, qipchoq, qiyot, qo'ng'iroq, qurlovut, mang'it, nayman, nukus, tangut, uyg'ur, markit, qo'shchi, o'tarchi, jot, chimboy, kenagas, uyshin, tuboyi, toymas, echki, tuman-ming, shodbaxtli va boshqalardan iborat bo'lgan. Bu qabilalar XIII asr boshlaridan tarix maydonida **sahroyi suvoriy o'zbeklar** nomi ostida ataldilar [4, 258, 266]. (Bu haqda qayd etilgan risolamizda ma'lumotlar berilgan).

Qipchoqlar haqida Temur tuzuklarida, ayniqsa, akademik Bo'riboy Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" kitobida muhim ma'lumotlar bor. Masalan, Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko'lidan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlar XI asrdan boshlab Dashtiqipchoq deb atalgan. Qipchoq shaklidagi so'z rus va Vizantiya solnomalarida uchramaydi. Balki bu so'z o'rnida rus solnomalarida "poloves", Vizzantiyaliklarda esa "kuman" atamasi qo'llanilgan. Sharq solnomalarida "qipchoq" shaklidagi atamani ilk bor Nosiri Xusrav (1003-1088 yy.) qo'llagan. So'ng qipchoqlar tarqalgan hududlar shu nom bilan atala boshlangan. Bu o'lkaning aholisi, asosan, turkiy tilli qipchoq qabila-urug'lardan tashkil topgan. Dashtiqipchoq davlati XII asr boshlarida katta harbiy kuchga ega bo'lgan va 1220/21-yillarda Kavkazda gruzinlar bilan ittifoq bo'lib, Eronga qarshi kurashgan.

Dashtiqipchoq ikki qismga: Sharqiy va G'arbiy qismga bo'lingan. Uning sharqiy qismi Yoyiq (Ural) daryosi va Sirdaryoning quyi oqimidan to Balxash ko'ligacha bo'lgan yerlar va g'arbiy qismi Yoyiq va Volga daryolaridan to Dneprgacha bo'lgan hududlari (Volganing o'rta va quyi oqimi, Qirim va Janubiy Rus yerlari) ni o'z ichiga olgan. Dashtiqipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik bilan, vohalarida, daryo va ko'l yoqalarida istiqomat qiluvchilari esa, o'troq holda yashab, qisman dehqonchilik, ziroatchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Ularning Saroy Botu (Oltin O'rda davlatining poytaxti, hozirgi Astraxan yaqinida joylashgan), Saroy Berka (hozirgi Volgograd yaqinida), O'rdu-O'rda bozor (taxminan Qorasuv daryosi bo'ylarida joylashgan. Bu yer Mahmudxon, Ahmadxon va Abulxayrixonlar davrida qarorgoh bo'lgan), umuman, Sig'noq, Suzoq, Arquq, O'zgand kabi bir qancha shaharlari bo'lgan. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan ham shug'ullanishgan. Ammo ularning savdo-sotig'ida mol ayriboshlash asosiy o'rin egallagan. Chorva mollari va mahsulotlari, hayvon terisidan, junidan tayyorlangan, to'qilgan turli buyumlar, matolar asosiy savdo tovarlari sanalgan. Ko'chmanchi aholi tarkibida turli qabila-urug'lar bo'lsa-da, ularning asosiy qismi turkiy-zabon ko'chmanchi o'zbeklar edilar. Lekin Dashtiqipchoqni chingiziyalar istilo etgach, kelgindilar bilan aralashuvi tufayli bu o'lkadagi qabilalar keyinchalik,

jumladan qipchoqlar ham turk-mo'g'ul nomini olgan. Aslida Dashtiqipchoq elati va uning hududlari bilan mo'g'ul qavmining qadimda aloqasi bo'lmagan.

Taniqli qipchoqshunos X.Doniyorov qipchoq etnonimi haqida fikr yuritar ekan qipchoqlar va ularning dialekti (tili)ni o'zbek xalqi va tilining shakllanishida asosiy komponentlardan biri deb hisoblaydi [5, 98]. Hozirgi paytda bu fikr allaqachon fanda o'z tasdig'ini topgan.

Olim taniqli etnograf M.G'.Vahobovning fikriga qo'shilgan holda o'zbek xalqining shakllanishida uch guruh qabila-urug'lar asosiy komponent sanalganligini aytgan: *turk-o'zbeklar; qipchoq-o'zbeklar; o'g'uz-o'zbeklar kabi. Birinchisi turkiy-o'zbeklar* bo'lib, ular eng qadimgi davrlardan hozirgi O'zbekiston hududida tub aholi sifatida yashab kelganlar va o'zlarni XVI asrga qadar turklar deb ataganlar; *ikkinchisi, qipchoq-o'zbeklar* ham qadimgi turkiy qabilalardan sanalganlar. Ular qadimgi davrlarda Itil (Volga), Dunay daryolari, Hazar (Kasbiy), Orol dengizlari va Urol tog'lari, G'arbiy Sibirdagi Irtish va Enisey daryolari bo'ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar. Ular Yettisuvda ham Turk hoqonligida ancha katta mavqega ega bo'lishgan. XIII-XIV asrlarga kelib bu ko'chmanchi o'zbeklar Dashtiqipchoq cho'llaridagi Oltin O'rda davlatidan ajralib chiqqan "Oq O'rda" nomli o'zbek ulusini (davlatini) tuzishgan. Uning markazi Sirdaryoning o'rta oqimidagi Turkiston (Sig'noq) shahri bo'lgan.

X.Doniyorov ko'chmanchi qipchoq-o'zbeklarning Markaziy Osiyodagi tub aholining turk-o'zbeklar bilan aloqa-munosabatini va tarkibiga kelib qo'shilishi davrini ba'zi tarixchilarning XV-XVI asrlardan, aniqrog'i Shayboniy boshchiligidagi yarim ko'chmanchi, ko'chmanchi o'zbeklarning kirib kelish vaqtidan boshlangan deb qarashlariga haqli ravishda e'tiroz bildirgan. Olim bunday qarash haqiqatga to'g'ri kelmasligini aytib, qipchoq-o'zbeklarning Markaziy Osiyo bilan yaqin munosabati va bu yerlarga kela boshlashi juda qadim davrlardan boshlanganligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham ular son va tarkib jihatidan o'zbek xalqining eng katta komponentini tashkil etganligi haqidagi fikri haqiqatga mos keladi. Chunki hozir ham dialektal jihatdan ularning lahjasida so'zlovchilar O'zbekistonning ko'p hududlarda mavjud. Qipchoqshunos olim Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududlariga qipchoq-o'zbeklarning kirib kelishi va bu yerdagi tub turg'un yashab kelgan turk-o'zbeklar bilan aralashuvini uch davrga bo'lib ko'rsatadi:

*Birinchi davri*, eng qadimdan (miloddan avvalgi davrdan-U.S.) to milodiy XIII asrgacha (Chingizxon istilosigacha, ya'ni 1222-yilgacha), deb qaraladi. Olim sharqshunos N.A.Aristovning fikriga tayanib, qanglilar va qipchoqlar miloddan avvalgi 159-yilda hozirgi O'zbekiston hududlariga kirib kelishganligini aytadi. U bu davrlarda qipchoqlar Toshkent, Farg'ona, Zarafshon vodiylarini, Buxoro, hatto, Xivagacha bo'lgan yerlarni egallaganliklarini yozadi.

*Ikkinchi davri* XIII asrning 20-yillaridan XVI asrning boshlarigacha, ya'ni Chingizxonning Markaziy Osiyo hududlarini istilo qilgan davri bilan bog'liq. (Bu davrlarda qipchoqlarning Kunjek nomli boshlig'i bo'lgan [5, 25]).

*Uchinchi davr*, XVI asrdan boshlangan. Bu davrda qipchoq-o'zbeklari Markaziy Osiyoga yoppasiga kelib joylashgan va ana shu davrdan boshlab ular Markaziy Osiyodagi turg'un turk-o'zbeklar bilan har tomonlama aralashish yo'liga o'ta boshlaydilar. Shayboniyxon boshchiligidagi qipchoq-o'zbeklar Movarounnahr va Xuroson hukmronligini to'liq qo'lga kiritgach, ular bu yerlarga abadiy o'rnamshib qoladilar va bu yerdagi o'troq turk-o'zbeklar bilan birlashib, aralashib ketganlar [5, 7-12]. Shuningdek, bu davrlarda temuriylar avlodlari bilan chatishuv-aralashuvi ham tezlashgan [9, 7-12].

Qipchoqshunos olim Xudoyberdi Doniyorov "O'zbek xalqining shajara va shevalari" nomli kitobining yana bir sahifasida qipchoqlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni beradi. U tarix fanlari doktori T.A.Jdankoning Qoraqalpog'istondagi ba'zi qipchoq urug'larga oid bo'lgan kishilarni XI asrda O'rta Osiyoni egallagan kidanlar bilan kelib chiqishi jihatdan bog'liq degan fikriga qo'shiladi. U O'zbekistondagi (ya'ni nafaqat Qoraqalpog' qipchoqlarining-U.S.) shunday qabilaga mansub bo'lgan kishilarning kelib chiqishi tarixi ham o'sha kidanlar bilan bog'liq deb hisoblaydi [6, 91]. Umuman, professor X.Doniyorov qipchoqlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi davri haqida quyidagicha xulosaga keladi: "Qipchoq o'zbeklari Markaziy Osiyoga ba'zi olimlar o'ylaganlaridek, faqat XVI asrdagina kelgan emas. Balki ular miloddan avvalgi III-II asrlardan (hatto undan oldingi davrlardan) beri kela boshlaganlar. Lekin u vaqtlarda bu yerdagi qipchoqlar boshqa turkiy komponentlarga soniga nisbatan ancha ozchilikni tashkil etganlar. Ularning son jihatdan bu yerga ko'zga ko'rinarli darajada ko'p bo'lib kelishi, olim ta'kidlaganidek, oldinroq qoraxoniylar va saljuqiylar, keyinchalik

chingiziylar va eng so'nggi hamda ko'p miqdorda kelishi XVI asrning boshlarida, aniqrog'i Shaybonixon hukmronligi davriga to'g'ri keladi.

Shuningdek, qipchoq o'zbeklar ba'zi kishilar o'ylaganidek, Markaziy Osiyoga kelganga (keng tarqalgan davrlarigacha, XVI asr- U.S.) qadar ko'chmanchi, juda qoloq davlat vakillari bo'lgan emas, balki ular ham bu davrgacha turg'un hayotga, ancha katta madaniyatga, og'zaki va yozma adabiyotga ega bo'lganlar. Ular bu yerga (Markaziy Osiyoga –U.S.) kelganga qadar Misrda, Turkiyada va xususan, Oltin O'rda hamda temuriylar davlatida juda katta mavqega ega bo'lganlar. Ular Temuriylar davlati bilan eng yaqin iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hatto, qarindoshlik munosabatlarida bo'lishgan..." [9, 7-12]. Ushbu muhim malumotlar bilan birlikda qipchoqshunos olim o'z asarida qipchoq qabilasiga xos juda ko'p urug'lar va ularga xos tarmoqlarining nomlari va tarqalish yerlari haqida ham muhim ma'lumotlar bergan. Lekin ushbu maqolamizda ular haqida keng to'xtalish imkoni yo'q. Bu mavzu alohida, maxsus ishni talab etadi.

Xullas, yuqorida keltirilgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlarda qipchoq-o'zbeklar turkiy qabilalarning yirik va eng qadimgilaridan bo'lib, ularning Markaziy Osiyoda tub aholi sanalgan turkiy-o'zbeklar bilan aloqa-munosabati va aralashuvi miloddan avvalgi davrlar bilan bog'lanadi, degan dastlabki xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, qipchoqlar va ularning dialekti (tili)ni o'zbek xalqi va tilining shakllanishida asosiy komponentlardan biri degan fikrga to'liq qo'shilamiz. Bu xulosa talqin etilayotgan keyingi manbalarda to'liq o'z tasdiqini topadi.

### Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. -T.: TDSHI, 1999. -88 b.
2. Abulg'oziy Baxodirxon. Shajarai turk. (Nashrga tayyorlovchilar:Q.Munirov, Q.Mahmudov).-T.: Cho'lpon, 1992. -200 b.
3. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi. -T.: Cho'lpon, 1995. - 240 b.
4. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. -T.: Universitet, 2007. -340 b.
5. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. -T.: Fan, 1968. -98 b.
6. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari, (Жданко Т.А. Каракалпаки (основные проблемы этнической истории и этнографии). -М.: 1964). - 98 b.
7. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. 1-t. -T.: Fan, 1960. -499 b.
8. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. -T.: Abdulla Qodiriy, 1993. -142 b.
9. Sanaqulov U. Qipchoq etnonimi va uning Dashtiqipchoq toponimiga aloqasi. -T.: Navro'z, 2015. -48 b.
10. Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. -T.: Sharq, 1999. -191 b.
11. Xudoynazarov H. Shajarai turk va uning o'rganilishi. -T.: O'qituvchi, 1983. -128 b.

UDK: 494.3:409

### MORFOLOGIK KAUZATSIYA HAQIDA

**B. N. Turniyazov**

*Samarqand davlat chet tillar instituti  
bekzodturniyozov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqola tilshunoslikda kauzativlik tushunchasining o'rganilishi holatiga bag'ishlangan bo'lib, unda, asosan, kauzativlikning morfologik nuqtayi nazardan tadqiq qilinishi o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** kauzatsiya, kauzator, derivatsiya, kauzapoerand, kauzaoperator, kauzaderivat, analitik vositalar.

### О морфологической каузации

**Аннотация.** Статья посвящена изучению концепции каузации в лингвистике. В статье в основном, каузативность исследуется с морфологической точки зрения.

**Ключевые слова:** каузация, каузатор, деривация, каузаоперанд, каузаоператор, каузадериват, аналитические средства.

**About morphological causation**

**Abstract.** The article is devoted to the study of the concept of causation in linguistics. It mainly studies causativeness from a morphological point of view.

**Keywords:** causation, causator, derivation, causaoperand, causaoperator, causaderivat, analytical tool.

Til hodisalarini tadqiq qilar ekanmiz, hali o'z yechimini kutayotgan talaygina masalalar borligining guvohi bo'lamiz. Bunday muammolardan biri *kauzativlik* tushunchasi hisoblanadi. To'g'ri, tilshunoslarimiz tomonidan *kauzativlik* haqida xususiy tilshunoslik doirasida ham, qiyosiy jihatdan ham monografik tadqiqot ishlari bajarilganligini ko'rishimiz mumkin[1]. Ammo bu haqda o'zbek tili materiallari asosida, L.I.Sadullayevaning maqolasidan tashqari, biror bir ilmiy ish yoritilganini kuzatmadik (Bu maqola ham o'zbek va ingliz tillari materiali asosida yozilgan) [15]. Kauzativlik tushunchasi tillarda universal kategoriya sifatida tadqiq qilinadi. Chunki bu tushuncha, u yoki bu shaklda, barcha tillarda uchrashi, uning faqat ifodalanishi usuli farq qilishi ta'kidlanadi[13,61]. Kauzatsiya lotincha «*causa*» so'zidan olingan bo'lib, asosan, «sabab» ma'nosini ifodalaydi[14,94]. Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi fe'lning orttirma nisbati bilan bog'lanib, uni bir shaxsning (bajaruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshirilgan harakat ekanligi haqida aytilgan [9,77].

Kauzativlik jahon tilshunosligida morfologik kauzatsiya, analitik kauzatsiya, leksik kauzatsiya, semantik kauzatsiya kabi turlarga bo'lib o'rganilmoqda[20]. Biz ham ushbu maqolada morfologik kauzatsiya haqida ayrim fikr va mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz.

Morfologik kauzatsiya tadqiq qilingan ko'pgina ishlarda kauzativlikning bu turi maxsus qo'shimchalar bilan, ya'ni fe'lning orttirma nisbati shakllari bilan, hosil bo'lishi nazarda tutiladi. Bu esa, o'z navbatida, agglyutinativ xarakterli tillarda yaqqol namoyon bo'lishi aytiladi hamda misol tariqasida turk tilida morfologik kauzativlikning shakllanishi ko'rsatiladi: *imzala – imzala-t, goster – goster-t, icmek – ic-ir-mek* kabi[3,35].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, bizningcha, kauzatsiyani faqat sabab ma'nosi bilan cheklab qo'yish joiz emas. Agar kauzativlikda bir shaxsning ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajariladigan harakat mavjudligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, u holda uni maqsad, shart, natija ma'nolari bilan ham mushtarak ekanligining guvohi bo'lamiz. Zero, bir shaxsning (bajaruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat orqali faqatgina sabab ma'nosi ifodalanmaydi. Bu haqda I. A. Shoroxova fikr bildirar ekan, kauzativlik tushunchasi «*bahona*», «*asoslash*», «*undash*», «*holat*», «*munosabat*», «*daraja*» kabi ma'nolarni ifodalashini ham ta'kidlaydi[21,19]. Shunday ekan, bugungi tilshunoslikda kauzativ ma'noning o'rganilishi masalasi izohtalab ko'rinadi.

Tilshunoslikda kauzativlik grammatik kategoriya sifatida talqin qilingani bois eng avval grammatik kategoriya tushunchasi nima ekanligiga oydinlik kiritib olishimizga to'g'ri keladi. Grammatik kategoriya umumlashgan grammatik ma'no bo'lib, u tilning qaysi morfologik tipga kirishini ko'rsatadi va o'z ifodasini so'zlarning o'zgarishida, gapda so'zlarning bog'lanishida topadi[10,154]. Bizningcha, kauzativlik tushunchasi, birinchidan, tillarni biror bir morfologik tipga (flektiv, amorf, agglyutinativ kabi) kirishini ko'rsatmaydi. Ikkinchidan, kelishik shakllari kabi so'zlarni bir-biriga bog'lashga ham xizmat qilmaydi.

Bundan tashqari, grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma'nolarning butun bir guruhini qamrab oladi. Grammatik kategoriya loaqal ikkita grammatik ma'noni o'z ichiga oladi. Masalan, otlarga tegishli birlik va ko'plik shakllarini qiyoslash mumkin. Bitta grammatik ma'no hech vaqt grammatik kategoriyaga ega bo'lmaydi[2,100].

Kauzativlikning grammatik kategoriya sifatida o'rganilishining asosiy sababi esa, fe'lning orttirma nisbati shakli bilan bog'langanligida bo'lsa kerak. To'g'ri, nisbat tushunchasi fe'lning asosiy grammatik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Biroq kauzativlik faqatgina nisbat kategoriyasi orqali ifodalanmaydi. Shuning uchun ham tilshunoslikda kauzativlikning morfologik, analitik, leksik, semantik kabi turlari bo'lib o'rganilmoqda. Ana shularni hisobga olgan holda, aytishimiz mumkinki, kauzativlikni grammatik kategoriya deb emas, balki grammatik ma'no ifodalovchi vosita sifatida talqin qilish to'g'ri bo'ladi. Chunki kauzativlikni son, egalik, kelishik, rod kabi kategoriyalar sirasiga qo'shib bo'lmaydi. Bundan tashqari, kauzativlik semantik nuqtayi nazardan o'rganilganda esa

grammatik kategoriyaga nisbatan mantiqiy kategoriyaga yaqin turadi. Fikrimiz isboti uchun quyidagi misolga e'tibor qarataylik:

*Besh minutdan keyin adyutant nima uchundir og'zi qulog'iga yetib chiqdi* (M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha).

Ko'rinib turibdiki, *adyutantning* xursand bo'lishi qandaydir sababga bog'liq holda ro'yobga chiqmoqda. Bunda, o'z navbatida, kauzativ ma'noni yuzaga keltiruvchi harakat sodir bo'layotganligining guvohi bo'lamiz. Boshqacha aytganda, bunday holatdagi kauzativ ma'no gapning *presuppozitsiyasiga* qarab aniqlanadi. Bu haqda Y. A. Daduyevaning «Общая характеристика каузативных глаголов» nomli maqolasida aytgan fikri diqqatga sazovordir: «В семантической структуре каузативных глаголов также выделяется «сема состояния, признака, приписываемого объекту действия», т.е. следствие, логически вытекающее из семы причинности. Именно поэтому «каузативные глаголы обозначают действия-состояния, действия-события, действия-качества, действия – локальные отношения и т.д.»[7,79].

Aslida, kauzativlik tushunchasining semantik tomondan tadqiq qilinishi ham derivatsiya qonuniyatlariga bo'ysunadi. Zotan, derivatsion nuqtayi nazardan olib qaralganda derivatsiyaning har qanday turida (leksik, semantik, sintaktik) shakllanish nazarda tutiladi. Shunday ekan, bu jarayonda kauzativ ma'noning shakllanishini kuzatamiz. Shu bois, derivatsiyaning bu turini *kauzasemantik derivatsiya* deb ataymiz. Chunki yuqorida keltirilgan misolda kauzativ derivatsiya operandlari *nima uchundir* so'roq olmoshi bilan ifodalangan *semantik kauzaoperator* orqali kauzativ ma'nodagi derivatsion munosabatga kirishmoqda. Natijada *kauzaderivat* (kauzativli hosila struktura) shakllanmoqda. Lekin bu xildagi operatorlar hamma vaqt ham gap tarkibida talab qilinavermaydi:

*Besh minutdan keyin ad'yutant og'zi qulog'iga yetib chiqdi.*

Bunda, garchi real semantik kauzaoperator qatnashmagan bo'lsa-da, sabab ma'nosini beruvchi kauzativ distributsiyani anglaymiz. Ushbu jarayonda esa nol ifodali kauzaoperator muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, derivatsion jarayon operatorsiz voqelanmaydi. Bunday operatorning tiklanishi har doim ham amalga oshmaydi, chunki jumla mazmunidan nutq jarayonida uning kauzativ qurshovdaligi aniq sezilib turadi. Bu esa belgisiz operatorlardan shu jihati bilan farq qiladi. Kauzativlikni semantik nuqtayi nazardan o'rganish alohida mavzu obyektini hisoblanadi, albatta. Ammo biz aytayotgan fikrimiz orqali kauzativlikning grammatik kategoriya emasligini dalillay olamiz.

Shuni aytish kerakki, deyarli barcha ishlarda morfologik kauzatsiya va analitik kauzatsiya tushunchalari bir-biridan farqlab o'rganilgan[8]. Aslida, *analitizm* hodisasi tilshunoslikning morfologiya sohasi bilan bog'liq ravishda talqin qilinadi. «*Analitizm*» termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, «*bo'lish*», «*ajratish*» degan ma'nolarda ishlatiladi. Bu tushuncha so'zning morfologik o'zgarimasligida (turlanmasligida) namoyon bo'ladi. So'zning morfologik o'zgarimasligi natijasida grammatik ma'no yordamchi so'zlar (ba'zan mustaqil so'zlar uyg'unligida), so'z tartibi, ohang orqali ifodalanadi. Lekin, shuni ham aytish kerakki, analitik kategoriya tushunchasi, o'z navbatida, vazifasiga ko'ra leksik, morfologik va sintaktik turlariga bo'linishi bilan farqlanadi[6,31]. Biz esa, ayni paytda, analitizmning morfologik nuqtayi nazardan talqin qilinishiga e'tibor qaratmoqdamiz.

Morfologik tomondan yordamchi so'zlar (ba'zan mustaqil so'zlar), ohang analitika tushunchasi bilan bog'lanar ekan, kauzativ ma'no ham sanab o'tilganlarning barchasi bilan bemalol ifodalanaveradi. Shu bois, kauzativlikning analitik vositalar bilan ifodalanishini morfologiya sohasidan alohida o'rganilishida lingvistik ma'no yo'q deb hisoblaymiz. Boshqacha aytganda, kauzativlikning analitik vositalar bilan hosil bo'lishini morfologik kauzatsiyaning bir turi sifatida tadqiq qilish to'g'ri bo'ladi.

Y. G. Testelesning morfologik kauzatsiyaning analitik turi tabiati talqiniga bag'ishlagan fikriga ko'ra, kauzativlikning analitik vositalar bilan ifodalanishi maxsus yordamchi fe'llar bilan hosil bo'ladi va bu faqat ingliz, nemis hamda fransuz tillariga xosligi ta'kidlanadi. Fikr isboti uchun olim quyidagi misollarni keltiradi:

Английский язык

1. *He works for me.*

Он работает на меня.

*I make him work for me.*

Я заставляю (каузирую) его работать на меня.

Французский язык

2. *Jean écrit une lettre au directeur.*

Жан напишет письмо директору.

*Je ferai écrire une lettre au directeur par Jean.*

Я заставлю (каузирую) Жана написать письмо директору.

Bundan tashqari, olim morfologik kauzativlikning analitik turini sintaktik kauzativlik bilan bir xil hodisa sifatida talqin qiladi: «К аналитическим, или синтаксическим, каузативам относится английское *make*, немецкое *lassen*, французское *faire*»[18,432].

Bizningcha, mazkur fikrning e'tirozli tomonlari bor. Kauzativlik tushunchasining yordamchi fe'llar bilan izohlanishining o'zigina sintaktik kauzativlikni to'liq yoritib bera olmaydi. Sintaktik kauzativlik deganda til belgilarining nutqda turli xil lingvistik unsurlar yordamida kauzativ ma'no og'ushida faollashuvini tushunamiz. Agar, Y. G. Testeles aytganidek, analitik kauzatsiyada kauzativ ma'no yordamchi fe'llar bilan hosil bo'ladigan bo'lsa, u holda kauzativ qurilmalar hosil bo'lishining bu turini faqat analitik tillarda emas, balki agglutinativ tillar materiallari asosida ham kuzatishimiz mumkin.

Masalan, Q. Sapayev fe'ldan anglashilgan harakatning xarakteristikasini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi shakllari haqida gapirib, fe'lning bu shakllari harakatning miqdoriy belgisi, uning bajarilish tusini, harakatning bajaruvchi tomonidan turlicha baholanishi singari modal ma'nolarni anglatishi va fe'lning modal shakllari tuzilish jihatidan sintetik va analitik shaklga bo'linishini to'g'ri ta'kidlaydi[16,186]. Olim qo'y ko'makchi fe'li ravishdoshga hech qanday grammatik vositalarsiz birikkanda harakatni bajarishga da'vat, maslahat kabi ma'nolarni ifodalashini aytadi hamda quyidagi misolni keltiradi:

*O'zingizni koyitib ovora bo'lmang, tayyor bizning qo'shda haydang qo'ying-da* (M. Ismoiliy).

Darhaqiqat, keltirilgan misolda qo'y ko'makchi fe'li orqali bir shaxsning (bajaruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakat ifodasi mavjudligini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, qo'y ko'makchi fe'li kauzativ qurilmani hosil qiluvchi analitik vosita ekanligi izoh talab qilmaydi.

N. A. Baskakov ham turkiy tillarda grammatik ma'noning voqe bo'lishi quyidagi uch usulga asoslanishini ko'rsatadi:

1. Mustaqil so'zlarning ko'makchi so'zlar bilan birikuvi.
2. Sintetik usul.
3. Analitik usul[5,13].

Shunday ekan, o'zbek tilida ham *tayinlamoq*, *majburlamoq*, *buyurmoq*, *undamoq*, *da'vat etmoq* kabi fe'llar bilan bema'lol kauzativ qurilmalar shakllanishi mumkin:

1. *Abdulla aka «Mushtum»ga telefon qilib: «Said Ahmad kelsa, albatta menga uchrashsin», - deb tayinlagan ekan* (S. Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim).

2. *Studentlar shovqin ko'tarib: «Muhokamani Abdulla Qahhor boshlab bersin», - deyishdi. Fakultet dekani Abdulla Qahhorga so'z berishga majbur bo'ldi* (S. Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim).

3. *Bir kuni Tarmochuqqa qal'a atrofini qadamlab chiq-chi, deb buyurdi* (M. Ali. Ulug' saltanat. Birinchi kitob).

Keltirilgan misollarning birinchisida *kauzatorning* (Abdulla aka) ta'siri bilan «Mushtum» jurnalidagi xodim tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakat ifodasi anglashiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kauzativ qurilmalarning shakllanish jarayoni derivatsion qonuniyatlarga asoslanadi. E'tiborli tomoni shundaki, ushbu makromatn tarkibiy qismlarining har birida *kauzaoperator* mavjudligini kuzatamiz. Mazkur qurilmani makromatn deb tahlil qilishimizning sababi uning operandlaridan biri tobe komponentli MSQ (murakkab sintaktik qurilma) bo'lib, u mikromatn tarzida o'rganiladi. Makromatnning birinchi komponenti sodda gapdan iborat bo'lib, uning tub strukturasi vazifasida kelayotgan *tayinlamoq* fe'li analitik vosita sifatida kauzaoperator ham hisoblanadi. Makromatnning ikkinchi uchasi esa tobe komponentli MSQ bo'lib, unda ham tub struktura sifatida kelayotgan *uchrashmoq* fe'lga birikib kelayotgan buyruq-istak mayli qo'shimchasi - *sin* kauzaoperator sanaladi. Kauzativlik tushunchasi bevosita shart ma'nosi bilan ham bog'langanligi tufayli, makromatn ikkinchi uchasi tobe qismiga birikib kelayotgan *-sa* shart mayli qo'shimchasi ham kauzaoperator vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, mazkur affiks bir yo'la ikki vazifani: birinchidan, tobe komponentli MSQ operandlarining derivatsion munosabatini shakllantiruvchi operator, ikkinchidan, kauzativlik ma'nosini yuklovchi kauzaoperator funksiyasini o'taydi. Natijada, kauzaoperatorlar yig'indisi orqali yanada kuchliroq kauzatsiyaning



shakllanayotganini kuzatamiz. Shu bois bunday kauzativlikni *murakkab kauzatsiya* deb ataymiz. Tahlil qilinayotgan makromatn esa *murakkab kauzativli qurilma* hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, hamma vaqt ham kauzaoperatorlarning mavqei va bajaradigan vazifasi sintaktik derivatsiyani yuzaga keltiruvchi operatorlarnikidek baland bo'lmaydi. Ya'ni, ular har doim ham operandlarning sintaktik munosabatini ta'minlay olmaydi.

Umuman olganda, analitik tushunchalar, mayl va nisbat qo'shimchalari, ayrim kelishik shakllari kabi unsurlar kauzativlikni shakllantiruvchi morfologik vositalar hisoblanadi. Ularning ba'zilar sintaktik jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Berilgan misollarning ikkinchisida *-sin* qo'shimchasi va *majbur bo'lmoq* fe'li, uchinchisida esa affiks shaklidagi *-chi* yuklamasi, *buyurmoq* fe'li kauzaoperator vazifasini bajarimoqda. Ammo ularning mavqei birinchi misoldagi *-sa* shart mayli bilan ifodalangan operatornikidek yuqori emas. Shuni aytib o'tish kerakki, *majbur bo'lmoq*, *buyurmoq* fe'llari ham ikki vazifani o'tamoqda. Ular *tub struktura* bo'lishi bilan bir qatorda, *kauzaoperator* vazifasida ham kelmoqda. Aynan shuning uchun ham gap, MSQ kabi sintagmatik qator birliklari *kauzativ struktura* sifatida shakllanmoqda.

Fe'ling jumla tarkibida ohanrabo vazifasini bajarishini va shu bois jumlaning boshqa komponentlari u orqali boshqarilishini L. Tenyer o'tgan asrning 50-yillarida ilmiy dalillab bergan edi[17]. Tahlil qilinayotgan misollardan ko'rinib turibdiki, darhaqiqat, fe'l tub struktura vazifasida kelishidan tashqari butun qurilmani kauzativ ma'noda voqelanishini ham ta'minlamoqda. Boshqacha aytganda, fe'l aktantlar bilan valentlik hosil qilishi bilan birga ularni qandaydir harakatni ijro etishga undayotganligi aniq sezilib turibdi.

Yordamchi fe'llardan tashqari, morfologik kauzativlikni ifodalovchi analitik vositalardan yana biri ohang hisoblanadi. Ohang, odatda, urg'u va melodika bilan farqlanadi. Ular ohangning tarkibiy qismlari sanaladi. Ammo ba'zi tillarda urg'u, ba'zilarida esa melodika grammatik ma'no ifodalashda faol qatnashadi[19,38].

Til belgilarining nutqqa ko'chirilishi, shubhasiz, insonning tafakkur faoliyati bilan bog'lanadi. Nutqda kauzativ qurilmalarning ishlatilishi til unsurlarining mexanik tarzda nutqqa ko'chirilishi emas, balki so'zlovchining til sistemasi va so'zlashuv muhiti bilan munosabati natijasini taqozo etadi. I. V. Arnold ham inson omilining til sistemasi voqeligi uchun ustuvor ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlaydi: «Tilni faqat o'z qobig'ida uning ijodkori va egasi ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi»[4,125-126].

Til hodisalarini o'rganishda har doim quyidagi uchlikka asoslanish maqsadga muvofiqdir: til – so'zlovchi – pragmatik omillar. Ravshanki, mazkur uchlikning uchinchi muchasi intonatsiyani ham o'z ichiga oladi, uning real qo'llanishi esa nutq muhitining talablariga bog'liq bo'ladi. Intonatsiya haqida gapirganda shuni ham aytish kerakki, u til sistemasi unsurlari jumlasiga kirmaydi, zotan, tilda fonema, morfema va so'zdan boshqa narsa yo'q. Intonatsiya nutq unsuri sanalib, til sistemasi birliklarining nutqda real qo'llanishiga so'zlovchi orqali ta'sir etadi.

So'zsiz, til nutqqa so'zlovchi tomonidan kiritiladi. Bu esa so'zlovchining tilga ta'sirini yanada oshiradi. Demak, supersegment vositalarning til hodisalariga munosabati ham so'zlovchi orqali voqelanadi. Shu bois kauzativlikning intonatsiya orqali namoyon bo'lishi ham insonning nutqda supersegment unsuridan qay tarzda foydalanishi bilan amalga oshadi:

*Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchlig'imni buzmoq istaylar! Qo'yaman sizni!* (A. Fitrat. Abulfayzxon).

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, *Qo'yaman sizni* jumlasida ifodalananayotgan intonatsiya orqali *mening tinchimni buzganligingiz uchun sizlarni qo'yamayman*, degan kauzativ ma'no ifodasi ro'yobga chiqayotganligi izoh talab qilmaydi. Boshqacha aytganda, bir shaxsning qandaydir harakatni amalga oshirganligi (kishilar tomonidan tinchlikning buzilganligi) sababli, boshqa bir harakatning bajarilishi kuzatiladi. Bunday holatda ohang morfologik kauzatsiyaning analitik vositasi sifatida *kauzaoperator* vazifasini o'taydi.

Kauzativlik mavzusi yoritilgan ayrim ishlarda leksik kauzativlik morfologik kauzativlikning analitik vositalari asosida hosil bo'lishi bilan chalkashtirib yuboriladi: «Ko'pgina yasama bo'lmagan o'timli fe'llar o'zining ifodalanuvchi tomoniga ko'ra kauzatsiyalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, rus tilidagi *kesmoq*, *qo'ymoq*, *ochmoq* kabilarni leksik jihatdan kauzatsiyalovchi fe'llarga misol qilishimiz mumkin». Fikr davom ettirilib, *kesmoq* asosida nimanidir bo'lish, *qo'ymoq* asosida nimanidir joylash, *ochmoq* asosida nimanidir ochish nazarda tutilishi ta'kidlanadi[11,381].

Agar mazkur fikrga qo'shiladigan bo'lsak, unda barcha fe'llarni nimaningdir natijasi yoki sababini ifodalovchi kauzativ fel deb o'rganishimizga to'g'ri keladi. Bizningcha, fe'ning o'timli yoki o'timsizligiga, yasama yoki yasama emasligiga qarab emas, balki uning real kauzativ ma'no ifodalashiga qarab tadqiq qilish ma'qul bo'ladi. Masalan, avval aytib o'tilgan *majburlamoq, undamoq, buyurmoq* fe'llari kabi. Jumladan, Moskva universiteti dotsenti N.M.Mosina bu haqda gapirganida kauzativ fe'llarga juda o'rinli ta'rif beradi: «...каузативный глагол– это единица, имеющая сложную семантическую структуру, в которой ведущей семой является сема воздействия, присущая только каузативным глаголам. Так, например, в русском языке значение волевого воздействия передается только небольшой группой глаголов: дать, заставить, делать, позволить, приказать, велеть, просить, принуждать и др»[12,238].

Yuqoridagi fikr esa leksik kauzativlikka qaraganda ko'proq kauzativlikni semantik jihatdan tadqiq qilinishiga yaqin turadi. Bundan tashqari, kauzativlik tushunchasi grammatik ma'no ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uni leksik nuqtayi nazardan o'rganish to'g'ri bo'larmikan? Chunki til birliklari leksik tomondan tadqiq qilinganida ko'proq so'z yasalishi masalasi tushuniladi. Masalan, leksik derivatsiyaning o'limi. Derivatsiyaning bu turida so'z yasalishi jarayonidagi hosila struktura sathida ro'y beruvchi morfemalarning ichki munosabati tekshiriladi. Shu bois kauzatsiyaning affiksatsiya usuli doirasida ro'y berishinigina leksik derivatsiya qonuniyatiga asoslangan holda tadqiq qilsa bo'ladi, deb o'ylaymiz. Shunda ham uning grammatik jihatdan shakllanishi tekshiriladi. Masalan, *yozdin* so'ziga e'tibor qarataylik. Mazkur so'z, shubhasiz, qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi kauzativ hosilani taqozo etadi. Agar ushbu hosila sathida qo'llanayotgan morfemalarning o'zaro munosabatga kirishuviga e'tibor bersak, quyidagilarni kuzatamiz: *yoz* – harakat ifodasini beruvchi kauzaoperand, *dir* – kauzaoperator. Biroq harakat bilan kauzativ operator munosabatga kirishishi uchun *kauzator*, ya'ni harakatni bajarishga undovchi shaxs ham muhim rol o'ynaydi. Kauzativ, o'z navbatida, ijrochiga qaratilgan bo'ladi. Demak, ayni paytda, *kauzator + kauzaoperand + kauzaoperator + ijrochi* o'rtasidagi bog'lanishni ko'ramiz. Bu o'rinda til birliklarining paradigmatic qator sathida mikrosintagmatik munosabatga kirishuvi jarayoni shakllanayotganini ham kuzatamiz. Kauzativlikning maxsus qo'shimchalar bilan hosil bo'lishini esa morfologik kauzatsiyaning affiksatsiya usuli deb organsak to'g'ri bo'ladi.

Morfologik kauzatsiyaning affiksatsiya usuliga fe'ning buyruq-istak maylini hosil qiluvchi shaklini ham kiritishimiz mumkin. Chunki fe'ning bu shakli orqali buyurish, iltimos, maslahat, istak kabi ma'nolar ifodalanadi:

–*Yaxshi. Va'da ham berayin, ammo sen unashmay tur* (A. Qodiriy. O'tkan kunlar).

Keltirilgan misolda *berayin, unashmay tur* kabi fe'llarning ishtirok etayotganligini kuzatamiz. Bunda *berayin* so'zidagi *ber* fe'li kauzaoperand bo'lib, *-ay* affiksi kauzaoperator vazifasida kelmoqda. Natijada *beray* kauzaderivati orqali so'zlovchining o'z-o'iga bo'lgan da'vati anglashiladi. Boshqacha aytganda, kauzatorning kauzatsiyalash xususiyati o'z ustida amalga oshadi. *-in* qo'shimchasi ham kauzaoperator hisoblanadi, biroq u mustaqil ravishda kauzaoperandga birika olmaydi. U kauzaoperandga birika olmasa-da, asosiy operatorga qo'shib, kauzativlik ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Shu bois bunday operatorni *yarimfunktional kauzaoperator* deb ataymiz. Kauzaoperator bilan birgalikda yarimfunktional kauzatorning birikuvidan *ustkauzativlik* ma'nosi shakllanadi. *Uchrashmay tur* fe'li esa ikki operanddan iborat bo'lib, birinchi operandga birikib kelayotgan ravishdoshning *-y* shakli orqali ifodalangan operator operandlarning o'zaro munosabatini shakllantiradi. Mazkur kauzativ qurilmada ikkinchi operand tasarrufida real ifodalanmagan nol operator mavjud bo'lib, u kauzativ ma'noni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bunda kauzatsiyalash kauzator orqali harakat ijrochisiga yuklanadi.

Bundan tashqari, affiks shaklidagi *-chi* yuklamasining kauzativlikni hosil qilishi ham morfologik kauzatsiyaning tekshiruv obyekti hisoblanadi. Zero, mazkur yuklama, o'z navbatida, buyruq, do'q, iltimos, qistash, ta'kid, uqtirish ma'nolarini bildirishga xizmat qiladi. Ushbu ma'no ifodalari esa, shubhasiz, kauzativlik tushunchasi bilan bog'lanadi.

–*Bir so'zlig'ingizni qo'ying, er; o'zi aslzoda, loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishka va'da bering-chi, - dedi* (A. Qodiriy. O'tkan kunlar).

Ushbu misolda *va'da bering-chi* murakkab fe'li mavjudligini ko'ramiz. Bu holatda fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'ning birikuvini ta'minlovchi *-ni* belgisiz operatori ikki operandni derivatsion munosabatga kiritmoqda. Mazkur fe'lni murakkab deb atashimizning boisi shundaki, birinchidan, fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'ning derivatsion munosabatidan semantik jihatdan ko'chma ma'nodagi

derivat, ikkinchidan, grammatik ma'no ifodasiga ko'ra *mikrokauzativ qurilma* shakllanayotganining guvohi bo'lamiz. Murakkab fe'ning ikkinchi komponentiga birikib kelayotgan II shaxs ko'plik (hurmat) formasidagi buyruq-istak mayli affiksi *-ing* kauzaoperator vazifasida kelmoqda. Bundan tashqari, affiks shaklidagi *-chi* yuklamasi ham kauzaoperator vazifasini o'taydi va ta'kidlash, buyurish ma'nosida ustkauzativlik xususiyatini beradi. Qo'shaloq holda kelgan mazkur operatorlarni *dublkauzaoperator* deb ataymiz. Agar ta'kid yoki buyurish ma'nosi qo'llanmasa, *-ing* operatorining o'zi bema'lol kauzativ derivatsiyani ro'yobga chiqaraveradi:

...*loaqal bir og'iz o'g'lingga aytib o'tishka va'da bering, - dedi.*

Yoki mazkur jumla hurmat formasi ishtirokisiz II shaxs birlikda qo'llangan bo'lsa, *-chi* yuklamasi bema'lol kautsiyani shakllantiraveradi:

...*loaqal bir og'iz o'g'lingga aytib o'tishka va'da ber-chi, - dedi.*

Bu esa, o'z navbatida, so'zlovchining ongida sodir bo'layotgan turli jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, nutqiy faoliyatda kauzativlikning shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, morfologik vositalar sintaktik kauzativlikni shakllantiruvchi omillar sifatida ham faol ishtirok etadi. Umuman, til sistemasi unsurlarining faoliyatini tadqiq qilar ekanmiz, ularni faqatgina maxsus bir grammatik qobiq ichida o'rganib bo'lmaydi. To'g'ri, sistema unsurlari iyerarxik munosabat qonuniyatiga bo'ysunadi, ammo ular bir-birini to'ldirishga, faollashtirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, buning isbotini kauzativ qurilmalarning shakllanishida ham ko'rishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, inson so'zlashuv jarayonida til unsurlarini ite'molga kiritar ekan, ulardan qay tarzda foydalanishi uning subyektiv xohishi va til tashqi muhitining talablari bilan bog'liq bo'ladi.

Morfologik kauzativlikning affiksatsiya turiga uning o'rin-payt va chiqish kelishigi shakllari bilan ham hosil bo'lishini kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilida fe'ning orttirma nisbati o'zining maxsus shakllariga ega bo'lib, ularning har birining kauzativlik hosil qilishidagi o'rni haqida alohida to'xtalishga birgina maqolaning hajmi yetarli emas, albatta. Shu bois bu haqda kelgusidagi tadqiqotlarimizda batafsilroq to'xtashga harakat qilamiz.

#### Adabiyotlar

1. Абдиев Т. К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. –Бишкек: Манас, 2009; Абумова О. Д. Структурная типология тюркских причинно-следственных конструкций и ее семантическая реализация в хакасском языке//Автореф. дис. канд. филол. наук: –Новосибирск, 2002; Сымулов М. Г. Способы выражения каузативных отношений в разноструктурных языках: на материале английского и чувашского языков//Автореф. дис. канд. филол. наук: –Чебоксары, 2006; Тажибаева С. Ж. Способы выражения каузальных отношений в казахском языке//Автореф. дис. док. филол. наук: –Новосибирск, 2004.
2. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –T.: Sharq, 2010.
3. Ааматов А. М., Филимонов Н. Г. Каузативные аффиксы в современном английском языке//Научные ведомости, № 6, 2012.
4. Арнольд И. В. Современные лингвистические теории взаимодействия системы и среды//Вопросы языкознания, № 3, 1991.
5. Баскаков Н. А. Историко-типологическая морфология тюркских языков (Структура слова и механизм агглютинации). –М.: Наука, 1975.
6. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –М.: Большая Российская энциклопедия, 1998.
7. Дадуева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов//Вестник СибГУТИ, № 2, 2011.
8. Длугош А. М. Английский аналитический каузатив со служебным глаголом GET//Автореф. дис. канд. филол. наук: –Киев, 1980; Цуй Ван, Бочина Т. Г. Каузативная конструкция в русском и китайском языках//Филологические науки, № 3, 2014.
9. Гордон Е. Я. Семантические особенности каузативных глаголов чувства в русском языке//Русский язык. Теория и методика преподавания. –Душанбе, 1980.
10. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
11. Мельчук И. А. Курсы общей морфологии. Том II. Часть вторая: морфологические значения. –М.: Язык русской культуры, 1998.
12. Мосина Н. М. Семантико-синтаксическая характеристика элементов каузативной конструкции в эрзянском языке//Вестник ЧГПУ, № 2, 2012.

13. Мосина Н. М., Чинаева Н. В. Характеристика структурных компонентов каузативных конструкций различного типа в эрзянском языке//Финно-угорский мир, №4, 2014.
14. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М: Просвещение, 1985.
15. Sadullayeva L. I. Typological category of causative voice forms in Uzbek and English languages (Типологическая категория форм каузатива в узбекском и английском языках)//Сопоставительная лингвистика, № 6, 2017.
16. Sarayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya). –T.: TDPU, 2009.
17. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. –М.: Прогресс, 1988.
18. Тестелец Я. Г. Введение в общий синтаксис. –М.: РГГУ, 2001.
19. Turniyozov N. Q. Tilshunoslikka kirish. –Samarqand: SamDCHTI, 2005.
20. Шляхтер М. Е. Способы выражения каузации в ранних бенгальских текстах. –Санкт-Петербург: ИЛИ РАН, 2016; Данилова Н. И., Ефремов Н. Н., Самсонова Е. М. Функционально-семантические категории в якутском языке. Каузативность, эвиденциальность, интеративность. –Новосибирск: Наука, 2013.
21. Шорохова И. А. Семантика каузативных глаголов в русском и польском языках. Дис. канд. филол. наук. –Челябинск, 2007.

UDK: 494.3:413

## LEKSEMALASHUV HODISASI VA UNING LINGVISTIK TADQIQI

**B.F.Xolmuxamedov**

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Bu maqolada so'z yasalishiga xizmat qiluvchi leksemalashuv hodisasi va uning mohiyati, o'zbek tilshunosligida bu hodisa bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar o'rganilgan. Leksemalashuv nutqiy jarayon bilan bog'liq ekanligi, bu jarayonda yangi til birliklarining vujudga kelishi, ommalashishi, me'yorlashish, lug'at tarkibidan joy olishi kabi masalalar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** leksemalashuv, so'z yasalishi, erkin so'z birikmasi, tarixiy taraqqiyot, nutqiy jarayon, ixchamlik va qisqalik.

### **Явление лексемизации и его лингвистическое исследование**

**Аннотация.** В статье предпринята попытка изучения явления лексемизации, служащей для словообразования, ее сущность, а также ряд актуальных проблем в узбекском языкознании, связанных с этим явлением. Проанализированы такие вопросы, как связь лексемизации с речевым процессом, в результате которого возникают, распространяются, нормализуются, входят в словарный запас новые языковые единицы.

**Ключевые слова:** лексемизация, словообразование, свободное словосочетание, историческое развитие, речевой процесс, ёмкость и краткость

### **The phenomenon of lexemalization and its linguistic study**

**Abstract.** This article discusses the lexemalization phenomenon and its significance, which in Uzbek linguistics studied current issues related to this phenomenon. The interpretation of lexemalization has been analyzed in the context of the speech process, including the vocabulary.

**Keywords:** lexemalization, word formations, free units of words, historical development, speech process, brevity and clarity.

Leksemalashuv tilda so'z yasalishiga xizmat qiluvchi hodisa sifatida mavjud ekan, uning mohiyati bilan bog'liq savollarga javob topish lozim bo'ladi. Xo'sh, bu qanday lingvistik hodisa va tilshunoslikda qay darajada o'rganilgan? U lisoniy hodisami yoki nutq hodisasi? Leksemalashuv qanday holatlarda yuzaga keladi va uning so'z yasalishiga munosabati qanday? Leksemalashuv hodisasini tilshunoslikning qaysi sohasi o'rganadi? Leksemalashuv jarayonining o'zbek tili leksikasi taraqqiyotidagi ishtiroki nimalarda ko'rinadi? Mazkur masalalar o'zbek tilshunosligining leksemalashuv hodisasi bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muommolaridan biridir.

Avvalo, leksemalashuv hodisasining lingvistik manbalardagi ta'riflariga murojaat qilamiz. Rus va Yevropa tilshunosligidagi lingvistik manbalarda mazkur hodisa «leksikalizatsiya» termini bilan nomlanadi, mazkur termin ostidagi hodisaning mohiyatini tushuntirishda bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflar beriladi. Jumladan, «Lingvistik ensiklopedik lug'at»da «leksikalizatsiya – til elementlari (morfema, so'z shakli)ning yoki element birikmalarining alohida so'zga yoki unga muqobil bo'lgan boshqa lug'aviy birlikka aylanishi» ekanligi aytiladi [4]. O.S.Axmanovning lug'atida rus tilida leksexikalizatsiya deb keltiriladigan termin ingliz tilida «lexicalization», fransuz tilida «lexicalisation», ispan tilida «lexicalizacion» deb nomlanishi aytiladi va «ayrim elementlarning (morfema va shu kabilarning) yoki birikma elementlarining (so'z birikmalarining) tilning alohida so'z ekvivalenti sifatida amal qiladigan turg'un elementlariga aylanish jarayoni» leksexikalizatsiya sifatida tushuntiriladi [1]. J.Maruzo esa erkin so'z birikmasining bir tushuncha ifodalaydigan, bir gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zga aylanishi ekanligi hamda leksexikalashuv yuz bergan so'zning ma'nolari birikma qismlarining yig'indisi ifodalaydigan ma'nolarga teng kelmasligini ta'kidlaydi [5]. Akademik A.Hojiyev esa «sintaktik birlik (so'z birikmasi yoki gap)ning leksexik birlik (lug'aviy birlik)ka, ya'ni so'z yoki turg'un iboraga aylanishi, masalan, *ish haqi*, *temir yo'l*, *mingboshi* birikmalarining lug'aviy birlikka aylanishi»ni leksexikalizatsiya sifatida izohlaydi [8]. Demak, tilda biron bir so'zning muqobili sifatida amal qiladigan erkin so'z birikmasining turg'un so'z birikmasiga aylanishini leksexikalashuv deb tushunish lozim ekan. Masalan, *temir yo'l*, *ish haqi* birliklari hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan bitta tushunchani ifodalaydi, ya'ni ular ajratib yozilsa ham, bitta tushunchani anglatadi. Aslida esa avval ular birikma maqomida bo'lgan, ya'ni *temir yo'l* sifatlovchi sifatlanmish, *ishning haqi* qaratqich qaralmish tarzidagi birikmalar bo'lgan. Tilning keyingi taraqqiyoti natijasida ular orasidagi sintaktik munosabat xiralashgan va bu birikmalar o'zlari anglatadigan tushunchalarning yaxlit nomiga aylangan. Bu kabi birliklarning shakliy xususiyatini nazarda tutgan holda ayrim adabiyotlarda *leksexikalizatsion birikma* termini ham ishlatiladi [9].

*Leksexikalashuv* deganda morfema yoki so'z birikmasi shaklidagi til birliklarining ma'no jihatdan bir lekseximaga teng keladigan lug'aviy birlikka aylanish jarayoni tushunilar ekan, xo'sh, bu jarayon qanday sodir bo'ladi? Leksexikalashuvning hodisa yoki jarayon deb nomlanishining o'ziyoq uning nutq bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligidan dalolat beradi. Leksexikalashuvning hosil bo'lish yo'liga nazar tashlasak, biz uni sof til hodisasi deb ayta olmasligimiz ma'lum bo'ladi. Chunki «til deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikishi va bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi» [6]. Leksexikalashuvga berilgan ta'riflardan ma'lum bo'lmoqdaki, u nutqda yuzaga keladi, aniqrog'i, doimiy qo'llanish birikma shaklidagi ikki va undan ortiq birlikni yaxlit bitta lekseximaga aylantiradi.

Bu hodisa yuzaga kelishining ma'lum sabablari bor, albatta. Shulardan birini tadqiqotchi Kim In Te quyidagicha izohlaydi: Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash, umumiy nomdan xususiy nomlar keltirib chiqarish, uning bir turini ifodalash, yangi paydo bo'lgan tushunchalar, narsa-hodisalarni nomlash, nomlaganda ham ba'zan biroz boshqacharoq tarzda, ma'noni ekspressivroq qilib ifodalash ehtiyoji ana shunday sabablardandir. Mana shu sabablar ikki elementning o'zaro birlashishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik, so'zlardagi ma'no ko'chishi juda qo'l keladi [3]. Demak, leksexikalashuv natijasi bo'lgan birlik – lekseximaning asosiy vazifasi muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatni nomlash bo'lib, bunday nominatsiya leksexikalashuv natijasi bo'lmagan nominatsiyadan ma'lum ma'noda ekspressivligi bilan farq qilar ekan. ammo tadqiqotchi leksexikalashgan birliklarning nominatsiya jarayonidagi ekspressivligini misollar asosida tushuntirmaydi. Bizningcha, leksexikalashgan birliklarning nominatsiya jarayonidagi ekspressivligi masalasi (agar shunday xususiyatga ega bo'lsa)ni aniq misollar asosida tushuntirish lozim.

Leksexikalashuv hodisasi rus va boshqa g'arb tilshunosliklarida batafsil tadqiq qilingan bo'lsa ham, ammo o'zbek tilida maxsus monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Mazkur hodisa haqida so'z yasalishi yoki lingvistik lug'atlarda qisqa to'xtab o'tilgan xolos. Masalan, «O'zbek tili grammatikasi. I tom» (Toshkent, 1975), «Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. III tom» (Toshkent, 1991), «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati» (Toshkent, 2002)da juda qisqa ma'lumotlar berilgan. Aksincha, rus tilshunosligida leksexikalashuv hodisasining shevalardagi holati ham tadqiqqa tortilganki, bu leksexikalashuvning til umumiy rivojidadagi o'rni ahamiyatli ekanligini

ko'rsatadi. Shunday ishlardan biri E.N.Toporova «Shimoliy rus shevalarining leksik asoslanganligi» nomli dissertatsiyasidir. Unda sheva materiallari leksemalashuvi xususida mulohaza yuritib, u yoki bu leksik jarayonlar hosil bo'lishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni tahlil qilinadi [7].

So'z ichki shakli leksemalashuvi va demotivatsiyani chegaralash bir qadar murakkab jarayondir. Bundan tashqari, leksik material yana shundan dalolat beradiki, motivatsion munosabatlarni aktualashtirish imkoniyatini yo'qotgan so'zning ichki shaklini «jonlantirish» tendensiyasi seziladi, ya'ni leksemalashgan yoki demotivlashgan so'z remotivatsion jarayon ta'sirida yangi motivatsion aloqaga kirishadi. Shuni ham qayd etish kerakki, ko'pchilik holatlarda demotivatsiya jarayoniga tovush shaklini o'zgartirish yo'li bilan ichki shakli leksemalashuv tufayli kuchsizlanmagan so'z uchraydi. Paydo bo'lgan leksemalashuv remotivatsion jarayonning tug'ilishiga turtki bo'ladi [3.103]. Demak, tilda leksemalashuv jarayonining paydo bo'lishi tilning tarixiy taraqqiyoti zaruriyati bo'lib, uning yuz berishi tilning amaldagi qonuniyatlariga to'la mos keladi. Bunday «mos kelish» deganda, biz fikrni yangicha tarzda ifoda etish usullarini hamda nutq jarayonidagi ixchamlik va qisqalikka intilishni nazarda tutamiz.

Leksemalashuv nutqiy jarayon bilan bevosita bog'liq ekan, bu jarayonda yangi til birliklarining (bunda yangi ma'no anglatuvchi so'zlar – neologizmlar nazarda tutiladi) vujudga kelishida uning yaratuvchisi bo'lgan insonni ham e'tibordan tashqarida qoldirib bo'lmaydi. Bu jarayonda til egasi uning individualligi va yaratuvchanligi sezilib turishi mumkin. Ana shu jarayonda so'z bir qator bosqichlardan o'tadi. Dastlab u me'yorlashuv jarayonini boshidan kechirishi lozim. Dastlab muomalaga kiritilgan birlik bilan til iste'molchilari – egalari tanishadilar. Uning ma'nosini anglashga intiladi, talaffuz tomoniga ham diqqat qilinadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiylashish jarayonidan o'tiladi. Shundan so'ng u ommalashadi, me'yorlashadi, til egalari tomonidan e'tirof etiladi va lug'at tarkibidan joy oladi. Keng ma'noda navbatdagi bosqich hisoblangan ana shu jarayonni ham leksemalashuv bilan bog'liq, deyish mumkin bo'ladi.

Bu jarayonning faol ishtirokchilari milliy til himoyachilari va targ'ibotchilari, millatning ilg'or vakillari – ijodkor ziyolilar, maorif-madaniyat, ommaviy axborot vositalari xodimlari hisoblanadi. Ular yaratgan yangi til birliklari, jumladan, leksemalashuv yordamida vujudga kelgan leksemalar badiiy asarlarda, teatr sahnalarida, vaqtli matbuot sahifalarida, radio va televideniye eshittirishlarida o'z ifodasini topadi va mustahkamlanadi. Undan foydalanish ko'nikmasi shakllanadi, til egalari shu birlikka nisbatan kommunikativ-pragmatik imkoniyatlar paydo bo'ladi.

A.I.Kuznetsova leksikalizatsiya hodisasini lingvistik jarayonlar silsilasida yaxshi o'rgangan. U «har qanday tilning taraqqiyotida bir-biriga bog'liq ikki tendensiyani: ayrim mustaqil so'zlarning yordamchi vositalarga aylantiradigan leksik hodisalar grammatikalizatsiyasi hamda yordamchi vositalarning so'zning uzviy qismiga, boshqacha aytganda morfemalarga aylanishini ajratish mumkin»ligini ta'kidlab, bunga agglyutinatativ tillar, jumladan turkiy tillar misol bo'la olishini uqtirib o'tadi. Aytilgan mulohazalardan *leksikalizatsiya* hodisasini *degrammatikalizatsiya*, *grammatikalizatsiya* hodisasini esa *deleksikalizatsiya* tarzida tushunish ham mumkin bo'ladi.

Leksikalizatsiya hodisasining mohiyati shundan iboratki, bunda u yoki bu grammatik shakl o'z paradigmatasidan ajralib chiqib, mustaqil so'z – *leksema* sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Mana shu tarzda tilda ko'plab otlar, sifatlar, ravishlar, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar paydo bo'ladi, deb hisoblaydi muallif va quyidagi misollarni keltiradi: *хотя – bo'lsa ham, garchi*, *бы – agar, basharti, bo'lsa edi, koshki, esa*, *впереди – oldida, oldinda, ilgarida*, *спасибо – rahmat, qulluq, tashakkur*, *сливки – biror narsaning eng sara qismi, qaymog'i*, *леса (строительные) – havoza, заношенный – kiyilib eskirgan, kiyib to'zdirilgan, eskirib qolgan, siyqasi chiqqan* kabi.

Ma'lum bir holatda tushunchalar leksikalizatsiyasi – bir tushunchani ifoda etuvchi shakllar almashinuvi yuz beradi. Boshqacha aytganda, bir (grammatik) shakl ikkinchi bir shakl bilan to'g'ridan to'g'ri almashinadi. Semantik xususiyatlariga ko'ra bir-biriga baravar keladigan, ammo stilistik jihatdan o'zaro farqlanadigan birliklar almashinadi. Ushbu fikr leksemalashuv hodisasi haqidagi qarashlarni yanada kengaytiradi. Anglashiladiki, bir tushunchani ifoda etuvchi, bu tushunchani bildiradigan avvalgi shakldan firq qiluvchi ikkinchi bir shaklning paydo bo'lishi shunchaki grammatik shaklning joy almashinuvi emas, balki leksemalashuvdir. Bu o'rinini almashgan so'zlarning semantik jihatdan bir-biriga mos kelishi, leksikalizatsiyaning stilistik jihatdan farqlanishi haqidagi fikr mazkur hodisaning nutqiy vazifasini aniq tasavvur qilinishiga olib keladi. A.I.Kuznetsova сообщите, выдайте, покажите, список tipidagi fe'llar ko'magida kommunikativ vazifalarning leksemalashish imkoniyatlari axborotning maxsus tarmog'i sifatidagi dastlabki tasavvur kommunikativ vazifasining

o‘rinlashishi (eksplikatsiya) masalasini o‘rtaga qo‘yadi deb hisoblaydi. *Pokajite spisok va perechislite* singari holatlarda ularning funksional chegaralanishi xususida gapirish mumkin bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir nutqiy vaziyatdagi *ro‘yxatni ko‘rsating* birikmasini ikkinchi bir holatda qo‘llab bo‘lmaydi va uning o‘rniga *sanab o‘ting* deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Olimaning bu fikri ham hozirgi o‘zbek tilining stilistik imkoniyatlarini, ularning ro‘yobga chiqishida leksemalashuvning mohiyatini tushinishda muhimlik kasb etadi [2].

Xullas, leksemalashuv hodisasi har bir tilning, shu jumladan, o‘zbek tili lug‘at tarkibining uzluksiz boyib borishidagi asosiy omillardan biridir. Bu hodisa natijasida yuzaga kelgan yangi birliklar ichki imkoniyatlar asosida hosil qilingani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., Советская энциклопедия, 1969. С. 215.
2. Кузнецова А.И. Лексикализация грамматических явлений. Спецкурс. <http://www.philol.msu.ru/rus/kaf/otipl/stud/sc98>.
3. Kim In Te. Leksikalizatsiya nutq hodisasi sifatida. O‘zbek tili va adabiyoti, 2005. №2. 102-bet.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. С. 258.
5. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: Изд-во ин-та иностр. лит-ры, 1960. С. 146.
6. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. 8-bet.
7. Топорова Е.Н. Лексическая мотивированность в говорах Русского Севера: Дисс. канд.филол.наук. – Екатеринбург 2001.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 56-bet.
9. [http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo\\_termin/1.htm](http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo_termin/1.htm).

УДК: 491.7

## ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ АНТОНИМИИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Н. Н.Очилова

*Самаркандский государственный университет*

**Аннотация.** В статье рассматриваются типы семантического отражения по отношению к производным антонимам русского языка в связи с асимметричным строением антонимических гнезд, а также разновидность и продуктивность словообразовательных антонимов в разных частях речи в русском языке, их неодинаковое проявление.

**Ключевые слова:** антонимы, словообразование, отражение, антонимические гнезда, словообразовательные антонимы, семантика, лексические, морфологические, структура слова, аффикс, лексические антонимы, производная основа, существительные, прилагательные, глагол, наречие.

### Rus tilida so‘z yasovchi antonimlarning xususiyatlari

**Annotatsiya.** Maqolada zid ma‘noli so‘zlarning mazmuniy ifodasi, turlari, uyadosh antonimlarning assimmetrik tabiati bilan bog‘liq holda rus tili yasama antonimlarga nisbatan o‘rganiladi, shuningdek rus tilidagi turli so‘z turkumlarida so‘z yasovchi antonimlarning xilma-xilligi va sarmahsulligi, ularning bir xilda ifoda etilmasligi ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** antonimlar, so‘z yasalishi, ifoda, uyadosh antonimlar, yasama antonimlar, semantika, leksik, morfologik, so‘z tuzilmasi, affiks, leksik antonimlar, so‘z yasovchi negiz, ot, sifat, fe‘l, ravish.

**Features of word-forming antonymy in the russian language**

**Abstract.** The article deals with the types of the relation to the productive antonyms of Russian language connected with asymmetric construction of antonymic cluster and discusses the diversity and productivity of word-building antonyms in different parts of speech in Russian, as well as their unequal manifestation.

**Keywords:** antonyms, word formation, reflection, antonymic nests, derivational antonyms, semantics, lexical, morphological, word structure, affix, lexical antonyms, derivative base, nouns, adjectives, verb.

В начале второго десятилетия XXI века сохраняет свою актуальность теоретическое и практическое изучение антонимии, а также ее лексикографическое представление как в сопоставительном аспекте, так и по отношению к отдельным этническим языкам. Антонимия представляет собой одну из языковых универсалий, это явление «сложное, диалектичное и полифункциональное, сочетающее в себе черты универсальной логики и языковой идиоматики, закономерностей развития языков и отражения языковой детерминанты» [1, 5]

Следует подчеркнуть, что интерес к изучению антонимии несколько снизился в 90-е годы XX века. В начале XXI века наблюдается, в том числе и в Республике Узбекистан, возрождение интереса к антонимии с позицией осмысления результатов, достигнутых в предыдущие десятилетия, подведения итогов и формулировки новых задач исследования антонимии.

В Узбекистане в последнее десятилетие антонимия русского и узбекского языков, в том числе и в сопоставительном аспекте, исследуется в работах А.С.Пардаева, И.У.Мамасолиева и др. [1], [4].

В кандидатской диссертации Г.Р.Муташевой «Антонимы и антонимические отношения в лексике и фразеологии кумыкского языка» [2, 22] антонимия исследуется как комплексное межъязыковое явление. О возрождении интереса к антонимическим исследованиям в XXI в. Свидетельствует переиздание основных антонимических словарей, например словарей М.Р. Львова [4] и Л.А.Введенской [5].

Бинарная антонимия разнокоренных слов как вид лексической парадигмы – это наиболее изученный в русистике, а также в лингвистике в целом, вид антонимических отношений, однако наряду с изучением антонимических пар активизируется исследование в области антонимических гнезд (АГ) и группировок (см. работы А.С.Пардаева [1], А.Н.Тихонова [6], Л.А.Введенской [7], С.М.Саидовой [8] и др.)

O'zbek mifologiyasida Guldur momo (yoki momaguldirak) osmonda istiqomat qiladigan afsonaviy bir kampir sifatida tasavvur qilinadi. Havo guldirashi ham ana shu kampirning ishi, deb qaraladi. Momaqaldiroqni ayol jinsidagi mifologik personaj, deb tasavvur qilish an'anasi jahonning boshqa xalqlari orasida ham qayd etilgan. Xususan, abxazlar momaqaldiroqning onasi bor, deb hisoblashadi. Ular guldirayotgan tovush ana shu kampirning ovozi, deb biladilar. Go'yo momaqaldiroq yovuz kuchlarni quvib ketayotganida uning onasi: “O'g'lim, ehtiyot bo'l, odamlarga shikast etkazib qo'yma!” – deb qichqirganicha bolasining orqasidan borar ekan [2;39]. Surxondaryoliklar orasida momaqaldiroq gumburlaganda: “*Gupudak momo suprasini qoqayapti*”, – degan naql mavjud [18;216].

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida yashovchi Mamatvafo To'xtamishevdan 1988 yilda yozib olingan mifologik afsonada aytilishicha, osmonda bulutlarning ustida oq matodan ko'ylak kiygan bir momo yashar emish. Uni **Momaqaldiroq** deb atashar ekan. Uch oy qish davomida Momaqaldiroqning gilamlarini chang bosib ketarkan. Shuning uchun bahor kelib, havolar isib ketgach, uyidagi hamma narsasini tashqariga chiqarib yoyib, shamollatar ekan. Gilamlarining changini qoqayotganda osmon gumburlab sado berar ekan. Momaqaldiroq gilamini



qoqayotganda erga tushgan changlar qo‘ziqorin bo‘lib ko‘karib chiqar emish (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1986 yil).

Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi Tarnaut qishlog‘ida uch oy qish mobaynida Momaqaldiroqning uyini chang bosadi, shuning uchun bahor kelishi bilan u changlarini qoqadi, shundan momaqaldiroq bo‘ladi, deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991 yilda tarnautlik Izzat momo Yodgorova va Mahbuba Nozimovalardan yozib olingan).

Afg‘onistonlik o‘zbeklardan yozib olingan *“Albasti momom gilamini qoqar, gilamidan olov chiqar”* [7;6]. topishmog‘ining javobi *“momaqaldiroq”* va *“chaqmoq”* bo‘lib, ushbu jumboq ham tabiiy hodisalar to‘g‘risidagi astromifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan. Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Uyshun qishlog‘ida momaqaldiroq ovozi eshitilganda: *“Momolarimiz gilamlarini qoqayotgani uchun momaqaldiroq bo‘layapti”*, – deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991 yilda Hanifa Islomovadan yozib olingan). Shu qishloqlik 73 yashar Karomat Boboevaning aytishicha, *“momaqaldiroq bo‘lib, chaqmoq chaqqanda momolarimiz o‘zining eski gilamlarini qoqishadi. Bunday paytda oq kiyim kiyilmaydi, osmon gumbirlagan tarafga qarab:*

*Gulduraklar ko‘p bo‘lsin,  
Qo‘ziqorinlar ko‘p bo‘lsin,  
Qir adirlar ko‘k bo‘lsin,  
Qo‘rg‘oqchilik yo‘q bo‘lsin,  
El-u yurtimiz to‘q bo‘lsin!* – deyiladi (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991

yil).

Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Qizilrovot qishlog‘ida momaqaldiroqni **“momopo‘stak”** deb ataydilar [17;15]. Navoiy viloyatining Navoiy tumanidagi Jaloyir qishlog‘ida esa *“Kampir po‘stagini qoqsa, momaqaldiroq bo‘ladi”*, – deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1981-yilda Jo‘raeva Umrinisodan yozib olingan.). Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Darband qishlog‘ida erta bahorda momaqaldiroq gumburlaganda *“Guldur momo ko‘rpassini qoqayapti, agar ko‘rpassining changi ko‘p bo‘lsa, qor yog‘adi, chang kam bo‘lsa, yomg‘ir yog‘adi”*, – deydilar. Aytishlaricha, Guldur momoning ovozi o‘simlik va daraxtlarni qish uyqusidan uyg‘otar emish [14;172]. Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanidagi Ulfatbibi qishlog‘ida momaqaldiroq bo‘lib, chaqmoq chaqsa: *“Xudo o‘zining o‘tirgan po‘stagini qoqdi, hozir momoguldiroq bo‘lib, chaqmoq chaqiladi,”* – deydilar. Chaqmoq oq narsani tez oladi, deb oq rangli narsalarni yashirib qo‘yadilar. Daraxtlarni chaqmoq urishdan saqlash uchun lattaga o‘rab tosh qo‘yib chiqishadi (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991-yilda Sharofat Fayzievadandan yozib olingan). O‘shliklar esa erta bahorda momaqaldiroq ovozi eshitgan paytda **“yil ayrildi”** deydilar va oq hamda yaltiroq narsalarni panaga olishadi [16].

Momaqaldiroq to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlarni tahlil qilishda Rahmatulla Yusuf o‘g‘li tomonidan 1961-yilda yozib olingan **“Uloqchi va Guldurmomo”** ertagi muhim manba bo‘la oladi. Syujeti momaqaldiroq haqidagi mif asosiga qurilgan bu ertakda hikoya qilinishicha, *“bir uloqchi bola jar yoqasida uloqlarini boqib yurganida birdan havo buzilib, tog‘ tomondan osmonni qora bulutlar qoplab, chaqmoq chaqib kelaveribdi. Osmon o‘yilib ketgudek taqirlab, Guldurmomo judayam qahrlanib, o‘shqirib, yomg‘ir yog‘dira boshlabdi. Yomg‘ir ko‘p yog‘ib, uloqchini sel oqizib ketay deb turganida: “Ha, badbax, ha, badbax! Hali sen mening o‘g‘limni oqizib ketmoqchimisan? Qo‘y, nari yoqqa ket!”* – degan dahshatli ovoz eshitilibdi. Bu – Guldurmomo ekan. Guldurmomodan qo‘rqan sel bir lahzada jarning tagiga tushib, pasayib ketibdi. Shundan keyin Guldurmomo uloqchi bolani o‘ziga o‘g‘il qilib olibdi va bulutlar ortiga, o‘zining Ko‘hi Qofdagi uyiga olib ketibdi. Uloqchi momo bergan sehrli tulporni minib *“Meni Guldurmomo turgan joyga olib borib qo‘ygin!”* – deyishi bilan ot bir chirpinib, qanotini yozib yuboribdi-da, parvoz qilib, ko‘z ochib yumguncha Guldurmomoning oldiga etib boribdi. Guldurmomo uloqchini ko‘rib, quvonib: *“Sen otingni bulutlarning tepasida o‘tlatib-o‘tlatib, kech bo‘lgandan keyin uyga bor. Men kechgacha hamma guldurli bulutlarni erning ostiga haydab borib, hammasini qo‘toniga quvonlab, keyin uyga tushaman”*, – debdi.

Uloqchi otini haydab, yuqoriga – bulutlarga, undan ham yuqoridagi bulutlarga chiqib ketibdi. Judayam yuqorida bir toqqa o‘xshagan qattiq bulutlar bo‘lib, u bulutlarning tepasida har xil o‘tlar, boychechaklar va yovvoyi daraxtlar ko‘karib yotar ekan. Yomg‘irni Guldurmomo ana shunday tog‘larning ko‘l va buloqlaridan po‘stagiga to‘ldirib kelib, berigi kichkina yumshoq bulutlardan turib, erga yog‘dirar ekan” [15].

Bu ertakda momaqaldiroqning mifologik obrazi xayoliy uydirma asosida tasvirlangan. U bulutlarning ustida yurib, yog'in-sochinni tartibga solib turuvchi guldurli bulutlar egasi, osmon tog'ining ko'l va chashmalaridan po'stagini suvga to'ldirib kelib, yomg'ir yog'diruvchi afsonaviy kampir. Guldurmomo obraziga xos xarakterli belgi uning yomg'ir suvlarini solib yuradigan po'stagi borligidir. Surxondaryodan yozib olingan bir afsonada aytilishcha, momaqaldiroq o'z izmiga bo'ysunmagan bulutlarni urgan paytida osmon gumburlab, sado berar, po'stagini qoqqanda esa chaqmoq chaqib, yomg'ir yog'ar emish [14;99].

Yomg'ir bilan aloqadorlik Guldurmomo obrazining asosiy xususiyatidir. Navro'z arafasida yog'adigan "obi rahmat" yomg'iri to'g'risidagi afsonada hikoya qilinishicha, ilk ko'klam kunlari havoda gulduragan ovoz eshitilsa, buni "*Guldurmomo Bahoroyning ko'rpasini qoqayapti*," – deb o'ylasharkan. Agar ko'rpa changli bo'lsa, Guldurmomo o'z hassasi bilan urganda erga qor yog'armish. Agar ko'rpaning changgi oz bo'lsa, biroz yomg'ir shivalab o'tarkan, xolos. Navro'z arafasidagi obi rahmat yomg'irini ham Guldurmomo yog'dirar ekan. U qo'lidagi hassasi bilan hamma bulutlarni yig'ib kelib, ura boshlar va natijada bulutlardan yomg'ir yog'ar ekan [11;20-21].

Guldurmomo obrazining bunday mifologik talqini O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklorida, xususan, turkman xalq og'zaki ijodida ham mavjuddir. A.Baymiradovning ma'lumotlariga qaraganda, turkmanlar momaqaldiroqni **Gummurmomo** yoki **Garrimomo** (ya'ni Qarri momo) deb atashar ekan. "Momaqaldiroq bo'lganda "*Garrimomo sanochini* (suv soladigan mesh) *qoqdi*," – deydilar. Bu aytm turkman xalqi yashaydigan joy jo'g'rofiy tuzilishiga ko'ra cho'ldan iborat ekanligi bilan bog'liq. Jazirama yoz issig'ida, ayniqsa, yil qurg'oq kelganda odamlar osmondan yog'in-sochin bo'lishini intizorlik bilan kutishgan. Havoni bulut qoplashi esa lalmi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi aholi uchun yaxshilik alomati hisoblangan. Shunday paytlarda ko'k gumburlasa: "*Ana, Garri momo sanochini qoqayapti!*" – deb xursand bo'lganlar" [4;46]. Janubiy va Sharqiy Turkmanistonda esa yomg'ir, momaqaldiroq va chaqmoq chaqiruvchi mifologik obraz – **Mamaka** to'g'risidagi tasavvurlar mavjudligi qayd etilgan. Xalq qarashlariga ko'ra, Mamaka ulkan sanochini urib, uning ichidagi yomg'irini to'kar, sanochni urayotganda chiqqan ovoz momaqaldiroq bo'lib gumburlar emish. Shuning uchun ham momaqaldiroq gumburlaganda bolalarga qarata: "*Darrov uyga kiringlar, bo'lmasa Mamaka sanochiga solib osmonga olib ketadi!*" – deydilar [6;14].

Bizningcha, O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida momaqaldiroqning osmon suvlari egasi hamda yomg'ir yog'diruvchi samoviy personaj sifatida talqin qilinishida muayyan tabiiy asoslar mavjud. O'rta Osiyo hududi ob-havosining o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, ko'klamgi momaqaldiroq ko'pincha yog'in-sochindan darak beradi. Osmonda qora bulutlar quyuvlashib, momaqaldiroq sadosi eshitila boshlashi bilan odamlar tez orada yomg'ir qo'yishini bilib, taraddudlana boshlaganlar. "*Momaqaldiroq qarsillasa, yomg'irdan darak bo'lmaydi, agar momaqaldiroq gumburlasa yog'may qo'ymaydi*," – deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. Navoiylik Tosheva Nazokatdan 2004-yilda yozib olingan).

Nurota tumanidagi Soykechar qishlog'ida yashovchi 89 yashar Gulmurodbobo Qamboyevning eslashicha, ilgarilari ko'klamda birinchi marta momaqaldiroq bo'lganida oftobadagi suvni yerga quyib turganlar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991-yil). Bizningcha, bu irimni bajarish momaqaldiroqni "yomg'ir suvlarining egasi" deb tasavvur qilishdan kelib chiqqan. Odamlar "yomg'ir ko'p yog'ib, o't-o'lanlar o'ssin, chorvamizga baraka bersin, mo'l-ko'lchilikka, suvday serobchilikka chiqaylik" degan umidda momaqaldiroq sadosi tinguniga qadar oftobadan suv quyib turganlar.

Tojikiston Respublikasining Yovon tumanidagi Ko'lbuloq qishlog'ida erta bahorda birinchi momaqaldiroq ovozini eshitgan ayollar kadiga suv solib eshikma-eshik yurib "So'z xotin" aytganlar hamda Momo Havoning haqiga duo qilib: "*Guldur momo kelsin, Shaldir momo kelsin!*" – deganlar. Har bir xonadon egasi "So'z xotin" aytib borgan ayollarga biror narsa chiqarib berib: "*Oblohu akbar, yomg'ir yog'sin, hammamiz seroblikka yetaylik*," – degan (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1982-yil). Xorazmliklar esa bahorgi birinchi momaqaldiroq va chaqmoqdan keyin yoqqan yomg'irni "*selon*" deydilar. Selon yoqqandan keyin qishning ayozli-izg'irinli kunlari tugagan hisoblanadi. Shuning uchun: "*Selondan so'ng qish bo'lmas, mezondan so'ng yoz bo'lmas*," – deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. Urganch shahri, 1999-yil). Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi Mingchinor qishlog'ida momaqaldiroq gumburlaganda: "*Guldurmomo aravasini suvga to'ldirib surib boryapti. Shuning uchun osmon guldurab, shovqin boshlandi*," – deydilar. Birozdan keyin momaqaldiroqning uzoqda gumburlagani elas-elas eshitila boshlansa: "*Ana, Guldurmomo*

*manziliga yetib borgandan so'ng aravasidagi suvni to'kib, yana suv olish uchun qaytib kelyapti*", – deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 2008-yilda Ozoda Islomqulovadan yozib olingan).

Ajdodlarimiz ilk ko'klam momaqaldiroq'i ovozini eshitganlarida kelayotgan yil hosilining cho'g'ini chamalashga harakat qilganlar. I.Kastanening yozishicha, Kavkazorti turkiylari hosil cho'g'ini avvaldan chamalashning shunday usulidan foydalanganlar: bahor faslida birinchi momaqaldiroq sadosi quloqqa chalinishi bilan oq xonadon sohibi hovliga chiqib, osmonga qoshiqni irg'itib yuborgan. Ana shu qoshiqning qay holatda tushishiga qarab kelayotgan yil hosili qanday bo'lishi to'g'risida fol qilingan: qoshiqning rost, ya'ni o'nglangan holatda tushganligi – barakali kuz belgisi, ters tushganligi esa kamhosillik, qurg'oqchilik alomati, deb qaralgan [8;48]. Qirg'izlar esa momaqaldiroq qaysi tomonda gumburlay boshlashiga alohida e'tibor berganlar. Chunki ko'pni ko'rgan tajribali hisobdonlarning uqtirishlaricha, qadimda momaqaldiroq qaysi tomonda gumburlasa, o'sha joydan baraka arimaydi, deb irim qilingan [1;70].

Dog'istonda yashovchi vaynaxlar bahorda bo'ladigan ilk momaqaldiroqning qaysi tomonda gumburlashiga alohida ahamiyat berishgan. Agar momaqaldiroq janub va sharq tomonda gumburlasa, boshlanayotgan yil hosili mo'l bo'ladi, deb suyunganlar, momaqaldiroqning g'arb va shimolda gumburlashi esa, do'l va sel kelishi hamda hosil kam bo'lishining alomati, deb irim qilishgan. Shuningdek, hali qorlar erimay turib, yerda o'tlar ko'karmasdan gumburlagan momaqaldiroq ham bexosiyat deb qaralgan [10;116-117].

O'zbeklarda ham momaqaldiroq paytida hosil barakasini aniqlash uchun turli xil fol qilish usullari qo'llanilgan. Odamlar momaqaldiroq gumburlashining ketma-ketligi va necha kun davom etishini kuzatadilar. Chunki xalq qarashlariga ko'ra, "*Bir kun guldirasa - qurg'oq, uch kun qatorasiga guldirasa - sig'roq*" degan gap bor. "*Sig'roq*" – yog'ingarchilik, yomg'ir deganidir. Bir necha kun havo bulutli bo'lib, qatorasiga momaqaldiroq bo'lsa, yog'insiz ketmas ekan. Shuning uchun havo guldirasa, odamlar "*Qurg'oqmi, sig'roq?!*" – deb turadilar" (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1987-yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi So'loqli qishlog'ida yashovchi 72 yashar Abdug'affor Shukurovdan yozib olingan). Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi Samarqand qishlog'ida erta bahorda birinchi momaqaldiroq bo'lganda, gumbur-gumbur ovozini eshitgan momolar: "*Qirg'oqqa tushdimi, sig'roqqa tushdimi?*" – deb so'raydilar. Aytishlaricha, "qirg'oq"qa tushsa – momaqaldiroqdan keyin qirg' kun yog'ingarchilik bo'lmas emish. Agar "sig'roq"qa tushsa yog'in-sochin mo'l bo'lishi kutilar ekan (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 2008-yilda G'ayrat Muhammadievdan yozib olingan).

Xalq qarashlariga ko'ra, bahorda birinchi marta momaqaldiroq bo'lgandan keyin darhol yomg'ir yog'masa, qirg' kungacha yog'ingarchilik bo'lmas ekan. Agar momaqaldiroqdan so'ng yomg'ir quyib bersa, qirg' kun yog'inli o'tadi, deydilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 1991-yilda Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, Daraytut qishlog'i). Bu e'tiqodiy qarash ham bevosita tabiatdan mo'l hosil tilash bilan bog'liq qadimgi rituallar ta'sirida yuzaga kelgan. Agar momaqaldiroq qatorasiga bir necha kun guldirab, havo "sig'roq" kelsa, lalmidagi ekinlarning hosili barakali bo'ladi. Shuning uchun ham momaqaldiroq gumburlashi yakkam-dukkam bo'lib, tez orada guldurakning uni o'chsa, odamlar yog'ingarchilik kam bo'lishidan xavotirlanib, tashvishga tushishgan.

Erta bahorda momaqaldiroq gumburlashiga qarab yil fasllari ob-havosi qanday kelishini taxmin qilganlar. Masalan, Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi Hazorbog' qishlog'ida erta bahorda birinchi momaqaldiroq gumburlaganda uning necha marta gumburlashiga alohida e'tibor berishar ekan. Agar momaqaldiroq toq gumburlasa kuz issiq bo'ladi, deydilar; mobodo, juft gumburlasa, kuz havosi mo'tadil bo'lib, yaxshi keladi, deb irim qiladilar (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 2008-yilda Mamatmurodova Dilafro'zdan yozib olingan).

Xalqimizda bahorgi va kuzgi momaqaldiroq haqida ham turli xil e'tiqodiy qarashlar mavjud. Xususan, Surxondaryo viloyatining Boysun shahridagi Ko'ktepa mahallasida yashovchi Xoliq buva Rahmonovning aytishicha, kuzning oxirgi kunlari havo gumburlasa, yaxshilikka yo'yilmas ekan. Chunki "*Bir qasirdasa, olti oyga urib ketar*" ekan. O'sha qishloqlik Umbar bobo havoning kuzgi gumburlashi, ya'ni "*Kuzgi momaqaldiroq xayrli emas, qishning yarmini urib ketadi*", – deydi (Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 2003-yil 23-oktyabr. "Boysun xalqaro folklor ekspeditsiyasi" materiallaridan).

"Momaqaldiroq" yoki "Guldurmomo" obrazining tarixiy-mifologik asoslari qadimgi turkiylarning arxaik mifologiyasiga borib taqaladi. Chunki udmurtlar folklorida momaqaldiroq hosil qiluvchi asotiriy personaj *Gudo'ri mumo'* (momaqaldiroq tangrisi) [20]. deb atalishi, ya'ni

“Guldurmomo” va “Gudo‘ri mumo” mifonimlari tarkibidagi “*guldurG‘G‘gudo‘ri*” hamda “*momoG‘G‘mumo*” lisoniy elementlarining leksik-semantik jihatdan o‘zaro yaqinligi ularning tarixiy-genetik asoslari mushtarak etimologik o‘zakka bog‘liqligidan dalolat beradi.

Momaqaldiroq va chaqmoq bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar qadimgi turkiylar orasida keng tarqalganligi sababli O‘rta Osiyo xalqlari folklorida, jumladan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida bu tabiiy hodisalar to‘g‘risidagi ko‘plab kosmogonik qarashlar saqlanib qolgan. Xalqimizning momaqaldiroq va chaqmoq to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlari bilan turkiy xalqlarning bu tabiiy hodisalarni paydo qiladigan xayoliy-afsonaviy personajlar talqini haqidagi mifik syujetlari o‘rtasida tarixiy-genetik mushtaraklik mavjud.

#### Adabiyotlar

1. Айтбаев Т. Народные знания киргизов XIX – XX вв. // Известия АН Киргизской Республики. Серия общественных наук. Т. I. Вып. 1. – Фрунзе, 1959. – С. 70.
2. Акаба Л.К. Из мифологии абхазов. – Сухуми, 1876. – С. 39.
3. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 59, 76.
4. Баймирадов А. Туркмен фольклор прозасынын тарыхы эволюциясы. – Ашхабад: Ёлым, 1982. – Б. 46.
5. Вильхельм Г. Древний народ хурриты. Очерки истории и культуры. – М., 1992. – С. 36.
6. Джикиев А. Традиционные туркменские праздники, развлечения и игры (на материале Южного и Восточного Туркменистана). – Ашхабад: Ёлым, 1983. – С. 14.
7. Жумбоқлар. Ўзбек халқининг оғиздаги топди маталларидан. Тўпловчи ва чопга топширган: Солих Махмуд Асос. – Мозори шариф, 1389 хижрий. – Б. 6.
8. Кастанье И. Из области киргизских верований. – Ташкент, 1880. – С. 48.
9. Лайпанова К., Мизиева И. Из религиозных представлений и мифологии скифов // <http://www.druzya.com>.
10. Мадаева З.А. Обрядовый фольклор вайнахов в народном календаре // Календарно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. – Махачкала, 1988. – С. 116-117.
11. Наврўз. Наврўз билан боғлиқ карашлар, афсоналар, одатлар ва иримлар. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Т. Мирзаев, М. Жўраев. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 20-21; Жўраев М. “Оби раҳмат” ёмғири // Халқ сўзи. – Тошкент, 1993, 17 март.
12. Омаров М.М. Бог грозы (бог бури) в мифах древних народов // Вестник Дагестанского научного центра. – Махачкала, 2008. – № 31. – С. 98.
13. Салакая Ш.Х. Обрядовый фольклор абхазов // Фольклор и этнография. Обряды и обрядовый фольклор. – М.: Наука, 1974. – С. 19-26.
14. Устоев Ш. Новый год (Навруз) в мифологических воззрениях таджиков и узбеков // СЭ. – М., 1985. – № 6. – С. 99.
15. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви.. Инв. № 1509/4.
16. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви.. Инв. № 1828/2. 1998 йилда Ўш шаҳрида яшовчи 57 яшар Р. Сулаймоновадан Ф. Бозорова ёзиб олган.
17. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви.. Инв. № 1495/1. – Б. 15. 1960 йил 27 майда 59 яшар Қумри момо Тўевадан З. Хусаинова ёзиб олган.
18. Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти: Сурхондарё этнографияси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 216.
19. Шортанов А.Т. Адыгская мифология. – Нальчик, 1982. – С. 64.
20. Аграрный обряд удмуртов // “ethnic and folk” сайтидан олинди.

UDK: 415

## SO‘Z TARTIBINING KOMMUNIKATIV, SINTAKTIK VA USLUBIY VAZIFALARI

A.Q.Sobirov

*Samarqand davlat universiteti  
anvarsobir@mail.ru*

**Annotatsiya.** She’riyatda so‘z tartibi (Hozirgi o‘zbek she’riyati misolida). Maqolada rus va o‘zbek tilshunosligida so‘z tartibiga oid ilmiy ishlar o‘rganilgan. Shuningdek, she’riy matnda odatdagi va o‘zgargan so‘z tartibining kommunikativ, sintaktik, uslubiy vazifalari haqida ilmiy mulohazalar bayon qilingan. Matnda so‘z tartibini belgilovchi asosiy omil “kesim” degan xulosaga kelingan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z tartibi, odatdagi tartib, o‘zgargan tartib (inversiya), kommunikativ, sintaktik, uslubiy vazifa, takror, akromonogramma.

**Коммуникативные, синтаксические и методические задачи порядка слов**

**Аннотация.** В статье изучены порядок слов в узбекском и русском языках. Представлены научные выводы коммуникативных, синтаксических и стилистических задач обычных и измененных порядка слов. Сделано заключение, что «сказуемое» является основным фактором порядка слов.

**Ключевые слова:** порядок слов, обычный порядок слов, измененный порядок слов (инверсия), коммуникативный, синтаксический, стилистическая задача, повторение, акромонogramma.

**Communicative, syntactic, and methodical functions of word order**

**Abstract.** In the article word order in the Uzbek and Russian languages are studied. The scientific conclusions of communicative, syntactic and stylistic tasks of ordinary and altered word order are presented. It is concluded that the "predicate" is the main factor in the word order.

**Keywords:** word order, common order, changed order (inversion), communicative, syntactic, stylistic task, repeated, acromonogram.

Aloqa aralashuv jarayonida ishtirok etuvchi har bir til birligi tilning qaysi sathiga aloqador bo‘lishidan qat’i nazar, bajaradigan eng muhim uch ijtimoiy vazifa – aloqa, xabar, ta’sir etishdan birining amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shu bois tilning aloqani ta’minlash vazifasi so‘zlashuv nutqida, xabar vazifasi odatda rasmiy va ilmiy uslublarda, ta’sir etish vazifasi esa badiiy va qisman publitsistik uslub doirasida ko‘proq namoyon bo‘ladi [1. 6-bet]. Nutqning bu ko‘rinishlari til birliklarini qamrab olishi, lug‘aviy tarkibi, grammatik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Insonning nozik his tuyg‘ularini ifodalashda o‘zgargan so‘z tartibi (inversiya) ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ushbu masalaga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratgan Karim Xayitmetovning fikricha, gap bo‘laklari tartibi “qatilyligi” til tarqaqiyoti davomida “erkinnlikka” o‘tib bormoqda [2. 69-bet]. Buni aruz vazni davrlar o‘tishi bilan o‘z o‘rnini barmoq vazniga, barmoq vazni esa o‘z o‘rnini erkin vaznga bo‘shatib berayotganligidan ham sezish mumkin, bizningcha. Rivojlanish natijasida nutq birliklari mavjud qoliplarga sig‘may, yangi-yangi shakliy ko‘rinish kasb etmoqda. Aytmoqchimizki, so‘z tartibiga doir qoliplar o‘zgarib, yangilanib boryapti. O‘zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ tillarga kirganligi va ko‘p hollarda so‘z shakllari uning sintaktik o‘rinlarini ham tayinlab turganligi sababli gap bo‘laklarining tartibi amorf tillariga nisbatan ancha erkin. Gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishi ko‘pincha bu bo‘laklarning sintaktik o‘rnini va gapning umumiy mazmunini o‘zgartirmaydi” [3. 11-bet].

So‘z tartibining poetik sintaksisda muhim o‘rin tutuvchi vosita ekanligi ilgaridan tilshunoslar e’tiborini o‘ziga qaratib, bu haqdagi dastlabki ilmiy talqinlar rus tilshunoslari T.S.Yadixanova [4], O.B.Sirotnina [5], I.I.Kovtunova [6] kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan edi. Tadqiqotchilar haqli ravishda so‘z tartibini gapning akutal bo‘linishi, u bajaradigan kommunikativ vazifa to‘laligicha muloqot maqsadi va u amalga oshadigan nutqiy vaziyat bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. O‘zbek tilshunosligida so‘z tartibiga bag‘ishlangan dastlabki ish sifatida Ayub G‘ulomovning “O‘zbek tilida so‘z tartibi” maqolasini ko‘rsatish mumkin [7.123-124-betlar] Muallif ushbu maqolada, asosan, nasriy matnda so‘z tartibining vazifalari, strukrural-grammatik ko‘rinishlari, aniqrog‘i ega va kesim tartibi,

aniqlovchi va aniqlanmish tartibi, hol va kesim tartibi, to'ldiruvchi va kesim tartibiga alohida-alohida qarab chiqqan. Biz esa ushbu tadqiqotimizda birinchilardan bo'lib she'riy nutqqa so'z tartibi va uni belgilovchi ayrim omillarga to'xtalmoqchimiz.

So'z tartibi gap bo'laklarining qanday tartibda joylashuviga qarab belgilanadi. O'zbek tilida gap bo'laklarining joylashishi erkin ko'rinishda, kesimning egadan keyin kelishi yoki ikkinchi darajali bo'laklarning gap markaziga nisbatan joylashish tartibi qat'iy emas. Ular nutq sub'ekti, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadi hamda nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, o'zgarishga uchrashi, cheklangan darajada o'zi bog'liq bo'lakka nisbatan joylashish tartibini o'zgartirishi, gap boshida yoki oxirida kelishi mumkin. N.S.Valgina e'tirof etganidek, gap bo'laklarining cheklangan darajada joylashishi ikki sabab bilan: gaplararo birlik chegarasida ifoda komponentlarining struktur bog'liqligi, yani gap qurilishi nuqtayi nazaridan va ma'noviy ahamiyatiga bog'liq" [8. 35-bet].

She'riy matnda so'zlar tartibi va unda joylashgan so'z shakllari o'z funksional tabiatidan kelib chiqib, **kommunikativ, sintaktik va uslubiy** vazifalarni bajarishi mumkin.

Kommunikativlik nuqtayi nazaridan so'z tartibi gapning aktual bo'linishini ifodalovchi komponentlar, ya'ni tema va remaning namoyon bo'lishiga imkon yaratadi. Gapning aktual bo'linishi bu – gapning muayyan nutqiy matndagi mundarijasidan kelib chiqib, mazmun jihatdan bo'linishi. Bunday bo'linishda gap ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) so'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum narsani ifodalovchi qism (tema); 2) so'zlovchi bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan qism, ya'ni yangi axborot, ma'lumot qismi (rema): *Bu yilgi rejalar yana ham katta*. Bu gapning aktual bo'linishida tema: *bu yilgi rejalar*; rema: *yana ham katta*" [9. 83-bet].

Uslubiy betaraf ilmiy, rasmiy hamda qisman publitsistik nutqda tema doimo remadan oldin keladi, mantiqiy urg'u gap oxirida keladi. Bu holat she'riy nutqda ham kuzatiladi. Masalan: *Ering g'azablandi, sen-chi yig'lading, Hamma narsa bo'ldi oxiri ayon* (U.Azim). Keltirilgan misoldagi dastlabki ikkita sodda gapning har ikkisi ham ega va kesimdan tarkib topgan. Ikkinchi gapdagi ifodalangan fikr birinchi gapda ifodalangan ma'lumotga aniqlik kiritmoqda, shuning uchun bu ikki gapni yaxlit olib qaraganda ikkinchi gap o'zida temani qamrab olgan. Keyingi gap dastlabki gapga nisbatan ikkinchi pozitsiyada joylashgan va remani ifodalagan, aynan u aktuallashgan, deyish mumkin. Ko'rinadiki, gapda tema va rema munosabatiga oydinlik kiritishda gapda kommunikativ vazifa, ya'ni so'zlovchining mazkur matn yoki nutqiy vaziyatda gapdagi eng muhim deb hisoblagan tomonini ta'kidlab ko'rsatishi, unga urg'u berishiga qarab fikr yuritishni taqozo qiladi. "Badiiy nutqni o'rganuvchi LP (lingvistik poetika) ham til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik vazifasini qamrab oladi.

Shuningdek, gap bo'laklarining o'rinishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishga xizmat qiladi" [10. 152-bet]. She'riy matnlarda odatdagi so'z tartibidan foydalangan holda ma'noni kuchaytirishda takror muhim rol o'ynaydi. Masalan, To'ra Sulaymonning "Tebratar" she'rida kesimning joylashish o'rni o'zgartirilmagan holda faqat ikkinchi darajali bo'lak – to'ldiruvchini keying misrada egaga aylanishi, aytish mumkinki, takrorlanishi gapga yangi ma'no yuklangan:

Shamol shamolni tebratar.

Shamol bulutni tebratar.

Bulut yomg'irni tebratar.

Yomg'ir tuproqni tebratar.

Tuproq maysani tebratar...

Suluv beshikni tebratar.

Beshik bolani tebratar.

Bola dunyoni tebratar.

She'rdan birgina bo'lak – kesim o'z vazifasini o'zgartirmagan. Chunki "Kesim gapning markaziy bo'laki bo'lganligidan gapning butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs (personallik), zamon (temporallik), kom-munikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi" [11. 39-bet]. Keltirilgan misolning xarakterli tomon shundaki, birinchi misrada to'ldiruvchi vazifasida kelgan "*shamolni*" so'zi keyingi misrada ega maqomini olgan, ikkinchi misradagi "*bulutni*" to'ldiruvchisi uchinchi misrada yana egaga aylangan va shu tartib she'r oxiriga qadar saqlab qolingan. She'rdan muallifning bosh g'oyasi **farzandlarimiz** shomolday shiddatkor, bulutday saxiy, yomg'irday qutlug'-u otlardek kuch-qudratga to'lib **dunyoni tebratishidaddir**.

Ijodkorning niyatini amalga oshirishda soʻz tartibi va takror yaxlit uygʻunlashgan holda ohangdorlik va taʼsirchanlikni taʼminlaydi. Sheʼrda toʻldiruvchi bajara olmagan vazifani ega bajaradi, chunki uni kesim tayinlaydi. Demak, markaziy boʻlak hisoblangan kesim soʻzlar tartibini ham boshqaruvchi boʻlakdir.

Gap boʻlaklarining aktuallashishi nuqtai nazaridan qaraladigan boʻlsa, temadan remaga tomon joylashish, gapning qanday sintaktik aʼzolari boʻlishidan qatʼi nazar, odatdagi, yaʼni toʻgʻri soʻz tartibi hisoblanadi. Tabiiyki, bu yoʻnalishda gap boshida keluvchi rema aʼzolarining boʻlinishi inversiyalashgan hisoblanadi. Ular gap urgʻusi bilan taʼminlanadi. Gapning kommunikativ vazifa nuqtayi nazardan tuzilishi uning muhim tuzilishi hisoblanadi. Kommunikativ (aktual) vazifa nuqtayi nazardan gapni tashkil etuvchi sintaktik uzvlar tema (maʼlum) va rema (yangi) qismlarga boʻlinadi. Gapning rema qismi — kommunikativ (eng ahamiyatli) qism gapning kommunikativ markazi hisoblanadi. Savol gapning shu kommunikativ markazini – remani aniqlash uchun beriladi [11. 26-bet]. Aʼzam Oʻktamning “Onamga” sheʼrida kommunikativ markazning ikki misrada ham “shoir” soʻziga toʻgʻri kelishi ham bejiz emas. Misralarda gap boʻlaklari tartibining yuqoridagi misoldan farqi soʻz tartibi oʻzgaragan, inversiyaga uchragan:

**Shoirmas** soʻzni ming kuylarga solgan,

Sheʼni deb ming kuyga tushganlar **shoir!**

K.Xayitmetov, – “Inversiya” koʻpincha, kishilarning turli ruhiy holatlarini ifodalovchi undov gaplarda uchraydi [12.102-bet], – degan edi. Diqqat qilsak, yuqoridagi parcha ham undov gapdan tuzilgan.

Ushbu ikki misra ham birinchi misra tema hisoblansa, ikkinchi misra remadir. Koʻrinadiki, tema ham, rema ham gapga teng. Shu oʻrinda soʻl tugʻiladi. Nega birinchi gapning kesimi “shoirmas” misra boshida kelgan? Vazn yoki qofya talabi bilanmi? Bizningcha, muallif hammaga maʼlum boʻlgan axborotni shu yoʻsinda inkor qilmoqchi boʻlgan: soʻzni ming kuylarga solgan shoir emas, aksincha sheʼni deb ming kuylarga tushganlar shor. Odatda, feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar gapda kesim, ot soʻz turkumiga oid soʻzlar gapda ega boʻlib keladi, misralarda esa buning teskarisini koʻramiz. Shu ham inversiyaga yordamlashgan. Unutmaslik kerakki, inversiya sheʼriyatning jon tomiri, sof poetik hodisadir.

Eshqobil Shukurning “Koʻz yumib koʻrganlarim” kitobidan olingan “Qoʻshiluvchilar va yigʻindi” sheʼrida gap boʻlaklari yuqoridagi misralardan farqli ravishda toʻgʻri tartibda joylashgan. Ushbu parchada ham takror soʻz tartibini belgilagan. Birinchi misra boshidagi soʻzni ikkinchi misra oxiriga qoʻyish orqali tasdir sheʼriy sanʼat yuzaga keladi.

“**Nodon**” degan soʻzni toʻgʻri aytsang ham,

Teskari aytsang ham bari-bir “**nodon**”.

6+2= (barobar) 8,

2+6= (barobar) 8,

“**Nodon**” degan soʻzni bejab aytsang ham,

Soʻkinib aytsang ham **nodon**dir, shaksiz!

Misralardagi nodon soʻzi birinchi gapda ikkinchi darajali boʻlak, yani toʻldiruvchi tarkibida ikkinchi gapda esa kesim. Bu ham ikkinchi gap yangi axborot – **rema** ekanligini koʻrsatadi.

Mavjud darslik va qoʻllanmalarda soʻz tartibi haqida fikr yuritilganda, asosan, uning sintaktik vazifasiga eʼtibor qaratiladi. Soʻz tartibining sintaktik vazifasi uning gap tarkibidagi soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatlarning ifodalanishida koʻrinadi. Masalan, *Dilshod Bahorani sevadi* gapida ikkita ot ishtirok etgan. Morfologik jihatdan har ikkala ot ham atoqli ot hisoblansa-da, sintaktik nuqtayi nazardan ularning vazifasi farq qiladi. Bu ularning gapdagi oʻrniga qarab belgilanadi, *Dilshod* soʻzi bosh kelishik shaklidagi ega maqomida va u kesimga taalluqli. *Bahorani* soʻzida esa tushum kelishigi shaklini koʻramiz va uni gapda toʻldiruvchi vazifasida deb belgilaymiz. *Sevadi* soʻzi esa gapda kesim vazifasida kelmoqda. Demak, gap uch boʻlakdan ega, toʻldiruvchi va kesimdan iborat. Soʻzlovchi yoki yozuvchi kommunikativ maqsadiga koʻra bu gapdagi soʻzlarning oʻrnini almashtirilsa, yaʼni *Bahora Dilshodni sevadi* tarzida oʻzgartirilsa, birinchi otning sintaktik vazifasi ikkinchisiga oʻtadi. Sintaktik qolip oʻzgaransa-da, gapning mazmuni oʻzgaradi.

Tilimizda mazmunan bir-biriga teng, ega va kesim orqali belgilangan oʻzaro oʻxshash tushunchalarni ifodalashda gap boʻlaklarining oʻrni oʻzgarishi ular bajaradigan vazifaga ham taʼsir etadi va uning sintaktik rolini oʻzgartiradi. Bu koʻproq nasriy usulda yozilgan matnlarda kuzatiladi. *Samarqand – tarixiy shahar va Tarixiy shahar – Samarqand; Bir hafta – etti kun va Etti kun – bir hafta*. Bundan tashqari, “*Qorongʻi kecha*” ifodasidagi *qorongʻi* soʻzi sifatlovchi aniqlovchi, gap esa

bir bosh bo‘lakli atov gap ko‘rinishida, agar so‘zlar tartibi o‘zgartirilsa, *Kecha qorong‘i* ko‘rinishidagi ega va kesimdan tarkib topgan ikki bosh bo‘lakli gap yuzaga keladi. Bunda qorong‘i so‘zi o‘z sintaktik vazifasini o‘zgartirib, kesim sifatida ishtirok etadi.

So‘zlovchining o‘z kommunikativ maqsadiga erishishi nafaqat to‘g‘ri so‘z tanlash, balki ularni to‘g‘ri joylashtira bilishiga ham bog‘liq. So‘z tartibining uslubiy vazifasi shu bilan xarakterlanadiki, gapda so‘zlarning joyi o‘zgarishi bilan yangi ma‘noviy qirralar hosil qilinadi, odatdagi tartibda o‘quvchi qabul qilgan dastlabki ma‘no yangi, qo‘shimcha ma‘no bilan to‘yintiriladi. Boshqacha aytganda, she‘riy matnda muallif istagiga ko‘ra, gap bo‘lagidagi ma‘noviy yuk kuchaytiriladi yoki kamaytiriladi.

Badiiy matnda so‘z tartibining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari takror va uning turli ko‘rinishlari vositasida yuzaga chiqadi. Bu ayniqsa, takrorning akromonogramma ko‘rinishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Akromonogrammada bir to‘rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi. Uning boshqa ko‘rinishlarida ham so‘z, so‘z birikmalari shu tartibda takrorlanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida takrorning bu ko‘rinishi tashobehul-atrof deb yuritilgan va unga she‘riy matnda qo‘llaniluvchi san‘at turi sifatida tasbe deb qaralgan. Uni qo‘llashda muallif ma‘lum bir maqsadni, ya‘ni ma‘no kuchaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun muallif maqsadi va she‘riyat talablaridan kelib chiqib, so‘z tartibi o‘zgaradi. Bunda birinchi misraning oxirida qo‘llangan so‘z yoki so‘z birikmasi ikkinchi misra boshida takroran qo‘llaniladi. Takrorning bu ko‘rinishi so‘z tartibini o‘zgartirish orqali misralar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlaydi.

Akromonogrammaning ajoyib namunasini Cho‘lponning “Xazon” she‘rida uchratishimiz mumkin:

Kuz chog‘i... tuproqlar *gezarib qoldilar*,  
*Gezarib qoldilar* kuz chog‘i tuproqlar.  
 So‘ng damda yaproqlar *qizarib yondilar*,  
*Qizarib yondilar* so‘ng damda yaproqlar. ( Xazon. 156 – bet.)

She‘rda shoirning tabiatning turli ko‘rinishlaridan olgan taassurotlari, hissiyoti, ichki kechinmalari kuz tasvirini berish orqali ifodalangan. Bu holat dastlabki misradayoq muallifning gap kesimiga urg‘u berishidan anglashiladi. Dastlabki misrada egadan keyin kelgan kesim keyingi misrada egadan oldin keladi. So‘z tartibining o‘zgarishidagi bu holat keyingi misralarda ham shu taxlit davom etib, o‘ziga xos ritmni, ifoda uslubini yuzaga keltirgan. Shoir uslubining o‘ziga xosligi shundaki, u inversiyaga murojaat qilish orqali takrorning bu ko‘rinishida ko‘chma ma‘no ifodalovchi birliklar vositasida tabiatning nozik ko‘rinishlarini yuksak did bilan tasvirlaydi. Natijada gapda so‘zlarning tartibi o‘zgarishi orqali takrorning betakror ko‘rinishi hosil qilingan. *Tuproqlarning gezarib qolishi, yaproqlarning qizarib yonishi* takrorning shu ko‘rinishi vositasida o‘zining poetik tasviriga ega bo‘lgan.

Cho‘lpon ijodida so‘z tartibi o‘zgarishi va takror asosida vujudga kelgan ajoyib namunalarni shoirning “Barg” she‘rida ham uchratamiz:

**Shu chog‘da**, shu bog‘da har narsa yumshoqdir,  
 Har narsa ko‘kargan, har narsa yashnaydir,  
 Shu bog‘da, **shu choqda** har narsa oppoqdir:  
 Quyosh-da nurini hovuchlab tashlaydir. (Barg. 27 – bet.)

E‘tibor berilsa, bir misrada ishtirok etgan birlik boshqa misrada boshqa o‘rinda aynan takrorlanadi, tashqi tomondan qaralganda so‘z tartibi buziladi. Shoir bu yerda so‘z tartibini o‘zgartirish va takrorlash orqali o‘ziga xos usulda ma‘noni kuchaytirishga erishgan.

She‘rda takroran qo‘llanilgan birliklarni agar ma‘lum harflar bilan belgilash orqali qoliplashtirsak, quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi:

**Shu chog‘da**,---**A** *shu bog‘da*-----**B** *har narsa*-----**V** yumshoqdir,  
**Har narsa** -----**V** ko‘kargan, **har narsa** -----**V** yashnaydir,  
*Shu bog‘da*,-----**B** **shu choqda**-----**A** *har narsa*-----**V** oppoqdir:  
 Quyosh-da nurini hovuchlab tashlaydir.

Xulasa shuki, she‘riyatda so‘z tartibi sintaktik, kommunikativ va uslubiy jihatdan tahlilga muhtoj. Tartibni belgilashda sintaktik tomondan kesim, kommunikativ tomonda yangi axborot – rema, uslubiy jihatdan tanlab olingan so‘z asosiy yukni yelkasiga oladi. Yuqoridagi misollar tahlilidan shu ham ayon bo‘ladiki, gap bo‘laklari tartibida so‘zlar takrori ijodkorning mohorati evaziga uslubiy g‘alazlik emas, balki mukammal badiiy asarga aylanadi.



**Adabiyotlar**

1. Виноградов В.В, Стилистика, Теория поэтической речи. Поэтика. – М.,1963.
2. Хауimetov K. Hozirgi zamon o'zbek tilida inversiya. KD. – Toshkent. 1967.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – T.: O'qituvchi, 1995. – 11 b.
4. Ядиханова Т.С. Порядок слов в простом предложении узбекском языке. АКД. – М., 1954.
5. Сиротинина О.Б.Порядок слов в русском язык. – Саратов, 1965.
6. Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. –М., 1976.
7. G'ulomov A. O'zbek tilida so'z tartibi. "Sharq Yulduzi" 1946.
8. Валгина Н.С. Теория текста: Учебное пособие. – М.: Логос, 2003.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T., 2002.
- 10.Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma – T., 2008.
- 11.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 39 b.
- 12.Xauimetov K. Hozirgi zamon o'zbek tilida inversiya. KD. – Toshkent. 1967.

UDK: 811.512.133

**ROST VA YOLG'ON SO'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI****A.A.Axrorov***Guliston davlat universiteti  
alisher1115@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqollarda nutq madaniyati, muloqot odobi, muomala madaniyati masalalarining ifodalanishi, ularning ichida alohida guruh sifatida olish mumkin bo'lgan rost va yolg'on so'zlamoq haqidagi maqollarning komil inson tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.

**Kalit so'zlar:** nutq madaniyati, muomala madaniyati, muloqot odobi, komil inson, rostgo'ylik, yolg'onchilik.

**Обзор народных пословиц о высказываниях правды и лжи**

**Аннотация.** В данной статье изучается определение вопросов культуры речи, культуры общения, этики общения в пословицах, роль и значение пословиц о высказываниях правды и лжи в воспитании человека.

**Ключевые слова:** культура речи, культура обращения, этика общения, совершенный человек, правдивость, лживость.

**Review of folk proverbs about utterances truth and false**

**Abstract.** This article determines the definition of the culture of speech, culture of communication, ethics of communication in proverbs, the role and significance of proverbs about the statements of truth and falsehood in the education of the perfect person.

**Keywords:** culture of speech, culture of conversion, ethics of communication, perfect person, truthfulness, falsehood.

Har bir insonning jamiyatdagi o'rni mavqeyi uning atrofdagi insonlar bilan muomalasi, ularga munosabati (salomlashish, suhbatlashish, muloqotda bo'lish kabi jarayonlarda, turli xil vaziyatlarda o'zini qanday tutish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Har bir inson komillikka intilar ekan, muloqot qoidalariga, suhbatlashish odobiga, muomala tartiblariga rioya qilish bilan o'zini ko'rsata boshlaydi. Jumladan, suhbatlashish qoidalari haqida-odobi to'g'risida prof. B.O'rinboyev quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

- 1) *"Suhbatlashganda suhbatdoshimizni qiziqtiradigan mavzuga e'tiborni qaratishga intilish;*
- 2) *O'zingiz haqingizda kamroq gapiring;*
- 3) *Ezma va laqmalarga ergashmang;*

- 4) *Suhbatdoshingizni diqqat bilan tinglashni o'rganing;*
- 5) *So'zni bo'lib yubormang;*
- 6) *Suhbatdoshga nisbatan baland ovozda gapirmang;*
- 7) *Suhbatdoshingizni so'ziga qarab so'zlashing...*

Ma'lumki, salomlashish qoidalari, odobi ham shu tarzda o'ziga xosliklarda hamda milliylikda namoyon bo'ladi. Boshqa birovga, oila a'zolariga, rahbar va ayniqsa, ota-onaga, ustozlarga murojaat qilish, ular bilan muomilada ham ma'lum, milliy qonun-qoidalar, odob meyorlari mavjud. Bunday qoidalar, odob meyorlari anchaginadir (ovqatlanish, yurish-turish, davralarda bo'lish, mehmon kutish, mehmondorchilikda qatnashish, sayohatda bo'lish va hokozolar). Olim suhbatlashish odobiga aloqador xalq maqollaridan ayrimlarini quyidagidek etib o'tadi:

1. *Avval o'yla, ketin so'yla;*
2. *Aytilgan so'z –otilgan o'q;*
3. *Aytishsang so'z chiqadi,  
Tortishsang ko'z chiqadi;*
4. *Gapda qanquv yomon,  
Dardda sanchuv yomon;*
5. *Do'st achitib gapirar,  
Dushman kuldirib;*
6. *Ko'p gap eshakka yuk;*
7. *Orqadagi gap-og'ildagi tezak*
8. *Og'zidan so'zi tushganning  
Qo'lidan bo'zi tushadi;*
9. *So'z qadrini bilmagan,  
O'z qadrini bilmas;*
10. *Xushomad so'zlagan til,  
Yalab-yalab yara etadi*" kabi [7,2006]

Tilimizda juda ko'p xalq maqollari mavjud bo'lib, ular ko'p asrlar mobaynida hayotiy tajriba mahsuli sifatida yaratilgan eng muhim qadriyatlaridir. Maqollar nutqimizda faol qo'llaniluvchi birlik sifatida xalq tili, tafakkuri va madaniyati kabi bir-biridan ajralmas hodisalarning muhim tarkibiy qismi ekanligi bilan birgalikda, ularni namoyon etuvchi muomala madaniyati, muloqot madaniyatini, muomala odobini tarkib toptiruvchi asosiy vositalardandir.

Kishilarning nutq orqali amalga oshadigan muloqotlarini maqollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Maqollar xalqimizning asrlar davomida shakllangan, sayqallangan, tabiat va jamiyat, unda yuz berayotgan o'zgarishlar, kishilar o'rtasidagi turli xildagi munosabatlar, fikrlarning eng mantiqli, eng ixcham, eng ta'sirchan va lo'nda ifodasidir. Maqollarga fikr ifodalashning nozik va go'zal, ixcham, tasirchan vositasi sifatida, ayniqsa, so'zlashuv nutqida (oddiy muloqotlarda), badiiy nutq tuzishda ko'p murojaat qilinadi. Badiiy asarlarda maqollardan foydalanish bo'yicha ayrim yozuvchilar, adiblarning mahorati masalalari bir necha tadqiqotlarning tekshirish obyekti bo'lgan. Biroq jonli so'zlashuvda, insonlarning doimiy muloqotida maqollardan foydalanish, muloqot jarayonida samaradorlikni taminlash uchun ularga murojaat qilishning shart-sharoitlari, o'rinli ishlatishning muhimligi kabi ko'p masalalar hali yetarlicha yoritilmagan.

*"Aqli odam yolg'on gapirmas, ammo barcha rost so'zlarni aytaverish ham to'g'ri emas"* (A.Navoiy "Mahbub ul qulub", 140 bet); *"Yolg'onchi –haq oldiga gunohkor, xalq oldida esa sharmanda"* (129). Alisher Navoiy tomonidan aytilgan bu fikrlar jahon harakteridagi hikmatlardir. Agar qiyos olinadigan bo'lsa, *"Chin so'z –mo'tabar, yaxshi so'z –muxtasar"*; *"Gap to'g'ri bo'lsa (rost bo'lsa), toshni yoradi"*; *"Rost so'z –achchiq so'z"*; *"Rost aytib zarar ko'rsang, oxiri foyda topasan"*; *"Rost so'z qilichdan o'tkir"*; *"Rost so'z haqqa qaror topadi"*; *"To'g'ri gap tuqqaningga yoqmas"*; *"To'g'ri gapning to'qmog'i bor"*; *"To'g'ri so'z tosh yorar"*; *"To'g'ri so'z tosh yorar, egri so'z bosh"*; *"To'g'ri so'z bosh yorar, bosh yormasa tosh yorar"* (bu maqolning turli xil variantlari ham mavjud. Masalan, *"To'g'ri so'z turib kelar, egri so'z turtilib"*; yoki *"To'g'ri so'zga to'siq yo'q, egri so'zga o'smoq yo'q kabilar*) [1,1984; 4,1987-1988; 6,1990].

Ma'lumki o'zbek tilida to'g'ri so'zlar ko'p ma'noli bo'lib, uning birinchi ma'nosi "So'zni, gapni adabiy til qonun-qoidalarga muvofiq tarzda ishlamoq, har jihatdan ana shu qoidalarga amal qilgan holda fikr bayon qilmoq –og'zaki yoki yozma tarzda so'zlarni talaffuz qilmoq, yozmoq gapni to'g'ri tuzmoq" kabi ma'nolarda ishlatilsa, ikkinchidan rost so'zlar, ya'ni yolg'onga teskari

ma'noda anglatish uchun ishlatiladi ("rost gapirmoq", "haq so'zni aytmoq" ma'nolarida ishlatiladi). Xalq maqollarida kuzatiladigan "To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmas" tarzidagi ko'p misollarda "to'g'ri so'z" iborasi ana shu ikkinchi ma'noda qo'llanilgan. "To'g'ri so'z", "to'g'ri so'zlamoq" iboralari so'zni "to'g'ri talaffuz qilish", "to'g'ri yozish", "grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzish" kabi ma'nolarda emas, asosan, "rost gapirmoq", "haq gapni aytmoq" ma'nolarida ishlatilgan bo'lib, xalq maqollarida ham ana shu ma'nosi ko'zda tutilgan. Ya'ni xalq maqollarida, asosan shu ma'nodagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Bu iboralarning birinchi ma'nosi uchun xalq maqollari deyarli yaratilmagan. O'zbek xalqida, bilamizki, "Boshinga qilich kelsa-da haq gapni ayt" hikmati bor bo'lib, ana shu hikmat doirasida xalq maqollari yaratilgan. Yaratilgan xalq maqollari yoshlarni, umuman, insonni rost gapirishga, yolg'on gapirmaslikka o'rgatish borasida muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni yolg'on gap aytish, yolg'on gapirish qoralanib (shaxsning yomon xususiyati inkor etilib, rost gapirishi madh etilib) maqollar tuzilgan. Insonning nutqiy faoliyatida rost, haq gapni aytish yaxshi fazilat ekanligi ta'kidlangan. O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan maqollarda yolg'on gapirish, uning oqibatlarini qoralanadi:

"Yirtiq uyni el topar, yolg'on so'zni chin topar"; "Yolg'onning guvohi qasam" kabilar.

Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil shahar ahlining (aholilarining) fikrlari" asarida "o'zida 12 tug'ma hislatni birlashtirgan kishigina fazilatli bo'ladi" deb ularni sanab o'tadi. U aytadi: "Inson haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin",- degan fikrni aytadi [5,1971]. Husayn Voiz Koshifiy yolg'onchilikni axloq kategoriyalari qatorida ko'rsatadi, rostgo'ylikni axloqiy fazilat sifatida qayd etadi [2,2015].

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muxsiniiy" asarida bir hikoyat keltiradi. Unda podshoning bir kishiga nasihati haqida gap boradi: 1. *Hech qachon yolg'on gapirmaysan. Kimki yolg'onchidir u xalq oldida zabun, notovondir*"-, degan fikrni aytadi. Bu fikrlar xalq maqollarini eslatadi (To'g'risi, xalq maqollari sifatida shakllangan).

O'zbek xalq maqollarida, ko'rinadiki, insonlar nutqi madaniyatiga aloqador bo'lgan eng muhim xususiyatlar rostgo'ylik va uning aksi bo'lgan yolg'on gapirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Komil insonni shakllantirishda bu kabi xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Xalqimiz tarixida qadimgi davrlardan boshlab nutq madaniyati (nutqiy madaniyat), muomala odobi, muloqot madaniyati masalalari ijodkorlar, ziyolilar, donishmandlar, umuman, xalq e'tiborida bo'lgan. Xalq og'zaki ijodining eng ixcham, mantiqli, ta'sirchan namunalaridan biri bo'lib, qadriyatlar darajasida shakllangan xalq maqollarida nutqiy madaniyatga aloqador bo'lgan, inson komilligining tarkibiy qismi sanaluvchi, muhim insoniy fazilat hisoblanuvchi bu xususiyatlarga—bu muhim masalaga, uning barcha tomonlariga oid juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega masalalar haqida ajoyib fikrlar bayon qilingan, o'z ifodasini topgan. Bular: 1) o'ylab, andisha bilan fikrni miyada yaxshi pishitib olib gapirish masalasi (shoshmashosharlik qilmaslik);

2) ko'p tinglash, kam gapirish, ezmalik qilmaslik, sukut saqlashni bilish, maqtanchoqlik qilmaslik kabilar...

3) so'z tanlashga e'tibor, nojo'ya, vaziyatni hisobga olgan holda gapirib yuborish kabi masalalar;

4) muloyim, yoqimli gapirish, qo'pol, qo'rs gapirmaslik, shirinso'z bo'lish haqida;

5) to'g'ri (rost) so'zlash, yolg'on gapirmaslik masalasi;

6) muloqot, muomala odobiga amal qilgan holda nutq tuzish masalasi;

7) ovoza e'tibor qaratish ( baland ovoza gapirmaslik, ohangga e'tibor qaratish kabilar)

8) suhbatdosh kayfiyati, boshqa holatlarni hisobga olib gapirish masalalari;

9) vaqt, joy, muloqot mavzusi, ishtirokchilar, ularning mavqeyi, saviyasi kabi masalalarni hisobga olish;

11) tilga e'tibor bilan qarash, so'z qudrati tilni hurmat qilish, unga e'tibor bilan yondoshib nutqni nazorat qilish masalalari;

12) adabiy til, uning meyorlari, qonun-qoidalari, jamiyat tomonidan qabul qilingan urf-odatlariga amal qilgan holda nutq tuzish, orfoepik, orfografik va boshqa qoidalarga rioya qilib nutq tuzish kabi yana ko'p masalalarga xalq maqollarida, ayniqsa, ko'p e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. Xalq maqollarida o'z ifodasini topgan bu masalalar hozirgi kunda alohida tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida xalq maqollari, ularni o'rganish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish shu kunning eng dolzarb muammolaridir.

Xulosa qilib aytganda, insonlarda nutqiy madaniyatni shakllantirishda xalq maqollarining o'zni beqiyosdir. Ayniqsa, rost gapirish, odop bilan so'zlash, aniq, lo'nda gapirish, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi masalalarga maqollarda alohida e'tibor qaratilgan. Shunga ko'ra ta'lim tizimida xalq maqollarini o'rganishga alohida e'tibor berish juda muhimdir.

#### Adabiyotlar

1. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Manmudov R. Husayn Voiz Koshifiyning falsafiy –axloqiy qarashlari. –T., 2015.
3. Navoiy A. Mahbub ul qulub. –T., 2018.
4. O'zbek xalq maqollari. Akademik nashr. II tomlik. –Toshkent, 1987 -1988.
5. Farobiy. Fozil shahar ahlining (aholilarining) fikrlari. –T., 1971.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –Toshkent, 1990.
7. O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi masalalari, – Samarqand, 2006.

UDK: 809 (09)

### IZZAT SULTONNING “ADABIYOT NAZARIYASI” DARSILIGI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sh.Nurova

*Samarqand davlat universiteti*

*Sanamnur94@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dastlabki adabiyot darsliklaridan biri bo'lmish Izzat Sultonning 1940-yilda chop etilgan “Adabiyot nazariyasi” darsligi tahlil etilgan. Darslikning har bir bobini bo'yicha to'xtalib, adabiy terminlar izohi boshqa adabiyotshunos olimlar talqini bilan o'zaro taqqoslangan. Mazkur darslikning o'sha davrdagi, shuningdek, hozirgi kundagi ahamiyatini yoritib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** darslik, adabiyot nazariyasi, adabiy tur va janrlar, stil va metod, obraz, adabiy asar tili, situatsiya, she'r tuzilishi, adabiy oqim, realizm, klassisizm, simbolizm.

#### Об учебнике Иzzата Султана «Теория литературы»

**Аннотация.** В данной статье проведен анализ учебника Иzzата Султана «Теория литературы», который был одним из первых учебников узбекского литературоведения и опубликован в 1940 году. Каждая часть изучена отдельно и литературные термины сопоставлены с терминами учебника поздних изданий.

**Ключевые слова:** учебник, теория литературы, литературный вид и жанр, стиль и метод, образ, литературный язык, композиция стиха, литературное направление, реализм, классицизм, символизм.

#### About Izzat Sultan's textbook “Theory of literature”

**Abstract.** In this article is analysed the textbook “Theory of literature” by Izzat Sultan which was one of the first textbook on literature and published in 1940. Every chapter was studied and the explanations of literary terms are compared. The importance of this book at that time and nowadays are clarified.

**Keywords:** textbook, theory of literature, literary type and genres, style and method, image, literary language, composition of poem, literary stream, realism, classicism, symbolism

Ma'lumki, bugungi kungacha adabiyot nazariyasi sohasida juda ko'p tadqiqotlar yaratildi. Adabiyotning umumiy qonuniyatlari, adabiy asar tuzilishi, she'r ilmi, adabiy jarayon haqidagi nazariy tushunchalar izohlandi. Adabiyot darsliklari ham yildan yilga yangilanib, zamon talabiga har tomonlama javob bera oladigan tarzda o'quvchilarga havola etilmoqda. Adabiyotning, xususan, adabiyot darsliklarining bugungi kundagi taraqqiyotida alohida o'rin tutadigan ishlardan biri Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” kitobidir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, adabiyot nazariyasi fanidan yaratilgan dastlabki darsliklardan biri ham shu kitob hisoblanadi. Bunga qadar Elbekning "Namuna" (1925), A.Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" (1925) "Adabiyot qoidalari" (1926), A.Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" (1925) kabi kitoblari yaratilgan edi. Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsligi o'rta maktablarga mo'ljallangan bo'lib, 1940-yilda O'zSSR davlat o'quv-pedagogik nashriyoti tomonidan chop etilgan. Kitob olti bobdan iborat bo'lib, uning mavzu mundarijasi quyidagicha: 1-bob: "Kirish"; 2-bob: "Adabiyotda obrazni yuzaga keltirish yo'llari"; 3-bob: "Badiiy asarning tili"; 4-bob: "Adabiy turlar va janrlar"; 5-bob: "Stil va metod"; 6-bob: "She'rning tuzilishi".

Mazkur ish ham o'sha zamon talablari asosida, siyosiy tuzum ta'siri ostida yozilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, foydalanilgan badiiy adabiyotlarning aksariyati rus yozuvchilarining asarlaridir. Yaqqolroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

T/r	Rus yozuvchilari	O'zbek yozuvchilari
1	Gorkiy	A.Navoiy
2	A.S.Pushkin	Niyoziy
3	Lev Tolstoy	Muqimiy
4	Nekrasov	Yashin
5	Saltikov Shedrin	Fozil baxshi
6	Pyotr Zalomov	
7	Gogol	
8	Goldoni	
9	Sholoxov	

Ro'yxatni yana davom ettirish mumkin, ammo ikki ustun nisbati deyarli o'zgarmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 1-bob "Kirish" bo'lib, unda badiiy adabiyotga dunyoni o'zgartirish quroli sifatida qaraladi. Albatta, badiiy adabiyot dunyoni so'z orqali tasvir etadi, adabiyotda hayotning ma'lum voqea-hodisalari, turli insonlarning xarakter xususiyatlari, orzu va armonlari aks etadi. O.Sharafiddinov shunday yozadi: "Yozuvchi turmushni, fakt va hodisalarni o'rganadi, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Ana shu xulosalarni jonli obrazlar vositasida ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyot dunyoni badiiy o'zlashtirishdan iboratdir". O'zlashtirish va o'zgartirish o'rtasida qanday farq bor? I.Sulton badiiy adabiyotga dunyoni o'zgartirish quroli sifatida, O.Sharafiddinov esa adabiyotga dunyoni o'zlashtirish vositasi sifatida yondashadi. Shu o'rinda T.Boboyevning fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Badiiy adabiyot, ayni paytda, dunyoni o'zgartirish quroli hamdir. Buyuk yozuvchilar jamiyatning olg'a intilishiga hamisha yordam berganlar".[1] Shunday ekan, fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, yozuvchilar hayotni badiiy o'zlashtiradilar va dunyoni yaxshilik sari o'zgartirishga harakat qiladilar.

I.Sulton 1-bobni yakunlar ekan, badiiy adabiyotning xususiyatlariga to'xtalib o'tadi va quyidagicha xulosalarni bayon etadi: "1) adabiyot –turmushni va kishilarning turmushga munosabatini aks etadi; 2) adabiyotning funksiyasi – kishining ongini, ruhini, xarakterini tarbiyalashdir; 3) adabiyotning spetsifikasi – obrazlilik va obrazni so'z orqali yaratishdir".[2] Darhaqiqat, adabiyotning quroli bu – so'z, ammo hozirgi kunda adabiyotning inson ruhini tarbiyalashdan tashqari yana bir qancha vazifalari ham e'tirof etilmoqda. Umuman, badiiy adabiyotning ma'rifiy va estetik ahamiyati nihoyatda katta.

Darslikning 2-bobi "Adabiyotda obrazni yuzaga keltirish yo'llari" deb nomlanadi. Mazkur bobda tema va tematika, badiiy asar g'oyasi, badiiy ijodning universal usullari (individuallashtirish, tipiklash va badiiy to'qima), obraz tanlash va talqin etish, obrazni tavsiflash, sujet va kompozitsiya mavzularini o'rganish ko'zda tutiladi. Tema va tematikaga muallif shunday ta'rif beradi: "Badiiy asarda turmushni ko'rsatish uchun yozuvchi tomonidan turmushdan tanlab olingan hodisaga biz asarning temasi (mavzusi) deymiz... ma'lum sinf, ma'lum davr adabiyotida yo bo'lmasa ma'lum yozuvchi ijodida uchraydigan temalarning jamiga tematika deyiladi".[3:14 b.] Izzat Sulton tema xususida gapirar ekan, tema asarning yo'nalishini va mundarijasini ta'minlashda katta rol o'ynashini, lekin ikki yozuvchi tomonidan bir temada yozilgan ikki asar tamoman boshqa-boshqa mundarijaga ega bo'lishi ham mumkinligini ta'kidlab, Navoiy, Gorkiy, Serafimovich kabi yozuvchilar asarlarini misol tariqasida keltiradi va tahlil qiladi.

Badiiy asarning g'oyasi, xuddi mavzudek, asar mazmunida ifodalanadi. Shuning uchun ham mavzu va g'oya bir-biriga bog'liq tushunchalardir. "Badiiy asarda qo'yilgan problemani ma'lum

ravishda hal etib berilishi va undan chiqadigan xulosani biz asarning ideyasi deymiz” [3:15 b.] tarzda izohlaydi muallif.

Shuningdek, mazkur bobda sujet va kompozitsiya masalariga ham salmoqli o‘rin ajratilgan. Muallif sujetni oddiy va sodda til bilan tushuntirishga harakat qiladi: “Adabiy asarda xarakterning (obrazning) tarixini ko‘rsatuvchi, uning xislatlarini, sifatlarini ochib beruvchi voqealar tizmasiga biz sujet deymiz”. [3:30 b.] Bugungi kun adabiyot nazariyasida, jumladan, T. Boboyev (“Adabiyotshunoslik nazariyasi”) hamda biz tahlil qilayotgan kitob muallifi ham sujetni tarkibiy qismlarga (bo‘laklarga) bo‘ladi:

	<i>I.Sulton</i>	<i>T.Boboyev</i>
1	Ekspozitsiya (dastlabki ahvol)	Ekspozitsiya
2	Situatsiya	Tugun
3	Tugun	Voqea rivoji
4	Voqeaning rivoji	Kulminatsiya
5	Kulminatsion punkt	Yechim
6	Tugallama	Prolog va epilog
7	Prolog va epilog	

Ko‘rib turganimizdek, ikki adabiyotshunos talqini ham deyarli bir xil. Ammo I.Sulton *situatsiya* haqida gapiradi. “Situatsiya – deydi muallif – personajlarning asarda ko‘rsatiladigan voqea boshlanmasdan avval bo‘lgan dastlabki munosabatlaridir.” Muallif sujet haqida o‘quvchi yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishi uchun A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini tahlil qiladi.

Malumki, kompozitsiya yozuvchining niyati asosida asar badiiy to‘qimasining tuzilishi hisoblanadi. Adabiyotshunos I.Sulton ham kompozitsiyaga quyidagicha ta‘rif beradi: “Sujet, kishilarning tasviri, peyzaj va sharoitning tasviri, voqeani bayon etish usullari va ularning bir-biriga nisbati – hammasi bir butun kompozitsiyani tashkil qiladi”. [2:43 b.] Bulardan tashqari muallif yana murakkab sujetli asarlar, qoliplash, sujetning xarakterga muvofiq bo‘lishi, tipik xarakter va tipik sharoit, badiiy to‘qima, peyzaj, bayon qilish yo‘llariga to‘xtalib o‘tadi. Fikr isboti sifatida turli yozuvchilar asarlaridan namuna va misollar keltiradi. Bobning so‘nggida esa o‘sha bob yuzasida topshiriq va savollar berilgan.

3-bob “Badiiy asarning tili” deya nomlanadi. Ushbu bobda tilning jamiyatdagi o‘rni, badiiy va avtor (muallif) tili, badiiy til elementlari kabi masalalarga diqqat qaratiladi. Adabiy til va badiiy til degan terminlarni bir-biridan farq qilish kerakligi uqtiriladi. Muallif adabiy til terminini har bir millatning matbuotda qo‘llanadigan va shu millat tomonidan qabul qilingan tiliga nisbatan ishlatadi. Badiiy til esa badiiy adabiyot tili sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, bu bobda o‘sha biz bilgan sinonimlar, omonimlar, arxaizmlar ustida ham gap boradi va provinsializmlar atamasiga ta‘rif beriladi: “Turli dialektlarga, mahalliy shevalarga xos so‘zlar va ifodalar provinsializm deb ataladi”. [2:53 b.] Bugungi kunda bunday mahalliy so‘zlarga nisbatan biz dialektizmlar atamasini qo‘llaymiz.

Darslikda badiiy til elementlari ya‘ni sifatlash, o‘xshatish, so‘zlarni ko‘chma ma‘noda ishlatish (metafora (istora), metonimiya), simvol, allegoriya, mubolag‘aga ham o‘rin ajratilgan bo‘lib, muallif bularni batafsil tushuntirib berishga urinadi va mos misollar tanlab tahlil qiladi.

Jamiyat taraqqiy etgani sari yangi tushunchalar paydo bo‘ladi va ularni yangi so‘zlar orqali ifoda etish ehtiyoji tug‘iladi. Darslik muallifi ham badiiy tilni boyituvchi elementlardan biri – xalq yoki yozuvchi tomonidan yangidan yasalgan so‘zlardir deydi va bunday so‘zlarni u *neologizmlar* termini bilan ataydi (O‘sha asar, 59-bet). Umuman olganda, 3-bobni yakunlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: adabiyotning shakli bilan mazmuni bir adabiy hodisaning ikki tomoni bo‘lib, bir-biriga chambarchas bog‘lanib, kirishib ketgan. Adabiy asarning mazmuni bilan shakli shartli ravishda bir-biridan farq qilinsa-da, ularning biri ikkinchisidan ajralgan holda yasholmaydi. Faqat adabiy asarning hamma elementlari va organik bo‘laklari mazmun rahbarligi ostida bir butunga uyushgan paytdagina badiiy asar maydonga keladi.

Darslikning 4-bobi “Adabiy turlar va janrlar” deb nomlanadi. Ma‘lumki, adabiy asarlar shakli jihatidan nihoyatda turfa xildir. Shuning uchun ham ular guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Adabiyotshunos olim T. Boboyevning quyidagi mulohazasi diqqatga molik: “Adabiy asarlarning yirik guruhlari **adabiy tur**, adabiy turning ichki guruhlari **adabiy tur shakllari**, adabiy shaklning ichki guruhlari **adabiy janrlar** va, nihoyat, adabiy janrlarning ichki bo‘linishi **janr xillari**” [1:459 b.] Izzat Sulton esa xilma-xil adabiy asarlarni tuzilish jihatidan uchta katta guruhga bo‘ladi va bu guruhlarning

har birini *adabiy tur* deb ataydi. Bu turlarni yana bir qancha mayda shakllarga bo'ldi hamda bu shakllarni *adabiy janrlar* deb nomlaydi. Muallif quyidagi adabiy tur va janrlarga ta'rif beradi:

Shu bilan bir qatorda, muallif lirik-epik asarlar xususida ham ma'lumot beradi va bu turga *poema* va *masalni* kiritadi. Hajviy asarlarni esa satira asarlari va yumor asarlari kabi ikki guruhga ajratib ko'rsatadi. Bobning so'nggida I.Sulton adabiyotning ikki turi ya'ni yozuv va folklor (og'zaki) adabiyoti borligini, turlar va janrlarning tarixiyli va bir-biri bilan bog'liqligi borasidagi fikr va mulohazalarini bildirib, bobni yakunlaydi.

Darslikning keyingi bobi "Stil va metod" masalalariga bag'ishlangan. Bugungi kungacha "uslub" va "stil" terminlari parallel tarzda qo'llanilib kelinadi. "Agar biz bir yozuvchining bir necha asarini olib, ularning temalarini, ularda tasvir etilayotgan hodisalarni, obrazlarni, bu asarning ideaviy mundarijasini bir-biriga solishtirsak, bu asarlarda o'xshash ko'p xususiyatlarni ko'ramiz. Yozuvchining asarlaridagi ana shunday ideaviy-badiiy xususiyatlarning jamiga *yozuvchining stili* deymiz".[2:80] Haqiqatan ham, "uslub" deganda har bir yozuvchi ijodining o'zigagina xos, takrorlanmas g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushunamiz. Muallif yozuvchi uslubini o'quvchilarga yqqaqolroq tushuntirish maqsadida M.Gorkiyning "Chelkash", "Konovalov", "Ona" kabi asarlarini bir-biriga taqqoslaydi va ularda dastlab ideaviy jihatdan birlik ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi.

"O'z stili jihatidan bir-biriga yaqin turgan yozuvchilarning ijodidagi ideaviy-badiiy birlik *adabiy oqim* deb yurgiziladi". Darslikda o'tmishda yuzaga kelgan adabiy oqimlar sifatida klassitsizm va simbolizmga ta'rif-u tavsif beriladi. Klassitsizm oqimining uchta asosiy xususiyati ko'rsatib beriladi. *Birinchi*dan, bu oqim tarafdorlari hamma narsada Yunon va Rim adabiyotiga taqlid qilishga uringanliklari, *ikkinchi*dan, adabiy asarning oldindan belgilab qo'yilgan qat'iy qoidalariga qattiq rioya qilib yozilishi (masalan, dramatik asarlar "uch birlik qonuni"ga bo'ysunishi), *uchinchi*dan, klassitsizm tarafdorlarining asarlarida faqat saroy aristokratiyasining vakillarigina tasvir etilishibayon qilinadi. "Simbolizmning xususiyati – deb yozadi muallif – konkret hayotni tasvirlashdan qochish, shoirning allaqanday notayin, nozik ichki hislarini, buyumlar ichiga berkinib yotgan allaqanday "sirli ma'nolarni"ni ochib berishga intilishdan iborat".[2:82 b.]

Ijodiy metod masalasi, dastavval, san'atkorning hayotga, voqelikka munosabati masalasidir. Darslikda yozuvchilar, ularning asarlari va adabiy oqimlarning kurashi qanchalik xilma-xil, murakkab bo'lmasin, ularni asosiy ijodiy prinsiplari jihatidan ikki katta guruhga (realizm va romantizmga) bo'lish mumkin deyiladi. "Turmushning o'zini emas, balki shu turmush haqidagi orzularini tasvirlash – romantizm deb ataladi" [2:83b]. Demak, mazkur metodda jamiyat, hayot, inson qanday bo'lsa shundayligicha emas, aksincha, qanday bo'lishi kerak bo'lsa o'shanday ko'rsatilar ekan. Muallif bu metodni ikki guruhga ya'ni reaksiya va revalutsion romantizmga bo'ldi.

"Realizmning bosh xislati – hayotni butun yalong'ochligi va haqqonliyligi bilan qayta tiklash" (V.G.Belinskiy)dir. Bu qonuniyat – adabiyotning tug'ilishidanoq paydo bo'lgan bo'lib, uning tarixiy rivojlanish taraqqiyoti davomida to'xtovsiz tarzda sayqallashdi, yangi-yangi xususiyatlar dunyoga keldi, tobora boyib takomillashishda davom etmoqda".[3:256 b.] Darslikda ham realizm turmushni to'g'ri, haqqoniy va har taraflama tasvirlashdir deya uqtiriladi.

"She'rning tuzilishi"ga bag'ishlanadi. Unda ritm, vazn, aruz, barmoq va qo'shma vazn, turoq, bosh turoq, qofiya, erkin she'rning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi. Aruz vaznini tushuntirishda Navoiy, Muqimiy, G'.G'ulom asarlaridan foydalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Izzat Sultonning o'rta maktablar uchun yozgan "Adabiyot nazariyasi" darsligi o'sha zamon uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etib, unda adabiyotshunoslik terminlari aniq misollar orqali tushuntirilib beriladi. Darslik adabiyotshunoslik sohasining bugungi kundagi taraqqiyoti uchun o'zining munosib hissasini qo'shgan kitobdir. Olim keyinchalik (1986-yil) xuddi shu bilan universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari o'quvchilari uchun darslik yozadi. Mazkur darslik oldingi (biz tahlil etgan) darslik asosida yaratiladi. Muallif kitobda aniq "formula" va "ta'riflar" ishlab chiqishga emas, balki birinchi navbatda har masalaning mohiyatini o'quvchiga chuqurroq va kengroq tushuntirib berishga harakat etadi, ayrim muhim qoida va fikrlarni, o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun qisman takrorlashni ham zarur deb hisoblaydi.

#### Adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2002. – 560 b.
2. Sultan I. Adabiyot nazariyasi. Orta maktablar uchun darslik. –T.: O'zSSR davlat oquv-pedagogik nashriyoti, 1940. – 125 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.

4. Sulton I. O'zbek adabiyotshunosligining ba'zi vazifalari haqida. // O'TA, 1982, № 4, 3-5 - b.
5. Yoqubov H. O'zbek adabiyotshunosligiga bir nazar. // O'TA, 1967, № 5, 8-14 - b.

UDK: 809

## OLAMNING KONSEPTUAL HAMDA LISONIY MANZARASI TUSHUNCHALARINING TALQINI HAQIDA

**Z.M. Boynazarov**

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tafakkur va til, olam manzarasi, olamning konseptual manzarasi (OKM), olamning lisoniy manzarasi (OLM), ularning o'xshashlik va farqli tomonlari, aloqa-aralashuv jarayonlari haqida, shuningdek, insonning dunyoni ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish, hissiy sezish, shuurosti bilan his qilish orqali anglashi, predmetlar, hodisalar, xossalar xususidagi axborotlarni qabul qilish, bo'laklash, qayta ishlash, tasavvur va tushunchalar tizimi, noverbal tasavvur, verbal tasavvur, verbal va vizual aloqa-aralashuv jarayonlari xususida fikr yuritilgan hamda ranglar, nomsiz ranglar, «anglatuvchining liniyalı karakteri», ob'yektiv olam, diskretik, protseduralar, abstraksiyalash, predmetlashtirish, atributlashtirish, verballashtirish, kodifikatsiya qilish haqida ayrim mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, til, olam manzarasi, olamning konseptual manzarasi (OKM), olamning lisoniy manzarasi (OLM), kommunikativ jarayon, tasavvur, tushuncha, verbal va vizual aloqa-aralashuv.

### **Об интерпретациях концептуальных и языковых картин мира**

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы взаимоотношения языка и мышления, концептуальной и языковой картин мира, их схожие и дифференциативные стороны, вербального и невербального восприятия мира, вербальной и невербальной коммуникации. А также, изложены замечания автора о процедурах экспликации языковой картины мира через процессы абстракции, предметизации, атрибуции, вербализации по кодификации семиотического материала. По мнению автора, эти процессы лежат на основе восприятия и передачи мира и использование их в процессе вербально-визуального общения.

**Ключевые слова:** мысль, язык, мировоззрение, концептуальная и языковая картина мира, коммуникативный процесс, воображение, сознание, словесная и визуальная коммуникация.

### **About interpretations of the conceptual and lingual pictures of the World**

**Abstract.** This article analyzes the interrelationships of language and thinking, conceptual and linguistic pictures of the world, their similar and differentiative aspects, verbal and non-verbal perception of the world, verbal and non-verbal communication. The author's remarks on the procedures for explicating the linguistic picture of the world through the processes of abstraction, subjectization, attribution, and verbalization on the codification of semiotic material are also set forth. According to the author, these processes lie on the basis of the human perception and transmission of the world and using in the process of verbal-visual communication.

**Keywords:** thought, language, worldview, conceptual and language picture of the World, communicative process, imagination, consciousness, verbal and visual intervention.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlarning mazmun-mohiyati tilni nafaqat aloqa-aralashuv vositasi, balki dunyoni bilish, anglash, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazib berish vositasi sifatida tadqiq qilishga qaratilgan bo'lib, bunda tilni o'z sohibi bilan birga tadqiq qilish hamda til va tafakkur munosabatlarini chuqurroq o'rganish dolzarblik kasb yetib bormoqda.

Ma'lumki, tafakkur va til ongning alohida olingan va o'zaro chambarchas bog'langan ikki sohasidir. Bunga mos ravishda dunyoning ikki xil - konseptual va lisoniy manzarasi mavjud deb hisoblanadi. Inson o'z tushunchalarini til bilan ifodalashga qadar dunyo bilan ma'lum darajada tanishadi, dunyoni hissiy bilish xususiyatidan kelib chiqib, u borliq (atrof muhit) haqida qandaydir



tushunchalarga ega bo'ladi, o'zi anglagan, qabul qilgan predmetlar, hodisalar, xossalar xususidagi axborotlarni qabul qilish va ularni boshqa turdagilardan farqlashga intiladi. Dunyo haqidagi har bir yangi tushuncha har bir individ tarafidan u ilgari ega bo'lgan axborot va tushunchalar zamirida yoki ular yordamida shakllantiriladi. Shu tariqa shakllangan dunyo haqidagi tasavvur va tushunchalar tizimi insonda shakllangan dunyo haqidagi konseptual tizimidir, u statik tushunchalarga asoslangan noverbal tasavvurdir. Bu tushunchalar tizimini til birliklari orqali ifodalashgacha bo'lgan bosqichini tashkil etadi. Bu bosqichda inson hissiy bilish va qabul qilish orqali ob'yektiv borliqdagi narsalar bilan tanishadi [1,28].

Boshqa tarafdin, inson ishtirok etuvchi jamiyat va tabiatdagi aloqa-aralashuv jarayonlari (kommunikativ jarayon) asosan ikki usul bilan amalga oshishi ma'lum. Bular verbal va vizual kanallardir. Aynan bu ikki yo'nalishda insonning qabul qilish, generativ va tahlil qilish xususiyatlari ustun darajada rivojlangani kuzatiladi. Verbal aloqa-aralashuv borliqdagi realliklarga muqobilan mavjud bo'lgan leksik birliklarga asoslanadi. Bu hol katta miqdordagi lug'aviy birliklarning mavjud bo'lishiga hamda ular yordamida shakllanuvchi cheklanmagan miqdordagi axborotni uzatishga asos bo'ladi. Vizual kommunikatsiyada esa verbal aloqa-aralashuvdagidek avvaldan tayyor birliklarga ega emas, shu sababli unda qabul qilish, tahlil va generativ faoliyat umumiy shaklda amalga oshadi [5,656].

Verbal aloqa-aralashuv insonning ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish, hissiy sezish, shuurosti bilan his qilish (savqi tabiiy kabi) orqali borliqning tilda aks etishining tafakkur shaklida voqelanishi bo'lib, u voqelik va til o'rtasidagi bog'lovchi zvenodir. Barcha narsalar borliqdan tafakkur orqali tilga yo'naladi va til uni shartli belgi va tovush qobig'i yordamida ifodalaydi [3,26]. Shu tufayli olam manzarasini inson tilida aks etishini odatda quyidagi oddiy triadaga olib borib bog'laydilar: ob'yektiv borliq – ob'yektiv borliqning insonning miyasida (ongida) aks etishi va bu aks etish natijalarining tilda ifodalanishi. Til ob'yektiv borliqdan “nusxa ko'chirmasligi”, balki u ma'lum bir shaklda insonning dunyoni bilish jarayonini aks ettirishini hisobga olsak, bu triadaning zamirida haqiqat yotganini payqash qiyin emas. Binobarin, “obyektiv borliqning birlamchi reprezentatsiyasi dunyoning hissiy bilishga, eslashga, introspektsiya (=ichki tahlil) va propriotseptiv qayta aloqa (=tasavvurni yaxshilashga qaratilgan reaksiya)ga asoslangan modelini yaratadi. Ikkilamchi reprezentatsiya esa bu modelning olam va insonning xatti-harakatlari til birliklari (so'z) bilan ifodalangan modelini beradi. Bu esa bizning dunyoni hissiy qabul qilishimiz dastlab konseptual reprezentatsiya holida, so'ngra esa lisoniy reprezentatsiya shaklida namoyon bo'lishini ko'rsatadi”[4]. Birinchi bosqichni dunyoning konseptual manzarasi, ikkinchisini esa olamning lisoniy manzarasi deyish mumkin.


Inson tafakkurida shakllangan olamning konseptual manzarasi juda murakkab tuzilmadir. U juda variativ va o'zgaruvchandir. Unda insonlarning bir-birini anglashi uchun umumiy nuqtalar ko'p, shu sababli tafakkur tilga nisbatan mazmunan keng va “harakatchan”dir. Shu tufayli fikrlash jarayoni turli tasavvur va tushunchalar o'rtasida yangi-yangi aloqalarni o'rnatishga moyil bo'lib, unda doimiy “qo'nimsizlik” mavjud. So'z (til birligi) esa tafakkurga ko'ra turg'unroq va konservativdir, shunga ko'ra u borliqdagi barcha o'zgarish va rivojlanish jarayonlarini mos ravishda aks ettirmaydi. Demak, olamning lisoniy manzarasi insondagi dunyoning konseptual manzarasining til birliklariga mazmunan va shaklan bog'liq qismigina, xolos. Biopsixosotsial mavjudot sifatidagi insonning ongi manbai bo'lgan miyasida va tafakkuriy-ruhiy-ma'naviy dunyosidagi juda boy va keng dunyoning konseptual manzarasi bilan birga, parallel ravishda olamning lisoniy (verbal) manzarasi mavjud [8]. Misol uchun, o'zbek tilida tabiatdagi ranglar oq, qora, sariq, qizil, yashil, pushti, jigarrang, qirmizi, ko'k, zangori... kabi o'z va o'zlashgan qatlamga oid 10-15 ta so'z bilan ifodalanadi, xolos (boshqa tillarda ham shunga yaqin holatni kuzatish mumkin). Aslida tabiatda minglab bir-birini takrorlamaydigan ranglar bor, ularning barchasini lisoniy ifodalashning iloji yo'q, ammo inson har bir holatda o'sha ismsiz ranglarni ko'radi, ularni boshqalardan ayiradi, farqlarni his qiladi, ammo nominatsiya jarayoniga “aralashmaydi”, chunki olamning konseptual manzarasidan farqli o'laroq, dunyoning lisoniy manzarasining o'lchamlari chegaralangan va ular qat'iydir, agar tilda oshig'ich ehtiyoj bo'lmasa, ma'lum bir rangga nom “berilmaydi”, minglab ranglar esa “nomsiz ranglar” sifatida insonning bilish jarayonida xotirada saqlanib qolaveradi [9]. (Aytish mumkinki, tilda leksik ekvivalenti bo'lgan 10-12 rang “Dunyoning lisoniy manzarasi” lingvodayonidagi “ranglar” sektorini tashkil etadi, boshqa “nomsiz” ranglar esa konseptual tasavvur sifatida zahirada turadi va lisoniy aloqada juda kerakli bo'lganda tabiatdagi boshqa narsalar rangiga o'xshatish (zarg'aldoq rang, nosvoyrang, kulrang...) yoki –ish, - roq kabi nisbiy daraja yasovchi qo'shimchalar yordamida “shartli nomlangan” (ranglar

palitrasiga kirmaydigan) rang nomi hosil qilinadi). Bunga qanoat hosil qilish uchun har qanday kompyuterning matni yoki satrni bo'yash funksiyasidagi ranglar palitrasiga yoki quyidagi 1 va 2-rasmlardagi ranglarga ko'z tashlash yetarli. 12 ta "nomli" rangni va uning yonidagi oltiburchakli palitradagi 138 ta rangdan ayirsangiz kompyuterning bo'yash servisidagi 126 rangning nomi hozircha inglizchada yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi.

Rasm 1



Rasm 2



Til qachonki konsept uchun muqim bir lisoniy muqobil yaratgandagina va u tilda mustahkam o'rnashganidagina konseptlardan biri yoki bir nechta OLM unsurlari qatoriga qo'shilishi mumkin. Y. Vaysgerberning so'zlari bilan aytganda, «ona tili barcha til egalari uchun yaroqli vositalarni ishlab chiqish yo'li bilan muloqot uchun zamin hozirlaydi. Dunyo haqidagi tasavvur va tafakkur tarzi tilda doimo ro'y berib turadigan dunyoni aks ettirish, mazkur til jamoasida ushbu tilning o'zi uchun maxsus vositalar bilan dunyoni bilish jarayonlari mahsulidir» [2]. Lisoniy birlikning birinchi atributsiyasi bo'lmish fonetik-akustik tuzilma (so'zning fonetik qobig'i) faqat o'sha tilning vositalari (tovushlari) va qoidalari yordamida ifodalanishi zarur, bu esa OLM unsuri bo'lishning birlamchi shartidir. Aks holda esa hech qanday til belgisi kommunikativ tizimga mustahkam o'rnashmaydi, u vaqti bilan nutqiy iste'moldan chiqib ketadi. Bu holat aslida Ferdinand de Sossyur «anglatuvchining liniyalari xarakteri» deb atagan tamoyil bo'lib, fikrni ifodalovchi tovush komplekslarining bir ketma-ketlikda yotishi va bu ketma-ketlik liniya (chiziq)dan iborat ekanligini ko'rsatadi. F.de Sossyur alohida qayd etadiki, «mazkur tamoyil asosiy va uning natijalari behisobdir. Unga tilning barcha mexanizmlari bog'liqdir» [7]. Binobarin, til birligining (so'zning) ma'no tomoniga har doim tushuncha «yuki» ortilgan bo'ladi va u til sistemasida har narsaning tashkilotchisi bo'lgan mazmundan ajralmasdir, chunki, til kabi ikkilamchi ideal tizimlar borliqdagi moddiy va nomoddiy tizimlarning «moddiylashgan», shartli belgilangan belgilar tizimi shaklidagi ko'rinishidir [6].

Bu o'rinda, ayniqsa, konseptlar va til birliklari (so'z, leksema)ning hamda konseptosfera va OLM komponentlarining o'zaro munosabatlari xususida to'xtalganda Ch.Pirs tarafidan ta'riflangan "belgi belgini vujudga keltiradi" degan semiotikaning asosiy qonuni xususida to'xtalib o'tish lozim. Ch.Pirsning ta'kidlashicha, ma'lum til belgisining mazmuni-mohiyati boshqa lisoniy belgining (belgilar zanjirining) yordamida ochib beriladi va uning ma'nosidagi taraqqiyot faqat shu shaklda yuz beradi. Bu esa semiotik jarayonlarning ham xuddi hayotdagi kabi aylana-halqa shaklidir (...Belgi kimni va nimanidir qaysidir munosabatlarda va qaysi bir nom ostida ifodalaydi. U biror kishiga yo'naltirilgan bo'ladi va u kishining tafakkurida shunga mos yoki yanada rivojlangan (ma'nosi kengaygan, konkretlashgan) belgi yaratadi....) [10]. U yoki bu konseptning til belgisiga tomon "siljishi" ana shu qonuniyat tufayli yuz beradi, deb taxmin qilish mumkin, zero til geterogen tizimdir, uning bir unsuri shakl va mazmun jihatidan faqatgina ikkinchi bir unsurdan yasaladi yoki vujudga keltiriladi.

Binobarin, til olamni maxsus belgilar tizimi orqali ifodalagani uchun olamning lisoniy manzarasining ko'lami dunyoning konseptual manzarasiga ko'ra ancha tordir. Quyidagi jadvalda konsept va til belgisi (birligi) orasidagi farqlardan o'rta chiquvchi OKM va OLM hamda ular o'rtasidagi farqlarni bayon qilib berishga harakat qildik:

Jadval

Olamning konseptual	Olamning lisoniy manzarasining asosiy	Farqlar va ularning
---------------------	---------------------------------------	---------------------

<i>manzarasining asosiy belgilari</i>	<i>belgilari</i>	<i>mohiyati</i>
Dunyoning konseptual manzarasi dunyoning qandaydir belgilar tizimi bilan ifodalanmagan tasviridir. U (ma'lum bir qismi) belgi bilan ifodalanishi mumkin.	Olamning lisoniy manzarasi dunyoning bir butun global tasviri bo'lib, u insonning bir turdagi emas, balki barcha turdagi faoliyatlarining natijasi bo'lib maydonga keladi. OLM dunyoning global tasviri sifatida inson ongida uning tashqi olam bilan barcha aloqalari zamirida shakllanadi va u konkret lisoniy belgilar – morfema, so'z, so'z birikmasi yoki gap bilan ifodalanadi.	Belgilar orqali ifodalanganlik (OLM) va ifodalanmaganlik (OKM)
Konsept bilishning tasavvur va tushuncha o'rtasidagi oraliq shaklidir, u his qilish va qabul qilish muhitida shakllanadi; u tasavvur va tushunchaga xos ayrim belgilarga ega hamda bilishning maxsus shakli sifatida namoyon bo'ladi. OKM ham xuddi ana shu xususiyatlarni tashiydi.	OLMning markaziy unsuri so'z va u ifodalaydigan tushunchadir. U ma'no-mazmunga ega tovushlar birikmasi (kompleksi) dan iborat "qobiq"qa ega. U predmetni boshqalardan ajratib ko'rsatadi va ba'zi xossalarini ifodalab beradi. Shuningdek, u narsani uning boshqa predmetlar bilan umumiy taraflariga ko'ra ma'lum tofiaga mansubligiga ham ishora qiladi (nominatsiya jarayoni). Predmetning aniq obrazini ifodalaydi va shu asosda leksik (lisoniy) ma'noga ega bo'ladi. OLMning qismlari bir-birini tashkil etuvchidir, biri-birining tarkibiy qismidir (morfema so'zning "g'ishtlari", so'z esa sintaksisning "qurilish materiallari"dir).	konsept bilishning maxsus shakli xolos, so'z va tushuncha til va tafakkur birligi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.
Dunyoning ongdagi tasviri tashqi ob'yektiv borliqni aks ettiradi. Borliq – barcha moddiy, nomoddiy, real bor bo'lgan va tasavvur qilinadigan, ongga oid va undan tashqaridagi barcha narsalarni qamrab oladi. Dunyoning umumiy tasviri – olamning konseptual manzarasi demakdir.	Olamning lisoniy manzarasi real borliqdagi barcha moddiy, nomoddiy, bor bo'lgan va tasavvur qilinadigan, ongga oid va undan tashqaridagi barcha narsalarni qamrab ololmaydi. U insonning intellektual saviyasi, bilimi, tajribasiga mos ravishda shakllanadi va uning anglatuvchi sub'yektlari ham chegaralangan miqdordadir.	Qamrovlarning keng va torligi bilan farqlanadi
konsept sub'yektivdir, u nutq kontekstida so'zlovchilar orasidagi hissiy, intonatsion, harakatli-ritmik kommunikatsiya jarayonida shakllanadi. Konsept individuallik kasb etadi. U boshqa so'zlovchi bilan suhbat (bahs), savollarga javob berish mobaynida doimiy ravishda mazmunini aniqlashtiradi. Xotira va tasavvur konseptning konkret vaziyatda narsani qabul qilinishi va tushunilishi uchun asos bo'ladi. Biror bir ifodaning turli fanlarda turlicha tushunilishi va talqin qilinishi uning konseptual ligidan dalolatdir. OKMga	tushuncha ma'lum bir toifaga mansub bo'lgan narsalarning barcha xususiyatlarni ifodalagan nom sifatida namoyon bo'ladi va u ma'lum mantiqqa asosan tilga (tafakkurga) o'rnashadi. U ob'yektivdir, aloqa –aralashuv jarayoniga qarab o'zgaravermaydi, so'zlovchiga mustahkam bog'langan emas, unga nutqiy vaziyatda konkretlashtirilish xos emas.	Konsept sub'yektiv, tushuncha va so'z ob'yektivdir

umumiy tasavvurlarning nutqiy vaziyatda konkretlashtirilishi xos.		
Til birliklariga ko'ra yanada ko'p sonli konseptual maydon konseptosferani vujudga keltiradi	OLM va uning komponentlari bo'lmish so'z va leksema semantik maydonda, signifikativ ma'no va konnotativ semalar sifatida aktualizatsiya qilinadi	Konseptosfera hamda OLM komponentlari o'rtasida farq va bog'liklik mavjud. Ular bir-birini to'ldiradi.
OLM va OKM o'rtasidagi chegara nozik va u aniq emas. Til egasi yoki til jamoasining kommunikatsiya jarayonidagi faoliyatiga mos ravishda ular o'zgarib va bir-birini to'ldirib, aniqlab boraveradi. OLM bu jarayonda til va tafakkurning aloqasini ta'minlab beruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.		

Inson ongi ob'yektiv olamni diskretik holda, bir qancha protseduralar, jumladan, ya'ni tushuncha va tasavvurlarni abstraktsiyalashning predmetlashtirish, atributlashtirish, verballashtirish va hokazo usullari orqali kodifikatsiya qiladi, ular shu holda til belgilariga aylanadilar. Olamning real manzarasi uning lisoniy manzarasiga aylanishining (ya'ni eksplikatsiya jarayonining) asosiy mexanizmi ham shundadir. E. Benvenist qayd etganidek, «Til insonning mohiyatidan ajratib bo'lmaydigan yuqori darajadagi qobiliyatga -simvallashtirish xususiyatiga egadir. Bunday deganda biz keng ma'noda tilning ob'yektiv borliqni «belgi» vositasida tasvirlash (reprezentatsiya qilish) qobiliyatini va «belgi»ni ob'yektiv borliqning vakili sifatida qabul qilish, va binobarin, qandaydir bir narsa bilan yana boshqa shunday bir narsa o'rtasida «ma'no» joriy etish xususiyatini tushunamiz»"[1].

Olamning lisoniy manzarasi dunyoning bir butun global tasviri bo'lib, u insonning bir turdagi emas, balki barcha turdagi faoliyatlarining natijasi bo'lib maydonga keladi. OLM dunyoning global tasviri sifatida inson ongida uning tashqi olam bilan barcha aloqalari zamirida shakllanadi. Demak, olamning lisoniy manzarasi deganda, dunyoning inson ongidagi aks etgan obrazi, ya'ni individning shaxsiy tajribasi va lisoniy faoliyati natijasida vujudga kelgan, lisoniy vositalar orqali ifodalangan tasvirni tushunish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика, -М.:УРСС, 1974, с. 28.
2. Вайсгербер Й.Л. Язык и философия // Вопросы языкознания, -М.,1993, № 2, с. 111-112.
3. Гак В. Г. Пространство мысли (опыт систематизации слов ментального поля) // Логический анализ языка. Ментальные действия. -М., 1993. С. 26.
4. Кравченко А. В. Место концепта в соотношении языка, сознания и мышления. Жанры речи: Жанр и концепт (В. В. Дементьев (ред.)). -Саратов: Колледж, 2005. -С. 84-102. Яна қаранг: Deacon, T. W. The symbol concept // M. Tallerman & K. Gibson (eds.). The Oxford Handbook of Language Evolution. Oxford University Press, 2011. P. 393-405.
5. Почепцов Г.Г. Теории коммуникации.- М.: «Рефл-бук», 2001. - 656 с.
6. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1971, с. 44.
7. Соссюр, Ф.де. Курс общей лингвистики.- М.: СОЦЭКГИЗ, 1933. с.81.
8. Тарасевич Н.А. Лингвокультурный аспект формирования языковой личности средствами иностранного языка// Лингвокультурное образование в системе вузовской подготовки специалиста. Том 1, Номер 1(9), 2016. -С. 252-258 > <https://elibrary.ru/item.asp?id=26086431> (November, 2018).
9. Фрилинг, Генрих. Ауэр, Ксавер. Человек - цвет – пространство: Прикладная цветопсихология. – Сокращённый перевод с немецкого. – М.: Стройиздат, 1973. – 141 с.; Бреслав Г. Э. Цветопсихология и цветолечение для всех. - СПб.: Б. & К., 2000. - 212 с.
10. Пирс Ч.С. Начала прагматизма. Ч. II Логические основания теории знаков / Перевод с английского, предисловие В. В. Кирющенко, М. В. Колопотина, - СПб.: Алетейя, 2000. - 352 с.

УДК: 891.709:78

**ПОЭЗИЯ И МУЗЫКА В ОЦЕНКЕ ФУРКАТА****С.С.Хамдамова***Каршинский инженерно-экономический институт**star9200@mail.ru*

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды Фурката на искусство поэзии и музыки. С точки зрения Фурката поэзия и музыка обладают огромным потенциалом эстетического и воспитательного воздействия на людей. Особенно классическая музыка и поэзия способны гуманизировать чувства человека и стать важным средством познания духовной жизни.

**Ключевые слова:** просветительское движение, литературоведы, лирика Фурката, скитания европейской цивилизации, просветительский характер, художественная культура народов, универсализм, светские знания, просветитель.

**Furqatning poeziya va musiqaga oid estetik qarashlari**

**Annotatsiya.** Maqolada Furqatning she'riyat va musiqa san'atiga nuqtai nazarlari aks ettirilgan. Furqatning fikricha, she'riyat hamda musiqa odamlarga ahloqiy va ta'limiy ta'sir ko'rsatishda uchun ulkan salohiyatga ega. Ayniqsa mumtoz musiqa va she'riyat odamning his-tuyg'ularini insoniyashtiradi va insonning ma'naviy hayotini anglashida muhim vositaga aylanadi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatparvarlik harakati, adabiyot darg'alari, Furqat she'riyati, Evropa taraqqiyoti ajoyibotlari, ma'rifiy ruhdagi, xalqning ma'rifiy madaniyati, universalizm, dunyoviy bilimlarni egallash, ma'rifatparvar.

**Furkat's aesthetic views on music and poetry**

**Abstract.** The article discusses the views of Furkat on the art of poetry and music. From the point of view of Furkat, poetry and music have a huge potential for aesthetic and educational impact on people. Especially classical music and poetry can humanize the feelings of a person and become an important means of knowing the spiritual life of a person.

**Keywords:** enlightenment movement, literary scholars, lyrics of Furkat, wanderings of European civilization, educational character, artistic culture of people, universalism, to acquire secular knowledge, enlightener

Вклад Закирджана Холмухаммада-оглы Фурката (1858-1909), как нам представляется, в просветительское движение в Средней Азии, как ни парадоксально, до сих пор недостаточно раскрыт и освещен. Правда специалисты по творческому наследию Фурката, в частности литературоведы, подробно писали о лирике Фурката, о его жизни и творчества в целом. Но творчество Фурката многогранно и требует всестороннего исследования.

Лирика Фурката во многом является результатом его личного переживания, страдания и тоски по родной стране, в частности по Куканду. Его «вынужденное» скитание по миру, а он побывал во многих странах, в частности в Болгарии, Греции, Египте, Индии, Кашмире, Синьцзяне, Яркенде и т.д. Не будем затрагивать его частную жизнь и основные причины его «скитания» по различным странам. Для нас важно, то, что Фуркат за короткий срок своей жизни, то есть за 51 год жизни, сделал многое не только для современной узбекской литературы, но и для просветительского движения в Средней Азии конца XIX века. Развитие европейской цивилизации, и ее распространение на Востоке, привело к расширению просветительских идей в арабском, иранском и тюркском мире. Просветительство приводило не только к распространению научного знания, но и к изменению привычного образа жизни народов и стран. В культуре народов Средней Азии, путешествие издревле носило познавательной, просветительской характер. Вспомним путешествие Насира Хосрава (XI в.), по странам Ближнего Востока, отраженное в его книге «Сафарнаме» (Путешествие). Путешествие Ахмада Дониша три раза в Россию, Мирзо Сироджа по мусульманскому миру, Фитрата по Турции и России и т.д. Что касается Фурката, то его путешествие по миру, в первую очередь, носило познавательный и просветительский характер. Он, как и его предшественники, стремился к тому, что бы ознакомить своих соотечественников с многообразным миром, с традициями, обычаями разных народов.

В этом плане необходимо сказать об отношении Фуркат к России и русской культуре. Известно, что Россия в XIX веке по сравнению со Средней Азией, под влиянием европейской науки и культуры достигла больших успехов в экономической, военной, политической и культурной жизни. Фуркат, как передовой мыслитель своего времени не мог не заметить этого, отсюда его симпатия и восхваления русской культуры, хотя относился резко отрицательно к имперской политике царской России. Он высмеивал имперскую, колониальную политику России в своих сатирических стихотворениях. По дошедшим до нас сведениям высмеял в одном из своих сатирических стихотворений адъютанта туркестанского генерал-губернатора. Поэт расклеил листы с этой сатирой в разных местах города. Ярость высших русских чиновников вызвало сатирическое выступление Фурката против проживавшего в Ташкенте великого князя Н. Романова. В результате положение Фурката крайне осложнилось. В конце концов, Фуркат вынужден был покинуть Родину[1].

О просветительских устремлениях Фурката говорят такие его стихотворения как «Гимназия», «О пользе науки», «Выставка», «О музыкальном собрании», «Рояль», а также его публицистические статьи, опубликованные в газете «Туркистон вилоятнинг газети» за 1891, 1892 годы и т.д.

Прежде всего следует учитывать, то, что просветительские идеи Фурката не возникли на голом месте, и во многом связаны с узбекской и персидско-таджикской классической литературой. Мироззрение и эстетическое восприятие классиков, таких как Фирдоуси, Низами Гянджави, Шамсиддина Табрези, Саади, Хафиза, Хусрава Дехлави немало способствовали пробуждению не только поэтического таланта Фурката, но и просветительскому устремлению поэта. Известно, что гуманизм и просвещение составляют важнейшим звеном мыслителей, поэтов Хоросана и Мавероуннахра. Естественным продолжением этого процесса в художественной культуре народов Средней Азии стала просветительская проблематика и «универсализм» поэтического искусства, утверждение «неделимости» исконной духовной общности народов Средней Азии, Индии, Ирана и Турции, стремление рассматривать искусство поэзии как одним из важнейших средства просвещения людей. Вот, что Фуркат пишет в своем стихотворении «О поэзии и поэтической гиперболе»:

Мусульманским поэтам, чья слава жива,  
Были ведомы тайны высот мастерства.

Ведь и Фирдоуси, и Хафиз с Саади -  
Словно стяг всех времен, что несут впереди!

Сколько доблестных мыслей и слов благодать  
Людям, внемлющим слову, смогли они дать!

Ведь у Фирдоуси прочитает любой,  
Как в стихах «Шах-наме» он описывал бой:

«И от грома копыт вся пустыня окрест  
В шесть земель превратилась и в восемь небес!»

В этот стих заключил он немало чудес:  
Где же он взял шесть земель или восемь небес![1]

Конечно, такая высокая и убедительная оценка творчеству Фирдоуси может дать только человек, который безупречно знает персидский язык и обладает глубоким пониманием сущности поэтического искусства. Фуркат именно тот поэт, который, по его же словам, обладает «океаном любви и тоски, что бездонно глубок» его понимание поэтического искусства.

В оценке поэтического искусства и его роль в воспитании человека Фуркат придерживается традиционного понимания поэзии, идущего еще от Джами и Навои. Высокое призвание поэта - быть воспитателем и наставником своего народа. Поэт своим творчеством должен как магнит железо, притягивает народные сердца, просвещает умы. В этом

смысле, по Фуркату, поэт - духовный наставник своего народа, он раскрывает перед людьми мир. Если поэзия не служит благородной цели просвещения и воспитания народа - она пустышка.

Поэзия является тем средством, который воплощает в себе теснейшую связь красоты и нравственности. Поэзия должна уметь возвышать человека. Человек от столкновения с поэзией должен чувствовать подъем духовных сил от поэтического созерцания мира. Фуркат рассматривает поэзию, так же как и музыку, как характеристику душевного состояния человека. Фуркат пишет:

Где живет предостойный и мудрый поэт,  
В чьей душе человечности благо цветет, -

Обо всем возвестит добрым словом поэт,  
А недоброго слова в стихах его нет![1]

По Фуркату, поэзия всегда должна быть с человеком и в беде, и в счастье, и в напасти, и в веселье. Что не случилось бы с человеком, он не должен терять рассудок и высокую нравственность. В этом человеку всегда помогает поэзия. Большой жизненный опыт, странствие по миру, знание жизни и традиции разных народов помогают поэту быть мудрым и гуманным. Эталоном высокого поэтического искусства, Фуркат считает творчество шейха Саади, «Шахнаме» Фирдоуси и газели Хафиза.

Интересно отметить, что Фуркат в какой стране бы не побывал, и с каким народом бы он не общался всегда стремился найти «светлые стороны» в их жизни, а затем «подражать» им. Именно так пишет Фуркат в своей публицистической статье, напечатанной в газете «Туркистон вилотнинг газети» от 1891 года № 22. Надо было обладать большой любовью к своему народу, чтобы в период отсталости своего края и господства догматизма ортодоксальной религии, открыто говорить о «подражании» жизни передовым в научном и социальном отношении странам и людям. Несомненно, что в своем творчестве, как поэтическом, так и публицистическом, «Фуркат, как пишет литературовед Х. Расулев, стоял выше многих своих современников, был одним из самых передовых мыслителей и деятелей узбекского народа»[2]

Фуркат в 1890 г. пишет свое известное стихотворение «Гимназия». В этом стихотворении Фуркат призывает молодое поколение глубоко изучать науки, приобретать светских знаний. Старые школы (мактабы) и медресе безнадежно устарели. Единственный путь избавления от невежества - это обучение молодого поколения в современных школах европейского и русского типа. Он сравнивает гимназию с цветником, где юноши изучают греческий, немецкий, латинские языки, знакомятся с учением Платона, достижениями науки и техники и восклицает:

Глядишь - и разбегаются глаза:  
Здесь чудо скрыто в опыте любом.  
И тут же выражает сожаление о том, что:  
Как жаль, что наши ханы, беки встарь  
О наслажденьи думали одним,

Людей достойных гнали от себя,  
С невеждою дружили и глупцом,

Ученых не умели уважать,  
Им не хотели следовать ни в чем [1].

В стихотворении «О науке» Фуркат глубже и шире развивает свое понимание сущности науки. Он с восхищением говорит о научно-техническом прогрессе, о сети железных дорог, об электричестве и телеграфе и возвышает роль науки в жизни человека. Ученый, по мнению Фурката, достоин глубоко уважения, потому, что он открывает неизведанного для людей, способствует повышению материального и духовного богатства общества.

Чтобы избавиться от отсталости, писал просветитель, чтобы двигать вперед экономику и культуру страны, необходимо держать тесную связь со странами более развитой в научном и техническом отношении - с Европой, Турцией и Россией. Однако, стремление Фурката приобщить свой народ к передовой науке и стран, всегда встречало противодействие со

стороны кокандской элиты и духовенства. За что подвергал их осмеянию в своих сатирических стихотворениях.

Наиболее ярко просветительские идеи Фурката проявляются в его эстетике. Эстетику Фурката можно назвать просветительской. Его эстетические воззрения ярко выступают в таких его стихотворениях: «О выставке в Ташкенте», «О музыке, музыкантах, их инструментах, а также о производимом музыке впечатления», «О музыкальном вечере в Ташкенте», «О поэзии и поэтической гиперболе», «Рояль», «О пользе науки» и т.д. Его эстетические суждения и оценки, содержащиеся в перечисленных стихах, имеют большую ценность для раскрытия его просветительскую платформу. В соответствии со своими просветительскими идеями, поэт и мыслитель, рассматривает, например музыку, как важное средство нравственного и эстетического воспитания человека. Вслед за Ахмадом Донишем, Фуркат считает, что музыкальное искусство «очищает» душу от зла, делает человека добрым, милосердным. Следует признать, что в оценках и суждениях Фурката относительно музыки обнаруживается некоторое сходство с пониманием Ахмада Дониша музыки и поэзии. Если некоторые представители кокандского духовенства времен Фитрата отрицали эстетическую ценность музыки, рассматривали ее как препятствие к высокой нравственности, то Фуркат видит предназначение музыки в том, что она является главным средством доставки человеку духовное наслаждение, радость, усладу, учит человека понимать красоту жизни. По Фуркату, музыка - это «Чистый жемчуг в морях разуменья людского!»[1] Следует сказать, что Фуркат был большим знатоком и ценителем национальной музыки, песни и танца. Он с большим восхищением говорить о звучании национальных музыкальных инструментов (гиджае, танбуре, ситаре, дутаре, дойре, чанге, найе, уде). Эти инструменты звучат чудно, тогда, когда на них играет настоящий мастер-музыкант. Но в своем стихотворении «О музыке...», Фуркат главным образом говорит о европейской музыке, музыкальных инструментах и мастерстве музыкантах, которые играют в оркестре. Вот как он оценивает звучание музыки в исполнении оркестра:

То ль плещет море нежною волной,  
Взлетая в воздух пеной водяной,

То ли с улыбкой нежится волна,  
Как бы смеясь, потоком вознесена.

Смятением те звуки налиты,  
Дают устам блаженство немоты.

И музыкант искусною игрой  
Потайных дум нам возвещает строй[1].

Фуркат, вслед за Донишем высоко оценивает европейскую профессиональную музыку в исполнении петербургских профессиональных музыкантов, во время их гастроли в Ташкенте. Известно, что европейская музыка базируется в основном на ладе и гармонии. Лад и гармония дают музыке спектр выразительных очертаний и образуют специфический музыкальный язык. Этот музыкальный язык требует от человека (слушателя) высокого художественного образования для восприятия и понимания. Фуркат хорошо понимал европейский музыкальный «язык». Неслучайно его художественно-поэтическая интерпретация содержания профессиональной европейской музыки является очень глубоким и оригинальным. Для Фурката интонационная природа европейской музыки связана с формами общения человека. В этом смысле, по Фуркату, музыкальная интонация выражает духовное состояние человека.

Фуркат восхищался не только европейской музыкой, но и европейским певческим искусством и театром:

Два вида описать вам был я рад:  
Одно - театр, другое - песен лад.

Не видел я еще одно из див,  
И слушал чудных звуков перелив[3].

В своем стихотворении «О музыке...» Фуркат дает, пожалуй, самое развернутое и подробное описание в узбекской литературе своего времени. Как и в его лирических



стихотворениях, само понятие «музыка» (мусика) имеет, помимо эстетический, просветительный смысл. И обнимает собой все виды певческо-музыкального искусства. Музыка, по Фуркату, это - чудо из всех чудес... посланных с небес» [1]. Как поэзия владеет законами организации словесной речи, так и музыка владеет всеми степенями голосов и организует их в согласия, доставляющие радость и наслаждение, «радость и покой» слушателям. Фуркат, так восхищается музыкой, что вдохновенно восклицает:

От той игры душа воспрянет вновь,  
Те звуки льются, словно в жилах кровь! [2]

Музыка для Фурката является благом и выражается в единстве слова и напева. Фуркат, благодаря своей просветительской деятельности, на наш взгляд, открывал новую страницу и в истории узбекской музыки и в музыкальной эстетике.

Известно, что профессиональное театральное искусство во времена Фурката было новым явлением в культуре народов Средней Азии, хотя народный театр, народные театральные игры испокон веков существовали в народной культуре Средней Азии.

Просветительскую направленность содержат такие стихотворения Фурката как «О выставке в Ташкенте», «О торжественном акте», и другие. От внимания Фурката не ускользают эстетические и исторические качества предметов быта, новейшие достижения науки и техники. Согласно Фуркату, выставка играет огромную роль в расширении знания и просвещения людей, как молодого, так и старого поколения. Выставка формирует у людей способность ценить и понимать, что такое наука и научное достижение у разных народов и наций. В условиях отсталости Средней Азии от цивилизованного мира, выставка выступает важным фактором не только эстетического воздействия на людей, но и становится центром культурной жизни. Фуркат пишет: «Эта выставка – кладезь, увидев ее, обновит и умножит он знание свое» [1]. Все предметы, выставленные на выставке, от станка до декоративных предметов народных умельцев, несомненно, радуют глаз и способствуют повышению мастерства посетителей.

Можно ли утверждать, что Фуркат был просветителем в духе Ахмада Дониша? Нет, все обстоит сложнее. Фуркат подверг критике общество своего времени с позиции, если можно выразиться, с позиции «романтического» идеала. Он мечтал о восстановлении в Кокандском ханстве справедливого общества. Нравственный мир, по его взгляду, основательно разрушен. Не случайно он с презрением, сатирическим языком восклицает: «Тьфу!» на кокандских богачей и самовлюбленных, которые лишены чести, совести» [2]. В то же время, Фуркат предлагает преодолевать социальные несправедливости путем мечтаний и терпений. Такое преодоление, возможно, считал Фуркат, но необходимо нравственно осуждать пороки своего общества.

Если Ахмад Дониш требовал радикального изменения структуры государственной власти бухарского эмирата и апеллировал к человеку как к общественному существу и в распространении всех видов знаний, то Фитрат апеллировал к человеку и использовать знания для разоблачения нравственной деградации кокандского ханства и создания основы для внутреннего преображения человека. Ахмад Дониш требовал радикального изменения все ценностные параметры, даже религиозные, жизни своего времени. В результате одно из ведущих социальных сил, по Донишу, становится подлинное научное знание. Что касается Фурката, то его просвещение было разгневанное чувство мудрого и талантливо поэта. Фуркат просто насмеялся над пороками своего времени. Преставления Фурката о современном ему обществе были во многом умозрительными, поэтическими, хотя не обходился молчанием социально-политические явления и институты кокандского общества.

Эстетические воззрения Фурката можно определить по его стихотворению «Однажды в Греции», написанное в восточном сказочно-романтическом стиле. Молодая красавица-итальянка больна туберкулезом. По совету врачей отец отправляет ее в путешествие. Героиня побывала в Египте, Вампуре, Иерусалиме, где поклонялась святым местам. Особенно восхитила девушку Греция, красота ее природы, ее неповторимые памятники античности. Юная итальянка мечтает также о том, чтобы побывать во Франции: «О Франции мечтал я давно, теперь мечте стать былью суждено» [1].

Интересно, что по описанию Фуркатом Греции, где «все улицы, как серебро, чисты», «каждый дом из мрамора, как храм», а также желание девушки побывать во Франции, - свидетельство не только его предрасположенности к Европе и европейским странам. Он сам

хотел побывать во Франции. Это была мечта просветителя, одомашнившего Ближний и Средний Восток, Индию, Тибет, Китай и Кашгар.

Наряду с произведениями, насыщенными просветительскими идеями, Фуркат написал прекрасные лирические газели. В них помимо драматических и трагических чувств Фурката, выражена еще громадная любовь к жизни, родине и людям. В газелях Фурката слышен голос пламенного сердца, умеющего чувствовать красоту жизни и наслаждение ею. Оригинальность стиля, тонкость и глубина поэтического чувства позволяет причислить газели Фурката к образцам узбекской лирической поэзии конца XIX - начала XX века. Данная проблематика не является предметом данного диссертационного исследования.

#### Литература

1. Фуркат. Избранное. – Ташкент: Шарк, 2005. – 243 с.
2. Фуркат. Лирика. – Ташкент: Госиздат Республики Узбекистан, 1959. – 142 с.
3. Муками и Фуркат. – Л.: Писатель, 1972. – 258 с.

UDK: 809:42

### ANGLIYA HAYOTINI TAVSIFLOVCHI MILLIY FIKRLAR OLAMINING LISONIY MANZARASI

T. Ismailov

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz taniqli siyosatchilari, olimlari, badiiy ijod namoyondalarining Britaniya va britaniyaliklar haqidagi turli turli fikrlari ko'rib chiqiladi. Britaniya hayotining sohalariga oid avtosteriotip tasavvurlar yoritib berilgan hamda Britaniyaliklar olamining lisoniy manzarasini shakllantirishda lingvistik omilning roli ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** vatan tushunchasi, Britaniya, lisoniy shaxs, milliy xarakter, olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyat, England, Englishness, avtosteriotip tasavvurlar.

#### Языковая картина мира автостереотипов, характеризующих жизнь Англии

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются различные суждения известных английских политиков, учёных, представителей художественного творчества о Британии и Британцах. Иллюстрированы автостереотипные представления о различных сферах британской жизни и показана роль лингвистического фактора в формировании языковой картины мира Британцев.

**Ключевые слова:** понятие Родины, Британия, языковая личность, национальный характер, языковая картина мира, национальная культура, England, Englishness, автостереотипные представления.

#### Linguistic picture of the world of autostereotypes characterizing the life of England

**Abstract.** This article discusses the various discussions of famous British politicians, scholars, and representatives of artistic creation about Britain and Englishness. Autostereotypical ideas about various areas of British life are illustrated and the role of the linguistic factor in the formation of the linguistic picture of the world of Englishness is shown.

**Keywords:** concept of Motherland, Britain, linguistic personality, national character, linguistic picture of the world, national culture, England, Englishness, autostereotypical representations.

Milliy mentalilet shakllanishining muhim tarkibiy qismlaridan biri - bu mamlakat nomi tushunchasi bilan qorishib ketgan vatan tushunchasidir. Xalqning dunyoqarashida alohida tushunchalardan tashkil topgan murakkab, ko'p qirrali hodisa, hamda milliy tafakkur harakatlarini shakllantiruvchi element sifatida vatan tushunchasini ko'rib chiqish zarurligi ko'pgina olimlar tomonidan qayd qilingan [3; 4; 6]. Bu borada til, madaniyat va etnoslarning o'zaro ta'siri masalasi bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlar "til madaniyat ko'zgidir" degan aksiomaga asoslangan [5; 7]. Milliy madaniyat ushbu jamiyatdagi shaxsning xulq-atvorini belgilaydi, lison inson xatti-harakatlarining turlaridan biridir. Til milliy xarakterni shakllantirish jarayonidagi asosiy

omillardan biri bo`lib, nafaqat etnik farqlovchi belgi, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribaning saqlovchisi hamdir [1; 2].

Ingliz lisoniy shaxsi ongida Buyuk Britaniya va inglizlar bilan bog`liq holda shakllangan avtostereotiplar, ya`ni taniqli inglizlarning o`z vatani va vatandoshlariga tegishli bo`lgan fikrlari, hukmlari va baholarining semantik asoslarini tadqiq etish keyingi paytlarda katta qiziqish uyg`otmoqda. England va Englishness tarkibli leksik birliklar vositasida taqdim etiladigan fikrlar va baholar turlicha semantik mazmunga ega bo`lishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot jarayonida Britaniya hayoti bilan bog`liq aniq semantik faktlar haqida bilimlarga ega bo`lmasdan turib, bunday leksik birliklarni tushunish ancha mushkul, chunki mazkur lisoniy birlik semantikasi o`zi taqdim etayotgan fikr yoki bahoni tushinish uchun etarli bo`lmaydi. Har bir iborani to`g`ri qabul qilish uchun esa unda mavjud bo`lgan ichki obraz bilan bog`liq motuvlashgan makrokomponenti bilish talab qilinadi.

Vatan keng tushunchasining o`ziga xos xususiyati shundaki, u har bir xalqqa xos bo`lganligi sababli ham universal, ma`lum bir millatga xos bo`lgan madaniy yorliqlarining mavjudligi tufayli ham etnomadaniy hodisadir. Ingliz tilida vatan tushunchasining asosi bir nechta tushunchalardan tashkil topgan: "people", "homeland", "nation", "land" and "country". "Homeland" g`oyasining ingliz tilida bunday tushunchalar orqali ro`yobga chiqishi yagona ingliz millatining ko`p etnik guruhlar negizida tashkil topishining tarixiy sharoitlari bilan izohlanadi. Mazkur maqolada ingliz taniqli siyosatchilari, olimlari, badiiy ijod nomayonda-larining nutqida o`z vatanining tarkibiy qismi bo`lmish Britaniya va britaniyaliklar haqida aytilgan fikrlarini ifodalovchi lisoniy vositalar ko`rib chiqiladi.

Britaniya va britaniyaliklar hayoti olamining milliy manzarasini baholovchi fikrlarning aksariyat qismida uchta tarkibiy qism yaqqol ko`zga tashlanadi. Bular - "lisoniy shaxs", "milliy xarakter sohibi" va "ingliz hayoti olamining lisoniy manzarasi".

Insonning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari shu dunyo bilan o`zaro munosabati jarayonida shakllanadi, bunda lison fikrlash tabiatini, dunyoni bilish usullarini belgilaydi, insonning ongi va xatti-harakatlariga ta`sir qiladi. Inson ongida olam manzarasining shakllanishi uning tashqi dunyo bilan o`zaro aloqasining natijasidir. Olamning lisoniy manzarasi deganda, biz ushbu lisoniy jamoaning kundalik ongida tarixan shakllangan va lisonida aks etgan olam haqidagi tasavvurlarning jamini, voqelikni tushunchalashtirishning muayyan usulini tushunamiz. Inson tomonidan dunyoni idrok etishning o`ziga xosligi shundan iboratki, bu jarayonda nafaqat borliq ob`ektlarining o`zlari, balki aks ettirayotgan sub`ektning pozitsiyalari, uning bu predmetlarga nisbatan munosabatlari ham aks etadi.

"Milliy xarakter sohibi" tushunchasi ostida biz alohida shaxsni tushunmasdan, muayyan ijtimoiy sub`ektini, ya`ni millat va uning tarkibiga kiradigan guruhlarni nazarda tutamiz. Masalan, ingliz millati kabi birdam va uyushgan jamiyat muhitida alohida shaxslar bir-birlariga ta`sir o`tkazishadi, buning natijasida xatti-harakatning umumiy standartlari, dunyoni sezish, axloqiy qadriyatlar va an`analar tizimi va h.z. shakllanadi.

Milliy xarakter va olam manzarasi muammolari chambarchas bog`liqdir. Milliy xarakter deganda, biz rivojlanishning aniq iqtisodiy, madaniy va tabiiy sharoitlarida u yoki bu ijtimoiy-etnik jamoaga muayyan darajada xos bo`lgan xususiyatlar to`plamini tushunamiz. Agar "milliy xarakter" tushunchasi eng avvalo tashqi kuzatuvchining madaniyatga bo`lgan qarashini nazarda tutsa, unda "olam manzarasi", aksincha, ushbu madaniyat vakilining tashqi olamga bo`lgan qarashini o`rganadi. "Lisoniy shaxs" - o`zi yaratgan matnlarning tahlili asosida o`zi idrok etgan voqelikni aks ettirish va bu olamda muayyan maqsadlarga erishish uchun ushbu tilning tizimli vositalaridan shu matnlarda foydalanish nuqtai nazaridan tavsiflangan muayyan tilning har qanday sohibidir. Lisoniy shaxs, milliy xarakter va olam manzarasi tushunchalari har qanday millat uchun bir xildir, ammo ular xalq an`analari, madaniyati, milliy temperamenti va mentalitetiga qarab har xil taqsimlanadi va namoyon bo`ladi. Britaniya va britaniyaliklarning hayoti haqida bildirilgan ijobiy va salbiy fikrlarda ularga xos bo`lgan yoki eng xarakterli, yoki eng yorqin va shuning uchun aniq eslab qolingan xususiyatlar o`z ifodasini topgan. Shu boisdan, taniqli britaniyaliklarning o`z vataniga va yurdoshlariga xos bo`lgan olamning milliy manzarasi haqidagi fikrlarini ingliz lingvomadaniy axborotining manbasi sifatida tahlil qilishni ma`qul topdik. Ushbu fikrlar misolida britaniyaliklar olami lisoniy manzarasining o`ziga xos xususiyatlari ingliz til birliklari vositasida taqdim etilish yo`llari tizimlashtiriladi.

Mashhur britaniyaliklarning muayyan darajada dong taratgan fikrlarida berilgan lingvomadaniy axborot prizmasi orqali ingliz millati dunyoqarashining o`ziga xosligini talqin qilishga harakat qilamiz. Tahlilimiz avtostereotiplarning aksariyati semantik ko`lami bo`yicha Britaniyahayotining quyidagi sohalari haqida aytilganini ko`rsatdi:

1. Angliya siyosiy tizimini konservatorlar va leyboristlarning o`zaro maslaxatlarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Bunda leyboristlar konservatorlarni tanqid qilganda, konservatorlar partiyasining zamon

ruhidan ortda qolgani ("The trouble with the Conservative Party is that it has not turned the clock back every single second" (Evelyn Waugh)), raqiblarning fikriga ko'ra, yordamga muhtoj bo'lmagan boy odamlarning manfaatlariga e'tibor qaratgani: "A conservative is someone who demands a square deal for the rich" (Davis Frostb, 1983) kabi belgilariga urg'u berishadi. Ikkiyuzlamachilik Britaniyadagi siyosiy tizimning xususiyatlaridan biri bo'lgan va bo'lib qolmoqda: "The Conservative Party is an organized hypocrisy". Shunday bo'lsa-da, tanqid qiluvchilar ko'pincha "bir-biriga juda dushman bo'lgan" siyosiy sohada ham kinoya va istehzoli yumor orqali birlashadilar, bunday holat, o'z navbatida, o'ziga xos tabassumga sabab bo'lishi mumkin: "Tories are not always wrong, but they are always wrong at the right moment" (Lady Violet Bonham-Carter).

2. Mashhur britaniyaliklarning ko'p sonli gaplarida past obro'ga ega bo'lgan ingliz oshxonasi masxara qilinadi: - If the British can survive their meals they can survive anything (George Bernard Shaw); - Coffee in England always tastes like a chemistry experiment; (Agatha Christie). Somerset Moem ingliz oshxonasining kamchiliklari bilan bir qatorda uning asosiy ustunligini aniq tasvirlab bergan: "If you want to eat well in England eat three breakfasts". Fikrlar nafaqat Britaniyaning hayotini, balki undagi hayotning ayrim tomonlarini ham tavsiflaydi. Masalan, "The British Civil service is a beautifully designed and effective braking system" (Shirley Williams, 1980) gapidagi istehzo taajublanish ta'siriga asoslangan. Ko'pgina hollarda, fikrlardagi yumor ta'siri ushbu kontekstda hech ham kutilmagan ob'ekt bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida kalit so'zning ko'p ma'noligiga asoslanadi: - Britain has invented a new missile. It's called a Civil servant - it doesn't work and it can't be fired.

3. Taniqli tanqidchilar, jurnalistlar, yozuvchilarning England va Englishness tushunchalarini anglab olishga salmoqli hissa qo'shgan boshqa mualliflarning ijodiga bag'ishlangan fikrlari alohida guruhini tashkil qiladi. Masalan, ko'plab sharhlar O.Uayldning hayoti va ijodini tavsiflaydi: "Oscar Wilde was a mixture of an Apollo and a monster" (George Meredith). Bunday tavsif faqat ingliz milliy ongida shakllangan istehzoning o'ziga xos shaklidir, chunki, masalan, o'zbek o'zining ulug' shoiri haqida u "ozgina narsada juda buyuk" deyishini tasavvur qilish qiyin: "I have a very moderate admiration of his genius. He is great in so little a way" (Charles Lamb on Lord Byron). Ma'nosi bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan ikkita elementning zid qo'yilishi, birikishi fikr mualliflari tomonidan ko'pincha istehzoli, kinoyali, yumor samaralariga erishish vositasi sifatida foydalaniladi. "A masterpiece of failure" (George Bernard Shaw, reviewing Fedora in 1895). "The English have an ability for flying into a great calm" (Alexander Woollcott). "The portrait endowed with every merit except the likeness to the original" (Edward Gibbon on Pope's translation of Homer).

4. Ingliz tilida Englishness tushunchasini aks ettiradigan fikrlar ham katta qiziqish uyg'otadi. Demokratizm, boshqa madaniyatlarda katta obro'-e'tibor qozongan odamlarga, xususan qirollik badiiy akademiyasining a'zolariga hurmatning yo'qligi kabi xislatlar bu erda aniq ko'rinadi: "The reputation of the Academy has got to a point where election would be positively distressing to a serious painter" (Evening Standard, 1961). "As for our little bits of R. As calling themselves painters it ought to be stopped directly" (John Ruskin 1943). Shuni ham ta'kidlash kerakki, har qanday qilib bo'lsa-da muvofaqiyatga intilishning yo'qligi ("In England failure is all the rage" Quentin Crisp, 1968; "The English think incompetence is the same thing as sincerity" Quentin Crisp, 1977), sog'lom hayot tarziga astoydil berilish (AQSHga shunchalik xos bo'lgan) (The English find ill-health not only interesting but respectable and often experience death in the effort to avoid a fuss" Pamela Frankau, 1961) Englishness tushunchasining ajralmas qismlaridir.

Englishness tushunchasining mohiyatini tavsiflovchi fikrlar britaniyaliklar hayotidagi bir necha sohalarning kompleks ravishdagi tavsifini o'z ichiga olishi ham mumkin, masalan: "So little, England. Little music. Little art. Timid. Tasteful. Nice." (Alan Bennet, 1883). Aytilgan fikr "did", "qulaylik" kabi ijobiy tavsiflarni hamda kinoya ob'ekti, xususan, muallif fikriga ko'ra, Britaniyaning etarlicha qaynoq bo'lmagan musiqiy va badiiy hayotini o'zida mujassam etgan obrazni yaratadi.

5. Britaniyaliklarning o'zlariga nisbatan istehzo qilish qobiliyati haqida ko'p narsa aytilgan va yozilgan. Masalan, "What two ideas are more inseparable than Beer and Britannia?" (Sydney Smith, 1771-1845). Shunisi e'tiborga loyiqlik, ushbu satrlarning muallifi taqqoslash uchun Britaniyaning lotincha nomidan foydalanib, beer/pivo so'zini bosh harf bilan yozadi. Kontrast va emfaza (ta'kidlash) fikr ichida birlashtirilgan: "we are overspent, overborrowed, overgoverned, overtaxed, overmanned, underpoliced, underdefended, and rather badly undereducated" (Sir Keith Joseph, 1979). Ushbu gap Britaniyalikning Britaniyadagi hayotga bo'lgan qarashini aks ettiradi, shu bilan birga agar overspent va overtaxed shakllari ingliz tilida keng qo'llanilsa, u holda overgoverned, underpoliced, underdefended haddan tashqari etarli bo'lmagan miqdorini ifodalovchi tegishli prefikslarning sifatdosh bilan qo'llanishi adabiy me'yor emas. Biz britaniyaliklar uchun sifatli ta'lim, adolatli soliqqa tortish va shaxsiy xavfsizlik kafolatlari birinchi

darajadagi ahamiyatga ega ekanligini ko`ramiz. Ko`plab ingliz yozuvchilari o`z mamlakatini tanqid qilish qobiliyatiga ega bo`lgan, bu esa o`z navbatida masxara qilish ob`ektiga aylangan: "What is England? From Swift to Huxley our writers have been giving us private tuition courses in self-hate" (Gerald Brenan, 1950).

Shunday qilib, taniqli inglizlarning o`z vatani va yurtdoshlari haqidagi fikrlarini o`rganish lingvodidaktik nuqtai nazardan ham, ilmiy nuqtai nazardan ham foydali bo`lishi mumkin. Birinchidan, fikrlar semantik ziddiyatlarga asoslangan istehzoli va kinoyali fikrlarning leksik va sintaktik rasmiylashtirilishi bo`yicha ajoyib namunalari bo`lib xizmat qiladi. Ushbu turdagi misollar bilan tanishish inglizlarning kinoya va istehzoga bo`lgan muhabbati tilni o`rganuvchilarda madaniy shokka olib kelmasligi uchun zarur. Ikkinchidan, fikrlar, o`zlarida "shaxsiy" biografik ma`lumotlarni olib yurgan holda, ingliz tilida so`zlovchilar olamining lisoniy manzarasidagi asosiy tushunchalarni qayta qurish vositalaridan biri bo`lib, milliy xarakterni o`rganishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar

1. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М.: Прогресс, 1985. – 452 с.
2. Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. - М., 1993.- 188 с.
3. Britishness: Perspectives on the British Question / A. Gamble, T. Wright (eds). Oxford: Political Quarterly Wiley-Blackwell, 2009. 173 p.
4. Colls R. Identity of England / R. Colls. Oxford: Oxford University Press, 2002. 409 p.
5. Easthope A. Englishness and National Culture / A. Easthope. L., N.Y.: Routledge, 1999. 243 p.
6. Langlands R. Britishness or Englishness? The Historical Problem of National Identity in Britain / R. Langlands // Nations and Nationalism. 1999. Vol.5. No 1. P. 53–69.
7. URL <http://www.krugosvet.ru/> (дата обращения 10.09.2016)

UDK: 895.1

#### KONFUTSIY ADABIY QARASHLARI VA ILK XITOIY ADABIYOTNING VUJUDGA KELISHI

E. Musurmanov

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qadimgi Xitoy adabiyotining vujudga kelishi va unga ulug` mutafakkir Konfutsiy ta`siri haqida so`z yuritildi. Odatda adabiyotshunoslar Xitoy adabiyoti solnomasini qadimgi adabiy yodgorlik «Shijing»dan boshlashadi. Asar er. ol. XI—VI asrlarda yaratilgan bo`lib, xalqning ma`naviy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Kitob tahririni Konfutsiyga nisbat berishgani sababli u mutafakkirning "Beshkitob" turkumidagi asarlari sirasiga kiritilgan. Konfutsiy va uning izdoshlari qaximgi xitoy miflarini evgemerizatsiya qilganlari sababli mifologik obrazlar tarixiy shaxslarga aylandi. Maqolada shuningdek, dastlabki xitoy shoiri Syuy Yuan va uning "Lisao", "Osmonga savollar" asarlari haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Konfutsiy, Shijing, Lunyuy, Sishu, Vujing, xitoy mifologiyasi, ing-yan, mif, evgemerizatsiya, Syuy Yuan, "Lisao" va "Osmonga savollar" asarlari.

#### Литературные взгляды Конфуция и возникновение древнекитайской литературы

**Аннотация.** В статье рассматриваются литературные взгляды Конфуция и процесс возникновения ранней китайской литературы. Литераторы обычно хронологию древней китайской литературы начинают с древнейшего памятника китайской литературы «Ши-цзин» («Книга песен», 诗经). Книга содержит 305 народных песен различных жанров, созданных в XI—VI вв. до н. э. которые отражают многообразные явления духовной и социальной жизни. Редакция произведений приписывается Конфуцию. Книга была включена в канонический сборник конфуцианских текстов «Пятикнижие». Конфуций и его ученики внесли свой вклад в эвгемеризации китайских мифов, вследствие чего некоторые мифические образы превратились в исторические личности. В статье также приводится информация о первом китайском поэте Цюй Юань, и его произведениях "Лисао" и "Вопросы к небу".

**Ключевые слова:** Конфуций, Ши-цзин, Луньюй, Сы-шу, У-цзын, китайская мифология, философия ян и инь, миф, эвгемеризация, Цюй Юань, его произведения "Лисао" и "Вопросы к небу".

### Literary views of Confucius and the emergence of ancient Chinese literature

**Abstract.** The article examines the literary views of Confucius and the process of the emergence of early Chinese literature. Writers usually begin the chronology of ancient Chinese literature with the oldest monument of Chinese literature "Shi-jing" ("Book of Songs", 诗经). The book contains 305 folk songs of various genres, created in the XI-VI centuries B.C. and they reflect the diverse phenomena of spiritual and social life. The drafting of the works is attributed to Confucius. The book was included in the canonical collection of Confucian texts "Pentateuch". Confucius and his disciples contributed to the euhemerization of Chinese myths, as a result of which some mythical images turned into historical personalities. The article also provides information about the first Chinese poet Qu Yuan, and his works "Lisao" and "Questions to Heaven."

**Keywords:** Confucius, Shi jing, Lunyu, Sy-shu, Wu-ching, Chinese mythology, Yang and Yin philosophy, myth, euhemerization, Qu Yuan, his works "Lisao" and "Questions to Heaven".

Odatda adabiyotshunoslar eng qadimgi xitoy adabiyotining solnomasini «Shijing» («Qo'shiqlar kitobi», 诗经, *Shī Jīng*) folklor qo'shiqlari to'plamidan boshlashadi. Asar xitoy mumtoz adabiyotining eng qadimgi yodgorligi bo'lib, til, mafkura, etika va xalq an'analari haqida ma'lumot beruvchi nodir manba hisoblanadi. Uning ahamiyatini hindlarning Rigveda va zardushtiylikning Avesto kitobi bilan qiyoslash mumkin. «Shijing» konfutsiylik qonunlar kitobi Vujing (Besh kitob) to'plamiga kirgan bo'lib, er. ol. XI–VI asrlarda ijod qilingan 305 xalq qo'shiqlaridan iborat.[1, 231]

«Shijing» nafaqat xalq ommasi orasida, balki xitoy oliy tabaqasi, ziyolilar muhitida ham sevilib o'qilgan, «Qo'shiqlar»ni yod bilish Xitoyning madaniy tabaqa vakili deb tan olinishiga asos bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda «Shijing» Konfutsiy (孔子, Kǒngzǐ, er. ol. 28.09.551 – 479 yy.) tahrir qilganligi uchun konfutsiylik mumtoz kitoblari sirasiga kiritilgan.

Konfutsiyning o'git va suhbatlari asosida uning shogirdlari «Lunyuy» kitobini tartib berishgan. «Lunyuy boshdan-oyoq "jo'mard inson" tushunchasiga bag'ishlangan. Konfutsiyning eng muhim kategoriyalari – "jen", "li", "ven" bo'lib, bir vaqtning o'zida komil inson va ham "jo'mard inson" ning tushunchalaridir.» [2, 25]

Konfutsiylik kitoblariga mansub «Sishu» (四书, *Sì Shū*, to'rt kitob) va «Vujing» (五经, *Wǔ Jīng*, besh kitob) asarlari bizning davrimizgacha etib kelgan eng qadimgi adabiy-ma'naviy yodgorliklardan hisoblanadi.

Konfutsiylikka kirish manbasi vazifasini o'tagan To'rt kitob - «Sishu» faylasuf va pedagog Chju Si (朱熹, *Zhū Xī*, 12 asr) tomonidan tartib berilgan. Uning tarkibiga «Lunyuy» (论语, *Lún Yǔ*, suhbatlar va talqinlar), «Mengzi» (孟子, ustoz Men), Ssenzining «Dasyue» (大學, Buyuk Bilim) va Szisining «Chjunyun» (中庸, O'rta haqida Bilim) asarlari mansubdir.

Konfutsiylik qonun-qoidalarining besh kitobi - «Vujing»ga quyidagilar mansubdir: Ijing (易经) — evrilishlar kitobi, karomat qilishning o'ziga xos tizimi talqiniga bag'ishlangan kitob. Keyinchalik "10 qanot" asari sirasidagi tafsirlar bilan boyitilgan, Shijing (诗经)— qo'shiqlar kitobi, Vujing (书经) - tarix kitobi. Xitoy elining vujudga kelishi va uning qadimgi tarixi haqidagi sajl' shaklida yozilgan epik asar, Litszi (礼记) — marosimlar kitobi. Hukmronlik va boshqaruvning mukammal tizimiga oid qaydlar — ijtimoiy munosabatlarni, urf-odat marosimlarini tartibga solish, konfutsiylik talablaridagi eng mukammal deb bilingan qadimgi xonlar boshqaruv tizimi, qadimgi taqvim haqidagi yo'riqnoma, Chunsyu (春秋) — Bahor va kuz. Lu amirligining solnomasi. Garchi asar shaxsan Konfutsiy ma'lumotlari asosida yozilgan deyilsa-da, manbaning so'ngidagi hodisalar allomaning o'limidan keyin yuz bergan. Asar voqealar tafsiloti bayonidan ko'ra, ko'proq ularga konfutsiylik axloq siyosati tomonidan berilgan baho, munosabatga bag'ishlangan.

Qadimgi xitoy miflarining o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri ulardagi mifologik personajlarning tarixiyashtirilishi (evgeratsiyasi) bo'ldi. O'zlarining nazariyalariga mos ravishda miflarni talqin qilishga xarakat qilgan Konfutsiy izdoshlari ruhlarni odamlarga aylantirishga, mif va asotirlar uchun ratsional talqinlar topishga ko'p ter to'kishdi. Bu holat konfutsiylikning idrokka asoslangan dunyoqarashi ta'sirida yuz berib, afsonaviy obrazlar qadimiyatning real shaxslari sifatida talqin qilindi. Miflardagi ma'bud va yarim xudolar hukmdor va imperatorlarga, qolganlar esa amaldorlar, to'ra, boyvachcha va turli ko'rinishdagi personajlarga aylanishdi.

Shunday qilib, miflar an'anaviy tarixning ajralmas qismiga aylandi. Masalan mifologik talqinda sariq imperator Xuangdingning to'rt yuzi bo'lgan, Konfutsiyning mohirona talqini natijasida Xuangdi to'rt amaldorni erning to'rt tomonini idora qilish uchun yuborgan mazmuniga o'zgarib ketgan. Shu kabi

xitoy miflari taqdirning taqozosi bilan turli o'zgarishlarga yuz tutdi va o'zining dastlabki badiiy mazmunini yo'qota bordi.

Konfutsiylik bilan bir davrda paydo bo'lgan "Daosizm" ("narsalar yo'li" ta'limoti) mustaqil falsafiy ta'limoti xitoy folklori va yozma adabiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ta'limotning asoschisi sifatida qadimgi xitoy donishmandi, yarim afsonaviy Laozi (er.ol.VI — V asrlar) qayd etiladi, unga nisbat beriladigan va gohida "Laozi", nomi bilan ataladigan "Dao dejing" asari xitoy xalqlari tafakkurining buyuk yodgorligi bo'lib, O'rta Sharq madaniyatining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi [3, 15]. Daosizm negizida Chu xonligining va boshqa qo'shni davlatlarning mistik va shomonlik tushunchalari, Si xonligining abadiylikka oid ta'limoti va sehrgarlik amaliyoti, shimoliy Xitoyning falsafiy-adabiy an'analari o'z aksini topdi.

Muallifi mavjud bo'lgan xitoy she'riyati Xitoy janubidagi Chu saltanatida vujudga keldi. "Shijing" ta'sirida vujudga kelgan "Chu she'riyati" nomini olgan lirik to'plamga mansub bo'lgan 17 asardan 8 she'r Syuy Yuanga tegishli ekanligi manbalardan ma'lum.

Syuy Yuan (er. ol. 340—278 yy.) birinchi bo'lib xalq she'riyatini ijodiy o'zlashtirib, individual she'riyatga aylantirdi. Uning adabiy merosi quyidagilardir: "Lisao" va "Osmonga savollar" dostonlari, "To'qqiz elegiya (mungli she'r)" turkumidagi she'rlar, "to'qqiz yalla" maqomidagi o'n bir qo'shiq va "Qalbning chaqirig'i" turkumiga mansub bo'lgan qo'shiqlar.

Adib ijodining cho'qqisi "Lisao" dostonidir. "Li" ieroglifining ma'nosi – ayriliq, "sao" – adabiy termin bo'lib, asosan "elegiya" ma'nosini anglatgan. Asarning bir qancha talqinlari mavjud bo'lib, ular "Motamga g'arq bo'lgan", "G'amga botgan", "Ayriliq azobi" shaklida keltiriladi.

Xitoy adabiyoti, folklori kabi qadimgi tarixga ega bo'lib, xalqning bu buyuk dahosi bir necha asrlar va sulolar davrida yaratilib takomillashib keldi. Ayrim manbalarda keltirilishicha, qadimgi sulolalar mifologik ildizlarga ega bo'lib, ular Konfutsiy izdoshlari tomonidan reallashgan.

Qadimgi xitoy mifologiyasi bizning davrgacha parchalar holida etib kelgan. Buning sabablari quyidagichadir:

Birinchidan, Konfutsiylik paydo bo'lgach asosan etika, oila asoslari, davlat boshqaruvi o'rganildi, ma'budlar va yovuz ruhlar talqiniga bag'ishlangan, fantastik tushunchalar aks etgan qadimgi miflar Konfutsiy va uning izdoshlari tomonidan evgemerizatsiya qilindi;

Ikkinchidan, qadimgi xitoy miflarida turkiy asotirlardagi kabi ezgulik va yovuzlik ruhlarini qat'iy farqlash, qutblash bo'lmagan. Ularning o'rniga yaratila boshlangan yangi miflarda bu masalada siljishlarga erishilgan bo'lsa-da, xalq miflarni yangilangan shaklini kabul qilolmagan. Bu kabi miflar el orasida ommalashmaganligi sababli oldingi miflar kabi yangilari ham nuqsonli bo'lib qolgan;

Olib borgan tadqiqotimiz jarayonida xitoy – o'zbek folklori epik qahramonlari faoliyati, dinamik evolyusiyasi, sayyor syujetlardagi in'ikosida ko'plab uyg'un jihatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Bu holat ikki xalq mifologik tushunchalari ma'lum bir "bobo" syujetlarga - bir genezisga ega bo'lganligini asosladi. Qadimgi xitoy adabiyotining vujudga kelishida Konfutsiyning o'rni katta bo'ldi. Garchi miflarning evgemeratsiyasida konfutsiy ta'limoti vakillarining ta'siri bo'lgan bo'lsada, bu ta'limot ilk xitoy adabiyoti rivojiga o'ziga xos turki vazifasini o'tadi.

### Adabiyotlar

1. Ши-цзин // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
2. Сирожиддинов Ш. Бағрикенглик – динларнинг маърифий асоси. Т.: -2010.-Б.25.
3. Musurmanov E., Rahmatullaev N. Xitoy adabiyoti va "DAO-DE-JING". risola. – Samarqand: SamDU, 2016. –90 b.

UDK: 796

**DZYUDochILAR MUSObAQa FAOLIYATIDA  
HUJUM, HIMOYA, QARSHI HUJUM VA OGOHLANTIRISHLAR**

**F.Sh.Axmedov, R.R.Badayev**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*fsh\_akhmedov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dzyudochilar musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari tadqiq etilgan. Musobaqa faoliyatida hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarining miqdor ko'rsatkichlari va oghlantirishlar tahlil etilgan. Vazn toifalari va jins bo'yicha musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** dzyudo, musobaqa faoliyati, miqdor ko'rsatkich, oghlantirish.

**Атака, защита и контратака  
в соревновательной деятельности дзюдоистов**

**Аннотация.** В статье изучены показатели соревновательной деятельности дзюдоистов. Анализированы предупреждения и количественные показатели атаки, защита и контратаки в соревновательной деятельности. Выявлены показатели соревновательной деятельности по весовой и половой категориям.

**Ключевое слово:** дзюдо, соревновательной деятельности, количественный показатель, предупреждение.

**Attack, defense and counter attack in struggle activity of judo athletes**

**Abstract.** In the article indicators of struggle activity of judo athletes are studied. Rate indicators of attack, defense and counter attack and penalties in combat activity are analyzed. Struggle indicators by the weight and sex categories are identified.

**Keywords:** judo, struggle activity, rate indicators, penalty.

**Dolzarblik.** Dzyudochilar musobaqa faoliyatini tahlil qilish sportchi imkoniyatlari va uning kelgusi sport faoliyatini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Sport kurashlari bo'yicha bir qator mutaxassislar musobaqa faoliyatini har tomonlama tadqiq etish dolzarb ekanligini ta'kidlaydilar [1, 2]. Bellashuv jarayonida dzyudochi tomonidan qollaniladigan texnik harakatlar, ularning sifat va miqdor ko'rsatkichlari sportchi tayyorgarlik darajasini xarakterlaydi [3].

Mazkur masala shunisi bilan ham ahamiyatli, hakamlik qoidalarining o'zgarishi [4] va sportchilar tayyorlashning takomillashuvi [1, 3] musobaqa faoliyatini muntazam tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rsatilgan sabablar tufayli ham musobaqa faoliyatini tahlil etish masalasi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida dzyudochilar tayyorlash borasida yetarlicha tajriba to'plandi. Jahon chempionatlari, Olimpiada va Osiyo o'yinlari, shuningdek, boshqa nufuzli musobaqalarda o'zbek dzyudo maktabi vakillari yuqori natijalar qayd etib kelishmoqda. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro maydonda barqaror natijalar qayd etish bugungi kunda muhim va o'ta murakkab masala hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda mashgulotlar tizimini muntazam takomillashtirish yetakchi sportchilar bellashuv faoliyatini modellashtirish va boshqa muhim omillarga ahamiyat qaratish zarur. Shu bilan birga, musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish ham tayyorgarlikning kelgusi istiqbollari belgilashda amaliy ahamiyatga ega.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalar shuni anglatadiki, musobaqa faoliyatini tahlil qilish asosida sportchi imkoniyatlari doirasini aniqlash va tayyorgarlikning muayyan yo'nalishini belgilash mumkin. Shu sababdan *dzyudochilar musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari tahlil etish* maqola maqsadi sifatida belgilangan.

**Materiallar va metodlar.** Maqola maqsadini amalga oshirishda dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining (Baku-2018, Jahon chempionati) musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari tadqiq etildi. Jami 23 ta bellashuv tahlil etildi (erkaklar – 16, ayollar – 7). Tahlil etilgan va kuzatilgan bellashuv



vaqti 1 soat 26 daqiqa 31 soniyani tashkil etdi (erkaklar – 66 daqiqa 31 soniya, ayollar – 20 daqiqa). Olingan ma'lumotlar erkaklar va ayollarda alohida hisoblandi.

**Olingan natijalar va ularning muhokamasi.** Musobaqa faoliyatini tekshirish va tahlil qilishda bellashuvlar qayta kuzatildi (www.judobase.org). Musobaqa faoliyatining miqdor ko'rsatkichlari hisoblandi. Dzyudochilar tomonidan bajarilgan texnik harakatlarning samaradorlik ko'rsatkichlari hisobga olinmadi. Hujum, himoya va qarshi hujum harakatlariga ajratilib o'rganildi. Shuningdek, bellashuvdagi ogohlantirishlar ham hisoblab borildi (1-2-jadvallar).

**1-jadval.** Dzyudochilar musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari (erkaklar, n=6)

№	Vazn toifasi	Jami texnik harakatlar			Ogohlantirish	Bellashuv soni	Bellashuv vaqti
		Hujum	Himoya	Qarshi hujum			
1	-60 kg	10	5	2	1	2	06:17
2	-66 kg	24	11	3	1	2	10:40
3	-73 kg	5	4	-	3	2	06:38
4	-81 kg	-	-	-	-	-	-
5	-90 kg	10	5	1	2	1	06:14
6	-100 kg	9	8	3	4	3	07:46
7	+100 kg	16	16	3	3	6	14:28
Jami		74	49	12	14	16	1soat, 6 daqiqa, 31 soniya
X±m		12,33±6,12	8,16±4,21	2,4±0,8	2,33±1,10	-	-

**2-jadval.** Dzyudochilar musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari (ayollar, n=6)

№	Vazn toifasi	Jami texnik harakatlar			Ogohlantirish	Bellashuv soni	Bellashuv vaqti
		Hujum	Himoya	Qarshi hujum			
1	-48 kg	7	16	-	2	2	08:20
2	-52 kg	1	1	-	1	1	01:54
3	-57 kg	4	4	-	-	1	02:19
4	-63 kg	-	-	-	-	-	-
5	-70 kg	4	9	-	1	1	04:00
6	-70 kg	1	3	-	2	1	02:13
7	-78 kg	-	2	-	-	1	01:14
8	+78 kg	-	-	-	-	1	-
Jami		17	35	-	6	7	20:00 daqiqa
X±m		3,4±2,24	5,83±5,20	-	1,5±1,0	-	-

Yuqoridagi 1-va 2- jadvallardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki bellashuv soni va vaqtining ortib borishi bevosita texnik harakatlar nisbatiga ham ta'sir etadi. Tahlillar natijasida shu narsa aniqlandiki, erkaklar va ayollarda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari farqlanadi.

Hujum harakatlarining o'rtacha ko'rsatkichi erkaklarda 12,33±6,12ni tashkil etgan bo'lsa, ayollarda mazkur ko'rsatkich 3,4±2,24dan iboratligi aniqlandi. Hujum harakatlari bo'yicha erkaklar ayollarga nisbatan sezilarli faollik ko'rsatishgan.

Himoyalani borasida ham muayyan farq kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha erkaklar 8,16±4,21, ayollar esa 5,83±5,20 natija qayd etdi.

Qarshi hujum ko'rsatkichi bo'yicha erkaklarda 2,4±0,8 natija qayd etildi. Ayollar esa musobaqa faoliyatida mazkur jihatdan hech qanday natija qayd etmadi.

Bellashuv jarayonidagi faollik raqib imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq albatta. Mazkur jihatdan qaralganda bellashuvning yuqori tempda o'tishi teng nisbatda sportchi va uning raqibiga aloqador.

Jami amalga oshirilgan texnik harakatlar har uchta ko'rsatkich bo'yicha erkaklarda yuqori ekanligini ta'kidlash kerak. Bizning fikrimizcha mazkur holatning yuzaga kelishini bellashuvlar soni bilan izohlash kerak. Sportchi qanchalik ko'p bellashuv o'tkazsa tegishli ravishda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari ham ortib boradi.

Kuzatishlar va musobaqa bayonnomalarini o'rganish sportchilar jami 23 ta bellashuv (100%) o'tkazganligini ko'rsatdi. Mos ravishda erkaklar 16 ta (69,57%), ayollar esa 7 ta (30,43%) uchrashuv o'tkazgan. Uchrashuvlar sonining ayollar va erkaklardagi nisbati musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari farqlanishiga olib keladi.

Tadqiqot jarayonida biz tomonimizdan jami olingan ogohlantirishlar va ularning sabablari ham o'rganildi. Hakamlar tomonidan jami 20 ta ogohlantirish (shido, hansoku-make) berilgan. Ogohlantirishlar erkaklarda 14 ta ( $2,33 \pm 1,10$ ) va ayollarda 6 tadan ( $1,5 \pm 1,0$ ) iborat. Ogohlantirishlarning aksariyat qismi nafaol harakat (7, 35%), yolg'on hujum (5, 25%) va bir tomonlama ushlar (4, 20%) uchun berilgan. Qolgan ogohlantirishlar noto'g'ri usul qo'llash, tatamidan chiqib ketish, himoya holatida turish va ushlar holatidagi xatolar uchun (1, 5%dan) berilgan.

Musobaqa faoliyatidagi ogohlantirishlar to'g'risida fikr bildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ogohlantirishlarning u yoki bu darajada bo'lishi sportchi jismoniy va taktik tayyorgarligiga ham bog'liq, albatta. Bizning fikrimizcha, sportchi g'alabaga erishish uchun muayyan yo'l tanlaydi. U musobaqada yutuqqa erishishning taktik usullarini tanlagan holatda ogohlantirishlar soni ortishi kuzatiladi va sportchi 1- va 2- ogohlantirishlarning berilishidan cho'chimaydi.

Ikkinchi holatda shuni aytish kerakki, agar dzyudochining imkoniyatlari raqib imkoniyatlaridan past bo'lganda u himoyalani, raqib hujumidan va bosimidan chiqib ketishga harakat qiladi va tabiiyki tatamidan chiqib ketadi yoki himoya holatiga o'tadi. O'z navbatida qoidalarga asosan sportchi bunday holda ogohlantirish oladi.

Bugungi kunda dzyudochilar tayyorlash amaliyoti va nazariyasi yuqori darajaga ko'tarildi. Musobaqalarda sportchilar tomonidan qo'llaniladigan xilma-xil usullar bunga misol bo'ladi. Usullarni mohirona bajarilishi zamirida chuqur va har tomonlama ilmiy tadqiq etilgan musobaqa faoliyati shart-sharoitlari mavjud.

Dzyudo bo'yicha o'tkazilayotgan yirik tadqiqotlar va yetakchi mutaxassislar ilmiy ishlari shuni ko'rsatadiki, musobaqa faoliyatini tahlil etish sportchi tayyorgarligini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat tajribali mutaxassislar o'z shogirdlarining va ularning raqiblari musobaqa faoliyatini tahlil qilish asosida tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirishlari ham bejiz emas, albatta.

**Xulosa.** Dzyudochilar tayyorlash tizimining zamonaviy masalalaridan biri bu sportchi haqida ma'lumot olish, tahlil qilish va tayyorgarlik jarayonida qo'llashdan iborat. Sportchining muayyan ko'rsatkichlari uning tayyorgarlik holatini xarakterlaydi. Xususan, dzyudoda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari sport formasi darajasi aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Musobaqa faoliyatini tadqiq etish yana shunisi bilan ahamiyatliki, tahlil natijalari butun bir musobaqa to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olish imkonini beradi. Chempionlar, sovrindorlar va autsayderlar uchun xos bo'lgan xususiy jihatlar aniqlanishi, shuningdek, musobaqa faoliyatining optimal modeli ishlab chiqilishi mumkin. Dzyudochilar musobaqa faoliyatini tadqiq etish yuzasidan olib borilgan tajriba xulosalari va natijalari muallif fikrlari bilan bir nuqtada tutashadi. Dzyudo rivojlanishining har bir davrida hakamlar qoidalarga hamohang tarzda dzyudochilar musobaqa faoliyati o'zgarib bormoqda. Ushbu omil musobaqa faoliyatini har tomonlama tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. С.В.Кальмыков, А.С.Дагбаев, Б.В.Дагбаев. Соревновательная деятельность в спортивной борьбе. – Улан-Уде, 2007. – 204стр.
2. Rafael Lima Kons et.al. Olympic and Paralympic games Rio 2016: a technical-tactical analyses of judo matches. Kinesiology 50(2018)2. 1-7 p.
3. Коблев Я.К. Система многолетней подготовки спортсменов международного класса в борьбе дзюдо: автореф. дис. д.ра. пед. наук / Я.К.Коблев. – Москва, 1990. – С. 41.
4. Emerson Franchini, Monica Yuri Takito, Michel Calmet. European Judo Championships: Impact of the new rule and changes on points and penalties. International Journal of Performance Analyses in Sport. 2013, 13; 474-479.

UDK: 371.3

**О ИННОВАЦИОННЫХ УРОКАХ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ****М.Б.Рахимкулова***Самаркандский государственный университет*

**Аннотация.** В статье наряду с материалом по внедрению в учебный процесс инновации и инновационной деятельности, излагается требования к современному уроку, его разновидности.

**Ключевые слова:** инновация, современное образование, инновационная деятельность, сотрудничество, нетрадиционный урок, инновационный урок, инновационное обучение, педагогические технологии.

**Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion darslar haqida**

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayoniga innovatsiya, innovatsion faoliyatga doir materiallardan foydalanish bilan bir qatorda, hozirgi zamon darslariga qo'yiladigan innovatsion talablar hamda ular to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, zamonaviy ta'lim, innovatsion faoliyat, hamkorlik, noan'anaviy dars, innovatsion dars, pedagogik texnologiya.

**About innovative lessons in modern school**

**Abstract.** In the article the material on the introduction of innovation and innovation activity into the educational process is given. Also it is set out the requirements for a modern lesson.

**Keywords:** innovation, modern education, innovation activity, cooperation, unconventional lesson, innovative education, pedagogical technology.

Современное общество находится в состоянии непрерывного развития и изменения. Система образования в таком обществе так же должна изменяться и совершенствоваться, чтобы соответствовать запросам со стороны общества и государства. И одним из таких способов, являются инновации – введения, причем качественно новые, в устоявшуюся систему образования.

Необходимость усвоения учащимися большого объема информации и выработки практических навыков по её применению ведет к созданию педагогами новых способов подачи информации, новых технологий и способов обучения, заставляет искать творческие подходы к методикам обучения. Инновации – это внесение новых методологий и стандартов в учебный процесс. На смену послушанию, повторению, подражанию приходят новые требования: умение видеть проблемы, спокойно принимать их и самостоятельно решать. Инновационное образование предполагает обучение в процессе создания новых знаний – за счет учебного процесса. Оно несет с собой новые основы развивающего образования, как основной модернизирующий фактор образования. Применительно к педагогическому процессу инновация означает введение нового в цели, содержание, методы и формы обучения и воспитания, организацию совместной деятельности учителя и учащегося в начальном обучении. Каким должен быть современный урок? О современном уроке написано множество книг, статей, диссертаций. Меняются цели и содержание образования, появляются новые средства и технологии обучения. Но какие бы не свершались реформы, урок остается вечной и одним из главных форм обучения. На нем держалась традиционная и стоит современная школа. Какие бы инновации не вводились, только на уроке, как сотни лет назад, встречаются участники образовательного процесса: учитель и ученик. Между ними всегда – океан знаний. Учитель всегда будет капитаном в этом плавании. Он остается главным действующим лицом на любом уроке. Современный урок, каким он должен быть?

1. Демократичный. Где дети не боятся высказывать свое мнение, не боятся новшеств, урок на котором учителю и ученику комфортно.

2. На наш взгляд, современный урок должен быть, прежде всего, актуальным и интересным. Учитель должен использовать новые технологии, хорошо владеть компьютером.

Учитель и ученик – это единое целое, учимся вместе, помогаем друг другу, роль учителя – направлять, контролировать.

3. Урок должен быть творческим, способствовать самореализации школьников, востребованности их творческого потенциала.

4. Современный урок должен воспитывать творение и деятельность.

5. Инновационный урок – это сотрудничество между учащимися.

Современный урок должен быть связан не только с усвоением школьниками определенной суммы знаний, но и с целостным развитием личности, ее познавательных способностей. Определим два основных подхода в использовании новых обучающих педагогических технологий:

1. Использование инноваций в рамках традиционного урока.

2. Внедрение нестандартных форм организации процесса обучения как альтернативы традиционному уроку.

**В настоящее время задача современных школ** – создавать условия для развития и совершенствования ребёнка, исходя из его, интересов, склонностей потребностей и собственных жизненных целей.

Начальная школа - первая и важнейшая ступенька в общеобразовательном процессе. В младшем школьном возрасте происходит интенсивное развитие таких качеств личности, как мышление, внимание, память и воображение. Уже в начальной школе детей необходимо учить: алгоритмическому мышлению во всех областях жизни, самостоятельной постановке задач, выбору эффективных инструментов, оценке качества собственной работы, умению работать с литературой и вообще навыкам самообразования, умению работать в коллективе. В этом возрасте начинается социальное и личностное развитие ребёнка, его вхождение в жизнь общества. *Учитель начальной школы призван* учить детей творчеству, воспитывать в каждом ребёнке самостоятельную личность, владеющую саморазвития и самосовершенствования, умеющую находить эффективные способы решения проблемы, осуществлять поиск нужной информации, критически мыслить, вступать в дискуссию, коммуникацию. Педагогическая инновация - это педагогическое нововведение; целенаправленное прогрессивное изменение, вносящее в образовательную среду стабильные элементы (новшества), улучшающие характеристики отдельных частей, компонентов и самой образовательной системы в целом. Введение инновационных уроков в начальной школе помогает воспитывать и обучать детей в духе времени. Помогая подготовить детей к дальнейшим трудностям, связанных с их образовательным уровнем каждый педагог должен идти в ногу со временем, чтобы не отстать от своих учащихся. Именно поэтому он должен находиться в постоянном поиске новых и интересных способов обучения. Инновация – нововведение, новшество. Инновационная деятельность направлена на преобразование существующих форм и методов образования, создание новых целей и средств их реализации.

Инновационный урок – это динамичная, вариативная модель организации обучения и учения учащихся на определенный период времени. Учитель стремится к прогрессу, хочет изменить свою деятельность к лучшему – именно этот процесс является инновацией [5.8]. Изобретательная деятельность учителя на инновационном уроке раскрывается в разнообразных, необычных заданиях, неординарных действиях, конструктивных предложениях, занимательных упражнениях, конструировании хода урока, создании учебных ситуаций, дидактическом материале, подборе научных фактов, организации творческой работы учащихся. Цель инновационной деятельности – развитие педагога как творческой личности, переключение его с репродуктивного типа деятельности на самостоятельный поиск методических решений, превращение педагога в разработчика и автора инновационных методик и реализующих их средств обучения, развития и воспитания [2]. В педагогической науке инновационная деятельность понимается как деятельность по созданию, внедрению, распространению и использованию инноваций. Основанная на осмыслении (рефлексии) своего собственного практического опыта при помощи сравнения и изучения, изменения и развития учебно-воспитательного процесса с целью достижения более высоких результатов, получения нового знания, качественной педагогической практики. Причины возникновения инновационной деятельности:

-подражание другим педагогам;

- неудовлетворённость достигнутыми результатами;
- стремление учителя повысить качество образования;
- возрастающие запросы образования.

**Урок работает на развитие мыслительной деятельности младших школьников.**

Исследовательские задания, в решении которых принимали участие ученики, являются основной формой организации исследовательской деятельности учащихся, а их решение лежит « в зоне ближайшего развития». Применение современных информационных технологий в начальной школе способствует более активному и сознательному усвоению учащимися учебного материала [1.17.]. Современные (инновационные) уроки проходят в необычной, нетрадиционной обстановке. Подобная смена привычной обстановки целесообразна, поскольку она создает атмосферу праздника при подведении итогов проделанной работы, снимает психологический барьер, возникающий в традиционных условиях из-за боязни совершить ошибку. Такие уроки осуществляются при обязательном участии всех учащихся, а также реализуются с неизменным использованием средств наглядности (компьютерной и видео техники, выставки, буклеты, стенды).

Разновидностями урока формирования инновационных знаний являются также:

- исследовательский урок – это форма обучения школьников на основе познания окружающего мира, организации исследования того или иного предмета или явления. Цель исследовательского урока – использование, развитие и обобщение опыта учащихся и их представлений о мире.

В основе такого урока – организация практического исследования проблемы, темы или поставленной задачи. Учащиеся на уроке ведут поиск решения проблемы, обмениваются мнениями, экспериментируют, вырабатывая идеальный вариант предложений для изучения:

- урок на основе групповой технологии может представлять собой работу в микрогруппах; по вариантам; зачет в парах и т.д

- уроки дифференцированного обучения строятся в соответствии с уровнем развития школьника и уровнем его базовых знаний. Цель дифференцированного обучения – развитие и формирование способностей каждого обучающегося.

- проблемные уроки – форма организации обучения на основе создания проблемной ситуации. На таком уроке перед школьниками либо ставится, либо вместе с ними определяется проблема. Цель проблемного обучения – активизация познавательной сферы деятельности обучающихся на основе выявления причинно-следственных связей, сочетания трудности учебного материала и учебной задачи с посильностью – сталкиваясь с трудностью, обучающиеся убеждаются в необходимости получения новых знаний или применения старых в новой ситуации. Интересна только та работа, которая требует постоянного напряжения. Легкий материал не вызывает интереса.

- уроки на основе проектной деятельности предусматривают развитие познавательных навыков обучающихся, умения самостоятельно конструировать свои знания, анализировать полученную информацию, выдвигать гипотезы и находить решения. Использование метода проектов делает учебный процесс творческим, целенаправленным, а ученика – ответственным и целеустремленным. Работая учителем начальных классов, мы осознаём важность самостоятельной работы обучающихся как метода обучения, реализация которого способствует подготовке к самообразованию, самоконтролю, формированию умения планировать, анализировать, делать обобщения.

В нашей педагогической практике можно использовать различные современные (инновационные) уроки, среди которых можно выделить следующие группы таких уроков:

1. Уроки в форме соревнований и игр: конкурс, турнир, КВН, деловая игра, кроссворд, викторина.

2. Уроки известных в общественной практике: исследование, изобретательство, мозговая атака, интервью, репортаж, рецензия.

3. Уроки, основанные на нетрадиционной организации учебного материала: урок мудрости, откровения, урок - дублер начинает действовать.

4. Уроки которые напоминающие публичные формы общения: пресс-конференция, аукцион, телепередача, диалог, “живая газета”, устный журнал.

5. Уроки-фантазии: урок сказка, урок-сюрприз.

6. Уроки, основанные на имитации деятельности учреждений и организаций: суд, следствие, трибунал, цирк, ученый совет.

7. Уроки – защита исследовательского проекта по выбранной теме.

8. Уроки тестирования.

Из вышеизложенного следует, что инновационность в обучении связана с творческим поиском на основе имеющегося опыта, направлена на обеспечение исследовательского характера учебного процесса, организацию поисковой учебно-познавательной деятельности.

### Литература

1. Мавлянова Р.А., Рахманкулова Н.Х. Бошланғич таълимда инновация. Методик кўлланма. – Т.: ТДПУ, 2007. – 180 б.

2. Қўшбоқова Б. Педагогик инновация ва инновацион фаолият – таълим сифатининг кафолати. <http://fikr.uz/blog/3701.html>

3. Омарова А.А. Современная технология проблемного обучения// Ж.«Современные наукоемкие технологии». – 2011. – № 1. – С. 73-75;

4. Бадиев С. От традиций – к инновациям (к вопросу о сущности технологий обучения) С.Бадиев //Учитель.-2008. №6.-С.7-9.

5. Турғунбоев К., Ортиқова М. Педагогик инновация асослари. // Ўқув кўлланма. – А.:МЧЖ, 2011. -96б.

UDK: 37:004.9

### TA'LIMNING AXBOROTLASHUVI VA AKTDAN FOYDALANISHGA DOIR TENDENSIYALAR

A.N. Abdullayev<sup>1</sup>, B.I. Usmonov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Samarqand davlat universiteti,

<sup>2</sup>Samarqand davlat universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi  
*a-abdullayev@samdu.uz*

**Annotatsiya.** Ta'limning axborotlashuvi dinamik mazmun kasb etib, ishlab chiqarish va nazariya orasidagi masofani yaqinlashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada turli xil nazariy modellar yaratilgan bo'lib, har bir sohaning xususiy jihatlarini inobatga olgan holda mutaxassislarni amaliyotga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, axborot, kasbiy muhit, modernizatsiya, ijtimoiy buyurtma, uslubiy jihat.

### Информатизация образования и тенденции к применению ИКТ

**Аннотация.** Информатизация образования имеет динамический характер и служить фактором сближения теории и производства. По данному направлению разработаны много теории, их применение в практику требует осмысления специфики специальности.

**Ключевые слова:** компетенция, информация, профессиональная среда, модернизация, социальный заказ, методический аспект, технический аспект.

### Informatization of education and trends in the application of IT

**Abstract.** Informatization of education has a dynamic nature and serves as a tool for the approximation of theory and production. In this area, a lot of theories have been developed, their use for armaments requires understanding the specialty.

**Keywords:** competence, information, professional environment, modernization, social order, methodical aspect, technical aspect.

Jamiyat galdagi taraqqiyot bosqichiga o'tdi, bu bosqich jamiyat industrial va postindustrial jamiyat hayotidan, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal kirib borishi bilan xarakterlanadi. Buning tashkiliy-texnik va ilmiy-uslubiy jihatlari mavjud bo'lib, inson faoliyatini, shu jumladan ta'limiy faoliyatni modernizatsiyalashuviga olib keldi. Chunki AKT mikroprotessorli hisoblash texnikasining bazasida amal qiluvchi dasturiy,

dasturiy-apparatli va texnik moslama hisoblanadi. Ta'lim jarayonida AKT axborotni jamlash, axborotga ishlov berish, axborotni saqlash va axborotni ta'limiy manbaga aylantirishda keng qo'llash mumkin [4].

Ilmiy manbalarning tahlili asosida ta'kidlash mumkinki, ta'limning axborotlashuvi, AKT texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbqiq etishning ilmiy masalalariga qaratilgan tadqiqotlarning asosida kechib, ta'limning axborotlashuvi deganda ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun ta'limiy vazifalarni bashirsh jarayonida qo'llaniladigan axborot va kommunikativ texnologiyalarni nazarda tutish lozim. Ular ta'lim oluvchilarni nafaqat ma'rifiy, balki individual-shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda, ta'limiy axborotlarni moddiylashtirishda pedagogik ahamiyat kasb etadi. M.Ovcharovning yozishicha, "ta'limning axborotlashuvining vazifalaridan biri, bugungi hayot sharoiti va jamiyatga moslashish qobiliyatiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat" [3]. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim tizimi oldida turli ixtisosliklar bo'yicha tayyorlanadigan kadrlarni, AKT sohalaridan amaliy faoliyatda foydalana oladigan darajada tayyorlash vazifasini qo'yadi. Ilmiy manbalarda, bu tayyorgarlikni AKT kompetensiyaga egalik qilish deb yuritiladi [2]. Agarda, kasbiy faoliyat sohasining barcha sohalarida AKTni keng darajada qo'llash dinamikasi kuzatilayotganligini nazarga olsak, Internet servis tarmoqlarining ikkinchi avlodi – Web 2.0 dan ham foydalana bilish uchun bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari lozim. Shu sababli, oliy ta'lim muassasasini AKT parkini uzliksiz yangi dastur va qurilmalar bilan ta'minlab borish lozim. Masalan, SamDU AKT parki bugungi kunda 1355 ta kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lib, barcha fakultetlarning talabalari jadval asosida yoki individual buyurtma shaklida mustaqil tarzda foydalanishlari yo'lga qo'yilgan. Mustaqil tarzda AKT kompetensiyalarini rivojlantiruvchi talabalarining soni 23% oshib, zal muhandislari va metodistlariga AKT kompetensiyaga daxldor bo'lgan savollar bilan murojaat etish soni ham ortib bormoqda. Savollarning ortib borishini ikkita sabab bilan izohlash mumkin. Birinchisi, ta'lim jarayonida dastur va reja asosida yetkaziladigan ma'lumotlar zamonaviy emasligini yoki AKT savodxonligi va kasbiy amaliyot orasida tafovut borligini ko'rsatadi. Uni bartaraf etish uchun AKT bozori va ishlab chiqarish jarayonini o'rganib, aniqlangan ko'rsatkichlar asosida ta'lim dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa har yili yaratilayotgan kompyuter dasturlari ta'lim sifatini oshirishda qo'llanilib, nazariy tadqiqotlarni ta'limga tadbqiq etish ta'minlanadi. Natijada talabalarda AKT kompetensiyani shakllantirishning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanish bilan birga, nazariy bilim, ko'nikma va malakaga doir muhim komponentlar tizimi to'ldiriladi. Buning uchun, har bir fan o'qituvchisi kasbiy faoliyatida AKT vositalaridan samarali foydalanishi kerak. Shunda, talabalarga AKT kompetensiyalarni shakllantirish va o'qituvchilarda AKT kompetensiyalarini rivojlantirish dinamikasi ijobiy tomonga o'zgaradi. V.Burmakina va I.Falina o'quvchilarda AKT kompetensiyani shakllanishini o'rganib, nazariyani amaliyotda qo'llay olish uchun, yaratilgan sharoitlar kompetensiyani muhim komponentlarining shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlanishini ko'rsatib o'tgan [1]. Bu jarayon talaba va fan o'qituvchilarida ham shu tarzda kechib, faqatgina rivojlanish mexanizmi ajralib turadi. Uni yanada ham aniq ifodalash uchun AKT kompetensiya va kompetentli kabi so'zlarning nazariy pedagogik tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Kompetensiya so'zi lotin tilidan (competentia) olingan bo'lib, ikki xil ma'noni anglatadi. Birinchi ma'nosi, biron bir vakillikning huquqi va ikkinchi ma'nosi biron bir masalaga doir bilim, tajribaga ega bo'lishni anglatadi. Kompetentli (competentis) kompetentga ega yoki qobiliyat sohibi degan ma'noni anglatadi.

AKT kompetensiyasi uchta xususiy komponentlardan tarkib topgan bo'lib, ular soha mutaxassisining yetakchi kasbiy sifati ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bilish komponentlari, kasbiy nazariy bilimlarni, AKT mohiyati va funksional xarakteristikasini anglashni ta'minlab, AKT bozorida kechayotgan jarayonlarni hamda vujudga kelgan kasbiy muammolar tahlilini amalga oshirish uchun shart hisoblanadi.

Ehtiyojij-motivatsion komponent, AKT vositalariga doir ma'lumot va bilimlardan qoniqishni, kasbiy faoliyatda uni qo'llash mehnat samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishini ifoda etish uchun shart hisoblanadi. Bu jarayonda motiv, AKTga doir yangi bilimlarni o'zlashtirishda rag'bat (stimul) ko'rinishida ishtirok etib, kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabat xarakterini shakllantiradi.

Shaxsiy-refleksiv (protsessual) komponent – kasbiy funksiyalarni bajarishda, foydalanadigan dasturni tanlay bilish va ularni qo'llay olishda, qabul qilinadigan individual qarorlar mazmunini ta'minlaydi. AKT kompetentlik ta'lim sifatini ta'minlashning vositasi sifatida amal qilishini

ta'minlashga erishishda o'ziga xos tendensiyalar kuzatilmoqdaki, ularni alternativ tendensiyalar tarzida belgilash mumkin. Bular:

- *birinchi tendensiya*, idrok bilan bog'liq bo'lib, virtual reallikni tasvirlab berish uchun ta'limiy manbalar oqimini aniq mavzu (predmet) bo'yicha tizimlashtirilgan, ixchamlashtirilgan ko'rinishda ta'lim oluvchilarga yetkazishni ta'minlab beradi. Bu o'z navbatida, ta'lim oluvchining idroklash jarayonini faollashtirib, uzatilayotgan ma'lumotlarni o'zlashtirish tezligini oshiradi;

- *ikkinchi tendensiya*, ta'lim oluvchilarga informatsiya vositasida ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirib, mashg'ulot davomida uzatilayotgan yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini oshiradi.


Shu sababli, ta'limiy faoliyat uchun ta'lim jarayonida talabalar, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanib, o'quv mashqlarini bajarishda biron bir servisdan foydalanishlari lozim bo'ladi. Buning uchun, birinchi va ikkinchi kurs talabalarini Web 2.0 servisidan foydalanishga o'rgatish lozim. Agarda, pedagogik sharoit yetarlicha muhayyo etilgan bo'lsa, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka maqsadli shakllantiriladi. Bu jarayonda talabalarning individual qobiliyati va tahlilni amalga oshirishga bo'lgan intilishi ta'lim faoliyatining samaraliligini belgilovchi indikator hisoblanadi. Samaradorlik, ommaviy axborotlashuv, kommunikatsiya texnologiyalarini faoliyatning turli sohalariga joriy etish natijasida vujudga kelgan ijtimoiy buyurtmalarni bajarishda, ixtisoslikni egallayotgan talabalar shaxsining rivojlanishini ta'minlashda, ta'limning intensivikasi va ta'lim sifatini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Shu sababli, AKT kompetensiyalarni shakllantirishda ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishni talab etadi. Masalan, tibbiyot, huquqshunoslik, tarix, muhandislik va ekologiya sohaları bir biridan farq qiladi. Bu o'z navbatida ixtisoslik doirasida amalga oshiriladigan funksiyalar xarakterini inobatga olishni talab etadi. Shunda ta'limning intensivligi ta'minlanib, fan va ta'lim ishlab chiqarish uchun xizmat qila oladi. Mazkur konseptual jihatni quyidagicha tasvirlash mumkin:

AKT kompetentlik mehnat jarayonida individual kasbiy faoliyat shaklida yaqqol ifodalanib, kasbiy sifatlar ko'rinishida, aniq vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazarda, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy amaliyotga tayyorlashda kasbiy komponentlikni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki kasbiy ta'lim, ijtimoiy borliqda ifodalanadigan kasbiy muhitni shakllanishi va rivojlanishini ta'minlab, son va sifat ko'rsatkichlarini oshirish uchun xizmat qilishi shartdir. Shuning evazida kasbiy muhit takomillashib, kasbiy rivojlanishning galdagi bosqichiga o'tish uchun ma'rifiy zamin yaratadi. Bugungi kunda ta'lim berish amaliyotida AKTlarni qo'llash natijasida ta'lim oluvchilarning shaxsiga ta'lim jarayonining ishtirokchisi sifatida yondashishni taqozo etmoqda [5]. A.Fedorov bu masalani pedagogik ta'lim muassasalari misolida o'rganib, tanqidiy tafakkur tarzini shakllantirishning afzalliklarini asoslab bergan. Vaholanki, tanqidiy tafakkur ishlab chiqarish amaliyotida innovatsiyaviy yondashuvga olib keladi. Ya'ni, amal qilinayotgan jarayonning ba'zi qismlari birlashtiriladi yoki boshqa bir jabhasini takomillashtirish mumkinligi aniqlanadi. Buning uchun kasbiy bilimlar majmuasi dominantlik qilishi shart. Shundagina tanqidiy tafakkurning har qanday namunasi, amaliy ahamiyat kasb eta oladi.

Mutaxassisning AKT kompetentligi deganda, o'zida kasbiy tajriba va bilim hamda ko'nikma va muhim kasbiy sifatlarni mujassam etib, kasbiy amaliyotda ularni mustaqil tarzda namoyon eta olish jarayonini tushunish lozim. AKT kompetentlikka egalik, mutaxassisga bajariladigan kasbiy vazifalarni erkin tarzda kasb ustasi sifatida bajarishni ta'minlaydi. Uning nazariy va metodik jihatlarini to'rtta holat bilan belgilab berish mumkin:

- bajariladigan kasbiy funksiyalarga oid ma'lumot va ilmiy yondashuvlar asosida tayyorlangan modellarni saralab olib, kasbiy faoliyatida tadbiiq etishda;
- kasbdoshlar va buyurtmachilar bilan kommunikativ madaniyatning asosiy prinsiplariga amal qilgan holda muloqotga kirishib, bildirilayotgan taklif va talablarni mutaxassischa idrok eta olishida;
- nostandart vaziyatlarda kasbiy madaniyatga tayangan holda harakatlarni amalga oshirib, o'z funksiyasini bajarishda;
- kasbiy sohaga doir bo'lgan axborotlarni aniq manzilga samarali tarzda yetkaza olishda.





**1-chizma.** AKT kompetentsiyasining nazariy strukturasi.

Ko'rinib turibdiki, AKT kompetensiyalarni shakllantirishdan kasbiy muhit va ishlab chiqarish jarayoni manfaatdor bo'lib, jamiyat hayotini ta'minlashda madaniy ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar

1. Бурмакина В.Ф., Фалина И.Н. ИКТ-компетентность учащихся. - Режим доступа: <http://www.sitos.mesi.ru/Default.aspx?id=6>
2. Кочелаева Е.Р. Компетентностный подход в изучении информатики и ИТ // <http://sputnik.mto.ru/Seans/Pedsovet/forum/index548c.html>
3. Овчарова М.Н. Формирование ИКТ-компетентности студентов педагогических специальностей вуза. Монография. - Петропавловск-Камчатск: КамГУ им. Витуса Беринга, 2014. - 180 с.
4. Роберт И.В., Поляков В.А. Основные направления научных исследований в области информатизации профессионального образования. - М.: Образование и Информатика, 2004. - 173 с.
5. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза / Монография. - М.: МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. - 616 с.

UDK: 796

#### SPORTDA YUQORI MAHORATGA ERISHISH UCHUN ENG MA'QUL YOSHNING AHAMIYATI

**R.A.Qosimova, Z.B.Boltayev**  
Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya.** Sport yutuqlarining zamonaviy saviyasi sportchilar tayyorlash ko'p yillik tizimini tashkil etish, samarali tashkiliy shakllarni izlash, yuqori malakali sportchilar qatorini to'ldirib borish uchun iqtidorli yigit va qizlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilishni talab etadi. Ushbu maqola bolalarni sportda yuqori mahoratga erishish uchun eng ma'qul yoshning ahamiyati muhim ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tanlov, saralash, yosh kategoriyasi, sport mashg'uloti, olimpiya harakati, yo'naltirish.

**Роль возраста в достижений высоких результатов в спорте**

**Аннотация.** Современный уровень спортивных достижений требует многолетние тренировки, эффективных методов, привлечение парней и девушек к спорту. Эта статья о важности возрастной особенности для получения лучших результатов.

**Ключевые слова:** отбор, выбор, возрастная категория, спортивная подготовка, олимпийское движение, направление.

**The role of the age in achieving the high results in sport**

**Abstract.** The modern level of sport achievements require many years of preparing system, searching effective ways, draw the attention of girls and boys to go in for sport. This article is about the importance of age for achieving best results.

**Keywords:** choosing, selecting, age category, sport training, Olympian activity.

Hozirgi kunda sport natijalarining yuqori darajaga ko'tarilishi sportchilar tayyorlashning ko'p yillik tizimining samarali shakllarini izlashni, yuqori malakali sportchilar qatorini to'ldirib borish uchun iqtidorli yigit va qizlarning sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilishni talab etmoqda. Jahonda zamonaviy sportning natijalarining darajasi shu qadar yuqoriki, ularga erishish uchun sportchi kamyob marfologik xususiyatlarga, jismoniy va psixologik majmua jihatlarining mutanosibliigi kabi talablarga javob berishi kerak, va ular albatta, rivojlanishning eng yuqori darajasida bo'lishi lozim. Bunday uyg'unlik, ko'p yillik tayyorlovni eng oqilona ravishda tuzulganiga va zarur sharoitlarning barchasi yaratilganiga qaramasdan juda kam uchraydi. Shuning uchun oliy toifadagi sportchilarni tayyorlash tizimining eng dolzarb masalasi sportchilarni saralash va yo'naltirishdir.

Ma'lumki, sport natijalarining o'sishi sport mashg'ulotlari uslubiyati va taktika harakatlari, texnik vositalar taraqqiyoti va sportchilarining samarali rehabilitatsiyasi shuningdek, ommaviylikni oshirish va to'g'ri saralab olishga bog'liq. Aksariyat masalalar yechimi muayyan qaraganda ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy yo'nalishlar bilan belgilanadi. Sportda saralash – bu ilmiy tadqiqot va ilmiy izlanish muammosidir.(6)

Bolalar va o'smirlarda sport mashg'ulotlariga qiziqish, sport ixtisosligini to'g'ri tanlash bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida sportdan o'ziga xos individual xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Har bir o'smir uchun sport faoliyatini tanlash – sport tanlovining asosiy vazifasidir. Sport turi tanlovlaridan kelib chiqqan holda shug'ullanuvchilarning eng layoqatlarini tanlash – sportda saralashining vazifasi hisoblanadi.

U yoki bu sport turi bilan qachon mashg'ulotlar boshlashga nisbatan bir necha qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bir tomondan, alohida sport turlarida “yosharish” kuzatilmoqda. Yigit va qizlar jahon rekordlarini ortda qoldirib yangi yuqori natijalarni ko'rsatishmoqda. Boshqa bir tomondan yirik musobaqalarda faol ishtirok etadigan “keksa” sportchilar soni ancha oshdi.

Bolalik va o'smirlilikda erishilgan sport natijalari voyaga yetganda yuqori natijalarga erishishga asos bo'la olmaydi. Yosh sportchi “vunderkindlar” (o'ta qobiliyatli dono, zukko, iste'dodli ) keyingi yillarda ko'rinmay qoldi. Erta sportga ixtisoslashish zarurmi? Mutaxassislar bu borada tadqiqotlar natijasida turli guruhlariga bo'linishdi. Ularning bir qismi o'smirlar yuqori natijalarga erishishi uchun kattalardek ixtisoslashtirilishi kerak deb hisoblashsa, boshqalari maxsus ko'nikmalarni egallab, sport ixtisosligiga shoshmaslik zarur deyishadi; boshqalar esa erta sport ixtisosligi zaruriyatini qat'iy rad etishadi. Lekin ularning barchasi bir fikrda: tayyorgarlik davrida yuklamalarni maksimal oshirish zarurligini ta'kidlashdi. Ularni qachon va qanday tempda oshirish masalasini hal qilish zarur, xolos.

Sportchilar ba'zan sport bilan erda shug'ullanishmasada yuqori natijaga muvaffaqiyatga erishishadi. Masalan, rus olimpiyachi-suzuvchilarning barchasi 10 yoshdan ilgari suzish bilan shug'ullanmagan (N.J. Bulgakova,). Ba'zi mutaxassislar fikricha, erda sport ixtisosligini bola harakat qobiliyatlari atigi 12-13 yoshlarga borib shakillanishi tufayli zarur hisoblanmaydi. Lekin qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. 1948-1968-yillar davomida olimpiya o'yinlari sovrindorlari orasida atigi 40% 14 yoshdan so'ng (15-19 yosh), 15% 5-9 yoshda, 45% esa 10-14 yoshlarda sport bilan shug'ullanishni boshlashgan.

Katta sportda ular iqtidorlarni yo'qotmaslik uchun A.A.Gujalovskiy (1976) mashg'ulotlar boshlash uchun quyidagi yosh muddatlarini tavsiya qiladi (albatta, shartli ravishda): murakkab kordinatsiyali sport turlari (sport va badiiy gimnastika, akrobatika, suvga sakrash va b.) 6-7 yosh atrofida; “chidamlilik”ni talab qiluvchi sport turlari (suzish, voleybol, tennis va b.) 8-12 yosh; og'ir atletika, kurash, boks bilan 13-14 yoshdan so'ng shug'ullanishi mumkin.

Muayyan sport turida erta ixtisoslik emas, balki o'smir harakat sifatleri asosini yaratish uchun shunchaki mashg'ulot zarur degan fikr ham mavjud.

O'smirlik davrida jahon rekordlari qonuniy hisoblanilmaydi. Zamonaviy sportning "yosharishi" borasidagi tasavvur alohida shov-shuvli holatlar tufayli shakillanadi. Misol uchun, olimpiya o'yinlari tarixidagi eng yosh ishtirokchi 1900-yil Parijda rulchi bilan birgalikda yakuniy bosqichda ishtirok etgan 10 yoshli o'g'il bola edi, (familiyasi hanuzgacha noma'lum). Olimpiya o'yinlari eng yosh ayol chempioni 1936-yil suvga sakrash musobaqasida g'olib bo'lgan 13 yoshli amerikalik qiz M. Gestring (hujjatlar bilan tasdiqlangan) edi.

Erkaklar orasida olimpiya o'yinlari yosh diapazoni 10-73 yoshni o'z ichiga oladi. Ayollar orasida ushbu diapazon 11-70 yoshni tashkil etadi. "Eng keksa olimpiya ayoli" deb 70 yoshda 1972-yil Myunxenda ot sporti bo'yicha 12 o'rinni egallagan, ingliz ot sporti veterani Xilda Jonstonni nazarda tutishadi. 5 va 6 jadvalda 1976-yil olimpiya o'yinlari 6-sovrindori ayol va tayyorgarligi 6 finalchisi erkaklar yoshi keltirilgan, shuningdek, sportning barcha olimpiya o'yinlari tayyorgarligi optimal staji aks ettirilgan. Suzish va gimnastika vakillari eng yosh sportchilar ekanligi aniqlandi. Ayol olimpiyachilar erkak olimpiyachilardan o'rtacha 2 yoshga yoshroq hisoblanadi.

5-jadval 1976-yil Olimpiya o'yinlari 6 finalist ayollari (V.I.Chudinov bo'yicha, 1976)

Sport turi	O'rtacha yosh	Mashg'ulotlarning optimal staji (yil)
Suzish	17,5	6-7
Gimnastika	18,6	6-7
Suvgasakrash	20,2	5-6
Konkida figurali uchish	20,2	9-10
Baydarkada eshkak eshish	23,0	4-5
Chana	23,0	5-6
Tog' chang'isi	23,2	4-5
Yugurish 100-400 metr	23,4	5-6
Sakrash	23,4	8-9
Voleybol	23,5	5-6
Konki	23,5	8-9
Basketbol	23,6	8-9
Eshkak eshish	24,1	2-3
Qo'lto'pi	24,2	6-7
Yugurish 800-1500 metr	24,4	4-5
Yugurish 100 metr	24,5	8-9
Kamondan yoy otish	24,6	4-5
Besh kurash	25,2	9-10
Ot sporti	25,8	10-11
Uloqtirish	26,2	9-10
Chang'I poygasi	27,1	7-8
Qilichbozlik	28,4	7-8

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sport mashg'ulotlarini boshlash optimal muddatlari, balki alohida sport turlari bo'yicha maksimal sport muvaffaqiyatlari yosh mezonlari mavjud. Maksimal natijalarga erishish uchun optimal yosh N.J.Bulgakova (suzish), V.P.Filin(yengil atletika), G.S.Tumanyan (gimnastika) va boshqalar tomanidan aniqlangan. Hozirgi kunda sportga to'g'ri yo'naltirish va muvofiq saralash uchun sport turlarida yagona ilmiy tasnifi zarurligi dolzarb bo'lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar

1. Bulgakova N.J. O'tbor v sportivnom plavanii //Plavanie. - M.: Fizkultura i sport, 1973 - Выр.2, - S. 25.
2. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Jismoniy tarbiya institute va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. - T.: O'zDJTI, 2005,280betlar.

3. Timakova T.S. Kriterii upravleniya mnogoletney podgotovkoy kvalifitsirovanny k sportsmenov //Nauchnyy doklad diss. ... d-ra ped. nauk. – M.: BNIIFK, 1998. - S. 78.
4. Tumanyan G.S. Sportivnaya borba: otbor i planirovanie. - M.: Fizkultura i sport, 1984. - S. 144.
5. Boltaev Z.B. “Erkin kurashchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlarida kontingentni saqlash uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish” avtoreferat dissertatsiyasi, O‘zDJTI, 2012, 24-26 betlar.

UDK: 37(09)

### TARIXIY BILIMNI O‘RGANISHGA DOIR POZITIVISTIK VA EPISTEMOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI

**P.Qahhorov**

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “tarix”, “tarixiy bilim”, “tarixiy reallik” tushunchalari haqida va tarixiy bilimni o‘rganishga doir pozitivistik, neopozitivistik va epistemologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, R.Kollingvudning “tarixiy fakt” haqidagi qarashlari, B.Krochening “Mutloq tarixiylik” deb nom bergan tarixiy bilish metodologiyasi, Ch.Bird va K.Bekkerning tarixiy bilimning nisbiyligi to‘g‘risidagi fikrlari, K.Popporning tarix fanida tadqiqot protseduralari tahlili, R.Vipporning tarixiy fanning o‘rni va vazifalari haqidagi qarashlari, A.Lappo-Danilevskiyning “Tarixiy metodologiya” konsepsiyasi va L.Kasavinning taraqqiyot g‘oyasi haqidagi fikrlar va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarix, tarixiy bilim, tarixiy ong, tarixiy borliq, pozitivizm, neopozitivizm, epistemologiya, tarixiy reallik, relyatizm, prezentizm, taraqqiyot, interpolyatsiya, skeptizm, romantizm, idealizm.

#### Анализ позитивистских и эпистемологических подходов к изучению исторического знания

**Аннотация.** В данной статье проанализированы такие понятия, как «история», «историческое знание», «историческая реальность», а также позитивистские, неопозитивистские и эпистемологические подходы к изучению исторического знания. В частности, рассмотрены взгляды Р. Коллингвуда об «историческом факте», методология исторического познания Б. Кроче, получившая название «Абсолютная историчность», представления Ч. Бёрда и К. Беккера об относительности исторического знания, анализ процедур исследования в исторической науке, осуществленный К. Поппером, взгляды Р. Виппера о роли и задачах исторической науки, концепция «Исторической методологии» А. Лаппо-Данилевского, приведены рассуждения и выводы Л. Касавина об идее прогресса.

**Ключевые слова:** история, историческое знание, историческое сознание, историческое бытие, позитивизм, неопозитивизм, эпистемология, историческая реальность, релятивизм, презентизм, прогресс, интерполяция, скептицизм, романтизм, идеализм.

#### Analysis of positive and epistemological approaches to the study of historical knowledge

**Abstract.** In this article, such concepts as “history”, “historical knowledge”, “historical reality”, as well as positivistic, neopositivistic and epistemological approaches to the study of historical knowledge are analyzed. In particular, the views of R.Collingwood on the “historical fact”, the methodology of historical cognition of B.Croce, called “Absolute historicity”, the views of C.Byrd and K.Becker on the relativity of historical knowledge, the analysis of research procedures in historical science, implemented K.Popper, R.Vipper’s views on the place and tasks of historical science, the concept of A.Lappo-Danilevsky’s “Historical Methodology”, Kasavin’s arguments and conclusions about the idea of progress are presented.

**Keywords:** history, historical knowledge, historical consciousness, historical existence, positivism, neopositivism, epistemology, historical reality, relativism, presentism, progress, interpolation, skepticism, romanticism, idealism.

Hozirgi davrda tarixiy bilish va tarixiy bilim haqidagi ilmiy bilimlarning chuqurlashib borishi ularning mohiyati borasida turlicha talqinlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat turli fanlar doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda, ushbu tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan ta'riflarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Jumladan, tarixiy bilim deganda odatda o'tmishdagi muayyan bir voqelikni tarixiy bilish jarayonida olingan, amaliyotda tekshirilgan va mantiqan asoslangan natijasi, mazkur voqelikning inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar sifatida aks ettirilishi tushuniladi. Chunki har qanday xalqning o'z tarixi haqidagi bilimlari, xulosa va baholari o'zga xalqlar tarixi haqidagi tasavvurlaridan, ularni o'rganish, qiyoslashdan tashqarida shakllanadi. Bizning nazarimizda tarixiy bilim turli xalq, millat va elatlarning tarixi, asrlar davomida to'plagan tajribasi, yuksak bilim va tasavvurlari asosida shakllangan qadriyatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatida aks etadi. Bu esa uning tarixiy bilishning o'ziga xos mahsuli sifatida qarash imkonini beradi. Shuningdek, u tarix ko'zgusi sifatida o'tmish bilimlarini namoyon qiladi, ya'ni to'plangan bilimlarni kelgusi avlod uchun mustahkamlash, saqlash va yetkazib berish vositasi ham hisoblanadi.

Tarixiy bilimning pozitivistik epistemologik asoslarini qayta ko'rib chiqish relyativizm va prezentizm bayrog'i ostida amalga oshgan. Pozitivizmning eng nufuzli va izchil tanqidchilari XX asrning mashhur faylasuf olimlari B.Kroche va R.Dj.Kollingvudlar bo'lgan, ular Gegel ketidan tarixiy jarayonni ruhning rivojlanishi tarixi sifatida tasavvur qilganlar. Ular tarix tabiatdan farqli o'laroq tadqiqotchi ongida obyektiv ravishda aks etishi mumkin emas [1], deb ta'kidlaganlar. Tabiat va tarixning faktlari aynan bir xil manoga ega faktlar emas. Tabiat faktlari bu olim tomonidan ko'z bilan ilg'ab, idrok etiladigan yoki laboratoriyada qayta ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan narsa xalos. Tarix faktlari rolini o'tmishda sodir bo'lgan voqealar va hozirda mavjud bo'lmagan shart-sharoitlar o'ynaydi. Ular bevosita idrok etilmaydigan bo'lgandan so'ngina tarixiy fikrning obyektiga aylanadi.

«Tarix» atamasi nazariy bilimga qarama-qarshi o'laroq, bevosita kuzatuvlarda to'plangan yoki kurganlarning guvohliklaridan va hujjatlardan olingan, shuningdek, bayon etilgan voqea va dalillardan iborat har qanday empirik bilimni bildiradi. Tarixchi ixtiyorida faqat hujjatlar yoki boshqa qadimgi narsalar, o'tmish qoldiqlari, ulardan u qandaydir yo'l bilan faktlarni tiklashi lozim. Tarixiy bilishning o'ziga xos xususiyati ana shundan iborat, ayni paytda bilishni hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan va bir-biriga qarshi turgan subyekt va obyekt o'rtasidagi bevosita munosabat sifatida tushungan barcha bilish nazariyalari tarixni fan sifatida mumkin bo'lmagan narsaga (yo'qqa) chiqarmoqdalar. Biroq, «tarixiy bilish nazariyasi umumiy ma'no doirasida», R.Kollingvudning iborasiga ko'ra, o'zining haqiqat mezonlarini taklif qiladi, ya'ni – tarixchi mulohazalarining uning uchun nufuzli olimlarning xulosalariga mosligini tekshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyillar o'rtasida manbalar tanqidini amalga oshirib bo'lmaydigan ishonchlilik yangi mezonini izlash muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Italiyalik tarixchi va faylasuf Benedetto Kroche (1866-1952) o'zining ilk tadqiqotlarini pozitivist sifatida boshlagan. Biroq pozitivizmga xos bo'lgan tarixga nisbatan “na inson, na inson tarixi uchun” o'rin qoldirmaydigan naturalistik yondashuvning cheklanganligini tezda payqab, tadqiqotchi voqealar yilnomasi sifatidagi emas, balki “his-tuyg'ular va ma'naviy hayot tarixi” sifatidagi milliy tarixning yaratilishi zaruriyatini anglab yetadi. Krochening falsafiy qarashlari murakkab evolyutsiyani bosib o'tadi. Birini-ketin neokantchilik va marksizmning ta'sirini boshdan kechirib, u, nihoyat, Gegelning “mutlaq ruh” falsafasiga yetib keladi. Kroche “mutlaq tarixiylik” deb nom bergan o'z tarixiy bilish metodologiyasining asosiy nazariy holatlarini “Tarixshunoslik nazariyasi va tarixi” (1915) nomli asarida bayon qiladi [2].

B.Kroche har bir xalqning ma'naviy rivojlanishidagi vorisilik, uzluksizlikning aniqlashga harakat qilgan, tarixni o'tmish bilan hozirgi zamonning uyg'un aloqasi sifatida talqin qilgan. Viko va romantizm tarixshunoslikka yaqin bo'lgan uning konsepsiyasining asosiy shavqi (pafos) o'z axloqiy, qadriyatlarga oid ko'rsatmalarga mos ravishda tarixni yaratuvchi faol shaxsnining ham tarixiy rivojlanish jarayonidagi, ham bilish jarayonidagi rolini e'tirof etishga qaratilgan.

“Mutlaq tarixiylik”ning asosiy holatlaridan biri – tarixning zamonaviyligi to'g'risidagi tezisdir: har qanday haqiqiy tarix har vaqt zamonaviydir, chunki biz ayni paytda bilishimiz zarur bo'lgan tarixni o'rganamiz. Tarixiy ong harakatning zaruriy dastlabki sharti sifatida oldinga chiqadi, Kroche konsepsiyasidagi tarixning bosh yaratuvchisi esa erkin, fikrlovchi individdir, u o'z harakatlarida ham muayyan ijtimoiy qadriyatlar va ko'rsatmalar majmuiga, ham odamlar anglab yetolmaydigan Xudo irodasiga tayanadi. Tarixning yaratuvchi individ o'tmishni hozirgi zamonda boshdan kechirishga va

qayta anglab yetishga intiladi. Voqealar sabablarini Kroche boshqa idealistik va pozitivistik konsepsiyalar, shuningdek tarixiy materializmga xos firklash jarayoniga nisbatan tashqi omillardan (Xudo yoki qonun) emas, uning o'zidan qidirgan.

XIX asr boshlaridan tarixni tushunishning yana bir muhim belgisi paydo bo'ldi. Tarixiy reallik tushunchasi qaror topdi. Bu tushuncha shunchaki nimanidir (davlat, urush, san'at, texnika va sh.o'.) tarixini ifodalamas edi, u tarixiy borliqning alohida turdagi realligini (tabiiy borliq realligiga o'xshab) ifodalardi. Tarixiy reallik tarzida tushunilgan tarix predmetli tarixiy borliqdir, bunda tarixda ro'y beradigan (voqealar, jarayonlar, odamlar va ularning ishlari turli ijtimoiy va madaniy shakllari) barcha narsalar qachondir paydo bo'ladi, yashaydi va yo'q bo'lishga mahkumdirlar. Bunday tushunishda tarix – unda ro'y beradigan barchaning to'plamiga emas, balki ana shu ro'y berishlar sodir bo'ladigan «joy» hamdir, bu joyda «tarixiy borliq yoki mavjudlik» mavjuddir.

Tarix – tarixiy borliq va har qanday tarixiy hodisaning imkoni uchun zarur sharoitdir. Tarixiy borliq bo'lishi kerak, u odamlar yashashi va harakat qilishi uchun hamma narsa turadigan «joy». Shunday qilib, tarix tushunchasi butun ijtimoiy-tarixiy mavjudlik va uning o'zgarishlari; buni «voqealar tarixi» deb nom olgan. Tarix unda paydo bo'lib, unda mavjud bo'ladigan barcha narsalarning borliq usulidir. Tarixni qaytmaslik vaqtli jarayon deb tushunish bizning kunlarimizda uning maxsus reallik sifatida ko'rish g'oyasi bilan to'ldirilgan. Ko'plab mutafakkirlar uchun «jamiyat» va «tarix» juda yaqin tushuniladi; tarix tushunchasiga afzallik berish asosi shundaki, tarix mavjudlik usuli jamiyatning fundamental xarakteristikasidir, ijtimoiy hayot o'z mohiyatiga ko'ra tarixning o'zidir. Jamiyat va tarix to'g'risida alohida narsalar deb qarash ma'noga ega emas, chunki u yagona ijtimoiy-tarixiy reallikdir.

XX asrning 20-30 yy. AQShda pozitivizm tanqidchilari kuchli pozitsiyaga ega bo'lgan, ular tarixiy bilimning nisbiyligiga (Amerika relyativizi deb ataluvchi) urg'u berganlar. Tarixning klassik paradigmasi rad qilindi, unga ko'ra, tadqiqotchilardan mustaqil tarzda barqaror “g'ishtchalar”-faktlar mavjud va tadqiqotchilar ular asosida tarixning obyektiv obrazini yaratadilar, degan fikrga asoslangan. Atoqli Amerika olimlari Ch.Bird va K.Bekker tarixchining o'z tadqiqot natijalariga shaxsan o'zi ta'sir qilishining muqarrarligi, o'tmishni obyektiv ravishda bilish mumkin emasligi, chunki, tarixiy jarayonning tabiatining o'ziga ko'ra, tarixchi o'rganayotgan narsasiga xolisona munosabatda bo'la olmaydi deb ta'kidlaydilar [3]. Barcha aniq o'zgarishlarga qaramasdan, jamiyatni ijtimoiy organizm sifatida tushunish, taraqqiyot (progress) konsepsiyasi, buyuk odamlar harakatlari ortida turgan voqealar va jarayonlar o'rtasidagi qonuniyatlar va vizual aloqalarni tushunish ideali; obyektivlik va subyektivlik, moddiy va ma'naviy omillarning qarama-qarshiligi kabi XIX asr tarixiy fanining pozitivistik «yuki» XX asrda hali uzoq umr ko'rish kerak edi. Relyativizm o'z kasbiy vazifasini o'tmishni adekvat tarzda qayta tiklashda ko'rgan va shuning uchun tarix fanining faktologik asosining obyektivligini himoya qilgan aksariyat tarixchilar e'tiqodiga zid turgan. Amaliyotchi-tarixchilarning mazkur qarashlari o'z falsafiy asoslanishini neopozitivistik konsepsiyalarda topgan, ular antipozitivistik konsepsiyalar bilan bir vaqtda va parallel ravishda rivojlanib kelgan. Pozitivizm doirasida, xususan, ilmiy bilimning mantiqiy tamoyillari faol ishlangan, shuningdek tarixchining tahliliy faoliyati tayan-gan me'yor va qoidalari o'rganilgan. Neopozitivistik tarix falsafasi sotsiologik va psixologik omillar rolini va, mos ravishda, o'rganilayotgan hodisalarni xulq-atvor, tafakkur standartlari, kundalik munosabatlarning turlari va tuzilishlari bilan solishtirish kabi tarixiy bilishning tushuntiruvchi protseduralari(tartiblari) ning yetakchi rolini tan olish bilan tavsiflanadi.

Karl Raymund Popper (1902-1994) «tarixiylikni» go'yoki kelajakni bashorat qilish imkonini beruvchi «evolyutsiya qonunlarini» kashf etishga urinishi uchun keskin tanqid qilgan. Ayni paytda tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va tarixiy bilishning o'xshash va farqlovchi jihatlarini adolatli ta'kidlagan, tarix fanida tadqiqot protseduralarining tahliliga katta e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, mazkur protseduralar ko'p jihatdan fizikada foydalanadiganlar bilan aynan bir bo'lishi mumkin. Umumiy tarixiy qonunlar mavjudligini inkor etmasdan, Popper ayni paytda ular aksariyat hollarda trivial (tuturiqsiz, eskirgan, siyqasi chiqqan) bo'lib, nazariy fanlarda qonunlar bajaradigan vazifani bajara olmasligini ta'kidlagan [4].

Neopozitivistik yondashuv yangi tarixiy fan – hozirgi zamon muammolari bilan yaqindan bog'langan va jahon iqtisodiy krizislari fonida muvafaqqiyatli rivojlangan iqtisodiy tarixda yorqin namoyon bo'ladi. XX asr boshlaridayoq u Amerika, Buyuk Britaniya va Fransiya universitetlarida o'qitilgan. Birinchi asarlar, qoidaga ko'ra, davlat iqtisodiy siyosatiga tegishli bo'lib, siyosiy tarixdan o'tishning qulay yo'li bo'lgan. Lekin tez orada iqtisodiy-tarixiy tadqiqotlar narxlarning o'zgarishi,

so'ng butun dunyo mutaxassislarida nihoyatda katta qiziqish tug'dirgan industrializatsiya hodisasini o'rganishga qaratilgan. Natijada sanoat inqilobini birinchi bo'lib boshidan kechirgan ilk mamalakat – Britaniyaga alohida e'tibor qaratildi [5]. O'z davrida Karl Lotus Bekker (1873-1948) tarixga tashqi dunyoning bir qismi va tarixiy faktlarni haqiqiy voqealar deb o'ylash odatidan voz kechishga chaqirgan. Amerika zaminida relyativizm prezentizm sifatida namoyon bo'ladi, uning boshlang'ich tamoyili o'tmishni bugungi kun mahsuli – o'tmish bugungi kunning proektsiyasi, tasavvurdagi obraz, reallikda tadqiqotchidan mustaqil tayanchi yo'q deb tan olishdan iborat bo'lgan. Ushbu holatni rivojlantirib, Charlz Ostin Bird (1874-1948), 1930-yillarda Amerika tarixshunosligi yetakchi maktablaridan birining rahbari, Krochening tarix - «o'tmish to'g'risidagi hozirgi zamon fikri» degan ta'kidini dalil qiladi. 1933-yildagi o'zining mashhur Amerika tarixiy assotsiatsiyasiga murojaatida (uning yangi saylangan prezidenti sifatida) Bird, jumladan, shunday deydi: «Tarix voqelik, hujjat yoki maxsus bilim emas, balki fikrdir – “tarix” atamasi eng keng va umumiy ma'noda real tarzda aynan shuni anglatadi». Uning tomonidan, tarixchining faktlar va tadqiqot konsepsiyalarini erkin tanlashga asoslangan, tarixiy bilimning ishonch sifatidagi subyektiv tabiati haqidagi tasavvur rivojlantirildi: tarixchi kuchlari cheklanganligi sababli, yangi va eng yangi davrning biror hodisasi to'g'risidagi barcha faktlardan foydalana olmaydi va ularni tadqiqot uchun hayot shart-sharoitlari va o'zining tabiiy fazilatlariga yarasha, subyektiv ravishda tanlaydi.

Люди ещё из древних времен заинтересовались цветом и использовали их в быту – жилищах, одеждах, предметах. Цвета, наряду с их эстетическим значением в жизни древних людей, также выражали их мифологическое мировоззрение, религиозно-идеологические взгляды в той или иной форме, а затем, на разных этапах общественной жизни, также имели социокультурное значение [1, с. 43].

Цвет и цветовые гаммы изучались во все времена и стали отдельной областью исследований. Идеи и рассуждения о цвете, заложенные в научных трудах русского ученого М. Н. Ломоносова, английского ученого И. Ньютона, немецкого философа В. Гёте, выдающегося живописца, графика и теоретика В. Кандинского, известного французского специалиста в области промышленной эстетики Ж.Вьено, французского ученого М. Дерибере, русского физика В. М. Бехтерева, швейцарского психолога М. Люшера и других, имели особое значение в цветоведении. Передовые идеи и полученные результаты сыграли важную роль в фундаментальных исследованиях в изучении цветов, а также в их практическом применении в различных областях деятельности [1, с. 45].

Согласно научной литературе, определены три из четырех основных цветов, которые считаются главными – красный, желтый и синий; и один – зеленый, получаемый путем смешения цветов. Определяемая система цветов представлена на нижеследующей схеме (схема 1).




Схема 1.

Цвета подразделяются на хроматические (греческое происхождение – *"хромос"* - цвет) и ахроматические – бесцветные виды. В научной литературе перечисляются хроматические цвета – желтый, оранжевый, красный, синий, голубой, зеленый, фиолетовый и многие их оттенки. Эти цвета имеют характерные цветовые тона [4, с.87].

Ахроматические цвета включают в себя белый, черный, серый и различные (темные, светлые) их оттенки (схема 2).

Цветовые тесты, предложенные швейцарским психологом М. Люшером, сыграли роль не только в развитии методов исследования личности, но и сформировали целое направление о цветах в науке [3, с.108].

При составлении логических тестов, в отличие от цветов, больше используются графические изображения, основанные на различных формах, символах и других элементах. Однако следует учитывать, что в логических тестах, благодаря многомерным свойствам, использование цветов было бы более эффективно при комплексном изучении и исследовании субъекта. Мы комментировали эту проблему на определенном уровне в ранее опубликованной статье [2.s. 80-85].

Цветные тесты, состоящие из геометрических фигур, особенно важны для учащихся и студентов, занимающихся художественной деятельностью. Они могут быть использованы также для определения логического, художественного мышления, а также развития эстетического вкуса, визуального (зрительного) восприятия и правильного подхода к композиционному решению. Создание и применение таких тестов может основываться на многомерных особенностях цветов и в этом контексте выражать в интегративной форме суть и содержание поставленной задачи (как в фигурах, так и в цветах).

Следует отметить, что применение таких тест - методов в средних и специальных высших учебных заведениях может обеспечить и укрепить междисциплинарные связи между такими предметами как черчение, геометрия, изобразительное искусство, цветоведение, психология (логическое мышление) и др. Это, в свою очередь, обеспечит современный и интегративный подход к учебному процессу.




Схема 2.

**Примеры тестовых заданий.**

**Зад. №1.** Для симметричности, какие геометрические фигуры следует добавить в орнамент - композиции?

- A. Четыре квадрата в красном цвете;
- B. Два квадрата в желтом цвете;
- C. Четыре треугольника в красном цвете;
- D. Два треугольника в красном цвете.

**Зад. №2.** Для симметричности, какие, геометрические фигуры и какого цвета следует добавить в орнамент - композиции?

- A. Два квадрата в красном цвете;
- B. Два квадрата в синем цвете;
- C. Три квадрата в красном цвете;
- D. Три квадрата в синем цвете;

**Определите:**

**Зад. № 3,а.** Сколько крестовых фигур (в белом и черном цвете) изображено в орнамент - композиции?

- A. Восемь;
- B. Одиннадцать;
- C. Шестнадцать;
- D. Двадцать два.

**3,б.** Какие геометрические тела, и в каких видах можно увидеть в орнамент - композиции?

- A. Конусы;
- B. Пирамиды;
- C. Цилиндры;
- D. Призмы.


**Правильные ответы:**

**Зад. №1.** – С.


**Зад. №2.** – А.

**Зад. №3.** а – D; б – В.


**Определите данные образцы орнамент - композиций по классификации цветов.**



Зад. №1.



Зад. №2.



Зад. №3, а,б.

### Литература

1. Гаджиев И.А. Эргоэстетические факторы в дизайне. – Баку: Текнур, 2016, – 144с.: ил; (на Аз. и англ. яз.)
2. Гаджиев И.А. Цветоведение: исторические источники, суждения и предложения // Наука: 21 век. – Саратов, 2009, № 4, –с 80-85
3. Кашапов Р.Р. Курс практической психологии, или как научиться работать и добиваться успеха. – Москва: «АСТ ПРЕСС», 1999. – 443 с., ил.
4. Квасов А.С. Художественное конструирование изделий из пластмассы. – Москва, «ВШ», 1989, –239 с., ил.

UDK: 74(09)

**MARKAZIY OSIYODA HUNARMANDCHILIK VA AMALIY SAN'ATNING RIVOJLANISH TARIXI****S.B.Muranov***Samarqand davlat universiteti**s.muranov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda, Markaziy Osiyoda ilk davrlarda uchratilgan arxeologik qazilmalarda topilgan nodir hunarmandchilik buyumlari, amaliy san'at namunalari, taraqqiyot yuz bergan joylar, makonlar nomlari ishonchli manbalarga tayanilgan holda keltirilgan. Hamda ushbu madaniy me'roslarni, milliy, tarixiy qadriyatlarini ta'lim tizimi muassasalarida yosh avlodga o'rgatib borish vazifalari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq hunarmandchiligi, amaliy san'at, tafakkurli odam, nukleus, tosh buyumlar, poleolit, jez-bronza davri, yashash makonlari, muhr-gemmalari, sopol haykalcha, mehroblar, kosa, suvdon, riton, qadahlar, ziynatlar, harbiy aslahalar, ko'zalar, ta'lim, tarbiya, o'rganish.

**История развития прикладного искусства и ремесла в Центральной Азии**

**Аннотация.** В данной статье раскрывается тема об археологических находках прикладного искусства и ремесел времен первобытно-общинного строя в Центральной Азии. А также рассмотрена история развития прикладного искусства и ремесла и их роль в воспитании молодого поколения в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** народные ремесла, прикладное искусство, человек с мышлением, нуклеус, изделия из камня, палеолит, керамическая статуэтка, фужеры, кувшин для воды, кувшины, образование, воспитание, учение.

**History of applied arts and crafts of central Asia**

**Abstract.** This article reveals the theme of the archaeological discoveries of applied art and crafts from the times of the primitive communal system in Central Asia.

**Keywords:** folk crafts, applied art, a person with thinking, nucleus, stone products, paleolithic, ceramic figurine, wine glasses, water jug, education, upbringing, teaching.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi, to'g'rirog'i, tafakkurli odam (homo sapiens)ning o'tmishdoshi va ajdodlaridan ajralib chiqishi bilan, unda faoliyat ko'rsata olishi uchun maqsadli harakatlar uyg'unligi paydo bo'la boshladi. Maqsadli harakatlari (ov qilish, boshpana, oziq-ovqatlar tayyorlash va boshqalar) tafakkurli odamning odam sifatida shakllanib, taraqqiy etishiga olib keldi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tabiiy olamning eng oliy mavjudoti – tafakkurli odamning shakllanishi 40 ming yilcha ilgari boshlangan.

Markaziy Osiyo hududida neondertal odamning o'rnashishiga tabiiy sharoitning muvofikdigi, mo'tadil iqlimning mavjudligi, oqar suvlar, daraxt va boshqa ko'katlarning mavjudligi, yashashga sharoitning qulayligi sabab bo'lgan. Muste davriga oid neondertal odami Samarqand viloyatida (1947-y.) topilgan. Bu davrdagi odamlar yashagan yana bir makon-g'or Bulbulzorsoyda, Omonqo'tonning quyi tomonida joylashgan. Taqaliqsoy g'ori dengiz sathidan 2000 metr balandlikda, Taxtaqoracha dovonida joylashgan bo'lib, qoldiqlari karst tipida marmarlashib qolgan ohaktosh shaklidir. O'rta Osiyo hududida ilk urug'chilik jamoasiga mansub yuqori poleolit makoni 1939-yilda topilgan bo'lib, ushbu makon Siyobcha soyining o'ng qirg'og'ida, Samarqandning markazida, madaniy qoldiqlar shaklida sarg'ish sog' tuproqda saqlangan.

Quyi poleolit – ilk tosh asriga oid topilmalar Selungur g'orida (Farg'ona), Ko'lbuloqda ham (Toshkent) uchraydi.

Muste davriga oid odamlar yashagan Teshiktosh (Surxondaryo), Obi-rahmat (Toshkent), Kalacha va So'x (Farg'ona), Uchtut (Buxoro), Bo'zsuv (Toshkent) kabi joylardan topilganligi o'sha davrda ibtidoiy odamlar makoni ko'pligidan dalolat beradi. So'nggi poleolit va mezolit davriga oid makonlar Samarqand, Uchtut (Buxoro), Ohangaron va Oqtosh (Toshkent), Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona) kabi joylarda izlari saqlanib qolgan. Bu davrlarda boshlangan rivojlanish neolit davriga kelib, Kalta minor madaniyati va jez davri shaklida taraqqiy etgan.

Ibtidoiy odamlar tabiat kuchi, tirikchilik qiyinchiligi, kunlik moddiy ehtiyoj uchun turli moslamalar, tosh, nukleus, yog'och, chaqmoqtosh va dioritdan yasalgan mehnat qurollari yordamida kun kechirganlar, ov qilib, ov mahsulotlariga ishlov berib, ular iste'molga tayyorlaganlar. Ularning mehnat qurollari sifatida turli kirpich, keskich, sixcha, tosh pichoq, diskasimon sanchqi, ushatgich, toshdan yasalgan bolta, yupqa tosh parrakcha, xolsedondan yasalgan yupqa plastinka (hayvon terisini shilish uchun), tosh parrak (arra o'rnida) va shu kabilar xizmat qilgan.

Boltalar chaqmoqtoshdan yasalib, har xil kattalikda bo'lgan. Ular turlicha maqsadlarda (daraxt shoxi va hayvonlar suyagini maydalash, toshni sindirish va yer kovlash uchun) ishlatilgan.

Poleolit makonida topilgan to'rtlamchi bosqichga taalluqli pleysseton davri yovvoyi hayvonlar – bug'u, eshak, mamont suyagi, kuydirilgan turli shox va baliq suyagi qoldiqlari neondertal odamning yashash tarzi ancha xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi.

Neondertal odamning bevosita izdoshi bo'lgan poleolit davri kromanyun odami faqat ibtidoiy, moddiy ehtiyojni qondirish uchun emas, balki tabiat mahsulotlaridan ikkilamchi ehtiyojlar sifatida bezak va taqinchoqlar tayyorlaganlar. Madaniy geologik qatlam mavjudligi pleysseton davriga to'g'ri kelib, o'rtasi ishqalangan, chiziqli, yupqa yumaloq tosh topilishi o'sha davr odamining tafakkuri rivojlanish boshlaganidan darak beradi.

Poleolit davridan keyingi davrda, mezolit-o'rta tosh asri, neolit-yangi tosh asri, jez-bronza davrida ham tafakkurli odamning shakllanishi davom etdi. Bu davrda ibtidoiy odam O'rta Osiyoda Uzunko'l, Toypoqko'l (Farg'ona), Jonbosqal'a, Suvyorgan (Qoraqalpog'iston), Katta va Kichik tuzkonlar, Zamonbobo (Buxoro), Chust, Amirobod (Xorazm), Sopollitepa (Surxondaryo), Sazog'on va Tim (Samarkand) kabi ko'plab makonlarda yashab, o'ziga xos madaniy qoldiqlar qoldirgan. Ushbu makonlardan mikrolitik mazmundagi juda ko'plab mehnat qurollari – qirg'ich, bolta, bigiz, nukleus, kamon, o'q va boshqalar topilgan. Bular o'sha davr odamning faoliyati ancha takomillashganligidan dalolat beradi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikda dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ko'pgina qabilalarning o'troqlashishiga sabab bo'lib, tabiiy himoyalangan, tog', suv va tik qirlar, jarliklar bilan o'ralgan joylarda turli qabilalar to'planishib, (M: sak va massaget, skif qabilalari) varlar shaklida yirikrok markazlar, shaharlar- Afrosiyob, Xorazm, Shosh, Kesh, Chust, Zur va boshq.) yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Quldorlik tizimida qabilalar markazlashib, shaharlar vujudga keldi va turli davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ana shunday markazlar jumlasiga Ko'hna Elaton (Farg'ona), Go'zaliqir va Chirikrabot (Xorazm), Afrosiyob (Samarqand), Kangxa (Qozog'iston) va boshqalarni keltirish mumkin. Turli xil davlatlar – Salavkiylar, Yunon - Baqtr davlati, Evtidamlar sulolasi, Toharlar, Kangxa (Kangyuy) davlati, Farg'ona (Parkana) davlati. Kushon podsholigi, Afrig'iyalar, keyinchalik, saljuqiylar davlatlari o'zaro urushlarda boshqalarni engish orqali tez sur'atda rivojlanishga erishadi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalaridan, milod davrigacha bo'lgan taraqqiyot nishonasi sifatida keramika, kulolchilik ustaxonasi, charx qoldiqlarining topilishi buyumlarni ko'plab ishlab chiqarishga talab katta bo'lganini ko'rsatadi. Bu davrga oid topilmalar - muhr-gemma, sopol plitalardan qilingan mehroblar, terrakotadan yasalgan haykalcha, turli shakldagi sopol idish, ko'za, to'rtburchakli, teshikli sug'd chaqalari va boshqalar bu davrdagi taraqqiyotning turli darajada rivojlanganligini bildiradi.

Shahar va yirik manzillar qalin devor bilan o'ralib, harbiy istehkomlar darajasida ta'mirlangan. Sopol quvurlar bilan jihozlangan ochiq va yopiq sug'orish tizimi barpo qilingan, bularning barchasini malakali hunarmandlar bajarganlar.

O'rta Osiyoning mazkur vaqtdagi ma'naviy taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi davrlarga mansub deyish mumkin: 1. Qadimiy sug'd (miloddan avvalgi VI-IV asrlar); 2. Sug'd- ellinistik (miloddan avvalgi III-I asrlar); 3. Sug'd-kangyuy (miloddan avvalgi I-IV asrlar).

Yaratilgan buyumlarda o'sha davrdagi turmush tarzi aks ettirilgan: 1-davrga taalluqli topilma, 2 ta gemmadan birida yoy otuvchi jangchi, ikkinchisida buyniga o'q sanchilgan serka xamda boshida uchburchak shakli bor buqa tasvirlangan, 2-davrga taalluqli bo'lgan tanga-chaka, terrakotadan yasalgan buyum, 3-davrga mos bo'lgan don va suv saqlash uchun xumdon, to'qish dastgohiga zaruriy qism, terrakota-ma'budacha, haykalcha, uy qoldig'i, arxitektura va boshqalar rivojlanib, yuksalganidan dalolat beradi. Idishlar xilma-xilligi, kadah, kosa, riton, suvdon, ayol ziynati, libosi yuqori did bilan tayyorlanishi, mahalliy sug'dlarda turli din va hunarmandchilik madaniyati rivojlanganligini ko'rsatdi. Bunday holatlardan esa oddiy mehnat qurollari, moslamalarining hunarmandchilik buyumlariga, undan keyin esa amaliy san'at darajasida tayyorlangan jihozlarga o'tib borganligini kuzatish mumkin.

Halq hunarmandchiligi sanoat ishlab chiqarish darajasida taraqqiy etdi. Qo'l, koranda,

muzdur, xalfa va shogirdlar mehnatidan arzimasi haq evaziga foydalaniladi edi. Qimmatbaho metallar va toshlar (oltin, kumush, mis, dur, aqiq, zabarjad, zumrad va boshqalar)dan halq hunarmandchiligi va amaliy san'atda yuksak did bilan foydalanish keng avj oldi.

Eftalit - turk koroplastikasi, sopol buyumlar tayyorlashda cheti to'liqsimon kosa, likopcha, ilmoqsimon dastali cho'mich, shaffof slyuda lak surtilgan, dastali, chumakli tor og'izli ko'za, turli maqsadda ishlatiladigan turli o'lchamdagi qozon, shamot aralashtirib tayyorlangan xumcha, temirchilik o'chog'i, maxsus sopol vannacha, quyish qoliplari, g'isht terish xumdoni va shu kabi buyumlar yuksak did bilan xaqiqiy san'at asari darajasida tayyorlanganligi, hunarmandchilik va amaliy san'atning turli yo'nalishlarga ixtisoslashtirilganligini bildiradi.

Bu davrda o'zaro urushlar avj olganligi sababli hujum va mudofaa qurollari tayyorlash juda taraqqiy etdi. Qilich, qalqon, xanjar, pichok, cho'qmor, manjaniq (qal'a buzuvchi moslama), o'q-yoy, nayza, sadoq, qinlar va shu kabilar alohida did bilan, har xil qimmatbaho materiallar xamda durlar bilan bezatilib tayyorlanadi edi. Sipohiy va sarkardalarning kiyimboshlari zarbof va baxmallardan, otning egar-jabduqlari, yarog'aslahalari alohida e'tibor bilan tayyorlanib, bir-biridan turli sifatlari bilan ajralib turardi.

Hunarmandchilik va amaliy san'at turlari halq elat va qabilalarning yashashi, turmushi bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, milodiy VI-XI asrlargacha yirik davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ko'p yillik harbiy yurishlar, mudofaa va hujum qurollarining taraqqiyoti bilan yo'g'rilib ketadi. Ana shunday urush va janjallar davrida madaniy taraqqiyot urush bo'lgan davlatlarda bir tomondan, inqiroz tarzida yuz bersa, ikkinchi tomondan, bir davlatdan ikkinchi davlatga (urush bo'lmagan bo'lsa ham) majburiy ravishda o'tkaziladi, ya'ni, ma'lum tarixiy davrda, mintaqadagi umumiy taraqqiyot in'ikosi sifatida yuzaga keldi.

Markaziy Osiyo davlatlarida tarixiy va madaniy, san'at va hunarmandchilik evolyutsion taraqqiyoti yuqoridagi davrlarda alohida o'zgarishlar yuz bergan hisoblanadi.

Demak, hozirgi avlod kishilarning asosiy vazifalaridan biri, asrlar mobaynida yaratilgan tarixiy meroslarni madaniy qadriyatlarini yosh avlodga o'rgatib borish hisoblanadi. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" (1997-y) deb nomlangan tarixiy nutqida shunday ta'kidlaydi: "Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimizni chuqur anglashimiz kerak". (1.8.b)

Ko'hna tarixning ushbu zarvaraqlarini yosh avlod puxta o'rganishlari lozim. Zero, "Tarixiy xotirasiz kelajak yuq", "Tarixi ulug' xalqning kelajagi buyuk" kabi o'gitlaridan zaruriy xulosalarni chiqargan holda milliy ong, g'urur, faxr, iftixor xislatlari, tuyg'usi ruhida kamolga yetishishlari lozim.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, mamlakatimiz tarixida turli xil sohalarining rivojlanishi bilan bir qatorda xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at ham taraqqiyotning muhim qismi sifatida barq urib rivojlanganligiga misollar, xulosalar, fikr-mulohazalar keltirish mumkin.

1) Hozirgi davrda uzluksiz ta'lim muassasalarida, xususan, oliy o'quv yurtlarida tegishli ta'lim yo'nalishlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarni kelajak faoliyatga tayyorlashda tarixiy taraqqiyot rivojlanishi namunalariidan unumli foydalanish, doimiy ravishda amaliy faoliyatda misollar keltirib, zamonaviy misollarga tarixiy faktlarni uyg'unlashtirib borish lozim bo'ladi.

2) Tarixiy, milliy, madaniy meroslarni yoshlarga o'rgatishda, albatta, ushbu meroslarning asl manbalari bilan bevosita tanishish, muammoning asl mazmuni, mohiyati bilan tanishish, so'ngra, ularni ta'lim va sohalar yo'nalishlariga moslashtirilgan holda qayta ishlash, hamda, zamonaviy, an'anaviy va innovatsion ta'lim-tarbiya metodlari, texnologiyalari metodikalariga uyg'unlashtirilgan holda yoshlarga yetkazib berish kerak bo'ladi.

3) Albatta, xalq hunarmandchiligi va amaliy, tasviriy san'at va badiiy grafika bo'yicha o'rganilgan qadriyatlarini, meroslar namunalariini ta'lim-tarbiya ishlarining davlat ta'lim standartiga, konsepsiyalariga, o'quv reja va dasturlariga, darslik va qo'llanmalariga mazmunan va shaklan kiritib, so'ngra ta'lim tarbiya jarayoniga tizimli ravishda qo'llab borish lozim bo'ladi.

#### Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagi poydevori. Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997-yil. 29-avgust. - T.: Sharq. 8 bet.

2. I.M.Mo'minov. Samarqand tarixi. T.: "Fan" nashriyoti, 1970.

3. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni. Toshkent. "Toshkent oqshomi" gazetasi. 1997-y. 2-aprel. №38.



UDK: 378.11

**RAHBARLARNING NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHDAGI  
SAMARALI BOSHQARUV USULLARI****M. X. Baybaeva**

*A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
ped71@bk.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nizoli vaziyatlarni hal etishda rahbar boshqaruvining samarali usullari haqida ma'lumotlar yaratilgan. Har qanday rahbarning boshqaruv vaziyati intellektual mazmunni kasb etadi, chunki yuzaga kelgan nizoli vaziyatni boshqarish mavjud resurslardan o'rinli foydalanishni, inson ongi, tafakkuri va xulqiga ta'sir ko'rishni taqozo etadi. Rahbar tomonidan pedagogik boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun modellashtirish va prognozlashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rahbarning nizoli vaziyatlarni hal etishda boshqaruv uslubiga an'anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. SHu munosabat bilan muallif tomonidan situativ, ya'ni nizoli vaziyatga oid rahbarning boshqaruv usuli haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, rahbar, nizoli vaziyat, mulokat, munosabat, usul, faoliyat, maqsad, pedagog, shaxs, yondashuv.

**Эффективные управленческие методы в разрешениях конфликтных ситуаций**

**Аннотация.** Эта статья содержит информацию об эффективных методах управления в конфликтных ситуациях. Управленческий статус любого лидера имеет интеллектуальное содержание, так как управление конфликтной ситуацией требует правильного использования существующих ресурсов и воздействия на человеческое сознание, разум и поведение. Рекомендуется использовать моделирование и прогнозирование для достижения эффективности в педагогическом управлении со стороны руководителя. В дополнение к традиционному подходу к управлению методом управления, в решении споров менеджера появился ряд современных идей, которые позволяют им управлять более добровольно. В связи с этим автор приводит информацию о ситуационном методе управления конфликтной ситуацией.

**Ключевые слова:** менеджмент, лидер, конфликтная ситуация, общение, отношение, метод, деятельность, цель, педагог, личность, подход.

**Effective management methods in the permission of conflict situations**

**Abstract.** This article provides information about effective conflict management practices. Management status of any leader has intellectual content, as conflict management requires the proper use of existing resources and impact on human consciousness, mind and behavior. It is recommended to use modeling and forecasting to achieve efficiency in pedagogical management on the part of the head. In addition to the traditional management approach, a number of modern ideas have emerged in resolving Manager disputes that allow them to manage more voluntarily. In this regard, the author provides information about the situational method of conflict management.

**Keywords:** management, leader, conflict situation, communication, attitude, method, activity, goal, teacher, personality, approach.

Pedagogik boshqaruvda qo'llaniladigan boshqaruv modellari juda ko'p. Ularni ma'no va mohiyatini inobatga olgan holda: avtoritar, demokratik kabilarga hamda pedagog shaxsi va uni qobiliyatini inobatga olgan holda, an'anaviy va zamonaviy deb ajratish mumkin. Bularning qaysi birini tanlash lozim degan savol dolzarb bo'lib qolmoqda. Nizoli vaziyatdan kelib chiqqan holda bizningcha pedagogik jamoa va bu masalaga yondashish maqsadga muvofiqdir.

Rahbar tomonidan o'zaro munosabatlarning ijtimoiy jihatdan maqbul shaklini-ko'rinishini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Garchi ba'zi manbalarda rahbar boshqaruvida "feminlik uslubi" yoki "maskullik uslubi"ning ijobiy va salbiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, masalaga pedagogik

jamoaning vazifasi, maqsadi va majburiyatidan kelib chiqqan holda yondashgan ma’qul. Boshqaruvda “feminlik uslubi” amal qilsa, quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kuzatiladi:

- o’zini namoyon etish motivi;
- maqsadga erishish motivatsiyasi;
- mehnatga bo’lgan qiziqish va b.

Boshqaruvda “maskullik uslubi” amal qilsa, bunda:

- mehnatga qiziqish va undan zavqlanish motivi;
- insonlarga foyda keltirish hissini ustunlik qilish motivi;
- -shuhratparastlik motivi va boshqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ifodalangan bo’ladi.

Har qanday boshqaruv vaziyati intellektual mazmun kasb etadi, negaki yuzaga kelgan nizoli vaziyatni boshqarish mavjud resurslardan o’rinli foydalanishni, inson ongi, tafakkuri va xulqiga ta’sir ko’rishni taqozo etadi.

Boshqaruv tizim sifatida ikki tizimosti (tag tizim)da iborat bo’lib, bular: boshqaruvchi va boshqariladiganlardir. Ularni har biri alohida tasnifga ega. Ular o’z ierarxiyasiga ega bo’lib, ichki va tashqi jabhalari mavjud.

Rahbar tomonidan pedagogik boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun modellashtirish va prognozlashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ulardan foydalanish faqatgina samaradorlikni ta’minlamasdan, yillar davomida qo’llanib kelinayotgan boshqaruv usullarini mazmunan takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Rahbarning nizoli vaziyatlarni hal etishda boshqaruv uslubiga an’anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g’oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan situativ, ya’ni nizoli vaziyatga oid rahbarning boshqaruv usuli haqida ma’lumot berib o’tishni lozim deb topamiz. Bu g’oya boshqaruv sohasidagi olimlar P. Xersi va K. Blanded tomonidan ilgari surilgan bo’lib, boshqaruvning u yoki bu uslubini qo’llash xodimlar va jamoaning psixologik rivojlanganligiga, kasbiy barkamolligiga bog’liqdir. Mualliflarning fikricha, mutaxassisning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo’lsa rahbar uni shunchalik kamroq boshqarishi va hissiy jihatdan qo’llab-quvvatlashi talab etiladi va aksincha. Xodim qanchalik yuqori malakaga va ruhiy yetuklikka erishgan bo’lsa, rahbarning nazorati va aralashuviga shunchalik kamroq zarurat tug’iladi. Bunday yondashuv asosida to’rt darajali boshqaruv vaziyatlari farqlanadi va bu vaziyatlarning har biriga o’ziga xos rahbarlik uslubi talab etiladi.

#### Vaziyatga oid rahbarlik uslubi

1. jadval

<b>Xodimning, jamoaning rivojlanganlik darajasi</b>	<b>Boshqaruv xatti-harakatlari</b>
<p style="text-align: center;"><b>Quyi daraja</b></p> <p>Past malakali va yalqov xodimlar: «ishlashni yoqtirishmaydi, kasbni bilishmaydi»</p>	<p style="text-align: center;"><b>Avtoritar ko’rsatmalar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• nimani va qay tarzda bajarish haqida aniq ko’rsatmalar berish lozim;</li> <li>• ishni doimiy nazorat qilish;</li> <li>• zarur bo’lganda jazolash, yomon va yaxshi ishga diqqatni qaratish, ishning ijobiy natijalarini taqdirlash.</li> </ul>
<p style="text-align: center;"><b>O’rta daraja</b></p> <p>Asosiy ko’nikmalarga ega bo’lsa ham hali tajriba yetarli emas, harakatchan va vijdonli: «Ishlashni xohlashadi, lekin qanday ishlashni bilishmaydi»</p>	<p style="text-align: center;"><b>«Ommaviylashtirish»</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yo’riqnoma va ko’rsatmalar umumlashgan tarzda beriladi (maslahat, yordam berish, mustaqil harakatlarga imkoniyat yaratiladi);</li> <li>• tez-tez nazorat qilib turish lozim;</li> <li>• hurmat bilan mehribonlarcha munosabat;</li> <li>• mulohazalar (xarakterdagi ijobiy tomonlarga e’tibor qaratiladi, umumiy manfaatlar aniqlanadi);</li> <li>• kerak bo’lganda buyruq berish lozim;</li> <li>• ijobiy xulqni taqdirlash va zarur bo’lganda jazolash.</li> </ul>
<p style="text-align: center;"><b>Yaxshi daraja</b></p> <p>Ishning ko’p tomonlarini bajarishga oid asosiy malaka va ko’nikmalarga ega -</p>	<p style="text-align: center;"><b>Boshqaruvga jalb etish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ayrim masalalar bo’yicha xodimlar bilan maslahatlashish;</li> <li>• xodimlarning tashabbusini, ularning fikr va takliflarini taqdirlash;</li> </ul>

«Ishlashni bilishadi va xohlashadi»	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mas’uliyatga ko‘proq o‘rin qoldirish lozim;</li> <li>• to‘g‘ri ko‘rsatmalar berish va nazoratni cheklash;</li> <li>• xodimlarning o‘z-o‘zini nazorat etish tizimini yaratish kerak;</li> <li>• maqsad qo‘yilsin, lekin unga qanday erishish vositasi ko‘rsatilmasin;</li> <li>• ko‘proq muloqotda bo‘lish lozim;</li> <li>• faollikni, tashabbus va yaxshi mehnatni taqdirlash kerak.</li> </ul>
<p style="text-align: center;"><b>Yuqori daraja:</b> Yuksak malakali, tashabbuskor, mas’uliyatli mutaxassislar</p>	<p style="text-align: center;"><b>Vakolatni berish</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• muammoni muhokamaga qo‘yish, maqsadni aniqlashtirish, o‘zaro kelishuvni shakllantirish;</li> <li>• muammoni mustaqil ravishda hal etish uchun zarur huquq va vakolat bilan ta’minlash lozim;</li> <li>• ishga aralashishdan qochish kerak;</li> <li>• xodimlarga o‘zlarini boshqarishlari va nazorat etishlariga erishish lozim;</li> <li>• agar murojaat etishsa yordam berish;</li> <li>• iltimoslarga jiddiy qarash.</li> </ul>

1-jadvalda mana shu darajalar tavsifi va ularga mos keluvchi rahbarlik harakatlari keltirilgan.

Nizoli vaziyatlarni hal etishdagi samarali usullardan yana biri muloqot. Muloqot yuzasidan bir xil tasavvurning shakllanishiga va suhbatdoshlarning bir-birini tushunishiga erishishdir. Ammo, muloqot davomida qator to‘siqlar mavjudki, ular suhbatdoshdan kelayotgan ma’lumotni to‘la tushunishga xalaqit beradi. Ma’lumot almashuvi bosqichlarini yodda tutish va unga muvofiq keluvchi faol aqliy harakatni qo‘llash to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishni, ma’lumot yo‘qolishini iloji boricha kamaytirish imkonini beradi.

Muammoli va qiyin vaziyatdagi muloqot olib borishda iloji boricha faol tinglash malakasini namoyon etish lozim. Bunday sharoitda passiv tinglash suhbatdoshlar orasida tushunmovchilikni, o‘zga tomon holati va tasavvuri haqida ma’lumot yetishmovchiligini yuzaga keltiradi. Aniqlanishicha, har bir muloqot vaziyati xususiyatidan kelib chiqqan holda faol yoki passiv tinglash turlarini qo‘llash mumkin. Lekin nazarda tutilayotgan muloqot vaziyatida aynan faol tinglash uslubidan foydalangan ma’qul.

Faol tinglash davomida shaxs faolligining asosiy uch jabhasi namoyon bo‘ladi. Bular quyidagilar:

- *diqqatning suhbatdoshga yo‘nalganligi* – vizual, ya’ni ko‘z kontakti, gapiruvchiga hurmat, sabr-toqat, tinglashga tayyorlik;
- *faollik* – maqsadga yo‘nalganlik, qayta aloqa, tushunarli bayon etish, odob-intizom;
- *xayrixohlik* – ustunlikka intilmaslik, o‘z hissiyotini nazorat etish, ma’lumotni e’tiroz bildirmay qabul qilish, salbiy hisning yo‘qligi, optimal nutq tempi.

Nizoli vaziyatning mohiyati aniqlangandan so‘ng, uning yechimini topish lozim. SHunga binoan, nizoli vaziyatni hal etish maqsadidagi muloqot jarayonining keyingi bosqichi – nizoli vaziyatni echimini izlash ham muhim o‘rin tutadi. Bu bosqich haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida nizo vaziyatidagi besh xil harakat uslubini eslashimiz mumkin. Ma’lumki, nizoli vaziyatda inson besh xil harakat uslubidan birini tanlashga o‘z moyilligini bildiradi. Bu harakat uslubi quyidagilar:

- 1) *raqobat* – masala aynan rahbar aytganiday hal bo‘lishi kerak;
- 2) *yon berish* – rahbar xodim ta’kidlayotgan yechimni qabul qiladi;
- 3) *kompromiss* – masala ikkala tomonni ham qisman qoniqtiradigan yechim orqali hal etiladi, lekin asosiy manfaatlar qondirilmaydi.

4) masalani muhokama etishdan *qochish*, ya’ni turli bahona bilan masalani hal etuvchi uzil-kesil yechim qabul qilinmaydi;

5) *hamkorlik* – ikkala tomonni qoniqtiruvchi yechim izlanadi va bu izlanish davomida rahbar o‘z xodimi manfaati haqida qayg‘uradi, xodim esa rahbar va tashkilot manfaatini nazarda tutgan holda o‘z muammosi yechimini izlaydi.

Nizoli vaziyat yuzasidan muloqot olib borish xususiyati shundan iboratki, muloqotda ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatini qondiruvchi yechim topilgan taqdirdagina, bu jarayonni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin. Hamkorlikka asoslangan, tomonlar manfaatiga mos keluvchi yechim topilgandan keyingina qaror qabul qilinadi va muloqot muvaffaqiyatli tarzda ado etildi, deb hisoblanadi. Suhbat oxirida xulosalar chiqarish, yechimni yana bir bor qayd etish va qabul qilingan qaror yuzasidan qisqa izoh berib o'tish mumkin.

Nizoli vaziyatda va mushkul masalani hal qilish chog'ida muloqot olib borish bosqichlari tasvirlangan 2-jadvalda har bir bosqichda rahbar tomonidan bajariladigan zarur harakatlar va ushbu bosqich natijasi haqida tavsiflar keltirilgan. Bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi muloqotning bu shaklidagi asosiy shartlardan yana biri shuki, muloqot jarayonida o'zaro munosabatga oid ijobiy muhitni saqlab turishga intilish lozim. Kontakt yaxshi o'rnatilgandan so'ng, o'zaro munosabatlardagi ijobiy muhitni muloqot jarayoni davomida saqlab turishga intilish lozim.

### 1. 2. jadval. Muammoli, qiyin va nizoli vaziyatda muloqot olib borish bosqichlari

№	Bosqichlar nomi	Zarur ma'lumotlar	Zarur harakatlar
<b>1-bosqich</b>	<i>Kontakt o'rnatish</i> Qarshimdagi odam kim?	yoshi, jinsi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqei, oilaviy sharoiti, sog'ligiga shikoyatlari, uddalay oladigan va uddalay olamaydigan vazifalar turkumi va h.k.	Suhbatdosh haqida ma'lumot to'plash
	U qanday holatda	Tananing ochiq yoki yopiq holatdaligi, qo'l va kaftlar holati, yuz mimikasi ifodasi, bizga nisbatan tutgan masofasi va shu masofani o'zgartirishimizga bo'lgan javobi	Kuzatuvchanlik va xodimga moslasha oluvchanlik. Empatiya orqali xodimga yaqinlashish va uning holatini his etish
<b>2 bosqich</b>	<i>Masalani muhokama qilish</i>	Masala bo'yicha mavjud ma'lumotlarga ega bo'lish	Faol tinglash, aniqlashtiruvchi savollar berish va suhbatdoshi fikrining asosiy mazmunini takrorlab o'tish
<b>3 bosqich</b>	<i>Yechim variantlarini izlash</i>	Suhbatdoshi manfaatini doimo yodda tutish va imkoniyatlarni sanab o'tish	Ikkala tomonni qoniqtiruvchi yechim variantini izlash
<b>4 bosqich</b>	Qaror qabul qilish	Hamma mavjud yechimlarni sanab o'tish va xodim uchun maqbulini asoslash	Xodim manfaatiga yo'nalganlik

Pedagogik jamoada sodir bo'layotgan har qanday nizo rahbariyat nufuziga putur yetkazishi mumkin. Sodir bo'lgan nizodan so'ng ishlab chiqarish samaradorligi ham keskin pasayadi, jamoada nosog'lom muhit hukm suradi. Shuning uchun rahbardan nizolarning oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish va agar sodir bo'lgan paytda esa ularni malakali tarzda hal etish qobiliyati talab etiladi. Rahbar shaxsi, hatto, nizoli vaziyatni yumshatishdagi asosiy omil bo'lib ham ishtirok etishi mumkin. Rahbarning shaxsiy madaniyati, nizoli va muammoli vaziyatga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Rahbar ijodiy bo'lsa, muammoga ko'p tomonlama yondosha olsa, asta-sekin bu xislat uning qo'l ostidagi xodimlar xulqida ham namoyon bo'la boshlaydi [5]. Bundan tashqari, keskin vaziyatga nisbatan rahbarning sokin munosabati, sovuqqonlik bilan mushohada qila olish qobiliyati nizoning yumshashiga shart-sharoit yaratadi.

#### Adabiyotlar

1. To'xtaboyev A. Ma'muriy menejment. – T.: Moliya, 2003
2. Sharifxo'jayev M. va boshqalar. Menejment. –T.: Moliya, 2003

3. Yuldashev N.K., Qozoqov O.S. Menejment. – T.: FAN, 2004
4. Q.X.Abdurahmonov va boshqalar. Davlat xizmati personalini boshqarish. (O‘quv qo‘llanma). – T.: Akademiya, 2004.
5. Корнелиус Х., Фейр Ш. Выиграть может каждый. – М., 1992
6. www.ecsoman.Edu.ru
7. www. economics.Uz
8. www. uza.uz

UDK: 37:323

### TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISH – DEMOKRATIK TARAQQIYOT GAROVI

**U. M. Rasulov**

*Samarqand davlat universiteti  
u\_rasulov80@mail.ru*

**Annotatsiya.** Milliy taraqqiyotni ta‘minlashda fuqarolik pozitsiyasi bir qator funksiyalarni bajarib, mavjud resurslardan o‘rinli foydalanishni individual darajada ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Maqolada talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik jihatlari haqida munosabat bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** talabalar, fuqarolik mas‘uliyati, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyat, ijtimoiy me‘yor, pedagogik korreksiya, tarbiya, gender tafovut, pedagogik hamkorlik, resurs, milliy taraqqiyot.

#### **Формирование гражданской позиции у студентов - ключ к демократическому развитию**

**Аннотация.** В данной статье раскрывается гражданская позиция, которая выполняет ряд функций в обеспечении национальной развитии, для использования имеющихся ресурсов на индивидуальном уровне. Рассматриваются, педагогические аспекты формирования у студентов гражданской позиции.

**Ключевые слова:** студенты, гражданская ответственность, гражданская позиция, ценности, социальные нормы, педагогическая коррекция, образование, гендерные различия, педагогическое сотрудничество, ресурс, национальное развитие.

#### **The formation of citizenship among students is the key towards democratic development**

**Abstract.** This article reveals a civic position, which performs a number of functions in ensuring national development, for the use of available resources at an individual level.

The pedagogical aspects of the formation of a civic position among students are considered.

**Keywords:** students, civic responsibility, civic stance, values, social norms, pedagogical correction, education, gender differences, pedagogical cooperation, resource, national development.

Dunyoda kechayotgan jarayonlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatlarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarining mos tushmasligi, turli xil ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, prezident Shavkat Mirziyoyev “Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo‘yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak.

Nega deganda, bu masala hozirgi vaqtda aholi farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, Vatanimizning yorug‘ kelajagini bunyod etishning hal qiluvchi omiliga aylanoqda”[1] – deb, ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini jamiyatimiz hayotiga tadbiiq etish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan. Ular tufayli taraqqiyot ta‘minlanadi, yoshlarning faolligi oshadi. Natijada, ma‘rifati yuqori va fuqarolik pozitsiyasi mustahkam bo‘lgan insonlar voyaga yetadi. Yu.Vetrovning ta‘kidlashicha, bugungi kun jamiyatda hayot va faoliyat yuritayotgan fuqrolarga (o‘z iqtidorini namoyon etish, mustahkam hayot kechirishlari uchun – ta‘kid bizdan) ma‘lum sifatlarga ega bo‘lish talabini qo‘ymoqda [4]. Va bu talablar, fuqarolarni kasbiy faoliyati bo‘yicha ajralib turishi lozim va u, mamlakatning ta‘lim siyosatida o‘z ifodasini topishi lozim. Agarda, davlat va jamiyat bu

mas'uliyatli vazifani ta'limning zimmasiga yuklaganligini inobatga olsak [9]. Ta'lim-tarbiya jarayoni modernizatsiya qilinib, qabul qilinayotgan chora-tadbirlar milliy mehnat bozorini himoya qilish va uni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Iqtisodiy va siyosiy globallashtirish ta'lim tizimiga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, kasbiy mas'uliyatni zimmasiga olib, mustaqil faoliyat yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. N.Boritkoning yozishicha, oliy ta'lim talaba-yoshlar uchun, faqatgina kasbiy rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanmasdan, shaxsiy rivojlanishning ham galdagi rivojlantiruvchi bosqichi hisoblanadi. Shu yoshdagi talabalar, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirib, ijtimoiy darajasi yuqori bo'lgan xulq namunalari o'zlashtirishadi, ijtimoiy hayot me'yorlari, uni taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini anglay oladi [3]. Shu bois, oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya masalasini milliy taraqqiyotni ta'minlash va rivojlantirish nazari bilan yondashgan tarzda rejalashtirib, bunda mamlakatimizda mavjud ma'rifiy, texnik, ilmiy va iqtisodiy resurslar ishtirokini inobatga olishimiz lozim. Chunki resurslar mavjudligi, faoliyat mazmundorligini ta'minlaydi. Masalan, A.Faxrutdinova, mamlakatda demokratik qadriyatlarini shakllantirish uchun, demokratiyani anglaydigan, uni qadriyat ekanligini baholay oladigan, faol va yuqori axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi va xalqaro tajribadan xabardor bo'lgan fuqarolarni tarbiyalash maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tgan [11]. Bunda, resurs tariqasida, demokratiya va demokratik tizimga doir axborot, tasavvur, bilim va tajriba ma'rifiy resurs ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, shaxsni shakllanishi va o'zini anglash jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, qonunga itoatkor bo'lish, vatanparvar va milliy manfaatlar himoyasini amalga oshirishga tayyor turadigan tarbiyani olib borish jarayonida kechadi. S.Belensov bu xususda fuqarolik tarbiyasi yaxlit tarbiyaning bir qismidir va innovatsion taraqqiyotni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi, deya munosabat bildirgan [2]. Fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy-siyosiy tizimning muhim elementi hisoblanib, siyosiy jarayonlar o'zgarishiga ta'sir ko'rsata oladigan omil hisoblanadi [10]. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rganib chiqqan A.Faxrutdinovanning yozishicha, AQSH, Kanada va Avstraliyada fuqarolik tarbiyaning yo'nalishiga e'tibor qaratib, demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishga urg'u beriladi. Bu yondashuvning maqsadi, shaxsiy motivatsiyani shakllantirib, uni qurish jarayoniga shaxsiy ishtirokni ta'minlashdan iborat [12]. Bizningcha, mazkur yondashuv davlat tomonidan ijtimoiy jarayonlarni regulatsiyasini amalga oshirishni yengillashtirib, "fuqaro o'zi uchun va fuqarolik jamiyati uchun mas'uldir" g'oya asosida fuqarolarni birlashtirishni ta'minlaydi.

Jamiyat hayotida qadriyatlar va ijtimoiy me'orning takomillashuvi kechayotgan bir davrda, milliylik va ma'naviyatni izdan chiqarishga qaratilgan omillar soni ham ortib bormoqda. Bunga, ommaviy madaniyat, axborot xuruji, g'oyaviy va mafkuraviy tazyiq kabilarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin [6].

Mamlakatimizda modernizatsiya jarayonining jadal kechayotganligi davrida, erkin, huquq va mas'uliyat anglaydigan, mamlakatimiz ertangi kunini ta'minlovchi yoshlarni tarbiyalash dolzarb masala bo'lib qolayotganligini inobatga olib, 187 nafar 17 yoshdan to 22 yoshgacha bo'lgan talabalar bilan, amaliy tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqotning maqsadi, talabalar uchun muhim hisoblangan qadriyatlar majmuasini aniqlashdan iborat. Va aniqlangan qadriyatlar asosida, ta'lim-tarbiya va real ijtimoiy borliq orasidagi muvozanatni ta'minlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Buning uchun, gender farqlarni aniqlash, yosh va ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarga e'tibor qaratmasdan, tadqiqotimiz vazifasi doirasida tayyorlangan mualliflik so'rovnoma vositasida SamDU talabalarini ijtimoiy-pedagogik jihatdan o'rganib chiqdik (1-jadval). So'rovnoma "Qadriyatlar nazariyasi" va "Shaxsiy qadriyatlar tizimi" ta'limotlariga asoslangan tarzda tayyorlanib, talabalar (respondentlar) individual munosabatini o'rganish maqsadida "Siz uchun, qadriyat hisoblanadigan tarkibni ko'rsating (to'liq yozing)" tarzida berildi.

1-jadval.

**Talabalarni qadriyatlar majmuasi**

T/R	Muhim hisoblangan qadriyatlar	% hisobida (so'rovda qatnashganlarning ko'rsatkichi bo'yicha)
1.	Javob berishga qiynalaman	38,1 %
2.	Oila va oilaviy hayot	16 %
3.	Layoqatga qarab ish haqini to'lash	11,15 %
4.	Sifatli ta'lim olish	10,2 %

5.	Zamonaviy tarzda tibbiy yordam olish	10,2 %
6.	Saylov (saylash, saylanish)	8,3 %
7.	Sevimli va zamonaviy kasb (ixtisoslik)	8,1 %
8.	Bag'rikenglik (tolerantlik)	7,5 %
9.	Shaxsiy fikr va ishonch	6,9 %
10.	Mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish (shu jumladan xorijiy mamlakatlarda ham)	6 %
11.	Shaxsiy mulk	5,6 %
12.	Erkinlik	5,4 %
13.	Shaxsiy hayotning daxlsizligi	5,2 %
14.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'rsatilgan barcha huquq va erkinliklar	4,8 %
15.	Zavqli va farovon hayot	4,4 %
16.	Demokratiya (o'z fikrini bildirish, namoyishga chiqish, munosabatini turli shaklda bildirish)	2,5 %
17.	Dam olish, sayohat	2,1 %

So'rov natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy yetuk talabalar, o'z huquq va erkinliklarining me'yor va ularning qonuniy asosini bilishadi. Ammo, bu toifali talabalarning soni kam ekan. Ya'ni, tadqiqotda qatnashganlarning 4,8 % o'z munosabatini "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'rsatilgan barcha huquq va erkinliklar"ni jamiyat hayotida amal qilishida ko'radi. 38,1 % respondentlar "javob berishga qiynalaman", deya munosabat bildirib, shaxsiy pozitsiyasini ko'rsatishga tayyor emasligini ko'rsatadi. Bu toifadagi talabalarda fuqarolik mas'uliyati, burch va majburiyat haqida chuqur tasavvur shakllanmagan. Chunki, tadqiqotga qatnashgan 10,2 % talabalar "zamonaviy tarzda tibbiy yordam olish"ni qadriyat tarzida ko'rishadi vaholanki, mamlakatimizda o'tkazilayotgan modernizatsiya jarayonida ijtimoiy soha, shu jumladan tibbiyotni isloh qilish yo'lida ibratli ishlar amalga oshirilgan. Afsuski, ular bundan yetarlicha xabardor emas. Yoki tadqiqotda qatnashgan 8,1 % talabalar "sevimli va zamonaviy kasb (ixtisoslik)" tanlashni qadriyat deb bilishadi. Kasb tanlash va ijod erkinligi har bir fuqaroning erkin huquqi hisoblanib, ular bu haqda to'liq ma'lumotga ega emas, yoki birovlarining (ota-ona yoki boshqa yaqinlarini) qistovi yoki ko'rsatmasi asosida o'zlari ta'lim olayotgan ixtisoslikni (kasbni) tanlaganliklarini ko'rsatadi. Shu sababli bo'lsa kerakki, qadriyatlar majmuasida bu ko'rsatkich 8-o'rinni egallagan. "Javob berishga qiynalaman" deb munosabat bildirganlar (38,1 %), birinchidan, javob berishni istamagan bo'lishlari yoki o'z taqdiriga befarq bo'lishlari mumkin. Pedagogik korreksiya va profilaktika ta'limotlari asosida, ular "xatarli guruh"ga ta'lluqlidir. Ular bilan ishlashda, individual-ma'naviy omil amal qilishini inobatga olib, yondashish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijasining quvonarli va barcha uchun qadriyat hisoblanadigan jihati, bu 16 % talabalar "oila va oilaviy hayot"ni qadriyat deb bilishi hisoblanishi va bu ijobiy mental xususiyat tarzida namoyon bo'lishidir. Aynan shu ko'rsatkich, insonning hayotga nisbatan qadriyatli munosabati shakllanishini ta'minlab, barkamollikka erishish uchun amal qiladi. Qadriyatlar, har qanday ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy – yakunlovchi maqsadi hisoblanib, N.Nikandrovning ko'rsatib o'tishicha, qadriyatlar (pedagogik nuqtayi nazardan – ta'kid bizdan) ijtimoiy jarayonlarni muvozanatda kechishini ta'minlash uchun amal qilishi lozim [8]. Bokulik tadqiqotchi D.Muslimzade ta'lim va tarbiya jarayonida qadriyatlarni shakllantirish, jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlash uchun xizmat qilib, borliqni idrok etish jarayonining samarali kechishi uchun shartdir [7].

V.Gribanovanning tadqiqotlarida ham talabalarni qadriyatlarini o'rganish natijasi o'z aksini topgan bo'lib, bunda yordam qo'lini cho'zish, hurmat, beg'araz yordam ko'rsatish, yaxshilik kabi sifatlar, talabalarning ko'rsatishicha ta'lim jarayonida qadriyat hisoblanmish [5]. Bizningcha, talabalar shaxsida bu ijtimoiy-psixologik sifatlarni mujassamlashgani ta'lim jarayoniga ijobiy moslashuv va samarali tarzda ta'lim olishning ma'naviy sharti hisoblanadi. Agarda, qadriyatlar tizimi, endo va ekzo mohiyat va mazmun kasb etishini inobatga olsak, shaxsning ichki omiliga ko'proq e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shunda, ijtimoiy munosabatlar tizimini qadriyatli kechishi ta'minlanib, fuqaro fuqaro munosabatida, fuqarolik manfaati dominantlik qila boshlaydi. Buning uchun, oliy ta'lim tizimida fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlar va shaxsiy qadriyatlar tizimi, siyosiy jarayonlar va inson

manfaatlari, jamiyat va davlatning strukturasi o'ld ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Chunki qadriyatlarini shaxsga, jamiyatga, kasbga yo'naltirilganligi, ma'lum darajada jamiyatda kechayotgan ijobiy o'zgarishlarga munosabatda bo'lish tarzini ta'minlaydi. Shu sababli, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazarida amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida o'tkaziladigan ma'rifiy tadbirlarni fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratish lozim.

O'tkazilgan tadqiqotning natijasi asosida ta'kidlash lozimki, talabalar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, quyidagi qadriyatlar funksional ahamiyat kasb etadi:

- oila va oilaviy hayot;
- ijtimoiy munosabatlarda beg'arazlik va hurmat;
- farovon hayot va adolat;
- bag'rikenglik (tolerantlik);
- demokratiya (o'z fikrini bildirish, namoyishga chiqish, munosabatini turli shaklda bildirish);
- siyosiy identifikatsiya va boshqalar.

Oliy ta'lim tizimida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, vorislik omiliga e'tibor qaratib, madaniy va ijtimoiy resurslardan o'rinni foydalana bilishimiz lozim. Buning uchun:

*Birinchidan*, fuqarolik pozitsiyasining asosiy komponentlarini aniqlab, uni shakllantirish mexanizmini belgilash lozim va ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya prinsipiga amal qilib, uni shakllantirish lozim.

*Ikkinchidan*, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ishtirok etuvchi institutlarning faoliyatini o'rganib, ular rolini oshirish lozim. Chunki fuqarolik institutlarining funksiyasi tizimida, dunyoqarashni shakllantirish, mobillashtirish va maqsadni shakllantirish kabilar mujassamlashgan.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi: Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. 8-dekabr. 2017-yil. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)

2. Беленцов С.И. Воздействие государственной образовательной политики на проявления гражданской активности школьников (вторая половина XIX – начало XX вв.) / Материалы II всероссийской научно-практической конференции «Роль университетов в поддержке гуманитарных научных исследований» / Под ред. О.Г. Вронского. – Тула: Издательский центр ТГПУ им. Л.Н. Толстого, 2007. – Т. 3. - С. 15-21.

3. Борытко Н. М. В пространстве воспитательной деятельности. Монография / Науч. ред. Н. К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2001. - 181 с.

4. Ветров Ю.П. Современные требования к подготовке педагогов профессионального обучения // Глобальный научный потенциал. 2013. № 9 (30). - С. 20-22.

5. Грибанова В.А. Внутренние факторы, влияющие на процесс формирования гражданской активности молодежи // Языковая личность. Речевые жанры. Текст: материалы Всероссийской молодежной конференции / отв.редактор И.В. Голубева. Ч. II. – Таганрог, 2014. - 147 с.

6. Козлов А.А. Проблемы экстремизма в молодежной среде. - М. НИИВШ, 1994. Феномен экстремизма / под ред. А.А. Козлова. – СПб.: - СПбГУ, 2000.

7. Муслимзаде Д. Актуальные проблемы этики и эстетики. Идея дифференциации общества и государства: философско-этический анализ. – Баку: Муаллим, 2006. - 78с.

8. Никандров, Н.Д. Ценности как основа целей воспитания // Педагогика, 1998. - № 3. - С. 19-23.

9. Патрушев С.В. Гражданская активность: институциональный подход // ПОЛИС. – 2009. - №6. – С. 24-31.

10. Samarov R. Harakatlar strategiyasi – barqaror taraqqiyotning poydevori / Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yiliga bag'ishlangan "Pirovard maqsad aholi farovonligi va yurt taraqqiyotidir" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. - Andijon: AnDU, 2017. – 66-71 – betlar.



11. Фахрутдинова А.В. Общественная направленность гражданского воспитания в теории и практике зарубежной школы // Вестник южноуральского государственного университета. 2011. № 24(241). - С.64-68.

12. Фахрутдинова А.В. Формирование активной гражданской позиции студента в условиях единого образовательного пространства: зарубежный опыт // Казанский педагогический журнал. 2010. № 1. - С. 163-169

UDK: 378.14

## O'QITUVCHINING VIRTUAL TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASI MOHIYATI VA MAZMUNI

**T. J. Oqnozarov**

*Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi  
tulqin\_81@inbox.uz*

**Annotatsiya.** O'qituvchilarning virtual texnologiyalaridan kompetentligini takomillashtirish: tanlangan ta'lim yo'nalishiga bog'liq bo'lgan turli o'quv fanlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni izlashda; o'quv materiallarini taqdim etishda; o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish va tashhishlashda; o'quvchilar faoliyatini tashkillashtirishda; o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishda namoyon bo'lishligi mazkur maqolada o'z aksini topgan.

**Tayanch so'zlar:** o'qituvchi, virtual, texnologiya, kompetentlik, axborotlashtirish, ta'lim, tizimi.

### Сущность содержания понятия компетентности учителя в области виртуальных технологий

**Аннотация.** В настоящей статье найдено отражение, совершенствование компетентности преподавателя по виртуальным технологиям, т.е.: поиска дополнительной информации по различным учебным предметам, связанным с выбранным профилем обучения; представления учебной информации; контроля и диагностики знаний учащихся; организации деятельности учащихся; использования технологий, направленных на развитие личности учащегося.

**Ключевые слова:** учитель, виртуальный, технология, компетентность, информатизация, образования, система.

### The essence and meaning of teachers competence in the field of virtual technologies

**Abstract.** This article reflects the improvement of the teacher's competence in virtual technologies, that is: the search for additional information on various academic subjects related to the chosen educational profile; presentation of educational information; monitoring and diagnosing student knowledge; organization of student activities; the use of technologies aimed at developing the student's personality.

**Keywords:** teacher, virtual, technology, competence, informatization, education, system.

Axborot kommunikatsion texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan davrda jamiyatimiz a'zolari dunyoqarashini unga mos ravishda shakllantirish mamlakatimizni dunyo axborotlar fazosiga kirishining zaruriy sharti hisoblanadi. Dunyo hamjamiyati axborot jamiyatini qurish sari ildam harakatlanmoqda, bunda tabiiy resurslar asosiy ahamiyat kasb etmasdan, balki jamiyatning umumiy strategik potensial sifatida aniqlanadigan omillar, ya'ni axborotlar va ilmiy bilimlar hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Zamonaviy jamiyatning axborotlashtirishda ustuvor va aniqlovchi yo'nalishlaridan biri – ta'lim tizimini axborotlashtirish hisoblanadi. Axborot kommunikatsion texnologiyalarini (AKT) tezkorlik bilan rivojlanishi va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'sishi, ta'lim tizimiga yondashuvni yaxlit tarzda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda eng dolzarb vazifa, yangi shart-sharoitda ta'limda didaktik nazariyani tatbiq etilishini takomillashtirish hisoblanadi. Jumladan, axborot kommunikatsion texnologiyalari tarkibiga kiruvchi virtual texnologiyalar ulkan didaktik potensialga ega deb tavsiflanadi. Axborotlardan foydalanish ko'nikmasiga (anglash, qayta

ishlash, saqlash, tizimlashtirish va uni masofaga uzatish) ega bo'lish natijasida ta'lim oluvchilar pedagogik jarayonning oddiy subyekti bo'lib qolmasdan, balki yetarli darajada keng ma'nodagi o'quv vazifalarini ijodiy mustaqil topib, yecha oladigan tadqiqotchilarga aylanishadi. Shu sababdan ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot kommunikatsion texnologiyalari natijalaridan foydalanish, pedagogik kadrlarni AKT sohasini amaliyotga tatbiq eta olishga tayyorlik darajasiga bog'liq bo'ladi. AKT bilan boyitilgan ta'lim muhitida o'z kasbiy faoliyatini amalga oshira oladigan o'qituvchigina ta'lim jarayonini tashkil etishni o'zgartira oladi va ta'lim sifatini sezilarli tarzda oshira oladi. Aynan ana shuning uchun ham ta'lim tizimimizni takomillashtirishdagi asosiy muhim yo'nalish – yuqori kvalifikatsiyaga, zaruriy axborot madaniyatiga ega bo'lgan, yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini ta'lim jarayoniga va uni boshqaruviga tatbiq eta oladigan pedagogik kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Ta'lim tizimini axborotlashtirishning zamonaviy bosqichi, eng avvalo ta'lim oluvchilarni axborotlashgan jamiyat hayoti talablariga javob berish tarzida ta'limning mos ravishda mazmun, metod va tashkiliy shakllarini o'zgartirishni nazarda tutadi. Ularni asosiy amaliyotga tatbiq etuvchisi pedagoglardir, shu sababli pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish vazifasini hal etish ta'limni axborotlashtirishning har qanday dasturini majburiy tashkiliy qismi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'limda kompetentli yondashuv konsepsiyasini amalga oshirish asosiy ahamiyat kasb etmoqda. U ta'lim va axborotlashgan jamiyat hamda global ommaviy kommunikatsiya talablariga mos ravishda ta'lim maqsadlarini va ta'lim mazmunini o'zgartirish uchun asos bo'ladi.

Mazkur yondashuv an'anaviy ta'lim maqsad va mazmuni haqidagi tasavvurlarni jiddiy ravishda o'zgartiradi. Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra kompetentli yondashuvning asosiy g'oyasi - rasmiy ta'lim tizimida o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalar bilan chegaralanmaslik kerak. Ta'lim tizimida samaradorlikka erishish uchun, mazkur bilimlar inson tomonidan rasmiy ta'lim tizimidan tashqarida keng spektrdagi o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lagan bo'lishi lozim. Shunday qilib, kompetentli yondashuv pozitsiyasidan qaralganda ta'lim mazmuni – turli faoliyat soha va ko'rinishlarida ijtimoiy tajribani tatbiq etish asosida muammolarni o'quvchilarning mustaqil yecha olish qobiliyati hisoblanib, uning elementi esa ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribasidir [1].

Lekin, hozirgi vaqtgacha ilmiy-pedagogik nazariya va amaliyotida kompetentli yondashuv tavsifini beruvchi tushunchalarga oid apparati to'liq shakllanmagan. Shu sababdan ham “kompetentlik” va “kompetensiya” atamalarini tushunishga nisbatan turli yondashuvlar mavjud.

Ta'lim tizimida kompetentli yondashuv “tayanch kompetensiyalar” konsepsiyasini aniqlash bilan bog'liqdir. Tayanch kompetensiya – keng spektrdagi mohiyatga mos keladigan aniqlovchi kompetensiyadir, ya'ni u tavsifi va tatbiq darajasiga ko'ra universaldir [4].

Hozirgi vaqtda kompetentlik va kompetensiyalarga tegishli atamalar to'liq shakllanib bo'lgani yo'q, ko'pchilik tadqiqotchilar kompetensiyalarning muhim tavsiflarini, aynan ularni aniq faoliyatdagi aniq holatlarda namoyon bo'lishini ajratib ko'rsatishadi. Kompetensiya uni aniq amalga oshirish shartlaridan ayri holda mavjud bo'lishi mumkin emas. U bilim va ko'nikmalarni bir vaqtda safarbar qilish hamda aniq faoliyat sharoitida muomala usullar bilan uzviy bog'langandir.

Samaradorlikka erishish uchun mavjud bilimlar keng spektrdagi bilimlar bilan bog'langan bo'lishi lozim. Kompetentlikni rivojlantirish sohasiga ta'lim olish, ish faoliyati, sog'liq haqida qayg'urish, madaniyat, siyosat, atrof-muhitni asrash, o'zaro tushunish va tinchlik uchun harakat qilish va shu kabilar tegishlidir. Kompetensiyalarni shakllantirish vositalari sifatida umumiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, sirtqi va kechki ta'lim, oilaviy tarbiya, madaniy-ma'rifiy faoliyat kabilar qaraladi.

Yetakchi olimlarning tadqiqotlari natijalari [2,3] tahlili, ta'limda kompetentli yondashuv, kompetensiyalar bilim, ko'nikma va malakani rad etmaydi, lekin ulardan o'zining muhim jihatlari: bilimlardan – u haqidagi nafaqat ma'lumotlar bilan, balki faoliyat ko'rinishlarining mavjudligi bilan; ko'nikmalardan – ta'sir ko'rsatishning turli obyektlariga o'tkazilishi bilan; malakalardan – inson nafaqat odatiy harakatlar orqali emas, balki yangi nostandart holatda harakatlanish imkoniyatini anglashi bilan farq qiladi. Shunday qilib, kompetensiyalarga erishish uchun vosita sifatida muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarsiz shakllanishi mumkin emas.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bir narsa deb tushunmaslik kerak, kompetensiya deyilganda ta'lim oluvchining ta'limiy tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talab qaralsa, kompetentlik deyilganda – shaxsiy sifatning tarkib topganligi va berilgan sohaga nisbatan faoliyatning minimal tajribasi qaraladi. Tizimli yondashuv pozitsiyasidan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zida predmetli-metodik, psixologik-pedagogik

kompetensiyalarni va o'qituvchining kasbiy kompetentligi sifatida virtual texnologiyalari sohasidagi kompetensiyalarini namoyon etuvchi kompetensiyalar sintezini qarash lozim bo'ladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi ta'lim, o'ziga xos yo'nalish ta'siri ostida tasdiqlanib, ularning orasida: axborot virtual texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar kompetensiyalariga bo'lgan talabning tez va uzluksiz oshishi, AKTning yuqori tezlikda yangilanib borishi, mazkur sohada ta'limni shaxsning butun kasbiy faoliyati davomida uzluksiz jarayonga aylanishiga alohida urg'u berish mumkin.

Hozirgi vaqtda maktab o'qituvchilarining virtual texnologiyalari kompetentligiga, xususan, maktab ta'lim makonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish sharoitida o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalari sohasidan, ya'ni virtual texnologiyalaridan malaka oshirishlariga kompetentli yondashuvni tatbiq etilishi mohiyatini asoslashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda kasbiy faoliyatning ta'limiy natijasi "axborot kommunikatsion kompetentlik" yoki "virtual texnologiyalari sohasidagi kompetentligi" tushunchalari orqali aniqlanadi. Ularni mohiyat aspekti – bo'lg'usi mutaxassisning real kasbiy muammo va masalalarni axborot kommunikatsion texnologiyalari sohasidagi o'zlashtirgan bilimlaridan foydalangan holda hal eta olishi hisoblanadi.

Chunki, tadqiqotimizning maqsadi, o'qituvchilarning virtual texnologiyalari sohasidagi kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shartlarini nazariy va tajriba-sinov orqali asoslanishini aniqlash bo'lsa, tadqiqot ishimizning eng muhim vazifasi "virtual texnologiyalari sohasidagi o'qituvchining kompetentligi" tushunchasiga aniqlik kiritishdan iborat bo'ldi.

O'qituvchining "virtual texnologiyalari sohasidagi kompetentligi"ga quyidagi ta'rifni kiritamiz: nazariy bilimlar, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda dasturiy vositalardan foydalanish orqali kasbiy-pedagogik faoliyatda amaliy usullar asosida ta'limiy muhit muammolarini hal eta olish qobiliyati – o'qituvchining virtual texnologiyalari sohasidagi kompetentligi deyiladi. Mazkur ta'rif o'qituvchi faoliyatida zaruriy bilim va kasbiy-pedagogik qobiliyalarni o'zida namoyon etadi. Ana shu tarzda aniqlanadigan, o'qituvchining virtual texnologiyalaridan kompetentligi, tizimli yondashuvga mos ravishda axborotlar oqimi bilan ishlashga mo'ljallangan komponentlar orqali ifodalanadi.

O'qituvchining virtual texnologiyalaridan kompetentligini birinchi darajali tushuncha sifatida qaraydigan bo'lsak, "kommunikatsion kompetentlik" axborot kompetentligining bir ko'rinishi sifatida aniqlanadi. Virtual texnologiyalari kompetentligi – inson tomonidan axborotlarni faol, mustaqil qayta ishlay olishi, yangi kutilmagan holatlarda texnologik vositalardan foydalangan holda tom ma'noda farq qiladigan yechimlarni qabul qila olish hamda axborot obyektlari va modellarini tasavvur etgan holda ma'lumotlarni kompyuterga kiritish, uzatish, qabul qilish va shu kabi texnik ko'nikmalari savodxonligidir.

O'qituvchining virtual texnologiyalaridan kompetentligida, ilmiy-pedagogik sohada ham mazmuniy ham faoliyat aspektida o'zaro uzviy bog'langanlik holati tushunilib, u:

- o'quv predmetlarini AKT vositalaridan foydalangan holda o'qitish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasida lokal hamda global kompyuter tarmog'i axborot resurslaridan foydalangan holda axborot faoliyati va axborotlarni o'zaro almashinuvlarini amalga oshirish;
- ta'lim uchun mo'ljallangan elektron o'quv-metodik majmualarning metodik mazmunini psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan ekspert baholash;
- ta'lim jarayonida AKT vositalaridan foydalanishda uchrashi mumkin bo'lgan salbiy natijalarning oldini olish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim muassasasini AKT vositalari bazasida tashkiliy boshqaruvining avtomatlashirilgan axborot-metodik ta'minoti haqida o'qituvchi xabardor bo'lishi lozimligini qamrab oladi.

Shunday qilib, o'qituvchining virtual texnologiyalaridan kompetentligi tushunchasi, o'ziga qulay bo'lgan tarzda ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va boshqa foydalanuvchilarga taqdim etish, olingan ma'lumotdan tushunilganlarini o'z faoliyatiga tatbiq etib ijodiy yondashgan holda namoyish etish, noaniqliklarni aniqlash, xulosalar chiqarish va yechim qabul qilish bilan bevosita bog'liq ekan.

**Adabiyotlar**

1. Абросимов, А.Г. Технологии дистанционного обучения в дополнительном образовании / А.Г. Абросимов // Информатика и образование. -2004. -№ 7.-С.77-82.
2. Бобиенко, О.М. Компетентностно-ориентированный подход в образовании взрослых: Учебное пособие для преподавателей. / О.М. Бобиенко, З.Н. Сафина - Казань: Издательский центр Академии управления «ТИСБИ», 2004. - 104 с.
3. Фрумин, И. Д. Компетентностный подход как естественный этап обновления содержания образования / И.Д. Фрумин. // Педагогика развития: ключевые компетенции: материалы 9-ой науч.-практ. конф. - Красноярск: РИО КрасГУ. - 2002. - С.
4. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного мышления. / А.В. Хуторской. - М.: ЗАО «МТО ХОЛДИНГ». - 2004. - 216 с.

УДК:159.92

**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ****З. Каршиева**

*Самаркандский областной центр повышения квалификации и переподготовки работников  
народного образования  
zulfiya-karshiyeva@mail.ru*

**Аннотация.** В статье представлены современные педагогические технологии, применяемые в дошкольном образовании. Информационно-коммуникационные технологии в дошкольном образовании используются, как одно из перспективных направлений информатизации образовательного процесса.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, концепция, ребенок, инновация, педагогическая технология, личностно-ориентированные технологии.

**Introduction of innovative technologies in preschool education**

**Abstract.** This article discusses the implementation of innovative technologies in pre-school educational institutions. The article also provides guidance on the use of healthcare technologies, information and communication technologies, personalized technologies, and gaming technologies in preschool education.

**Keywords:** preschool education, concept, child, innovation, pedagogical technology, personality-oriented technologies.

**Maktabgacha ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan. Maqolada, shuningdek, sog'liqni saqlash texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, o'yin texnologiyalarini maktabgacha ta'limda qo'llash yo'l-yo'riqlari taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, konsepsiya, bola, innovatsiya, pedagogik texnologiya, shaxsga yo'naltirilgan texnologiya.

Как своевременно и точно определено в Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года, в главе №3: цели и приоритетные направления развития системы дошкольного образования: что целью является разработка механизмов доступности качественного дошкольного образования как важнейшего ресурса, обеспечивающего развитие всех сфер жизнедеятельности ребенка. [1] Таким образом, приоритетным направлением развития системы дошкольного образования являются, в том числе широкое внедрение в образовательно-воспитательный процесс современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий. На сегодняшний день, Министерством дошкольного образования Республики Узбекистан обеспечивается всестороннее развитие воспитанников посредством внедрения современных передовых форм обучения, новых педагогических и информационно-коммуникационных технологий в учебно-

воспитательный процесс. Но необходимо отметить, что современное состояние дошкольного образования требует дальнейшего развития телекоммуникационной инфраструктуры, обеспечения учреждений дошкольного образования доступом к сети Интернет, разработки эффективных организационных и педагогических форм и методов воспитания духовно развитого подрастающего поколения.

В свою очередь, в целях развития и внедрения инновационных процессов в сфере дошкольного образования предусматривается реализация следующих мероприятий: это проведение научных исследований в сфере раннего развития детей дошкольного возраста, интеграция передовых научных разработок и технологий в деятельность дошкольных образовательных учреждений, а так же повышение компетенции и квалификации работников системы дошкольного образования в сфере инновационных информационно-коммуникационных и педагогических технологий, организация инновационной образовательной среды. Исходя из определений Концепции развития системы дошкольного образования республики Узбекистан, наше исследование является актуальным решением очень важной задачи в сфере дошкольного образования.

Современное дошкольное учреждение сегодня - это самый сложный механизм, стремящийся к совершенствованию, развитию, ищущий новые возможности, создающий необходимые условия для удовлетворения потребности, как ребенка и его семьи, а так же и профессиональное и социальное общество, обеспечивающий условия для творческой, профессиональной работы педагогов, отвечающей самым современным требованиям. И поэтому, на наш взгляд, введение инноваций в образовательный процесс - это не прихоть, а требование времени, так как равнодушное отношение к творческому поиску эффективных форм работы с детьми на сегодняшний день недопустимо. Как мы уже отметили, в Концепции модернизации дошкольного образования важнейшим направлением деятельности образовательных учреждений названо создание условий для достижения нового качества образования. И оно, по нашему определению во многом зависит от того, насколько эффективно осваиваются инновации, способствующие качественным изменениям деятельности образовательных учреждений. В настоящее время, практически каждое дошкольное учреждение включено в сферу инновационной деятельности. Когда о дошкольных учреждениях говорят, что они работают в режиме развития, это значит, что они занимаются нововведениями. Для инновационного преобразования должен быть сформирован системный характер, создание новых типов, профилей и видов дошкольных учреждений, новые образовательные программы, позволяющие обеспечить вариативность воспитательно - образовательного процесса, ориентированного на индивидуальность ребенка и запросы его семьи. Каждый педагогический коллектив имеет право на инновационную деятельность. Так как объектом любой педагогической инициативы становятся дети, педагогический коллектив должен взять на себя определенные обязательства по подготовке и организации нововведения. Так, когда и почему появляется потребность в инновациях? Тогда, когда появляется необходимость разрешить какую-то проблему, когда создается противоречие между желанием и реальным результатом, возникает потребность в инновационном подходе.

Инновационная деятельность — это особый вид педагогической деятельности. Инновация (нововведение) — в социально-психологическом аспекте — создание и внедрение различного вида новшеств, порождающих значимые изменения в социальной практике. Следовательно, изменения в развивающемся дошкольном учреждении происходят не хаотично, а прогнозируются руководителем на основе закономерностей и направлены на достижение конкретных целей. Цели и задачи инноваций строятся на основе тщательного анализа текущей обстановки в детском саду, с одной стороны, и из прогнозов его развития — с другой. Существуют различные причины нововведений в дошкольном учреждении. Так, например, стремление педагогических коллективов повысить качество предоставляемых населению услуг, сделать их более разнообразными и привлекательными, и тем самым сохранить свой статус и создать здоровую конкуренцию, или же подражание другим дошкольным учреждениям, интуитивное представление педагогов, что нововведения улучшат деятельность всего коллектива. Еще одна причина нововведений, это стремление недавних выпускников педвузов, слушателей курсов повышения квалификации реализовать полученные знания на практике. Но как показывает проведенный анализ сложившейся практики в деятельности дошкольных учреждений, работающих в инновационном режиме, существует ряд проблем, которые выявляют в первую очередь недостаточность научно-методического обеспечения инновационных процессов, так же отсутствие системности и целостности внедряемых педагогических инноваций, и очень важный аспект нормативно-правового

обеспечения инновационной деятельности дошкольных учреждений. Таким образом, на сегодняшний день существует необходимость поиска принципиально новых форм взаимодействия научных центров и инновационных институтов.

Современные педагогические технологии в дошкольном образовании направлены на реализацию Концепции развития системы дошкольного образования республики Узбекистан. Принципиально важной стороной в педагогической технологии является позиция ребенка в воспитательно-образовательном процессе, отношение к ребенку со стороны взрослых. Его цель - содействовать становлению ребенка, как личности. К числу современных образовательных технологий, внедряемых в ДОУ, мы можем отнести здоровьесберегающие технологии, информационно-коммуникационные технологии, личностно-ориентированные технологии, игровая технология и др.

Термин «технология» - от греческого это искусство, мастерство, умение, совокупность приёмов и способов получения, обработки и переработки сырья, материалов. В настоящее время в педагогический лексикон прочно вошло понятие «педагогическая технология». Педагогическая технология - это совокупность психолого-педагогических установок, определяющих специальный набор и компоновку форм, методов, способов, приёмов обучения, воспитательных средств; она есть организационно - методический инструментарий педагогического процесса.

Так, например, информационно-коммуникационные технологии в дошкольном образовании – это одно из перспективных направлений информатизации образовательного процесса. Его перспектива заключается в совершенствовании программного и методического обеспечения, материальной базы, а также в обязательном повышении квалификации педагогов. В свою очередь, применение информационно-коммуникационных технологий в дошкольном образовании дают педагогу возможность оперативно сочетать разнообразные средства, способствующие более глубокому и осознанному усвоению изучаемого материала, насытить его информацией. Информационно-компьютерные технологии используются довольно активно в процессе образовательной деятельности. Применение компьютерной техники позволяет сделать воспитательно-образовательный процесс привлекательным и по-настоящему современным, расширяет возможности предъявления учебной информации, позволяет усилить мотивацию ребенка. Применение информационно-коммуникационных технологий: цвета, графики, звука, современных средств видеотехники, позволяет моделировать различные ситуации. Применение компьютера в дошкольном образовательном учреждении возможно и необходимо, оно способствует повышению интереса к обучению, его эффективности, развивает ребенка всесторонне.

Главной задачей взаимодействия дошкольного образовательного учреждения с семьей является повышение педагогической компетентности родителей, их активности. В работе с родителями информационно – компьютерные технологии используются при оформлении наглядного материала, при проведении родительских собраний, круглых столов, практикумов, мастер-классов, консультаций. Использование информационно – компьютерных технологий позволяет разнообразить общение, повысить интерес взрослых к получению полезной информации о воспитании детей.

Таким образом, инновационная система в подготовке детей к дошкольному образованию включает в себя разработку механизмов доступности качественного дошкольного образования, как важнейшего ресурса, обеспечивающего развитие всех сфер жизнедеятельности ребенка, приоритетным направлением которого, является развитие системы дошкольного образования, в том числе широкое внедрение в образовательно-воспитательный процесс современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий.

#### Литература

1. Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года (Приложение N 1 к Постановлению Президента РУз от 08.05.2019 г. N ПП-4312) Национальная база данных законодательства ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 10 мая 2019 г.
2. Горвиц Ю.М. Новые информационные технологии в дошкольном образовании. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС, 1998. – 328 с.
3. Нестеров А. Применение интерактивного оборудования в детских садах и начальной школе. - М.: 2004. - 175 с.
4. Зарецкий Д.В., Горвиц Ю.М. Информационная культура. //Методическое пособие. - М.: Дрофа. 1995. – 25 с.

UDK: 37:008

**TALABA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA  
MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATNING O'RNI VA VAZIFALARI****A.A.Raximov***Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talaba shaxsini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'rni va vazifalari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishning yo'nalishlari izohlangan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, demokratik jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, faoliyat, qadriyat, oliy ta'lim.

**Значение и задачи духовно – просветительской деятельности личности студента**

**Аннотация.** В данной статье указаны значение и задачи духовно-просветительской деятельности в формировании личности студента, а также организация и руководство духовно – просветительской деятельностью в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** личность, образование, воспитание, развитие, демократическое общество, духовность, просвещение, значимость, высшее образование.

**The value and tasks of the spiritual and educational activities of the student's personality**

**Abstract.** This article indicates the significance and objectives of spiritual and educational activities in shaping the personality of a student, as well as the organization and management of spiritual and educational activities in higher educational institutions.

**Keywords:** personality, education, upbringing, development, democratic society, spirituality, enlightenment, significance, higher education.

XXI asrga qadam qo'ygan O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – bu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Albatta ushbu g'oyani amalga oshirishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy soha ham muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat fuqarolik jamiyatini qurishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishga ega bo'lib kelmoqda. Qadriyatlarni tiklash, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq g'oyasining tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lish ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarorining qabul qilinishi munosabati bilan keyingi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat axolisi orasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi»(11,8) - deb ta'kidlanadi.

Shuningdek, ushbu dasturda oliy ta'limda bakalavr va magistraturada mutaxassislarini tayyorlashda «Xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash»ga e'tibor berish zarurligi ko'rsatiladi. «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti»da ham bakalavr yo'nalishida gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki birinchi ko'rsatilib, uning mazmunida, milliy istiqloq g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida milliy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqodi va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi» kabi talablarni ta'minlash lozimligi uqtirilgan. Demak, ushbu qonun va DTSlarida

uzluksiz ta'lim turlari, jumladan oliy ta'lim tizimida ham ta'lim sohasini boshqarishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan birga yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, ajdodlarimiz tomonidan, yaratilgan bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash, ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirish, ma'naviy boy shaxs shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish, talabalarining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishda ko'maklashish, ularda fuqarolik tuyg'usini shakllantirish, mustaqil hayotga tayyorlash kabi yo'nalishlar chuqur o'rin olgan. Albatta, bunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni oliy ta'lim faoliyatida amalga oshirish O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning negizini tashkil etadi. Bugungi kunda talaba yoshlarda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi milliy istiqlol g'oyasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oya ekanligini har bir talaba chuqur xis etishi va uni mustahkamlashda faol ishtirok etishni ta'minlash oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning eng asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham talaba-yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni berish, ko'nikma va malaka hosil qilish muhim masalalardan biridir. Chunki, bu sohada ma'lum ish tajribalar to'plandi. Shu bilan birga ba'zi bir kamchiliklar ham aniqlandi. Lekin shunga qaramay, ushbu muammoning pedagogik yechimi tarbiya nazariyasida to'lig'icha o'z ifodasini topgani yo'q. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yagona, izchil bir tizim ishlab chiqilmagan. Ushbu sohani rivojlantirishga oid maxsus adabiyotlar yetarli emas.

Respublika oliy ta'lim muassasalarining amaldagi holatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda ba'zi bir muammolar mavjudligi aniqlandi. Shu bois tadqiqotimizda oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish muammosini yoritishga, uning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu masalalar jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini qurishni tezlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning o'rni beqiyosligini his qilgan holda Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni faollashtirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi. Bular:

1) eng oliy ne'mat mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash;

2) mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning huquqiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash.

3) bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiy tamoyillarini joriy etish;

4) inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarni ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qarorda emas amaliy hayotda joriy qilish;

5) jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish maqsadida «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish;

6) sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish. Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini so'zda emas, amalda ta'minlash;

7) barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezoni ekanligini hisobga olishdir.

Albatta, bu yo'nalishlar mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasini amalga oshirish va xalq xo'jaligining hamma yo'nalishlarini takomillashtirish bilan birga jamiyat ma'naviy-iqtisodiy barkamolligini yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'sha oladi.



Shunga asosan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash zaruriyati tug'ildi. Bu zaruriyatni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning quyidagi vazifalari yordamida amalga oshirish mumkin:

Birinchi:

- ma'naviy madaniyatning erkin, sog'lom raqobat asosida rivojlanishiga ko'maklashish, milliy istiqloq g'oyasiga axborot xuruji va ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy-ma'rifiy sohani muhofaza qilish va takomillashtirish;
- ma'naviyat sohasidagi rivojlanishning tarixiy va nazariy asoslarini yaratish va mustahkamlash;
- ma'naviyat bevosita xalq bilan bog'liqligi sababli, bu sohadagi ishlarni davlat o'z zimmasiga olishi;

- xalqimizning ma'naviy qarashlariga zid keladigan asarlar tarqalishini oldini olish;
- ma'naviyat rivojiga davlat tomonidan byujetga mablag' ajratishni takomillashtirish;
- har bir ishlab chiqarish korxonasi tomonidan ma'lum foiz mablag'ni ma'naviyat masalalari uchun ajratish;

- ommaviy axborot vositalarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni targ'ib qilishni yanada yaxshilash va imkoniyatlarini kengaytirish;

- ishlab chiqarish korxonalarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga doir ma'ruzalar uyushtirish;

- jamoatchilik o'rtasida ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan munozaralar tashkil etish. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni boshqarishda demokratik, ilmiylik, jamoatchilik va mas'ullik, ijroni tekshirish, boshqarishning rejalilik bo'lishi, boshqarishda samaradorlik va tejamkorlik kabi tamoyillarga asoslanish;

- demokratik oshkoralik – har qanday munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, muzokaralar yo'li bilan fikr almashish, hamma uchun birday manfaatli bo'lgan xulosalarga kelish, har qanday zo'ravonlikka, kuch ishlatishga qarshi ravishda sharqona demokratik tamoyillarga asoslanish;

- ma'naviyatni iqtisod, siyosat huquq va boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganish;

- axloq, xulq-odob, me'yorlari, qoida va qadriyatlarini o'rtasidagi ziddiyat, qarama-qarshiliklarini aniqlash bilan birga ularni bartaraf etish usullarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish;

- umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi asosida ma'naviy madaniyatni pedagogik tahlil etish uslubini belgilash;

- keng xalq o'rtasida ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida moddiy va ma'naviy omillar ta'sirchanligini oshirish yo'llarini aniqlash;

- umuminsoniy, milliy va axloqiy qadriyatlarining zamonaviy amaliy jihatlari tahlil qilish;

Ikkinchi:

- oliy ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- talabalarga mustaqillikning tarixiy ildizlari, nazariy va amaliy yo'nalishlari haqida tushuncha berish;

- milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini targ'ib qilish;

- milliy istiqloq mafkurasini mustahkamlash va Vatanga, boshqa mamlakat xalqlariga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish;

- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish;

- millat, Vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalarni talaba qalbiga singdirish;

- mustaqillik tarbiyasi, uning nazariy va amaliy yo'nalishlarini talabalar ongida rivojlantirish;

- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat rejasi va dasturini ishlab chiqish;

- shu yo'nalish bo'yicha metodik qo'llanmalar tayyorlash va chop etish;

- ijtimoiy institut va jamoatchilik faoliyatida talabalarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishga ahamiyatni kuchaytirish;

- sog'lom avlod barkamolligini ta'minlashda oilaning burch va ma'suliyatini oshirish;

- oliy ta'lim mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilimlar berish;

- oliy o'quv yurtlarida talabalar ma'naviyatini shakllantirishga doir tadbirlar, kechalar o'tkazib borish;

- mehnatga, o'zining vazifalariga va burchiga mas'uliyatli bo'lish;

- milliy bayramlar va moddiy qadriyatlarga hurmat bilan qarash;

- tabiatga va shaxsiy narsalarga ehtiyotkorlik, o'ziga va odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

- ma'naviy va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirish.

Yuqoridagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat funksiyalarini har tomonlama amalga oshirilishi inson hayotining hamma qirralarini ijtimoiy taraqqiyot jarayoni bilan uyg'unlashtirishda katta yordam beradi. Talaba shaxsida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarash jahon ma'rifat taraqqiyoti va jamiyatning yuksalishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bu vazifalarni qo'yishdan asosiy maqsad, biz XXI asrda ozod va erkin xalq, mustaqil va qudratli davlat bo'lib qadam tashlamoqdamiz. Shunday ekan, barkamol avlod shaxsini shakllantirish, jamiyatni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yo'nalishlarini takomillashtirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning muhim o'rin tutishini esdan chiqarmaslik lozim.

Milliy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, milliy g'oya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ajdodlarimizning bebaho merosi kabilar ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosida barkamol avlod shaxsini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat oliy o'quv yurtining kundalik hayotida, mehnat, ijodiy, ommaviy xullas hamma-hamma ishlarida amalga oshirilishi va O'zbekiston fuqarosining e'tiqodli, o'z Vatanga haqiqiy sodiq bo'lishiga qaratilishi kerak. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston bayrog'i, gerbi, O'zbekiston madhiyasi – bu o'zbekligimiz, haq-huquqimiz, huriyatimiz, ozodligimiz, mustaqilligimiz ramzi ekanligini, istiqloq va istiqbol, O'zbekistonning mustahkam poydevorini mustahkamlash – ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning maqsadi xalqimizning milliy merosiga vorislik va umumbashariy boyligini ijro eta oladigan, qadrlaydigan madaniyatli, ma'rifatli barkamol shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z talabalarida imon, e'tiqod, sadoqat kabi odamiylik fazilatlarini shakllantirish, milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalashi lozim. Bugungi kunda har bir talaba xalqimizning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyati, nodir qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini ularning mazmunidagi axloq, odob, insof, imon, vijdon, diyonat, adolat, insonparvarlik kabi kurtaklar milliy istiqloq mafkurasi tufayli yanada rivojlanayotganligini, ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishi lozim. Chunki bugungi talaba milliy istiqloq mafkurasi asosida O'zbekistonning axloqli, odobli jahon aholisining hurmatiga sazovor bo'lishi lozim. Shunday ekan, uzoq yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat degan tushunchani na o'quv jarayonida, na ilmiy tadqiqot ishlarida chuqur o'rganilmaganligini nazarda tutib, oliy ta'lim talabasida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ehtiyoji sezilmoqda. Zero, u milliy istiqloq g'oyasi asosida barkamol shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham barkamol avlod shaxsida milliy ong, milliy g'urur, o'z-o'zini anglash tuyg'usi, o'z Vatan va xalqi bilan faxrlanish hislari, milliy qadr-qimmat, mas'uliyat, vatanparvarlik va xalqparvarlik-tuyg'usini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga milliy an'analarni, ma'rifat tajribalarini ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish talabalarni, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa mustaqil O'zbekistonning istiqboli va istiqloqlini mustahkamlash va rivojlantirishda, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvligini ta'minlaydi. Insonning ruhiy poklanishi va yuksalishiga da'vat etadi. Inson ichki olamini boyitadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy maqsadi – barkamol avlod shaxsini voyaga yetkazish, ularni jamiyatimizning haqiqiy fuqarosiga, ongli fidoyisiga aylantirishdir.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va uni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki talaba ma'naviyatini shakllantirish – ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy omili hisoblanadi, bu birinchidan. Ikkinchidan, oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish jamiyat ma'naviyati, mamlakat barqarorligi taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. O'sib kelayotgan yosh avlod ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay jamiyatda yuksak taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shunday ekan, oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatjarayonida oliy ta'lim muassasalariquyidagi yo'nalishlardagi masalalarni hal etishni nazarda tutishi maqsadga muvofiqdir:

- mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini talabalar ongiga yetkazish;
  - O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviyat, ma’rifat va yoshlar tarbiyasi haqidagi asar hamda fikrlarini talabalar o‘rtasida chuqur o‘rganish;
  - oliy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, talabalar bilan olib boriladigan tadbirlarning ta’sirchanligini oshirish;
  - oliy ta’lim muassasasi jamoasida ma’naviy-axloqiy muhitni yaratish, o‘qituvchi va talabalar hamkorligini uyushtirish;
  - ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni yaratishga qaratilgan tadbirlar tayyorlash va ularni o‘tkazishda talabalarning imkoniyatlari, qiziqishlari va jamoat ishidagi malakalarini hisobga olish;
  - ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yordamida talabalarning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini tarbiyalash va ularni tahlil etish, tadbir ishtirokchilarining aqliy, hissiy va irodaviy tomonlariga ta’sir etish, ularning axloqiy me’yorlariga munosabati, tegishli bilimlari, ko‘nikma va malakalarini boyitish;
  - ongli intizomni rivojlantirish, fan va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida o‘qiladigan asarlarni tavsifiya qilish;
  - talabalar uchun ustoz va shogird qoidalarini joriy qilish, talabalarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, past o‘zlashtirgan talabalarga yordam uyushtirish va ularning ota-onalari bilan ishlash;
  - ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda sanitariya ishlarni olib borish, guruhda gigiyena rejimini yo‘lga qo‘yish;
  - talabalarning mustaqil ta’lim olishi, o‘z ustida ishlashi, ma’naviy aqliy darajasi, uning saviyasi, qiziqishlarini rivojlantirish va boshqalar;
- Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari quyidagilarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:
- dars va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda barkamol avlod shaxsini shakllantirishda izchillikka erishish;
  - milliy istiqlol g‘oyasi asosida sog‘lom avlod shaxsini shakllantirish tajribalarini rivojlantirish;
  - Markaziy Osiyo mutafakkirlarining hayot va faoliyatini talabalarga namuna sifatida ko‘rsatish;
  - barkamol avlod shaxsini shakllantirishni ta’minlovchi mashg‘ulotlarni ishlab chiqish;
  - barkamol avlod shaxsini shakllantirishni takomillashtirish maqsadida milliy qadriyatlarni o‘rganishga shart-sharoit yaratish;
  - milliy qadriyatlar haqida egallagan bilim malakalarni o‘z hayotida va keng jamoatchilik faoliyatida qo‘llashni his etish;
  - milliy istiqlol g‘oyasi asosida barkamol avlod shaxsini shakllantirish uslublari va shakllarini ishlab chiqish;
  - asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan buyuk ma’naviy meros sarchashmalariga murojaat qilish. Ularni chuqur o‘rganib, sog‘lom avlod shaxsini ushbu xazinaning bitmas-tuganmas durdonalaridan bahramand qilish;
  - milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o‘ziga xos urf-odatlarini va uning yuksak axloqiy fazilatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish;
  - ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida har bir talabani bilimlar bilan qurollantirish, ma’naviy yetukligini ta’minlash va ushbu vazifani amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasi ma’naviyat va ma’rifat markazi ishini rivojlantirish;
  - milliy istiqlol g‘oyasini talabalar orasida keng targ‘ib qilish, unda ommaviy, ma’naviy-axloqiy ishlarning shakl va vositalaridan foydalanish;
  - barkamol avlod shaxsini shakllantirishda oliy ta’lim, oila va keng jamoatchilikning hamkorligiga erishish va boshqalar.
- Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko‘payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo‘lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari, ayniqsa, yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat sohasida jadal ishlarni amalga oshirish oldimizda turgan eng muhim vazifa bo‘lib turaveradi.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T.,1997. – 20 bet.
2. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.
3. Olimov Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. - 228 bet.
4. Internet ma'lumotlari.

UDK: 37:796.5(575.1)

**TALABALARNING JISMONIY TARBIYASIDA  
SPORT VA SOG'LIQNI SAQLASH TURIZMI**

**U.S. Dusanov**

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotasiya.** Maqolada talabalarning jismoniy tarbiya tizimida sport turizmidan foydalanish xususiyatlari bayon etilgan. Maqolada sport va sog'liqni saqlash turizmi tasniflanadi. Pedagogik tajribada, dastur rekreatsiya turizmi bilan shug'ullanadigan shaxslarning jismoniy va funktsional mahoratini yaxshilashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya tizimi, sport turizmi, sog'liqni saqlash, ekologik omil, sayohat, dam olish, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi.

**Спортивно-оздоровительный туризм в физическом воспитании студенческой молодежи**

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности использования спортивно-оздоровительного туризма в физическом воспитании студенческой молодежи. В работе предложена классификация спортивно-оздоровительного туризма. В педагогического эксперимента была апробирована программа, направленная на совершенствование физической и функциональной подготовленности занимающихся оздоровительным видом туризма.

**Ключевые слова:** система физической культуры, спортивный туризм, здоровоохранение, экологический фактор, пtiшествоие, одих, духовное и социальное развитие.

**Sports and health tourism in the physical education of students**

**Abstract.** The article discusses the features of the use of sports tourism in the physical education of students. The paper proposes a classification of sports and health tourism. In the pedagogical experiment, a program was tested aimed at improving the physical and functional fitness of those engaged in recreational tourism.

**Keywords:** physical training system, sport tourism, keep health, ecological factor, traveling, moral and social developing.

Mutaxassislarni doimiy e'tiborini jalb qiladigan muammo, bu insonlarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish, aqliy rivojlanish darajasini yaxshilash, jismoniy mehnatni shakllantirishdir [2,4,5,6].

Barcha tezlashtirilgan ilmiy va texnologik taraqqiyot zamonaviy insonning hayotini tez o'zgartiradi, jismoniy faoliyat darajasi pasayadi, asab emotsional stress kuchayadi. Bularning barchasi sog'lig'ining yomonlashishiga, surunkali kasalliklarning o'sishiga olib keladi.


Har yili aholining soni ko'paymoqda. Organizmning adaptiv salohiyatini oshirishi bilan kerakli ehtiyoji ushbu tadqiqotning dolzarbligini ta'kidlaydi. Tabiiy ekologik omillardan foydalanish va ularni sog'lomlashtirish turizmi kasb-hunarlar bilan birgalikda foydalanish masalalarini yanada rivojlantirish va hal etishni, jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolaridan biridir. Turizm (fransuz tilida sayohat - yurish, sayohat, ma'nosini bildiradi), bo'sh vaqtlarda sayohat (sayohat, yurish), dam olish va hk); faol dam olish turi, shifo vositasi, shaxsning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi haqidagi bilim. Turizmning ushbu ta'rifi tadqiqotning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Jahon Turizm Tashkiloti (WTO) tasnifiga ko'ra, turizmning barcha turlari (1-rasm) quyidagilarga bo'linadi:

Davolash turizimi	• Dam olish maskanlarida, sihatgohlarda davolash;
Dam olish turizimi	• Dam olish, sport bilan shug'ullanish;
Sayyohlik turizimi	• diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish;
Ilmiy turizim	• diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish, hayvonot va o'simlik dunyosini o'rganish;
Ishchi turizimi	• Ish yuzasidan uchrashuvlar, kelishuvlar
Etnik turizim	• Qarindoshlar bilan uchrashuv

1- rasm. Turizm turi tasniflari.

N.A. Agadjanyanning Nashrda (1995 y.) turizmning biroz turlicha tasnifi keltirilgan. Turizm quyidagicha bo'linadi: tashkilot darajasiga ko'ra; yoshiga qarab; turizm turiga qarab; maqsadga muvofiq; ijtimoiy asosda; tibbiy turizm ham farqlanadi (2-rasm).



2 rasm. Turizm turi sxemasi A.N. Agadjanyan (1995).


Sayyohlik turlarining turlarini va shakllarini mavjud tasniflarini ko'rib chiqib, tahlil qilib, sayyohlikni ikki asosiy guruhga bo'lish mumkin: sog'liqni saqlash (faol vosita sayyohligi, takomillashib, rivojlanayotgan vosita qobiliyatlari va hokazo) va "passiv", "nosog'lom" turizm, bu turist qandaydir transport vositasida sayr qilishi (kognitiv, harakatlar bilan bog'liq emas).

Bazi tadqiqotlarda, tabiat qo'uyida, harakatlar uygunligida sayr qilish, sog'lomlashtirishda chuqur va samarali natijalarga erishilganligi takidlanadi.

Turizm bilan shug'ullanish tufayli, sayyohaning tanasi mustahkamlanib, qat'iylashdi, uning yurak-qon tomir tizimi faoliyati takomillashtirildi, atrof muhitga salbiy ta'sirlarga qarshi chidamlilik kuchaytirildi va asab tizimi mustahkamlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, faol harakatli turizmda mashg'ulotlar amaliyotda o'zgarishlardan kelib chiqadigan tiklanish va rivojlanishning yagona jarayonidir.

Mashg'ulotlarning almashinuvi va ularning optimal davomiyligi, intensivligi va mustahkamligi nafaqat shaxsiy faoliyatining samaradorligini oshirish, balki ularning mehnat salohiyatini oshirishda, shuningdek ularning sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi [1]. Bu insonning dam olish va faoliyatni o'zgartirishga, bir mashg'ulotdan ikkinchisiga o'tishga yordam beradi, buning natijasida jismoniy va psixologik fazilatlar rivojlanadi. Turizmda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish sog'likni mustahkamlash funksiyasi bilan bevosita bog'liq.

Ko'p sonli tadqiqotlar sayyohlikning faol vositalari insonning morfo-funksional holatiga foydali ta'siri kursatishini tasdiqlaydi [4, 5, 6]. Jismoniy faollikni jismoniy shaxslarga, ularning yoshi xususiyatlarini jismoniy muvofiqligi darajasini hisobga olgan holda tarqatish, salomatlikning salbiy ta'sirini bartaraf qilishga imkon beradi.



3 rasm. Turizmning asosiy guruxlari jadvali.

Turistik turlar bilan shug'ullanadigan odamlarning tanasini davolash ta'siri bir xil bo'lmasligi, maxsus tashkillashtirilgan tadqiqotlar talab etadi. "Passiv", "nosog'lom" turizm - ko'pincha - bu turli xil transport turlari bo'yicha bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadigan ekskursiya safarlari bo'lib, unda ishtirokchilarning jismoniy faoliyati minimal va ishtirokchilarning ovqatlari boy va yuqori kaloriya buladi. Ushbu turdagi turizmning salomatlikka ahamiyati katta emas.

Tog'larda olib boriladigan sayyohlik safarlari, dam olish, tatil vaqtida va dam olish vaqtida faol hordiq chiqarishi, o'quvchilarning ruhiy jihatdan tiklanishi va jismoniy samaradorligini ta'minlash uchun nazorat sinovlari testlari bilan aniqlangan salomatlik holatini, tayyorgarlik darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Tog'larda faol dam olish - bu turli xil samarali omillarni tiklashdir, bu shubhasiz ikki barobar natija beradi va sog'liqni saqlash darajasini oshirishga yordam beradi. Tog'larda har xil ehtiyojlarni qondiradigan turli xil dam olish shakllari yil davomida rehabilitatsiya va dam olishning shakllari haqida gapirish imkonini beradi.

Rekreatsiya turizmi dasturini joriy qilish uchun qator shartlar talab qilinadi:

- dam olish tadbirlarining odatdagi davrlarini rivojlantirish.
- mavjud turistik infratuzilmani faol jalb qilish.
- ijtimoiy va sanoat turlari uchun dam olish uyushmasi xizmat dasturlarini joriy qilish.

Safarlarni tashkillashtirish va tayyorlash, navbatdagi tadbirlar majmuini tashkil etadi, ularning muntazam ravishda amalga oshirilishi maqsadga erishishga, ta'lim-tarbiya, sport va sport masalalarini maksimal salomatlik samaradorligi va zaxiralarning to'la xavfsizligini ta'minlashni hal qiladi.

Tadqiqot natijalari mehnatning ilmiy tashkiliy tizimida sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlarni qo'llash masalasi bo'yicha bilimlarni to'ldiradi va kengaytiradi.

Tog iqlimiga moslashish ta'siri ostida dam olish paytida fiziologik jarayonlarning samaraliligiga (iqtisizmiga) moyilligi aniqlandi [6]. Yuqori balandlikda kislorod ochligiga moslashuv ta'siri ostida, tinch holatdagi organizm, ayniqsa, havo haroratida gipoksiya kam bo'lsa ko'proq muskullarni bo'shish qobiliyatini hosil qiladi.

Tog'larga joylashgan odamlarda dam olish vaqtida yurak urish tezligi (HR) va markaziy asab tizimining bir xil "yengillashuvi" kuzatiladi.

Tinch holatdan farqli o'laroq, tog'larda jismoniy mashqlarni bajarish, hatto iqlimga moslashgan shaxslarda ham yurak qon tomirlari tizimi va tashqi nafas olish tizimida tekislikdagidan farq qiladi.

Atmosfera havosidagi qisman kislorod miqdori kamayib, organizmning kislorod ochilishiga olib boradigan zahira quvvatini tog iqlimi yordamida o'ta sezgir omillarga moslashtirishga qaratilgan. Ammo 1800-2500 metr balandlikda u juda mo'tadil va odatda, sog'lom odamning ahvoli balandlik kasalliklari bilan yomonlashmaydi. Shu bilan birga, o'tkir kislorod tanqisligi tananing haddan tashqari qizishi, zaif aqliy va jismoniy ish bilan bog'liq. Tadqiqot materiallaridan foydalanish tog'larda sayyohlik safarining salomatlikka ta'sirini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tabiiy-iqlim omillari bilan birgalikda mustaqil xarakatlanishda ishtirok etish dastlabki ma'lumotlar bilan taqqoslaganda tashqi nafas olish ko'rsatkichini sezilarli darajada yaxshilaydi, pulsning soni 78 dan 64 gacha / mingacha kamayadi, qon bosimi 135/80 mm bilan k .. dan 115/70 mm Hg ga qadar pasayib boradi.

Reabilitatsiya qilishda turizmning boshqa vositalar bilan birgalikda foydalanish dasturining samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish uchun asosiy pedagogik tajriba o'tkazildi. Buning uchun Samarqand davlat universitetining ikki guruh talabalari ixtiyoriy ravishda tashkil etildi; nazorat qilish ( $n = 20$ ) va tajriba ( $n = 20$ ).

Eksperiment ishtirokchilari (nazorat va eksperimental guruhlar) sayyohlik safari boshlanishidan oldin yetti kunlik mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishdi (oltita mashg'ulot o'tkazildi), nazorat va eksperimental guruhlardagi darslarning vaqtlari bir xil edi.

Farqi shundaki, eksperimental guruh ishtirokchilari harakatli mashqlar o'rniga asosiy mushak guruhlarining statik-dinamik rejimida oltita mashq bajarishgan. Nazorat guruhidagi ishtirokchilar hozirgi vaqtda haroratni qizitdi. Darslarning asosiy qismi har ikki guruhda ham bir xil edi. Ishtirokchilar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishdi, ularning asosiy qismi yurish poygasini bajarishdi. Kursning yakuniy qismida eksperimental guruh ishtirokchilari tanaga sovuq suv quyishni bajarishdi.

Dam olish kundan so'ng har ikki guruh ham sakkiz kun davom etgan sayyohlik safarida ishtirok etdi. Eksperiment ishtirokchilari birinchi kuni dengiz sathidan 750 metr balandlikda tayanch lagerini o'rnatdilar va tog'larga 1900 metr balandlikda chiqishdi. Keyingi olti kun ichida tog'larga 1800-2400 m balandlikda chiqishadi. Chiqishning davomiyligi 5-8 soat (8-14 km) edi. Nazorat va tajriba guruhlari ishtirokchilarining marshrutlari bir xil edi. Turli yo'nalishlar faqat marshrutda harakatlanishni tashkil qilish edi. Bosimning kattaligi, turistlar doimiy palpatsiya yuli bilan olchagan yurak tezligi bilan belgilanadi.

Marshga chiqishdan oldin eksperimental guruh ishtirokchilari tonusni saqlab qolish uchun statik-dinamik rejimda bir qator fizika mashqlarini bajarishdi. Asosiy lagerga qaytib kelgach, ular darhol sovuq suv bilan yuvinishni bajarishdi. Tajriba guruhi sayohatchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi dastlabki ko'rsatkichlarda ( $p > 0,05$ ) nazorat guruhining pedagogik tajriba ishtirokchilarining jismoniy tayyorgarligi darajasidan farq qilmadi.

Tajriba davomida eksperimental guruhning turistlari, ham erkaklar, ham ayollar, deyarli barcha testlarda jismoniy tayyorgarlik darajasi yaxshilandi: - PWC170 15,6% (erkaklar) va 13,2% (ayollar); IGST - 18,3% va 12,8%, qo'llab-quvvatlovchi harakatlar 21% va 19%, bir oyog'i 5 marta - 9,1% va 7,4%, 3000 va 2000 metr - 12,6% va 8,7% ga)

Shu bilan birga, nazorat guruhida eksperiment davomida jismoniy tayyorgarlik darajasida sezilarli darajada kamroq o'zgarishlar sodir bo'ldi va faqat quyidagilar tugri keladi: - PWS170 - 5,4% (erkaklar) va 3,8% (ayollar); WIG - 6,4% va 4,2%; mushak va qo'llarning harakati 2,5% va 1,7%; Bir oyog'i 5 marta - 0,9% va 1,1%; 3000 va 2000 metrlik masofani 3,2% va 2,1% tashkil etdi.

O'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar natijasida, rekratsiya turizmi bilan shugullanuvchi shaxslarning jismoniy va funktsional mahoratini yaxshilashga qaratilgan dastur qabul qilindi. Shunday qilib, dastlabki tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda qo'llanilgan dastur asosida dastlabki kuch qiymati ta'siri aniqlandi

#### Adabiyotlar

1. Бердинков Г.И. - Массовая физическая культура в ВУЗе: Учебное пособие. - М.: Высшая школа, 1991.- 240с.
2. Буровых Л.Н. Изменение отдельных показателей функционального состояния организма в ходе туристского похода // Роль и задачи спортивно-массового туризма в физическом воспитании и оздоровлении населения. Сб науч. тр. / Под ред. Ю.А. Штюмерера с соавт. - М: ЦРИБ "Турист", 1990 - С.109-110 с.
3. Матвеев Л.П. - Теория и методика физического воспитания: Учебник. - М., 1991. - 65 с.
4. Наука и спорт: Сб. обзорных статей. - М.: Издатель А.Н. Жуков, 1982.- 34 с.
5. Платонов В.Н. Подготовка квалифицированных спортсменов. - М.: Физкультура и спорт, 1986. - 286 с.
6. Суслов Ф.П., Гиппенрейтер Е.Б., Холодов Ж.К. Спортивная тренировка в условиях среднегорья. - М.: 1999, - 202с.

UDK: 159.9.01

## SHAXSNING IRODAVIY SIFATLARI VA KLASSIFIKASIYASI

N.Nasimova, A.Raximov  
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotasiya.** Maqolada irodaviy sifatlarga har xil olimlar tomonidan bildirilgan qarashlar va bizning pozitsiyamiz bayon qilingan hamda shaxs irodaviy sifatlari klassifikatsiyasi izohlangan.

**Kalitso'zlar:** kategoriya, bosqich, irodaviy zo'r berish, xususiyat, invariantlik, jasurlik, bazallik, mustaqillik, tashabbuskorlik, intizomlilik, uyushqoqlik.

**Волевые качества личности и его классификация**

**Аннотация.** В статье описаны взгляды, выраженные различными учеными на волевые качества и изложена позиция авторов на классификации волевых качеств личности.

**Ключевые слова:** категория, фаза, волевые усилие, особенность, инвариантность, мужество, базальность, независимость, предпринимательство, дисциплинированность, организованность.

**Willfull qualities of personality and its classification**

**Abstract.** The article describes the views expressed by different scientists on will qualities and our position, as well as the classification of will qualities.

**Keywords:** category, phase, perspective, property, invariant, courage, basalt, independence, entrepreneurship, discipline, honesty, jealousy.

Psixologiya fanida iroda kategoriyasi kishilik jamiyati ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotining har bir bosqichida muayyan darajada o'rganilgan. Chunki taraqqiyotning har bir davri uchun shaxs kamoloti alohida ahamiyat kasb etgan, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlari, ularning turmushdagi o'rni qat'iy ta'kidlangan. Jamiyat farovonligini harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxsning yuksak darajada ulug'lanishi va baholanishi unga nisbatan diqqat-e'tibor sira pasaymagan. Shuning uchun iroda falsafa va psixologiya fanlarining tadqiqot predmetida puxta o'rin egallaganligi uning dolzarb mavzu ekanligini bildiradi. Hozirgi davrda mamlakatimizda barkamol avlod shakllanishiga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi tufayli mazkur muammo keng ko'lamda tadqiq qilinishga loyiq.

Irodaning namoyon bo'lishi (aniqrog'i – iroda kuchi, irodaviy zo'r berish) har xil o'ziga xos vaziyatlarda bizni irodaviy sifatlari (xususiyatlar) haqida gapirishga majbur qiladi. Hozirgacha irodaviy faollikka aniqlik kiritishda aynan o'xshash va farqli tushunchalarini izohlashda katta qiyinchiliklar mavjud. Bola o'ziga yoqqan o'yinchog'ini olib berishni ota-onasidan talab qilganida u tirishqoqlik yoki qat'iylik namoyon qilmoqdam? Doimo ham tartiblilik, intizomlilik va tashabbuskorlik iroda kuchini tavsiflaydimi? Nima uchun psixologlar uzil-kesillikni jasurlik bilan birgalikda, yonma-yon ishlatishadi? Axloqiylik bilan irodaviy sifatlarning chegarasi qayerda? Bu savollar nafaqat nazariy, balki amaliy qiziqishni yuzaga keltiradi. Chunki bu savollarning javobi iroda namoyon bo'lishini diagnostika qilishga imkon beradi va muayyan irodaviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik metodlarini topishga yordam beradi.

Tadqiqotchi I.Xayriyev shaxsning irodaviy sifatlarni o'rganar ekan shunday yozadi: "Irodaviy sifatlari – nisbatan barqaror, muvaqqatlikdan yiroq, mazkur vaziyatga daxldor bo'lmagan psixologik yangilanishlarni, o'zgarishlarni o'rganish, tiklash jarayonining mahsuli. Shaxsning irodaviy sifatlari maqsadga yo'nalganlik (sabitqadamlik), tashabbuskorlik, qat'iylik, o'zini tuta bilishlik (toqatlilik), mustaqillik, tashkiliylik, jasurlik, ishbilarmonlik, esankiramaslik kiradi. Insonning kuchsiz irodaliligi quyidagi tushunchalar orqali tavsiflanadi: prinsipsizlik, chidamsizlik, yalqovlik, qo'rqqoqlik, qaysarlik, shafqatsizlik va boshqa illatlar, pedagogik holatlar ifodasida mujassamlashadi" [10, - 11-b.].

V.A.Ivannikov o'z tadqiqotlarining birida ta'kidlashicha, barcha irodaviy sifatlari kelib chiqishi bo'yicha har xil asosga ega bo'lishi mumkin. Faqat ular noyobligiga ko'ra iroda atrofida bir butun bo'lib birlashadilar. "Tahlillar ko'rsatadiki, – deb yozadi u, – barcha irodaviy sifatlari boshqa-boshqa manbalardan kelib chiqadi va ular eng oxirgi chora sifatida iroda orqali bog'langan. Demak, ular irodaning farq qiluvchi belgisi bo'lishiga davogarlik qilolmaydi" [3, - 49-b.]. Bundan tashqari



inson bir vaziyatda irodaviy sifatlarini namoyon qilsa, boshqa vaziyatda irodasini namoyon qilmaydi. Shu bois V.A.Ivannikov muayyan irodaviy sifatlar haqida gapiradi, albatta, ularni inkor qilmaydi ham. "Irodaviy sifatlar psixik reallikni aks ettiradi" [3, - 57-b.], deydi u.

Ammo bir necha yildan keyin V.A.Ivannikov o'z qarashlarini o'zgartirdi. U E.V. Eydman bilan yozgan bir maqolasida irodaviy sifatlarini juz'iy (vaziyatli) va doimiy (invariant) turlarga ajratgan. Shu bois ular yozadi: "... agar odamda hattoki yolg'on bo'lsa ham o'zining haqligi haqida barqaror tasavvur shakllangan bo'lsa, u har qanday vaziyatda har qanday ishni uddalay olishiga ishonsa, o'z imkoniyatlari haqida o'zini barqaror baholasa, bunday odam har qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar o'z xulq-atvorida tirishqoq va boshqa irodaviy sifatlarini ko'rsatadi. Agar shu yuzaga kelgan tirishqoqlik odamning real imkoniyatlari bilan mustahkamlansa, unda irodaviy sifatning invariant turlari shakllanganligi haqida gapirish mumkin bo'ladi" [4, -40-b.].

Bu nuqtayi nazarni V.I.Selivanov, V.A.Ivannikov va E.V.Eydmandan ancha oldinroq aytgan edi. U jasurlik haqida gapirar ekan, shuni ta'kidlaydiki, shaxsning xatti-harakati hali jasurlik sifatiga ko'tarilmagan bo'lsa ham inson hayotda o'zining jasurligini psixik holat tarzida namoyon qilishi mumkin. "Jasurlik boshqa irodaviy sifatlar kabi shaxsning xususiyatiga aylansagina, bu sifat u yoki boshqa vaziyatga bog'liq bo'lmasa, shundagina u barcha vaziyatlarda shaxsning barqaror xulq-atvoriga aylanadi" [7, - 20-b.].

Iroda kuchining muayyan vaziyatlardagina namoyon bo'lishi irodaviy sifatlarini diagnostika qilishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki ko'pgina tashqi jasoratlarni odamlar affekt ta'sirida amalga oshirgan bo'lishi ham mumkin. Bunday jasurlikni u vaziyatdan chiqolmaganligi oqibatida qilgan bo'lishi ham mumkin. Shu bois birgina juz'iy vaziyatga qarab odamni jasur deb atab bo'lmaydi.

A.I.Visotskiy qat'iylikning namoyon bo'lishini o'rganishda bir qator sabablar borligini aniqlagan: qiziqishning mavjudligi; o'zini boshqalardan yomon emasligini ko'rsatishga intilish; bu masalani yechimini topish orqali o'zining kimligini isbotlashga intilish; muayyan ishni bajarishga mantiqan yondashish. Albatta, eksperiment jarayonida har bir sinaluvchining irodaviy sifatlarini namoyon qilish sabablari har xil ekanligi aniqlangan [1, -47-b.].

B.N.Smironov irodaviy sifatlariga quyidagicha ta'rif bergan: "Muayyan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan jarayonda irodani aniq namoyon qilishga shaxsning irodaviy sifatleri deyiladi" [9, - 95-b.]. Uning irodaviy sifatlariga bergan ta'rifi muvaffaqiyatli chiqqan, ammo irodaviy sifatlar harakatni ixtiyoriy boshqarish bilan cheklanmaydi, balki u irodaviy zo'r berishni tig'izlash, irodaviy regulyasiya bilan bog'liq. Bundan tashqari irodaning aniq namoyon bo'lishi nafaqat uning sifatini, balki irodaviy zo'r berishning darajasini ham aks ettiradi. Shu bois biz irodaviy sifatlariga quyidagicha ta'rif bergan bo'lardik: irodaviy sifatlar – o'ziga xos sharoitda namoyon bo'ladigan va bartaraf qilinadigan qiyinchilikning xarakteri bilan shartlangan irodaviy regulyasiyaning (boshqaruvning) xususiyatidir. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, iroda kuchining aniq sharoitlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi faoliyat turiga emas, balki bartaraf qilinadigan qiyinchilik xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Tasavvurimizcha, turli mualliflar tamonidan irodaviy sifatlarini o'rganishda jarayonni har xil tushunishning sababi shundaki, ular irodaviy sifatlarini o'rganish chog'ida uni tashkil etuvchi turli elementlariga har xil pozitsiyadan yondashishidir. Har qanday sifat, shu hisobdan irodaviy sifatga ham fenotip xarakteridan kelib chiqib munosabat bildiramiz. Albatta, bu jarayonda tug'ma va orttirilgan sifatlar o'zaro qo'shib ketgan bo'lishi mumkin. Tug'ma komponentlar sifatida muayyan nishonalar (ayniqsa nerv sistemasi xususiyatlarining tipologiyasi), orttirilgan sifatlariga ontogenezda o'zlashtirilgan xususiyatlar – insonning tajribasi, odamning o'zini o'zi kuchaytirish maqsadida orttirilgan bilimlari va malakalari, shakllangan motivlari, qiyinchiliklar oldida qo'rqmaslikka oid ustanovkalari asosida har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish odatlari shular jumlasidandir. Albatta, hayotda har bir irodaviy sifatni namoyon qilish muayyan komponentning qanchalik shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

Psixolog V. K. Kalin [6] aytganidek, iroda muammosi bilan qancha tadqiqotchi shug'ullangan bo'lsa, ularning shuncha tasnifi (klassifikatsiyasi) mavjud. Masalan, F. N. Gonobolin irodaviy sifatlarini 2 guruhga bo'lgan. U avvalo irodaviy sifatlarini faolligiga va psixik jarayonlar hamda keraksiz harakatlarni to'xtatish xarakteriga qarab tasniflagan. Birinchi guruhga uzil-kesillik, jasurlik, tirishqoqlik va mustaqillikni kiritgan; ikkinchi guruh sifatlariga matonatlilik, bardoshlilik, chidamlilik, intizomlilik, uyushqoqlik, tartiblilikni kiritgan. F.N.Gonobolin qo'zg'alish va tormozlanish

jarayonlarining ustunligiga qarab irodaviy sifatlarni 2 guruhga bo'lish imkonsizligini ham ta'kidlagan. Ba'zan hayotda bir harakatni to'xtatib, ikkinchisini faollashtirish mumkin. Shu boisdan intizomlilik tartiblilikdan farq qiladi [2, – 124 b.].

V.I.Selivanovesa irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi qo'z g'alish va tormozlanish jarayonlariga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Shu bois u irodaviy sifatlarni faolligiga qarab da'vat qiladigan, kuchaytiradigan va tezlashtiradigan xillarga ajratadi. Birinchi guruhga u tashabbuskorlik, uzil-kesillik, jasurlik, g'ayratlilik, botirlikni; ikkinchi guruhga matonatlilik, toqatlilik, chidamlilikni, uchinchi guruhga ijtimoiy an'analar ta'sirida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy sifatlarni kiritgan [8, - 132-b.].

V.K.Kalin irodaviy sifatlarni tasniflashda irodaviy regulyatsiyaning funksiyasidan kelib chiqib, bazal (birlamchi) va sistemali (ikkilamchi)ga ajratgan. Birinchi guruhga u g'ayratlilik, chidamlilik, matonatlilik va jasurlikni kiritgan. Ikkinchi guruhga tirishqoqlik, uyushqoqlik, intizomlilik, sobit qadamlilikni kiritgan[6, - 47-b.].

E.P.II'in ham o'zicha irodaviy sifatlarni tasniflagan va uni ikki sinfga ajratgan: shaxsiy irodaviy (“sodda”) va axloqiy-irodaviy (“murakkab”). O'z navbatida shaxsiy irodaviy sifatlarni yana ikkiga ajratgan: Birinchi guruhga sobitqadamlilik, chidamlilik, qat'iyilik, tirishqoqlikni; ikkinchi guruhga – jasurlik, matonatlilik va uzil-kesillilikni kiritgan[5, 172-b.].

Demak, insonning real irodaviy xulq-atvori nafaqat irodaviy, balki axloqiy sifatlarning birlashishidan tarkib topadi. Shuning uchun insonning xulq-atvori tavsiflanganda shunga e'tibor qaratish kerakki, bu jarayonda sintetik (ikkilamchi) sifatlarni namoyon bo'ladiki, ularni aynan irodaviy sifatlardan deb atash qiyin. Masalan, mustaqillik, prinsipiiallik, mardlik va boshqalar. Shu bois mustaqillik, tashabbuskorlik, intizomlilik, uyushqoqlik, g'ayratlilik –axloqiy-irodaviy sifatlardan deyiladi.

#### Adabiyotlar

1. Высоцкий А.И. Волевая активность школьников и методы ее изучения. - Челябинск, ЧГПИ, 1979. – 69 с.
2. Гонаболин Ф.Н. Психология. Учебное пособие. –М.: Просвещение, 1973. – 178 с.
3. Иванников В.А. К сущности волевого поведения // Психологический журнал. 1985, № 3. – С. 46-50.
4. Иванников В.А., Эйдман Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки // Психологический журнал, 1990, № 3. – С. 39-44.
5. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2011. – 368 с.
6. Калинин В.К. Классификация волевых качеств // Эмоционально-волевая регуляция поведения и деятельности. - Симферополь, 1983. – С. 112-121.
7. Селиванов В.И. Психология волевой активности: Лекции по спецкурсу. – Рязань: Рязан. Гос. пед. ин-т, 1974. – 150 с.
8. Селиванов В.И. Избранные психологические труды. - Рязань, Рязан. ГПИ, 1992. – 576 с.
9. Смирнов Б.Н. Воля // Психология. - М.: Просвещение, 1984. - 205 с.
10. Xayriev I. Irodaviy sifatlardan tadqiqoti. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013. – 106 b.

UDK: 15 (09)

#### JAMOATCHILIK NAZORATINING SOTSIAL-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

F.X.Kuchkarova

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlarda, ularning hayotga, qadriyatlarga, kasb-kori, oilasi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida milliy istiqbol mafkurasining asosiy mazmun va mohiyati aks ettirilgan. Shuningdek, ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, munosabat, axloq, axloqiy qadriyat, ijtimoiy qadriyatlar, tasavvur, e'tiqod, motivatsiya.

**Социально-психологические механизмы общественного контроля**

**Аннотация.** В этой статье раскрыты особенности национальной независимой идеологии в изменениях психологии граждан, их жизни, ценности и отношение к близким. А также обобщены социализация и процесс воспитания.

**Ключевые слова:** культура, отношение, мораль, моральная ценность, социальная ценность, воображение, вера, мотивация.

**Socio-psychological mechanisms of public control**

**Abstract.** This article is about changes in citizens' psychology, their lives, values, professions and attitudes to relatives due to national independence ideology. Sociality and proves of upbringing specially are generalized in it.

**Keywords:** culture, attitude, moral, moral value, social values, imagination, belief, motivation.

Yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlarda, ularning hayotga, qadriyatlariga, kasb-kori, oilasi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida tobora milliy istiqlol mafkurasining asosiy mazmun va mohiyati aks etmoqda.

Biz qurayotgan fuqarolik jamiyatida ijtimoiy norma, nazorat va ijtimoiy fikrning o'z o'rni va ahamiyati bor.

Jamoatchilik nazorati tushunchasi mazmun nuqtayi nazardan "jamoat", "jamoatchilik", "nazorat" so'zlarining mantiqiy maqsadli uyg'unlashuvi mahsulidir. Hozir va o'tmishda, vatanimiz yoxud xorijiy mamalakatlar tadqiqotlari bu terminlar mazmuniga turli talqin berib, ularga maqsaddan kelib chiqadigan ma'no yuklatib kelingan. Xususan, aksariyat tadqiqotlarda jamoatchilik nazoratining tarkibiy qismi bo'lgan "nazorat" tushunchasi "tasavvur", "muhokama", "qarashlar", "mulohazalar", "ishonch", "e'tiqod", "lafz", "fikr bildirish", "plyuralizm" va hokazo terminlarga sinonim tushuncha sifatida ham talqin etiladi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq – ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odanning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq – shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar – normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot, faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtayi nazaridan turlicha subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik fikridan kelib chiqadi.

Jamoatchilik fikri – xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir (Gegel), jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy bo‘lmagan narsalar chatishib ketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo‘lib kelgan.

Jamoatchilik fikri atamasi inglizcha “publik opinioh” so‘z birikmalaridan olingan bo‘lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo‘llanilgan. Keyinchalik boshqa mamlakatlarga o‘tib, XVIII asr oxiridan boshlab keng tarqalgan. “Jamoatchilik” tushunchasi eng qadimgi davrlarda, xususan, kuhna Ellada va Rim davlatlari siyosatida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, unga xalq fikri nuqtayi nazaridan qarab kelingan.

Movarounnahrning ko‘p yillik tarixida jamoatchilik termini muqaddas tushunchalardan sanalib, shaxs va jamoa munosabatlarida birlamchi o‘rin tutib kelgan. U shaxs tug‘ilganidan boshlab butun hayoti davomida muayyan mayoq vazifasini o‘tab, tartib qoidalar, tuzuklar, qonunlar, urf-odatlar va an‘analari tarzida amal qilib kishilarning xatti-harakatlari, uy-fikrlari, orzu va rejalarini muayyan maqsadlar sari yo‘naltirib kelgan.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning sotsial psixologiya fani uchun zaruriy manba hisoblanuvchi quyidagi asari va fikrlari oradan ko‘p asrlar o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. 37 mustaqil bobdan iborat «Kitob aro ahl al madaniya al fozila» («Fozil shahar aholisining fikrlari») nomli fundamental asarda shunday fikrlar bor:

Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-baravar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya‘ni podshoh) bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzat paydo bo‘ladi.

Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar, hokimi mutlaq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan mudofaa qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, hatto hammaning manfaatini o‘zlarining manfaatlaridan ortiq ko‘radilar, umumning manfaati uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan kechadilar, xalq manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-quvvat va boyliklarini ayamaydilar.

Forobiy fikrini davom ettirar ekan, ijtimoiy hayotdagi salbiy holatlarni tahlil qilib beradi:

Ammo, ba‘zi shahar (yoki mamlakat)lar bo‘ladiki, ularda butun xalqning fikri-zikri, aql-idroki boylik to‘plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo‘ladi. Ulardan chiqqan rahbarlar ham rahbarlikni mol-dunyoni ko‘paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta-kech mol-dunyo to‘plash harakatida bo‘ladilar. Bunday rahbarlarning qo‘l ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, nizo-janjallar paydo bo‘ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo‘lgan avlod tug‘iladi.

Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi.

Jamoatchilik nazorati kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan e‘tiroziy yoxud e‘tirofiy munosabatlari, taklif va istaklari yig‘indisidir.

Jamoatchilik nazorati mohiyatini umumiy tarzda va to‘g‘ri baholashda amerikalik sotsiolog U. Lipmon nuqtayi nazari e‘tiborga loyiqdir. Jamoatchilik nazorati deb ta‘kidlaydi u, kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir.

Shunday qilib, jamoatchilik nazorati ijtimoiy ongning axloq, siyosat, san‘at, din singari shakllardagi ma‘lum holati va ayni chog‘da mazkur sohalarida uning nechog‘li namoyon bo‘lish mezonini hamdir.

XXI asr bo‘sag‘acida jamoatchilik nazoratining yuzaga kelishi, shakllanishi va amal qilishi jarayonlarida hamda uning ta‘sir ko‘lami kengayishida ilmiy bilimlar ishtiroki har tomonlama orta boshladi. Bu narsa xalqaro “Ekosan”, “Grinpis” singari uyushmalar faoliyatlarida ekomuhitni saqlash borasida amalga oshirilayotgan xalqaro dasturlar, yadro quroli sinovlarining tabiiy muhitga ko‘rsatayotgan zararlarni asoslab ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar, planetamiz imkoniyatlari va resurslaridan xo‘jasizlarcha foydalanishga qarshi harakatlarida yaqqol ifodasini topmoqda.

Jamoatchilik nazorati quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1. Direktiv, ya‘ni qarorlar qabul qilishda jamoatchilikning keng ishtiroki.

2. Konsultativ – qarorlarni hayotga tadbiiq etishda, hukm chiqarishda keng jamoatchilik bilan maslahatlashishi.
3. Davlat va nodavlat tashkilotlari ishi ustidan nazorat o‘rnatishda.
4. Ekspressiv – ya’ni favqulodda hodisalarning oldini olish va bartaraf etishda.
5. Konstruktiv – subeyktlarning ijtimoiy munosabatlari va jarayonlarini o‘ziga xos programmalashtirish.
6. Regulyativ (boshqaruv).
7. Baholash.
8. Pozitiv (ijobiy).
9. Negativ (salbiy) funksiyalarni bajaradi.

Jamoatchilik nazoratining ijtimoiy ahamiyati: tarbiyalash; rag‘batlantirish; fikr bildirish; maslahatdan iborat.

Ifodalanish shakliga ko‘ra jamoatchilik nazorati ikki – pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) funksiyalarni bajaradi. Jamoatchilik o‘z fikrini doimo qo‘llab-quvvatlash va, aksincha, inkor etish, qoralash ko‘rinishida bildirishi mumkin.

Mamlakatning rivojlanishi, dunyoda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi uchun jamoatchilik nazoratining islohotlarga munosabati, ularning boshqaruvidagi ishtiroki, hukumat qarorlarini nazorat qilib borishi juda muhimdir.

Jamoatchilik nazoratiga sabab bo‘ladigan birinchi omil – manfaatdir.

Jamoatchilik nazoratiga sabab bo‘ladigan ikkinchi omil bu – munozaralilikdir. Boshqacha aytganda, u yoki bu darajada munozarali, bahsli holatga ega bo‘lgan hodisalargina jamoatchilik nazorati predmetiga aylanishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini uyg‘otadigan uchinchi omil – malakalilikdir. Ya’ni, jamoatchilik bilishi va tushunishi mumkin bo‘lgan hodisalargina jamoatchilikning obyekti bo‘lishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati turli darajaga ega bo‘lib, bu individual, kollektiv va ijtimoiy fikr ko‘rinishida bo‘ladi va ular o‘rtasida doimiy aloqa mavjud.

Jamoatchilik nazorati ko‘p jihatli hodisadir. Uning ratsional – aqliy (bilimlar), psixologik (ijtimoiy-ruhiy) kechinmalar, aksiologik (qadriyatlar) va boshqa jihatlari bo‘lib, birgalikda jamoatchilik fikrining tez tarqaluvchan va ekstentiv xususiyatini ta’minlaydi.

Jamoat nazorati shaxsning to‘la ijtimoiylashuvi natijasidir. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog‘cha, maktab, maxsus ta’lim o‘choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o‘ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Ya’ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta’sirida takomillashib boradi. Bizning sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi – ijtimoiylashtiruvchi rol o‘ynaydi.

1999-yil 14-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga muvofiq:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalar faoliyati erkinlashtirildi.
2. Mahallalar hokimiyat tizimidan chiqarildi.
3. Qator imtiyozlar berildi.
4. Boqimandalik kayfiyatidan ozod etildi.
5. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari qadam tashlandi.

Natijada mahallalar adolatli, demokratik jamiyatning negiziga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston hududida mahallalarni 4 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Shaharlardagi an’anaviy mahallalar.
2. Shaharalardagi kvartal mahallalar.
3. Shaharchalardagi mahallalar.
4. Qishloq mahallalari.

Mahallalar ijtimoiy hayotda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Oila muhofazasi.
2. Obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va tozalik.
3. Ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish.

4.Ma'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish.

5.Siyosiy faollikni oshirish va h.k.

Hukumatimiz tomonidan mahalla masalasiga e'tibor qaratilayotganligining sabablaridan biri – unda ijtimoiy aloqadorlikni shakllantiruvchi va kishilarni ijtimoiy guruh sifatida birlashtiruvchi jarayonlarning mavjudligidir. Bu jarayonlar: a) ildizlar; b) munosabatlar; v) tashabbuskorlik. Bu holatlar kishilarni yanada jipslashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi asosiy kuch-qudratining manbai – bu xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolganligidir.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim muassasalari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, biz maktabni bola ta'lim oladigan, bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu jarayonda o'qituvchining ma'naviy, siyosiy, shaxsiy, kasbiy qobiliyatlari, mavzuga subyektiv munosabati, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtayi nazardan o'quvchilar didi va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfdagi shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhitda shakllanib kelayotgan shaxs jamoatchilik nazoratida faol ishtirok etish tajribasini egallaydi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti – bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson va jamoatchilik taqdirida katta rol o'ynaydi.

Shaxs ijtimoiylashuvi sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomondan bo'lib, bir tomondan, shaxs faol ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj hamda shaxs bo'lishga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Shaxs ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) yoki shakllanishining o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabhasi, sohasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarini, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi faolligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlilik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadi, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fikr erkinligi qonun yo'li bilan asoslangan. Shaxs mamlakatda bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarga nisbatan o'z fikrini erkin ifoda

etish va ularda faol ishtirok etishi zarur. Aks holda taraqqiyot bir joyda to'xtab qolishi, hatto orqaga ketishi ham mumkin.

Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarning huquq va mavqiyalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar

1. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. –Toshkent: TDPU, 2004. –82 b.
2. Bekmurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: 2008. –254b.
3. Alikoriyev N.S. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent: 1999. -235b.
4. Qayumov A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. – Toshkent: Yosh gvardiya. 1987.–238 b.
5. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: 2001.-176b.
6. www.ziyounet.uz

UDK: 15:1(09)

#### ISTE'MOLCHINI IDROK ETISHDA PSIXOLOGIK KOMPONENTLAR

M.I.Salaxutdinova

*Samarqand davlat universiteti*  
*salaxiddinovamusharraf@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada mahsulot brendini yaratish va boshqarishda shaxs psixologiyasini o'rganish, insonni iste'molchi sifatida idrok etish metodlari yoritiladi. Iste'molchi psixologiyasini to'g'ri idrok etish algoritmi taklif etiladi.

**Tayanch so'zlar:** Iste'molchi, brend, tovar, psixologik holatlar, motivlar, idrok, shaxs, diqqat, hissiyotlar, ehtiyojlar, sezgilar.

#### Психологические компоненты в восприятии потребителя

**Аннотация.** Психологические компоненты в восприятии потребителя. В статье исследуются методы восприятия психологических состояний личности в создании и управлении брендом. Предлагается алгоритм адекватного восприятия психологии потребителя.

**Ключевые слова:** потребитель, бренд, товар, психологические состояния, мотивы, восприятие, личность, внимание, эмоции, потребности, ощущения.

#### Psychological components in consumer perception

**Abstract.** The article examines the methods of perception of psychological states of the individual in the creation and management of the brand. An algorithm for an adequate perception of the psychology of the consumer is proposed.

**Keywords:** consumer, brand, product, psychological states, motives, perception, personality, attention, emotions, needs, sensations.

**Kirish.** Odamlarni iste'molchi sifatida o'rganish dastlab AQSH da 1960 yillardan boshlandi. Bunga sabab marketologlarning bixeviorizm va sotsiologiya ilmini o'rganish orqali u yoki bu tovarning sotilishida yoki iste'molchi tomonidan xarid kilinishga qaror qilinishidagi xulq-atvorning maxsus determinantlarini bilishga ehtiyojlarining hosil bo'lishi edi.

1896 yilda reklama muvaffaqiyatini baholash uchun qabul qilingan mashhur formula – AIDA (ingliz tilidan: attention, interest, desire, action – diqqat, qiziqish, istak, faollik) ham inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutgan. Bu formula iste'molchi psixologiyasini idrok etishda ham yz ahamiyatiga ega. Uning asosiy maqsadi iste'molchida tovarga yoki biror xizmat turiga nisbatan diqqatni jalb etish, qiziqish va istak hosil qilib, unda shu tovarni sotib olish faolligini vujudga keltirishdir.

Bu formula natijaga erishishni emas, faqatgina natijaga erishish uchun psixologik holatlarni e'tiborda tutishni sanab ytadi, xolos. Sababi, hali u vaqtda, ya'ni 1896 yillarda reklama, marketing,

brending kabi tushunchalar b̄ylmagan. Hozirgi kunda bu sohada katta yuz ̄zgarishlar yuz bergan b̄ylib, iste'molchini jalb etish uchun psixologik, sotsiologik, dizaynerlik va iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilgan.

Iste'molchi psixologiyasini ̄rganishda quyidagi psixik jarayonlar asosiy hisoblanadi:

- idrok (diqqat va xotira);
- hissiyotlar va emotsiya;
- ehtiyojlar;
- motivlar;
- qadriyatlar.

Metodologik asos. Insonda bu jarayonlarni boshqarish imkoniga b̄ylish maqsadida butun dunyoda korporatsiyalar tomonidan milliardlab mablag'lar sarflanadi.

Masalan, maqsadli auditoriya ipoteka orqali uy tanlash va sotib oluvchilardan iborat bo'lganida yuqorida sanab o'tilgan psixik jarayonlar va holatlar qanday ta'sir ko'rsatadi? Bu iste'molchilarning nafaqat moddiy, balki vaqt va boshqa narsalarga ham ehtiyojini hosil qiladi.

1) Idrok. Maqsadli auditoriyaning diqqatini ko'chmas mulk sotilishiga, bu ularning ehtiyojlari, motivlari va qadriyatlariga mosligiga diqqatni tortish.

2) Emotsiya va hissiyotlar. Bunda o'rta sinf vakillari (ipotekaga uy oluvchilar) nazarda tutilib, ularning iste'molchi sifatidagi faolligi emotsial emas, balki ratsional – o'ylab, tekshirib qilingan qarordir. Biroq, brendni idrok etishda emotsiyalar va hissiyotlar ko'pincha etakchi o'rin tutadi. Demak, bu brend iste'molchilarda ishonchlilik, aldanmaslik, himoyalanganlik hissini hosil qilishi kerak.

3) Ehtiyojlar va motivatsiya. Bu xaridning asosiy motivi – alohida yashash joyiga ega bo'lish, shuningdek, uni kengaytirish, yashash sharoitlarini yaxshilashdan iborat. Umuman, uy xarid qilish bir nechta turdagi ehtiyojlar qondirilishiga sabab bo'ladi: birinchi navbatda himoyaga ehtiyoj; shuningdek, shaxsiy uy-joyga ega bo'lish bilvosita ehtiyojlarni qondiradi. Bular naslni davom ettirish, muhabbat va do'stlik, tan olinish va izzat-hurmatga ehtiyoj.

4) Qadriyatlar. Maqsadli auditoriyaning asosiy qadriyatlari:

- o'z-o'ziga hurmat;
- oilaviy qadriyatlari, farzandlar;
- moddiy farovonlik;
- jamiyatda o'z maqomiga erishish;
- o'z-o'zini namoyon etish (erkinlik, ijodkorlik);
- hayotdan bahra olish (bo'sh vaqtini halovat bilan o'tkazish, sayohat).

5) Tasavvur. Uyga ega bo'lishga nisbatan maqsadli auditoriyaning ideal uy haqidagi tasavvurlari biz tomondan o'rganilib chiqildi. Aniqlanishicha, mantiqan ular uchun mikroventilyasiyalı steklopaket yoki, masalan, regulyasiyalı issiqlik radiatori muhim emas. Inson uchun bu barcha yangi texnologik uskunalar uning yashash muhitini qanchalik yaxshilashi – uyi issiq, xavfsiz, zamonaviy va qulay bo'lishi muhim.

Muhimi shundaki, bu elementlarning har biri tayanch ahamiyatga ega. Masalan, tovar obraziga nisbatan iste'molchining "emotsional torlariga chertish" uchun zaruriy ehtiyojlar va motivlarni faollashtirish, maqsadli auditoriyaning (kimga atalgan mahsulot) asosiy qadriyatlariga tayanish orqali mahsulot taqdimoti va brend nomi yoki logotipi idrok jarayoniga ta'sir etadi. Ko'p hollarda brend tovar haqidagi axborot uning mazmunini buzib idrok etishga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, kuchli musiqa, mashhur, aktyorlar, chiroyli va yorqin obrazlar xotirada saqlab, qanday tovar reklama qilinayotganligi idrok etilmasligi ham mumkin.

Brend-menejmentning iste'molchi psixologiyasini idrok etish uchun qiladigan asosiy vazifasi brend mahsulotning maqsadli auditoriyasi haqida aniq va to'liq ma'lumotlarni aniqlashdir.

Brend-menejment esa bu – mahsulotni sotishga sabab bo'luvchi brendni yaratish va boshqarish jarayonidir. Bu jarayonda asosiy marketingni tashkil etuvchisi sifatida brend g'oyalari, bozor tahlili, strategiyani ishlab chiqish va reklama kompaniyalarini tashkil etish hisoblanadi.

Brend yoki brend – mahsulot yoki xizmat to'g'risida iste'molchi ongidagi tasavvur, fikr, assotsiatsiyalar, hissiyotlar, qadriyatlar xarakteristikasi majmui. Brend faqatgina bir guruh iste'molchilarga mo'ljallangan tovar bo'ladi. Tanlangan auditoriyaning jins, yosh, o'qimishlilik, ijtimoiy maqom, reklamaga qiziqishlari xususiyatlari aniqlangandan keyin ularning psixologik qonuniyatlarini tizimlashtirish va keyinchalik shu ma'lumotlar asosida ish olib borish mumkin bo'ladi.



Brendning maqsadli auditoriyasini aniqlash vazifasi iqtisodiyot, sotsiologiya va psixologiya kesimida hal etiladigan masalaga kiradi. Biroq, bu vazifani hal etish metodologiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, u sotsiologik metodlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Bular – kuzatish, og'zaki va yozma fikrlarning kontent tahlili, anketa so'rovnomalari, keyslar va boshqalardan iborat.

Hatto, maqsadli auditoriya xususiyatlarini to'liq aniqlab, bu auditoriyaning psixologik qonuniyatlarini o'rgangan holda ham, brend-menejer brend elementlarining vizual va verbal tavsifini yaratganda xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Anketa yoki fokus-guruh bilan ishlash ko'pincha xato natija berishi mumkin. Masalan, vizual imidjlar bo'yicha test o'tkazilganida, baxtli oila tasviri (ona, ota va bola) fokus-guruhning bir ishtirokchisi tomonidan ma'qullanmagan. Uning fikri hammani hayratda qoldirgan: "Bu erda uch kishidan iborat baxtli oila tasvirlangan. Bu to'liq oilaga ega bo'lmagan kishilarning manfaatlarini poymol qiladi. Nega men o'zimni baxtli emas deb his etishim kerak?"[4.127].

Tayyor mahsulotni bu kabi sinovdan o'tkazish natijasida taqdimot muvaffaqiyatsiz deb topilsa, brendni rivojlantirish uchun yangi tamoyil yaratishda bu metod qo'shimcha xarajatga olib keladi. Biroq, bu xarajatlar iste'molchida mahsulot haqida noto'g'ri tasavvur va hissiyot hosil bo'lishining hamda kompaniya nufuzi tushishi xavfining oldini oladi.

SHuning uchun, iste'molchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va bu ma'lumotlarni brendlarni yaratish va boshqarishda qo'llashda quyidagi standart algoritm taklif etiladi:

1. Loyiha maqsadini aniqlash.
2. Sotsiologik metodlar yordamida loyihaning maqsadli auditoriyasini sotsiodemografik omillar terminlarida aniqlash – jins, yosh, ma'lumotlilik, kasb, mashg'ulot turi, oilaviy ahvoli, oila a'zolariga qarab daromadi va h.k.
3. O'ziga xos tomonlarini ochib berish (ma'lumotlarni to'ldirish maqsadida psixologik metodlarga murojaat qilish mumkin):
  - idrokni (diqqatni va xotirani);
  - emotsiyalar va hissiyotni;
  - ehtiyoj va motivatsiyani;
  - qadriyatlarini;
  - loyiha maqsadli auditoriyasiga xos tasavvurlarni.
4. O'xshash (identik) xarakteristikalarini qiyoslash. To'liq mos kelganda bosh brend va qisman o'xshashlik bo'lganida yangi brendlarni yaratish uchun.
5. 4 bosqichda aniqlangan tavsiflarga tayanib, loyihaning aniq vazifalariga urg'u bergan holda – mohiyat, qadriyatlar va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, brend o'xshashligi (identikligi) ko'riladi.
6. Loyihaning noyob vazifalari va brend o'xshashligiga asoslanib, brendni qisman o'zgartirish ta'riflanadi.
7. Anketalashtirish, fokus-guruhlar va h.k.lar yordamida olingan natijalar tekshiriladi.

Bu metodika iste'molchi psixologiyasini idrok qilish jarayonida xatolar ko'lamini va sonini qisqartiradi. Zamonaviy brend-menejmentda qo'llanilayotgan algoritmlardan farqli tarzda, buning farqi – psixologik tarkibining sotsiodemografik ma'lumotlar bilan boyitilganidir.

Bunday algoritmi qo'llash, shubhasiz, har qanday brendni yaratishda yoki rebrandingni rejalashtirishda foydali bo'ladi. Ba'zan, brandingda a'lo natijaga erishish intuitiv yo'l bilan ham amalga oshadi. Biroq, yuqoridagi metodika iste'molchi psixologiyasini to'g'ri idrok etishda va brendni boshqarishda aniq va ishonchli natijalarga xizmat qiladi.

Iste'molchi psixologiyasiga ta'sir o'tkazishning keyingi usuli – bu axborotni vizual, tovushli va boshqa ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan maxsus "I-stop" uslubi, bu kontent bilan ma'lumotlarni olish uchun maxsus harakatlar bilan shug'ullanish.

O'z-o'zini anglash – shaxsning ichki tuzilishi, faol xotiraning bir qismi sifatida o'zini kundalik hayotda boshqarishni o'z ichiga oladi. Asosiy sabab – obrazning uyg'unligi uchun ideal, real, vaziyatli, umumlashtirilgan "I" ga nisbatan o'z nuqtai nazarini kengaytirish. Bundan tashqari, amerikalik tadqiqotchi M.K. Malxotraning fikriga ko'ra, faol hayot kechirish, ob'ektning o'zini tushunish jarayonida tovarlar uyg'unlikni saqlash va noqulaylikni bartaraf etish uchun yaratilgan obrazga muayyan hissa qo'shadi, inson o'zining "ideal"ini yaratadi. O'z-o'zini anglashning bir qator tushunchalari mavjud:

- odamning dunyoqarashi, o'ziga bo'lgan hurmati va o'ziga xos qiyofasi bilan aniqlangan "men" tushunchasi;

- mukammal taqdimot (bu motiv ko'pincha reklamada foydalaniladi);

- iste'molchi o'zini qanday ko'rishni istayotganini tushuntirib beradigan taqdimot.

Xulosa. O'z-yuzini idrok qilish odatda boshqalar bizni qanday idrok qilganiga qarama-qarshi b'yladi. Masalan, oq soch rahbarlik, hukmronlik belgisi sifatida idrok etilishi, aksincha, o'z qarindoshlarini idrok qilishda donolik va vakolatni anglatishi mumkin. Mahsulotlar faqat iste'molchi tomonidan narxlanishiga oid ma'lumotlarni taqdim etmaydi, balki uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tovar imidji – bu individual va o'ziga xos xususiyatlar haqidagi tushunchalar, iste'molchilarning xohishlari, o'ziga xos xususiyatlari va ulardan foydalanishni belgilaydi.

Iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish uchun biz rossiyalik psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi s'rov metodikasini taklif qilamiz. (1-ilova).

Xulosa shuki, iste'molchini t'g'ri idrok etish, uning xulq-atvorini baholash, dasturlash va nazorat qilish marketingning eng muhim funksiyasidir. Iste'molchilarga mahsulot taklif qilish b'ycha yangi imkoniyatlar ochish, iste'molchi talablarini shakllantirish imkoniyati, ular uchun imtiyozlar yaratilishi samarali marketingning asosiy muammosidir.

1-ilova.

Iste'molchi psixologiyasini y'rganish testi:

1. Iste'molchi xulq-atvorining ichki omillari:
  - a) motivatsiya; hissiyotlar, hayot tarzi;
  - b) bilim va munosabat;
  - c) shaxsiy xususiyatlar, namunaviy guruhlar;
  - d) hislar, o'rganish, xotira;
  - e) millatning madaniyati, submadaniyat.
2. Tovarlarni xaridorning ishlab chiqarish maqsadidagi xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadigan omillar:
  - a) atrof-muhit; d) pedagogik;
  - b) individual; e) tashkiliy;
  - c) demografik; e) shaxslararo.
3. Foizlarni ko'rsatadigan va daromad va ma'lum bir mahsulot yoki xizmatga ega bo'lgan xaridorlar to'plami – bozor:
  - a) iqtisodiy jihatdan qulay; c) maqsad;
  - b) malakali; g) o'zlashtirildi.
4. Ma'lum bir mahsulot yoki xizmat bilan bog'liq ravishda daromad olish, foydalanish huquqi va foydalanish huquqiga ega bo'lgan xaridorlar to'plami – bozor:
  - a) iqtisodiy jihatdan qulay; c) maqsad;
  - b) malakali; g) o'zlashtirildi.
5. Kompaniyaning o'z harakatlarini boshqarishga qaror qilgan malakali bozorning bir qismi – bozor:
  - a) maqsad; c) iqtisodiy jihatdan qulay;
  - b) malakali; g) o'zlashtirildi.
6. Ma'lum bir mahsulotni yoki xizmatni sotib olgan xaridorlar to'plami – bozor:
  - a) maqsad; c) iqtisodiy jihatdan qulay;
  - b) malakali; g) o'zlashtirildi.
7. Motivatsiya, fikr va qarashlar iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar guruhiga kiradi:
  - a) psixologik; v) ijtimoiy;
  - b) madaniy; g) iqtisodiy.
8. Savdogar uchun iste'molchilarning xulq-atvori haqida qanday bilimlar zarur:
  - a) bozor segmentatsiyasi;
  - b) marketing xizmatining tarkibini ishlab chiqish;
  - c) bozor imkoniyatlarini tahlil qilish;
  - d) korporativ madaniyatni shakllantirish;
  - e) raqobatchilarning fayllarini tuzish.
9. Iste'molni sotib olish xatti-ta'siriga ta'sir qiluvchi madaniy omillar quyidagilardir:

- a) ijtimoiy sinf; d) submadaniyat;  
b) namunaviy guruh; d) qarashlar va fikrlar.  
c) shtorm;
10. Submadaniyat – bu odamlar guruhi:  
a) taxminan bir xil manfaatlarga ega;  
b) muayyan qadriyatlarga rioya qilish;  
v) muayyan turmush tarzi bilan tavsiflanadi;  
g) musiqa, kiyim-kechak, rasm va hokazolarning muayyan an'analarini qo'llab-quvvatlash.
11. Bir xil ijtimoiy mavqei, xulq-atvori va qiymat tizimiga ega bo'lgan barqaror va tartibli jamiyat guruhi:  
a) submadaniyat; d) kerakli jamoa;  
b) ijtimoiy sinf; e) xodimlar.  
c) fokus guruhi;
12. Mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar quyidagilardir:  
a) oila; g) bir guruh;  
b) sotib olishning roli; e) shtrom;  
v) oilaviy hayot aylanish bosqichi; e) iqtisodiy ahvol.
13. Mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi shaxsiy omillar quyidagilardir:  
a) iqtisodiy vaziyat; d) submadaniyat;  
b) o'zini o'zi hurmat qilish; e) turmush tarzi;  
c) status; e) madaniyat.
14. Atrof-muhit omillariga doimiy va takrorlanuvchi insoniy javoblarni aniqlaydigan noyob psixologik xususiyatlar to'plami:  
a) turmush tarzi; g) o'z-o'zini anglash;  
b) shaxsning turi; e) uslub.  
v) rol.
15. SHaxsning psixologik omillari:  
a) madaniy; v) shaxsiy;  
b) ijtimoiy; g) psixologik.
16. Iste'molchi keng tarqatiladigan va arzon bo'lgan mahsulotlarga imtiyoz beradi tamoyili nimaga asoslangan:  
a) mahsulotni takomillashtirish;  
b) marketing bo'yicha tahlil;  
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;  
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;  
e) ishlab chiqarishni takomillashtirish.
17. Iste'molchining tovarlarga ustunlik berishini bildirishiga asoslanib, sifati, xususiyatlari doimiy ravishda takomillashtirilishi konsepsiyasiga asosan:  
a) mahsulotni takomillashtirish;  
b) marketing bo'yicha marketing;  
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;  
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;  
e) marketing.
18. Iste'molchilar kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni faol ravishda xarid qilmasligiga asoslanadigan, tovarni bozorga kengaytirish va keng miqyosda sotish bo'yicha maxsus choralar ko'rish tamoyili:  
a) mahsulotni takomillashtirish;  
b) marketing bo'yicha marketing;  
c) ijtimoiy va axloqiy marketing;  
d) tijorat harakatlarining kuchayishi;  
e) marketing.
19. Iste'molchilar shu kabi mahsulotni iste'mol qilishga ko'proq mos kelishi, ammo ma'lum bo'lgan mahsulotlardan farqli o'laroq mahsulotlarni sotib olishdan ko'ra boshqa turdagi tovarlarga o'tishga moyilligini aniqlash nazariyasi:  
a) Freydning motivatsiyasi; d) o'rganish;

- b) o'z-o'zini anglash; e) Maslouning motivatsiyasi.  
c) tanlangan e'tibor;
20. Televizor sotib olayotganda xaridor quyidagilarni boshdan kechiradi:  
a) tovar tanlash va brendni tanlash bo'yicha referent guruhning kuchli ta'siri;  
b) tovarni tanlash bo'yicha referent guruhning zaif ta'siri va tovar belgisini tanlashga kuchli ta'sir;  
c) tovarni tanlash bo'yicha referent guruhning kuchli ta'siri va tovar belgisini tanlashga guruhning zaif ta'siri;  
d) tovar tanlash va brend tanlashga mos yozuvlar guruhining zaif ta'siri;  
e) Malumot guruhi tovar va savdo belgilarini tanlashga ta'sir qilmaydi.
21. Iste'molchi xarid qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilish jarayonining barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi:  
a) har doim;  
b) faqat xizmatlarni sotib olishda;  
v) unga yangi mahsulotni sotib olishda;  
d) unga yangi mahsulotni sotib olishda;  
e) mahsulotni yangi joyga sotib olishda;  
e) boshqa brendning o'xshash mahsulotini sotib olishda.
22. Buyurtma qilish istagi omili:  
a) boshqa odamlar munosabati;  
b) o'quv jarayoni;  
v) kutilmagan holatlar;  
g) o'z-o'zini anglash.
23. Kompaniyani mahsulotning texnik xususiyatlari va xarid jarayonini belgilaydigan bosqichi:  
a) xarajatlar tahlili;  
b) ehtiyojning tavsifi;  
c) mahsulotning xususiyatlarini baholash;  
d) ehtiyojning xabardorligi;  
e) takliflar bo'yicha so'rov.
24. Xaridor va sotuvchi yrtasida xaridlarni etkazib shartlari o'zgarishi bilan kechuvchi savdo turi:  
a) normal qayta; v) yangi;  
b) o'zgartirilgan qayta; g) kompleks.
25. Biror mahsulot yoki xizmatni sotib olishni taklif etadigan birinchi shaxs ...  
a) tashabbuskor; d) foydalanuvchi;  
b) nufuzli shaxs; e) maslahatchi.  
c) xaridor.

Ijobiy javoblar 50 foizdan oshishi o'tish kysatkichi blyadi.

Xulosa shuki, iste'molchini tyg'ri idrok etish, uning xulq-atvorini baholash, dasturlash va nazorat qilish marketingning eng muhim funksiyasidir. Iste'molchilarga mahsulot taklif qilish byyicha yangi imkoniyatlar ochish, iste'molchi talablarini shakllantirish imkoniyati, ular uchun imtiyozlar yaratilishi samarali marketingning asosiy muammosidir.

#### Adabiyotlar

1. R.Blekuell., P.Miniard, Dj.Endjel. Povedenie potrebiteley. Moskva, 2007. S. 944.
2. Dubrovin I.A. Povedenie potrebiteley. Uchebnoe posobie. Moskva, Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2012. S. 312.
3. Научный сборник //Теория и технологии сферы услуг. Krivova A.V. Psixologiya potrebiteley: vyavlenie osobennostey i ix ispolzovanie v upravlenii brendom. *Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy universitet servisa i ekonomiki (SPb GUSE)*. S.276.
4. Krivova A.V. Psixologiya potrebiteley: vyavlenie osobennostey i ix ispolzovanie v upravlenii brendom. //Теория и технологии сферы услуг. Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy universitet servisa i ekonomiki (SPbGUSE), 2006. 270-str.

UDK-891.709

**AJDODLARIMIZNING TA'LIM OLISH USULLARI  
HAMISHA ZAMONAVIY VA IBRATLIDIR****S. Sultonsaidova***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Hayot shunday tilsimli olamki, unda yuz berayotgan voqea-hodisalar zanjirli bog'lanishda bo'lib, doimo biri ikkinchisining davomidir, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Mabodo, ulardan biri yuzaga chiqa olmay qolsa, u vaqt poylaydi, vaqti-soati kelganda, albatta, yuzaga qalqib chiqadi. Madrasalar haqidagi bilim va ma'lumotlarning yuzaga chiqish vaqti kelganki, Mahkamoy Tursunova tomonidan yaratilgan "Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari" nomli monografiyada o'zining mavjudligidan xabar berib turibdi.

M.Tursunova bu borada qilingan tadqiqotlardan so'ng hali ochilishi zarur bo'lgan qirralarni aniqlab, jamoatchilikka taqdim qilmoqda. Monografiya bilan tanishar ekanmiz, uning naqadar xolis va har tomonlama ilmiy-tahliliy xususiyatga ega ekanligini anglaymiz. Muallifning o'zi ham shunday deydi: "Kitobga kiritilgan ayrim ma'lumotlar ta'lim tizimi tarixida kam o'rganilgan bo'lib, ularga alohida e'tibor qaratiladi hamda ular daliliy misollar bilan boyitildi." Bu fikr monografiyaning butun mazmunidan va tizimidan ufurib turadi.

Monografiya to'rt qismdan ibrat bo'lib, birinchi qism "Madrasalar ta'limi va adabiyot sabog'i" mavzusiga bag'ishlangan. Unda madrasalarda o'qitiladigan adabiyotga u yoki bu darajada aloqasi bo'lgan sohalarga ham to'xtalib o'tiladi. Masalan, sharh, maqomat, hadislar haqida "Sharqda keng tarqalgan maqomatlar... necha asrlardan buyon yoshlarni tarbiyalashda muhim darslik vazifasini bajargan... Maqomat,- deb izoh beradi u,- aslida arabcha so'z bo'lib, daraja, joy ma'nosini bildirsa, asosiy ma'nosi ko'pchilik oldida aytiladigan naql-u rivoyat, hikoyat ma'nolarini anglatadi". Olima har bir fikrini nihoyatda ko'p ilmiy asarlardan olingan faktlar bilan isbotlaydi. Birgina maqomat tushunchasi haqida yaratilgan asarlar haqida 24-25 betlarda Sharqda shu sohada ijod qilgan bir necha allomalar va ularning asarlariga ilova beradi va ularning madrasada o'qitilish xususiyatini hamda ahamiyatini aytib o'tadi. Xususan, u Sa'diy Sheroziyning ijodi "hikmatlar xazinasi" deb nom olganligining sababi sifatida uning Sharqning mashhur madrasalaridan biri "Nizomiya"da tahsil olganligini va u yerni tugatgach, taniqli va mashhur bo'lib ketganligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham har bir odamning ma'naviy va ilmiy saviyasi qanday odamlar davrasida yashashi va kimlar bilan muloqotda bo'lishiga bog'liq. Odatda, o'simlik hamisha yorug'lik va quyoshga qarab bo'y cho'zadi. Shu kabi odamlar ham donishmand va ijodkorlar davrasida ularga qarab o'zlarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Shuning uchun har bir davlat o'z hududida shunday odamlarni qadrlagan. Buning isboti sifatida Sa'diy Sheroziyning ushbu misralari e'tiborlidir...

Nizomiyada maoshim bor edi

Tun-u kun ishim dars-u takror edi

M.Tursunova qanday fikrni aytmasin, uning sababiga to'xtaladi. Albatta, bu uning topilmasi bo'lib, muallifning bu masalani chuqur va har tomonlama o'rganganligini ko'rsatadi. Masalan, Abdulqodir Bedil ijodidagi hamma xususiyatlarni sanar ekan, ularning sababini ham ko'rsatib o'tadi. Xususan, u bunday deydi: "...uning tili go'zal, satrlari teran (ma'noli.-S.S),so'zlari chuqur ma'noli, badiiy san'at usullaridan o'rni bilan keng foydalanganligi va boshqa o'ziga xos jihatlaridir". Shu bois shoir "Abu-l-ma'niy, ya'ni "ma'nolar otasi"nomiga sazovor bo'ldi va h.o'(27-b). Bu fikrlar ifodalangan jummalarning davomi bilan tanishar ekanmiz, muallifning, bir tomondan, sharhlashga tanlab olgan misollarining betakrorligi, ikkinchi tomondan, madrasada o'qitiladigan adabiyot manzaralari, uchinchi tomondan, ijod qilgan shaxslarning qanday xususiyatlarga ega bo'lganligi va ularning asarlari haqida to'liq, qiziqarli ma'lumotlar namoyon bo'ladi..

M.Tursunova o'z kuzatishlari natijasida bilgan rivoyatlarni va qiziq-qiziq hangomalarni monografiyasiga shunday joylashtiradiki, ular uzukka ko'z qo'ygandek o'z o'rnini topadi. Masalan, u Bedil ijodini tasvirlayotganda, shunday rivoyat keltiradi: "Bedilxonlik davralarining birida bir she'riyat muxlisi Bedil qalamiga mansub bir misraning 99 ta ma'nosini sharhlab bergan... Ammo jamoani lol qoldirgan 99 ma'no misraning asl mazmuni hisoblanmagan. Muxlisning tushiga Bedil kirib, uning yuzinchi-asl ma'nosini aytib bergan ekan." Sirdan qaralganda, bu -rivoyat. Ammo uning zamiriga nazar solinsa, bu rivoyat haqiqatga juda yaqindir. Endi tasavvur qilaylik: mana shunday asl

ma'noni topish uchun ...Sharq she'riyatini tushunish, qavat-qavat timsol-u tashbehlarga o'ralgan fikrlarning mag'zini chaqish uchun alohida nazariy tayyorgarlik talab qilinadi..." chunki shoirlar ijodiga xos badiiy mantiq, sirli dunyoning sirlarini idrok qilish olam ajoyibotlarini anglashni o'rgatadi. ho'(29-b). Ma'lum bo'ladiki, bunday sirlarni ochish uchun talaba matnni qayta-qayta o'qishga, izlanishga yo'naltirilgan. Shuningdek, she'riyatning go'zal namunalari bastalangan kuyni tinglab, g'azal ma'nosini yanada chuqurroq anglash imkoniyati yaratilgan. Shu bilan bir qatorda adabiy merosni o'rganish ham lozim bo'lgan. Xullas, ko'rinadiki, ajdodlarimiz har tomonlama kamolga yetgan mutaxassislarni yetishtirishga katta e'tibor berishgan va bunda madrasalarning roli beqiyos bo'lgan.

"Madrasalarda sharhlab o'qish usuli" kitobning ikkinchi qismi bo'lib, unda M.Tursunova madrasalarda o'qish jarayonining bosqichlari, qachon sharhlab o'qishga o'tish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Ilm toliblari savod chiqarishgach, "Haftiyak"ka o'tishadi. So'ngra "Chor kitob"ni o'zlashtirishadi. Bunda yodlash ko'nikmasiga ega bo'lishadi va "Qur'on" tahsiliga o'tishadi. Muallif qaysi fandan keyin nima o'qitilishi haqida ham to'xtalib, zamonaviy maktablarimizda adabiyot o'qitilishi bosqichlariga ijodiy yondashish kerakligiga ishora qiladi. Albatta, "Qur'on" tafsiriga Mahmud Zamaxshariy, at-Termiziy, al-Buxoriy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi benazir ijodkorlarning hissalariga katta bo'lganligini ta'kidlab, ulardan so'ng "Qur'on"ni sharhlash ustalarini sanab o'tadi. Jumladan, Shayx Sa'diy Sheroziy, Farididdin Attor, Alisher Navoiyning sharhlash mahoratini ko'rsatuvchi misollar keltiradi. Shuningdek, Alisher Navoiy Farididdin Attorning "Mantiq-ut-tayr" dostonidagi misralar haqida aytgan fikrini keltirib, bu doston misralarini sharhlash naqadar zavqli ekanini, inson ilmiga ilm qo'shishini ko'rsatadi:

Zavqi ko'p xushhol etar erdi meni.

Sharhi oning lol etar erdi meni.

Ayniqsa, dostonidagi yettinchi vodiy – "Fano" haqida "sharhini tilasang, yuz risola bo'lg'usidir,"- deb yozgan ekanligini ta'kidlaydi olima.

Haqiqatan ham shunday zukko shoir, olim, fozil-u fuzalolarning sharh berish usullari bilan tanishgach, madrasa ilm toliblari qanday mutaxassis bo'lganlarini tasavvur qilish qiyin emas. M.Tursunova sharh berishning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Ma'lum bir matnning kelib chiqish tarixini o'rganish.
2. Uning qaysi sohaga mansub ekanligiga e'tibor berish.
3. Muayyan matnning shu sohaga oid manbalar tarixidagi o'rni.
4. Matnda tilga olingan voqealar, dalillar va shaxslar haqidagi ma'lumotlar.
5. Sharhlovchining muallif ishora etgan ba'zi voqealar va dalillarini keltirish.
6. Muallif jur'at eta olmagan yoki lozim topmagan narsalarni talqin qilish (36-b).

Yuqorida sanab o'tilganlar yaxshi o'zlashtirilsagina, sharhlovchilar u yoki bu matnni madrasa talabalariga to'liq yetkazib berganlar va ularni ilm ahllari tan olganlar.

M.Tursunova "Qur'on"ga sharh bergan allomalarning nomlarini bayon qilar ekan, sharh berish uchun lug'atlar bo'lishi shart ekanligini aytadi va o'sha vaqtlarda tuzilgan lug'atlarning 45 tasi haqida Botirbek Hasanovning "Qo'lyozmalar institutining qo'lyozma lug'atlari tasnifi" nomli maqolasiga to'xtaladi. Unda bu lug'at "mualliflari, tuzilishi, hajmi, lug'at tuzilishiga sabab bo'lgan omillar, homiylar haqida ma'lumot berilganligi"ni, shuningdek, u bu lug'atlarning "madrasa mudarrisalari va talabalari uchun zaruriy qo'llanma vazifasini ham bajarganligini" ta'kidlagan (38-b.). Badiiy adabiyot sohasida Muhammad Hoksorning "Muntahab-ul lug'at" asarini keltiradiki, uning muallifi o'zidan oldin yaratilgan lug'atlardan unumli foydalanganligi bilan boshqa lug'atlardan farq qiladi.

Yana bir misol e'tiborni tortadi: Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" tazkirasida Asomiddin Ibrohimning "o'ta darajada ilmi olimlardan edi" degan tavsifini va uning bir shoirning arab tilida yozgan ruboiysiga shomgacha bir risola yaratganini, "ruboiyning har bir misrasi bobida 650 ma'no aytganlar" degan fikrini keltiradi. Olima ilmi sharh va ilmi g'ariba usullarining "madrasalar ta'limida falsafiy-diniy, adabiy asarlar mazmunini sharhlashdagi o'rni"ni belgilab beruvchi 12 ta xulosa chiqaradiki, bu M.Tursunovanning o'ziga xos tadqiqot usulining mohiyatini namoyon qiladi.

Monografiyaning 3-qismi "Ilmi tahlil, ilmi munozara usuli tarixi" deb ataladi. Bu qism nomidan ham ko'rinib turibdiki, bunda sharhlash usuli bilan namoyon qilingan so'z qatlamlarini tahlil qilish, munozara yo'li bilan matnda aytilmoqchi bo'lgan ma'no aniqlanadi. Muallif shunday deydi: "Tahlil, munozara, birinchidan, talaba nutqini, ya'ni fasohatini oshirsa, ikkinchidan, matnda ko'tarilgan muammoni chuqur idrok etish ko'nikmasini hosil qiladi."

Olima madrasalarda, eng avvalo, g'azal janrining o'qitilishiga e'tibor berilganini ta'kidlab, mumtoz she'riyatga nisbatan qo'llanadigan ilmi badi', ilmi sharh, ilmi g'ariba, ilmi fasohat, ilmi aruz, ilmi sanoyi' kabi fanlarning xususiyatlarini ham ochib beradi. Buning uchun u Alisher Navoiy ijodi namunasi bo'lmish "Qaro ko'zim" g'azali matla'sining 9 ta olim tomonidan qilingan ilmi tahlillarni qiyoslaydi va mumtoz adabiyot asarlarini tushunishda, uni baholashda bosh mezon bo'lmish badiiy san'atning ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, u kichik she'riy janrda katta hikoyat mazmunini ifodalay oladigan "yakpora g'azallar" uchrashi haqida ham ma'lumot beradi. Monografiyaning har bir varag'ida nihoyatda ko'p ma'lumot va dalillarga duch kelamiz. Bular M.Tursunovanning juda ko'p material bilan tanishganini va ularning birortasini qoldirmay taqdim qilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, u badiiy san'at turlarining qay biri qanday adabiy janrda qo'llanishini ham aniqlagan. Masalan, irsoli masal san'ati diniy-talimiy asarlarda, tahlil san'ati shaxslar bilan bog'liq voqealar tasvirida, husni ta'lil esa ishqiy mavzudagi g'azalarda ko'plab ishlatilganini ta'kidlaydi va ustoz shoirlar ijodiga tazmin bog'lash an'ana bo'lganini, bu birinchidan, ijod yo'liga kirgan talabalarda she'r yozish bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilishga yordam berishini, ikkinchi tomondan, ikki shoir ijodini bir-biriga qiyoslab, baho berish imkonini yaratishini ko'rsatadi. Tahlilning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Bunda matn mohiyatiga kirib boriladi.
2. Ma'no qatlamlarini o'rganish qayta baholashga imkoniyat yaratadi.
3. U yoki bu adabiy janrning yaratilishiga asos bo'lgan sababni oydinlashtiradi.
4. Talqinchi bilan muallif o'rtasida mutanosiblik paydo qiladi.
5. Biror manbada uchramaydigan tarixiy ma'lumotlar, tarjimai hol bilan bog'liq lavhalar, shoirni iztirobga, hayajonga solgan sabablar matn qatlaridan chiqib keladi.
6. Tarixiy ma'lumotlarni g'azalda ifodalangan misra yoki belgiga qiyoslash imkoniyati paydo bo'ladi.
7. Mumtoz adabiyot namunalari arab yozuvida bitilgani tufayli tahlilchidan arab yozuvining barcha "zeru zabarlarini" yaxshi o'zlashtirish talab qilinadi, aks holda tahlil noaniq chiqib, matndagi asl ma'no aniq bo'lmay qolishi mumkin.

Xullas, muallif ilmiy tahlilni har tomonlama izohlab, bu bo'lim oxirida uch banddan iborat xulosa beradiki, bu fikrlardan kelib chiqadigan tavsiyalarni nafaqat madrasalar ta'limida, balki zamonaviy adabiyot o'qitilishida ham qo'llash mumkin.

Ushbu monografiyaning to'rtinchi qismi "Ilmi balog'at va fasohat ibratidir" deb nomlanadi. Bunda, eng avvalo, balog'at va fasohat tushunchalariga izoh beriladi. Fasohat - bu "so'zning ochiq, ravshan, ravon, yoqimli, qoidaga muvofiq bo'lishi, uslubning chiroyliligi" deb, "Navoiy asarlari lug'ati" dan olingan izohni keltiradi (72-b.). "Ilmi balog'at esa so'zni ixcham, go'zal va mazmundor qilib ifodalash, badiiy ifoda, maqsadni go'zal iboralar bilan anglatish sirlarini o'rgatadi" (73-b.) So'ngra nutqning bu xususiyatlari aks etgan asarlar tahliliga to'xtaladi. Jumladan, az-Zamaxshariyning "Asos ul-balog'a" ("Balog'at asoslari"), Abu Nasr Forobiyning "Ixso ul-ulum" ("Ilmlarning kelib chiqishi"), Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" Ulfat Mahkamovning "Axloq-odob saboqlari", Abdulla Qodiriy kabilarning asarlarini keltirib, bu kitoblardagi ibratli fikrlarni ajratib ko'rsatadi. Masalan, "fasohat ilmini egallashda aql, ichki his-tuyg'u, so'z tanlash me'yorini rejalashtirishda ichki ruhiy nutqning ahamiyati kattadir. Tashqi og'zaki nutq ichki nutqning "farmoyishi" bilan nutq madaniyatini, nutq odobini, fikrning chuqur, aniq, to'g'ri, ta'sirli bayonini namoyon etadi." Shuning uchun M.Tursunova madrasalarda quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi : a) so'z ma'nosining sharhiga; b) tahlil etilayotgan asarning mazmun-mohiyatiga; v) tahlil natijalarining og'zaki munozarasiga. U bu ilmlar nafaqat madrasa ilmi toliblari uchun, balki o'sha davr ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynagan notiqlar tayyorlashda ham o'z o'rniga ega bo'lganligini ta'kidlaydi va Xusayn Voiz Koshifiy, uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy, Mavlono Sayid G'iyosiddin kabi mashhur notiqlar haqida ishonarli rivoyatlar keltirib, o'z fikrini isbotlaydi (75-b.).

U madrasalar o'quv dasturlarida, darslik va o'quv qo'llanmalarida so'zlar talaffuziga alohida e'tibor qaratilganligini, "tovushlar buzib yoki chala talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi buzilishiga, ta'sir kuchi yo'qolishiga sabab bo'ladi, shu bois so'zning asl holicha talaffuz qilinishi jiddiy nazorat qilinganligini" ham aniqlaydi va "til, nutq insoniyatni o'tmish va kelajak zamoni bir-biri bilan bog'lovchi rishta ekanligini" madrasada o'qitish usullari misolida bugungi kun bilan bog'lagan holda namoyon qiladi. U madrasalar ta'limini har tomonlama o'rganib, zamonaviy maktablarda qaysi

usullarni qanday shaklda qo'llash mumkinligini ko'rsatuvchi yigirma banddan iborat tavsiyalar beradi. Albatta, o'tmishda yozma va og'zaki muloqot arab, fors tillarida amalga oshirilgan. "Qur'oni Karim" baland ovozdagi qiroat bilan o'qitilgan. Shunday ekan, noto'g'ri va noaniq talaffuz tinglovchi uchun nutqning tushunarli va manzur bo'lishiga putur yetkazadi. Bu esa madrasalar va mudarrislarining obro'sini tushirib yuboradi, bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy hayot rivojiga to'siq bo'ladi. Bunga podshohlar, ulamolalar yo'l qo'ymaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, M.Tursunova madrasada adabiyot o'qitish usullarini o'rganib, o'zi o'qitayotgan talabalari ishtirokida Boborahim Mashrabning "O'rtar" radifli g'azali tahliliga tatbiq qilgan, uning asosida boshqa g'azallarni shunday o'rganish mumkinligini ko'rsatib bergan.

Shu narsa e'tiborga sazovorki, Olima ushbu kitobda hamma ham tushunavermaydigan so'z va birikmalarga izoh berib ketadi. Masalan, maqomat (24-b), haftiyak (31-b.), sharh (34-b.), go'zal (40-b.), mulamma' (42-b.), g'ariba (48-b.), tarse' (51-b.), tardi aks (53-b.), fasohat (72-b.) va boshqalar. Bunday so'zlar monografiyada juda ko'p uchraydi va muallif ularning har biriga izoh berib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, M.Tursunova juda qiyin bir ishni amalga oshirgan. U, bir tomondan, shunday murakkab mavzuni tadqiq qilishga o'zida jur'at topa olgan, ikkinchi tomondan, uni har tomonlama va chuqur tahlil qila olgan, uchinchi tomondan, madrasalarda o'qitish usullarini namoyon qilish orqali muxoliflarning "o'zbeklar savodsiz edi" degan xom xayollarini parokanda qilib tashladi. Bu bilan ajdodlarimizning naqadar chuqur savodli va bilimli bo'lganligini nihoyatda ko'p dalillar bilan namoyon qildi, to'rtinchidan, zamonaviy adabiyot o'qitish jarayonida madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullaridan foydalanish yo'llari bo'yicha tavsiyalar berib, ajdodlarimizning ta'lim olish usullari hamisha zamonaviy va ibratli ekanligini, ularning asarlari bilan tanishish har bir odamda faxr va g'urur tuyg'usini vujudga keltirishini, qanday ajdodlarning davomchilari ekanligimizni anglashga imkoniyat yaratishini isbotlab berdi.

Yaxshisi, har bir odamning asar bilan tanishishi lozim, zero undagi fikr-mulohazalar, tahlil va dalillar o'tmish okeanidan kichik bir zarrasining zamiri bitmas-tuganmas xazina ekanligini namoyon etadi va bu xazinadan foydalanish davri kelganligini ta'kidlaydi hamda mutaxassislarni bu ishni boshlashga chorlaydi.

#### Adabiyotlar

1. Валихужаев Б. Самаркандда Олий таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. – Т.: А Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 2001.
2. Валихужаев Б Олий талим тизими тарихининг теран илдизлари //Маърифат, 2001-йил, 19-декабрь.
3. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Тошкент, Ношир, 2012.
4. Жўмахўжа Нусратилло. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
5. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. -Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
6. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. –Тошкент: Тамаддун, 2012.
7. Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. –Тошкент: Фан, 1994.
8. Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. – Тошкент: Мўмтоз сўз, 2017.



**MUALLIFLAR DIQQATIGA!**

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. *Maqolada quyidagi bandlar:* UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma‘lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

**MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!**

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA  
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

**MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:**

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib  
Musahhih  
Texnik muharrir

**X.Sh.Tashpulatov**  
**O.Ro'ziboyev**  
**S.D.Aronbayev**

**Muharrirlar:**

<b>E. U. Arziqulov</b>	- f.-m.f.n., dotsent
<b>O. R. Raxmatullayev</b>	- geogr.f.n., dotsent
<b>B. S. G'oyibov</b>	- t.f.n., dotsent
<b>I.Sulaymonov</b>	- f.f.n., dotsent
<b>A.I.Inatov</b>	

**Mas'ul muharrirlar:**

<b>D. M. Aronbayev</b>	- k.f.n., dotsent
<b>A. Sh. Yarmuxamedov</b>	- f.-m.f.n.
<b>R.Toshquvatova</b>	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti  
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.  
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87  
e-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.  
Bosishga 30.08.2019 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.  
Buyurtma raqami 60. Adadi 500 nusxa.

**Manzil:** 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.  
**SamDU bosmaxonasida chop etildi.**